




94
M32



MAXKAMOVA N.R.,
BABADJANOV X.B.

O'ZBEKISTON TARIXI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATISIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

N.R.MAXKAMOVA, X.B.BABADJANOV

O‘ZBEKISTON TARIXI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

AKT yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun.

TOSHKENT – 2020

UO'K: 94(575.1)(075)
KBK: 633(5ŷ36)

N.R.Maxkamova, X.B.Babadjanov. O'zbekiston tarixi. (O'quv
qo'llanma) – T.: «Aloqachi», 2020. – 240 b.

ISBN 978–9943–5899–7–1

Mazkur o'quv qo'llanma tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq tarzda tayyorlangan. Unda eng qadimgi davrdan boshlab, bugungi kunga qadar O'zbekiston tarixidan o'rin olgan eng muhim voqealar yoritilgan. Qo'llanmadan aloqa va kommunikatsiya rivojining asosiy bosqichlarini, shuningdek, AKT sohasining mustaqillik davridagi holatini ochib beruvchi materiallar o'rin olgan.

Ushbu o'quv qo'llanma axborot–kommunikatsiyalari texnologiyalari sohasida tahsil oluvchi talabalar uchun “O'zbekiston tarixi” fani bo'yicha mashg'ulotlarda asosiy o'quv materiali sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-uslubiy Kengashining qarori bo'yicha chop etilgan
(2019- yil “25” apreldagi 9(691) - sonli bayonnoma)

UO'K: 94(575.1)(075)
KBK: 633(5ŷ36)

Taqrizchilar:

D.H.Ziyayeva – tarix fanlari doktori, professor, O'zR FA Tarix instituti bo'lim rahbari;

N.A.Mustafayeva– tarix fanlari doktori, O'zR FA Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi;

K.A.Toshev– texnika fanlari nomzodi, dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU ilmiy-ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori


Mas'ul muharrir:

D.A.Alimova– Tarix fanlari doktori, professor, O'zR FA Tarix instituti bo'lim rahbari

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. 2020 - yil

ISBN 978–9943–5899–7–1

© «Aloqachi» nashriyoti, 2020.



KIRISH

Hozirgi dunyoning murakkab tuzilishi sharoitida olam manzarasini tushunishni gumanitar ta'limsiz tasavvur qilish qiyin. Gumanitar fanlar, shu jumladan, O'zbekiston tarixi fani ta'lim tizimining deyarli barcha bosqichlarida o'qitiladi. Lekin maktab, kollej va akademik litsey kurslaridan farqli ravishda Oliy ta'lim tizimida o'rganilayotgan O'zbekiston tarixi kursi o'z oldiga boshqa maqsadlarni qo'yadi. Bu maqsadlar nimalarda namoyon bo'ladi. Avvalo, maktab va o'rta maxsus ta'limdan farqli ravishda oliy ta'limda O'zbekiston tarixini o'qitish fakt va voqealarni yodlab olish emasdir. Oliy ta'limda talabalar tarixiy voqealar tub mazmunini anglash, ularning kelib chiqish sabablari va natijalarini tahlil qilishni o'rganadilar.

Shuningdek, fan o'z oldiga talabalarning siyosiy dunyoqarashini shakllantirish va zamonaviy g'oyaviy tahdidlarni to'g'ri anglash ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Bular barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy funksiyasi ekanligini ham ta'kidlash zarur. XXI asrda yoshlarimizga internet va turli aloqa manbalari vositasida g'oyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'lgan intilishlar kuchayib bormoqda. O'zbekiston tarixida keltirilgan buyuk ma'naviy-madaniy merosimiz, ota-bobolarimizning tarixda muhrlangan fazilatlari, allomalarimiz dunyo ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ko'rsatib berish bilan talabalarga mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarini yangi bosqichga ko'tariladi.

Bugun mustaqil taraqqiyot yo'lidagi islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Bu jarayonda yuqorida e'tirof etilayotganidek, O'zbekistonda kuchli huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurish ko'p jihatdan yoshlarning ma'naviy dunyosi va kasb mahoratiga bog'liq. Yoshlarda milliy g'oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog'lom g'ururni uyg'otishda, ularni Vatan, xalq va istiqloq taqdiri uchun faol kurashchi, komil inson qilib tarbiyalashda "O'zbekiston tarixi" fanining ahamiyati beqiyos.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlangan va 2017- yil 24- avgustda TATU Gumanitar fanlar kafedrasida tasdiqlandan o'quv dasturi asosida ishlab chiqilib, e'tiboringizga havola etilmoqda. Unda AKT sohasida bakalavr-talabalarini tayyorlash bo'yicha talablar inobatga olingan.

Hozirgi kunda aloqa va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanganlik darajasi butun mamlakat turli sohalari rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. 2018- yil 9- yanvarda mamlakatimizda AKT sohasi rivojlanishiga bag'ishlangan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev AKT sohasida har tomonlama bilimli mutaxassislar tayyorlashga alohida urg'u berdi. Shu ma'noda, har tomonlama bilimli mutaxassisni "O'zbekiston tarixi" fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shuningdek, ushbu qo'llanma sirtqi ta'lim shakli talabalari, mustaqil ta'limni tashkil etishda hamda barcha "O'zbekiston tarixi"ni o'rganish uchun qiziquvchilariga ham mo'ljallangan.

1- MAVZU. “O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINING PREDMETI. FANNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA MANBALARI

Asosiy tushuncha va iboralar: tarix fani; metodologiya; fan predmeti; tarix fani funksiyalari; metodologik yondashuv; tarixiylik va ijtimoiy yondashuv prinsipi.

1.1. O‘zbekiston tarixi fani predmeti. Fanning nazariy-uslubiy asoslari

O‘zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa, butun jahon xalqlari tarixi bilan chambarchas bog‘langan. Qadim zamonlardan buyon O‘zbekistonimiz Markaziy Osiyo mintaqasidagi ko‘pgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo‘lib kelgan. Bu jihatdan doimo o‘zaro ta’sirda va aloqada bo‘lganlar, qo‘shilish jarayonini boshidan kechirganlar, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog‘liq o‘tgan. Shu sababdan O‘zbekiston tarixini qo‘shni mamlakatlar tarixi bilan bog‘liq holda, bir xalqni ikkinchi bir xalqqa qarama-qarshi qo‘ymagan holda o‘rganish taqozo etiladi.

“O‘zbekiston tarixi” fanining predmeti xalqimizning qadimdan bugungi kunlarga qadar tarixiy yo‘lini, bu yo‘lda kechgan tarixiy jarayonlarni, ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini xolisona o‘rganishdan, tushuntirishdan iborat. Shu jihatdan “O‘zbekiston tarixi” fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

– Ajdodlar hayoti bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan voqealar rivojining mazmun-mohiyatini, sabab va oqibatlarini, asrlar davomida to‘plangan amaliy tajriba va saboqlarni;

– xalqning xalq, millat bo‘lib shakllanish jarayonlarini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini;

– xalqning mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirishi, mustaqillik-yillarida milliy huquqiy, demokratik davlatchilik qurilishi, demokratik-fuqarolik jamiyatini shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish va o‘z o‘rnini topish borasidagi faoliyatini o‘rgatadi.

Tarixiy voqea, hodisalarni o‘rganish, tahlil qilish va yoritishda ularga xolisona, haqqoniy, ilmiy yondashuv muhim metodologik prinsiplardir.

Xolislik qoidasi tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, o'zaro aloqada va munosabatda deb o'rganish darkor.

Tarixni o'rganishda tarixiylik prinsipi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea, hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan, o'sha davr muhitidan, tarixiy rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har bir voqea, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bo'lagi deb qaramoq zarur. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, u birinchidan qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi, uchinchidan uning tarixiy o'rni, mavqei qanday, degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

Tarixni o'rganishda yuqorida qayd etilgan metodologik prinsiplar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, falsafiy tafakkur, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalanish zarur.

1.2. O'zbekiston tarixini davrlashtirish

O'zbekiston tarixini tadqiq etish, o'rganishda uni to'g'ri davrlashtirishning ahamiyati kattadir.

Olimlar o'tmish jarayonini ma'lum bir davrlarga bo'lganlar. Bu davrlar insoniyat tarixida yirik ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq. Xususan, O'zbekiston tarixi 5 davrga bo'lingan. Ular quyidagilardir:

1. Eng qadimgi davr (miloddan avvalgi taxminan million yildan to milodiy IV asr oxirlarigacha).
2. O'rta asrlar davri (V-XIX asr boshlari).
3. Turkiston Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida (XIX asr o'rtalari-XX asr boshlari).
4. O'zbekiston sovetlar hukmronligi davrida (1917-1991- yillar).
5. Mustaqillik davri (1991- yildan boshlab).

Bu davrlarning har biri yana o'ziga xos, kichik davrlarga bo'linadiki, uni mazkur qo'llanmaning mazmuni va mundarijasidan yaqqol ko'rish mumkin.

Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketmaydi, ulardan tarixiy manbalar guvoh bo'lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga – moddiy va yozma manbalarga bo'linadi.

Qadimgi odamlardan bizgacha yetib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlar, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylar, qal'alar, shaharlar, qabrlar, rasmlar va boshqa narsalar moddiy tarixiy manbalar deb ataladi. O'zbekistonimiz hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar, ularning tahliliy xulosalari odamlar hayotini bilishga imkoniyat yaratadi.

Qadimgi davrlardayoq odamlar o'z fikrlarini yozma bayon etish uchun yozuv belgilari ixtiro qilganlar. Savodxon kishilar o'zlari yashab turgan, yoki borib ko'rgan mamlakatlari haqida, ko'rgan-kechirganlarini daraxtlarning po'stlog'iga, toshga, teriga, keyinchalik qogozga yozib qoldirganlar. Xalqlarning hayoti, yuz bergan voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblar mavjud. Yer va qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Podshoh va hokimlarning yozma shakldagi qonunlari va farmonlari saqlanib qolgan. Bular yozma manbalar deyiladi.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi hayotini o'rganishda "Avesto" kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari o'z ifodasini topgan.

Miloddan avvalgi V-II asrlarga oid yunon, xitoy, eron, vizantiya, hindi yozma manbalarida ham O'zbekistonimiz tarixiga oid ma'lumotlar uchraydi.

O'zbek xalqining o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotini o'rganishda Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", M. Qashg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Abu Toxirxo'janing "Samariya", Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Nizomulmulkning "Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" va boshqa nodir kitoblar muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Bizgacha yetib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston

Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Sharq qo‘lyozmalar fondi dunyodagi eng yirik qo‘lyozmalar xazinalaridan biri hisoblanadi. Bu yerda 40 mingdan ziyod qo‘lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosma kitoblar va 10 mingdan ortiq Sharq tillarida yozilgan xujjatlar mavjud. Shuningdek, O‘zbekistonimiz tarixiga oid muhim qo‘lyozma hujjatlar, nodir kitoblar, qimmatli ma’lumotlar horijiy mamlakatlardagi ilm maskanlari, kutubxonalarda saqlanmoqda. Ana shu qo‘lyozma hujjatlar va kitoblarning hozirgi o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi O‘zbekistonimiz tarixini yanada to‘laroq, xolisona yoritilishiga, tariximiz saxifalaridagi “oq” va “qora” dog‘larning barham topishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonimiz tarixini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma’ruza va nutqlari, farmon va farmoyishlari, mustaqillik davrida qabul qilingan qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar muhim nazariy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ajdodlarimiz hayotini, turmush tarzini o‘rganishda arxeologiya (qadimshunoslik), etnografiya (xalqlarni tasvirlash), antropologiya (odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi) va boshqa fanlar ko‘maklashadi.

Tabiiyki, tarix fani o‘tmish merosini yangi avlodlarga to‘laqonli yetkazish bilan ularning ma’naviy tarbiyasiga, komil insonlar bo‘lib yetishuviga o‘z munosib hissasini qo‘shmoqda. Yurtimiz o‘tmishi xalq xotirasi, avlodlar o‘rganib saboq oluvchi hayot maktabidir. Tarix – bu nafaqat o‘tmish, uning tahlili, bugungi kunimiz uchun muhim xulosalar manbai bo‘lib, balki u istiqbolimiz rejasini aniqlashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tarixning tarbiyaviy ahamiyati ham kattadir. O‘zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o‘tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni ma’naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, yurtimiz tarixi “Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o‘rgatadi. O‘zimizning boy o‘tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi”.

Insonda tarixiy xotira o‘z yurti tarixini, o‘z xalqi, ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi. Yaqin o‘tmishda mustamlakachilar, totalitar

tuzum mutasaddilari ko'pgina xalqlarni, jumladan, o'zbek xalqini o'z tarixidan judo qilish, ularni o'z o'tmishiga loqaydlik bilan qaraydigan, nasl-nasabini eslolmaydigan manqurtlarga aylantirish siyosatini yuritdi, amaliyotda esa xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yildi, uning bir necha ming- yillik boy tarixi sohtalashtirildi, uni yoshlarga o'qitish va o'rgatishga izn berilmadi.

O'z o'tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O'tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamoni yaxshi tushunadi, kelajakni to'g'ri tasavvur etadi. O'zbekiston tarixi talaba-o'quvchilarga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini o'rgatadi. Bu o'z navbatida yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri belgilashga ko'maklashadi.

Xalqimizning buyukligi, kuchi, uning boy ma'naviy merosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Ajdodlarimiz yetishtirib bergan o'nlab, yuzlab jahonga mashhur olimu-ulamolar, me'moru-binokorlar, naqqoshlar, zargarlar, hunarmandlar, davlat arboblari, xalq qahramonlari hayoti, dunyoda birinchilar qatorida bunyod etilgan ilm va ta'lim maskanlari faoliyati talaba-o'quvchilar uchun katta ibrat maktabi, tarix sabog'idir. Kelajak uchun intilayotgan yoshlar uchun bu boy ma'naviy meros mustahkam tayanchdir. Uning zaminida tinimsiz va mashaqqatli mehnat, har qanday to'siqlarni yengish, ilmga va ziyoga intilish kabi xislatlar yotadi. Bunday xislatlar O'zbekiston tarixini o'qitish orqali yoshlarga singdiriladi.

Tarixiy xotira, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni egallash talaba-o'quvchilarda halollik, odillik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

Shu boisdan O'zbekiston tarixini har tomonlama, chuqur o'rganish muhim ahamiyatga molik vazifadir. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib Oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida O'zbekiston tarixi fanini o'qitishga davlat darajasiga ko'tarilgan vazifa sifatida katta e'tibor berilmoqda.

Tarixiy xotira, haqiqatni bilish, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosini egallash talabalarda O'zbekistonparvarlik, odillik, xalollik, mehr-oqibat, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi insoniy fazilatlar shakllanishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, tarix bu tafakkur bulog'i. U bizni o'tmish voqealariga ochiq ko'z bilan qarashga, oq-qorani aniqroq ko'rishga, ziyraklik bilan anglashga o'rgatadigan, tarixiy shaxslar faoliyatini, hodisalarni qiyoslash, taqqoslash asosida mustaqil xulosa qilishga da'vat etadi. Shu boisdan tariximizning buyuk murabbiyligini doimo yodda tutaylik, e'tibor va ehtirom bilan o'rganaylik.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tarix fani nimani o'rganadi?
2. Tarix fanining milliy g'oyani shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
3. Tarix fanining tarbiyaviy funksiyasi qanday?
4. "O'zbekiston tarixi" fanining predmetini nimalar tashkil etadi?
5. "Tarixiylik" prinsipi nima?
6. Tarix fanining ma'naviyatni rivojlantirishdagi rolini ko'rsatib bering.
7. O'zbekiston tarixining asosiy davrlari asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. O'zbekiston tarixi fanining asosiy manaballari.

2- MAVZU. MARKAZIY OSIYO – DUNYO SIVILIZATSIYASINING AJRALMAS QISMI

Asosiy tushuncha va iboralar: sivilizatsiya; moddiy manbalar; ibtidoiy jamoa tuzumi; ma`lumot; yozma manbalar; “Avesto”.

2.1. “Sivilizatsiya” tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari

Odamzodda ong paydo bo‘libdiki, o‘z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma’naviy madaniyatiga, ya’ni ma’lum darajadagi sivilizatsiyasiga ega bo‘la boshlagan. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston xalqlari ham qadim zamonlardan beri hayot tarzini takomillashtirar ekan, turli qulayliklar yaratgan, odatlar, rusumlar esa an’anaga aylangan.

“Sivilizatsiya” qanday ma’noni bildiradi? Bu so‘z lotinchadan olingan bo‘lib, u hozirgi zamonda odamning komillikka, yetuklikka intilish mazmunida talqin etiladi, shuningdek, u inson hayoti uchun qulayliklar yaratish jarayonini ifodalovchi tushuncha ham. Adabiyotda bu so‘z “tamaddun” deb ham ataladi, va madaniy hayotga, taraqqiyotga erishuv jarayoni ma’nosida ishlatiladi. Qomusiy kitoblarda sivilizatsiya-jamiyat taraqqiyoti jarayonida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar. Shuningdek, ularni yanada ko‘paytirib va takomillashib borish usullarining majmui deyiladi.

Ibtidoiy jamiyat va uning davrlari insoniyat qadim-qadimdan o‘z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma’naviy madaniyatga ya’ni ma’lum darajadagi sivilizatsiyaga ega bo‘lgan. Davrlar o‘tishi natijasida insoniyat sivilizatsiyasi darajasi o‘sib, rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayon odamlarning mehnat qilish usuli, qanchalik darajada moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish va ko‘paytirib borishi bilan bog‘liq kechgan.

U yoki bu sivilizatsiya haqida so‘z borganda insoniyatning yashash uchun kurashi, tinimsiz mehnati, ma’naviyat va ma’rifatga intilishi tufayli o‘zi uchun yaratgan jismoniy va madaniy qulayliklar, ov va mehnat qurollari, kiyim bosh, uy-joy va oilaviy munosabatlari, ishlab chiqarish usullari, maishiy xizmat vositalari, ijtimoiy ong va ma’naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, axloqiy-huquqiy munosabatlari darajasi asosida tavsiflanadigan ma’lum bir tarixiy davr tushuniladi. Masalan, qadimgi Sharq sivilizatsiyasi, Antik Yevropa sivilizatsiyasi, Islom sivilizatsiyasi, Xristian sivilizatsiyasi hozirgi zamon sivilizatsiyasi kabi

tushunchalarda insoniyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy hayoti, turmush tarzi, ahloqi, bilim saviyasi, mehnat qurollari va hokazo jihatlari mujassamlashgan bo‘ladi.

Har bir mintaqada sivilizatsiya davriy nuqtai nazaridan ertaroq yoki kechroq, o‘ziga xos shaklda shakllanib, rivojlanib borgan. Tarixiy, ilmiy tadqiqotlar bizning O‘zbekistonimiz-O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda.

2.2. O‘zbekiston hududi ibtidoiy jamoa tuzumi davrida

Ibtidoiy jamiyat odamlarning yashash tarzi, jismoniy va aqliy tuzilishi, ular tomonidan yasalgan mehnat qurollarining turi va materialiga ko‘ra bir qancha davrlarga bo‘linadi. Kishilik tarixining ilk bosqichi hisoblangan bu uzoq o‘tmish bir necha million- yillar davom etgan. Bu davrda ming- yilliklar osha ibtidoiy odam nihoyatda sekinlik bilan kamol topib, hozirgi zamon odami qiyofasiga kirgan. Uning mehnat qurollari, asosan, toshdan yasalgani bois odamzod o‘tmishining bu ilk bosqichi fanda "tosh davri" yoki "ibtidoiy to‘da" davri deb yuritildi.

Paleolit. Bu bosqich o‘z navbatida 3 pog‘onaga bo‘linadi. Ilk paleolit, o‘rta paleolit, quyi paleolit.

Ilk paleolit (Ibtidoiy to‘da davrining boshlanish). Bu davr mil. avv. 1- million yildan to 100- mingyilliklarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi O‘zbekiston yerlarining tabiati kishilik tarixini ilk bosqichlaridayoq bu yerlarda ibtidoiy odamzod to‘dalarining yashashi uchun qulay bo‘lgan O‘rta Osiyo hududlarida bundan qariyb 1 million yil muqaddam ibtidoiy odamlar yashagan.

Kishilikning ibtidoiy to‘da bosqichida odamlar tabiiy sharoit taqozosi bilan yirtqich hayvonlar xavfi tufayli to‘da-to‘da bo‘lib yashashga majbur edi. Ov vaqtida yolg‘iz hayvonga ko‘pchilik bo‘lib ov qilganlar. Ibtidoiy to‘da davrida odamlar o‘rtasida oilaviy aloqalar hali aniq tartibga tushmagan. Markaziy Osiyoda yashagan ibtidoiy odamlar fanda sinantron nomi bilan ataladi. Ilk paleolit odamlari ov qilish, terib-termachlab ozuqa topish uchun toshdan, sulkdan, daraxt shoxlaridan turli mehnat qurollari yasaganlar. Shu tufayli ular “Homohobilis” – “bilag‘on odam” deyiladi.

O‘zbekiston hududida ilk paleolit davri odamlari yashagan manzilgohlar Farg‘ona vodiysining So‘x tumanidagi Selung‘ur g‘oridan va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko‘lbuloq makonidan topilgan va o‘rganilgan. Bu davr ibtidoiy odamlarining

suyak qoldiqlari (bosh suyagining bir bo‘lagi, yelka suyagi va o‘ndan ortiq tishlari) arxeolog O‘. Aslonov tomonidan Selung‘ur g‘oridan topilgan. Fanda unga “Fergantron” (“Farg‘ona odami”) shartli nom berilgan. Selung‘urdagi topilmalar va ularni o‘rganish yer yuzida odamzodning paydo bo‘lish muammosi yechimiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘ldi. Endilikda Markaziy Osiyo ibtidoiy odamzod ilk paydo bo‘lgan joylar qatoriga kiritildi.

Arxeolog M. Qosimov rahbarligida Ko‘lbuloq makoni tadqiq etilib, uning ashel davriga oid 22 ta, mustye davriga oid 24 ta qatlam o‘rganildi. Ko‘lbuloq topilmalari (tosh qurollar, hayvon va parranda suyaklari, o‘simlik qoldiqlari va x.k.) ibtidoiy odam to‘dalarining mashaqqatli hayoti, tosh qurollar yasash texnikasi bu yerlarning tabiati hamda ibtidoiy ovchi va termogilarning turmushda sodir bo‘lgan tadrijiy siljishlarni aniqlash imkonini berdi.

Shunday qilib, qadimgi odamlarning mashg‘ulotlari terib ozuqa topish, hayvonlarni ovlash, tosh qurollar yasash va ularni mukammallashtirishdan iborat bo‘lgan. Mana shundan mehnat jarayonida odamlarning o‘zlari ham o‘zgarib, takomillashib borgan.

O‘rta paleolit (m.av. 100- mingyillik – 40- mingyilliklar) Ibtidoiy to‘da davrining so‘ngi bosqichi arxeologiya fani davriy tizimida Mustye madaniyati deb yuritiladi. Bu davrda yashagan ajdodlar esa ibtidoiy odam shajarasida neandertal nomi bilan fanga kiritilgan. Hozirgi vaqtda O‘rta Osiyoda neandertal zamondoshlari yashagan makonlar 90 dan ortiq joyda uchratilgan. Toshkent viloyatida Obirahmat g‘ori, Xo‘jakent, Poltov, Ko‘lbuloq makoni, Samarqand viloyatida Omonqo‘ton g‘ori, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq, Novoiy viloyatida Uchtutda topilgan va tadqiq qilingan.

Teshiktosh g‘oridan topilgan neandertal odamning suyak qoldiqlari fan olamida jiddiy kashfiyot bo‘ldi. Odam suyaklari atrofiga terib chiqilgan arxar va Buxoro bug‘usi shoxlarining topilishi odamni dafn qilish marosimining ibtidoiy ko‘rinishlari bilan bog‘liq.

Xullas, O‘rta paleolit davrida odamlar olov chiqarishni, gulxanlar yoqib, sovuqdan va xavf-xatardan saqlanishni, go‘shni o‘tda pishirib iste‘mol qilishni bilib olganlar. Dastlabki diniy e‘tiqod paydo bo‘lgan.

So‘nggi paleolit. Mil.avv. 40- mingyildan to 12- mingyilliklargacha davom etgan. Bu davrda hozirgi zamon odami (kromanyon) shakllandi. O‘sha davr odamlari fanda “Homo-sapines” – idrokli odam deb nomlangan. Mehnat qurollari takomillashdi, tosh bilan

birga suyak va yog'ochdan ham foydalanildi. Odamlar bu davrda faqat g'orlarda emas, balki tekisliklarda ham makon qura boshlaganlar.

Ona tomonidan urug'doshlik mustahkamlanib matreaxat paydo bo'ldi. Tasviriy va amaliy san'atning ibtidosi ham o'sha davrdan boshlandi. Hozirgi kunda O'rta Osiyoda bu davrga mansub 30dan ortiq yodgorliklar topib o'rganilgan. Ular orasida ayniqsa Samarqand makoni, Toshkent viloyatida Oqtosh makoni va Ko'lbuloq topilmalari muhim.

So'nggi paleolit bosqichida muzlik davri tugab, iqlim issiqlash boshladi. O'simlik va hayvonot dunyosi ham asta-sekin hozirgi qiyofaga kirdi.

Mezolit – o'rta tosh davr (mil.av. 12-7- mingyilliklar) ham deyiladi. Mezolitda o'q-yoy kashf etilgan va bu o'sha davr odamlari hayotida buyuk burilish bo'ldi, chunki ovdan keladigan oziq-ovqat hajmi ortdi. Tosh qurollar va ularni yasash takomillashdi, hayvonlarni qo'lga o'rgatish boshlandi. Mezolit davrida g'orlar devoriga o'yib chizilgan yoki rangli bo'yoqlar bilan tasvirlangan ibtidoiy san'at paydo bo'ldi.

O'zbekistonda shu davr manzilgohlari ichida Obishir g'ori xilma-xil mayda tosh qurollari bilan ajralib turadi. Bu davrga oid bir qancha yodgorliklar Toshkent atrofida Qo'shilish (Bo'zsuv yoqasida), Surxandaryoda Machay g'orida o'rganildi.

Neolit – yangi tosh davri (mil.avv. 6-4- mingyillik)dir. Neolit odamlari tosh qurollarni yasashda yangi usullar – silliqlash, parmalash, arralash usullarini ixtiro etadilar. Bu davrda mikrolit qurollar yasash takomillashdi. Ovchi jamoalar endilikda yerto'la, chayla yoki kapalar qurib ba'zan guvalalardan kulbalar bino qilib, o'troq hayot kechirishga o'tadilar. Bu joylarda neolit davrining ilk qishloqlari qad ko'targan. O'troq turmush tarzining qaror topishi bilan dehqonchilik va chorvachilik vujudga keldi. Kulolchilik kashf qilindi. Jundan ip yigirish, mato to'qish va tikuvchilik ixtiro qilindi.

Mil. av. 4-3- mingyillikda hozirgi O'zbekiston hududida (Xorazm va Buxoro vohasi) Kaltaminor madaniyatiga mansub ovchi va baliqchilar yashagan. Bu madaniyatning eng nodir va muhim yodgorligi Jonbosqal'a IV makoni va Tolstov manzilgohlaridir.

Eneolit – mil.avv. 4-3 mingyilliklarda tosh davri tugab, eneolit (mis tosh) davri boshlandi. Bu davrda tosh bilan birga, metaldan, ya'ni dastavval misdan qurol yasashga o'tildi. Biroq mis tarkiban yumshoq va mo'rt metall bo'lgani sababli mehnat va ov qurollarining aksariyati hamon toshdan ishlanar edi. Bu davr arxeologik yodgorliklari Zarafshon

quyi oqimida "Kaptarning qumi", shuningdek, Nomozgohtepa (Turkmaniston) kabilarda o'rganilgan.

Bronza davri. Bu davr O'zbekiston yerlarida mil.av. 3- mingyillik oxiri – 2- mingyillikka to'g'ri keladi. Mis, qalay va qo'rg'oshin qorishmasidan bronza (jez) kashf etildi. Natijada mehnat qurollarining turi ko'paydi, Bronzadan keskin tig'li qurol yarog'lar, ro'zg'or va kosmetika (pardozi) buyumlari, ma'budalar, naqshdor muhrlar yasala boshlandi. Ot, eshak, tuya va xo'kizdan transport vositasi sifatida foydalanildi, hayvonlarga qo'shiladigan aravalar vujudga keldi va g'ildirak kashf etildi. Birinchi mehnat taqsimoti dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqdi. Bronza davri manzilgohlari Sopolitepa, Sarazm, Zomonbobo kabilardir.

Temir davri. Temir davri yodgorliklari O'zbekiston yerlarida mil.avv. IX-VI asrlar va undan keyingi davrlarga oid. Ular Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Choch yerlarida va Farg'ona vodiysida o'rganilgan. Temirdan xo'jalik hamda qurol yarog'lar yasashda keng ko'lamda foydalanila boshlandi. Dehqonchilik maydonlari kengaydi va sug'orish inshootlari qurish rivojlandi. Chorvachilik ham o'sdi. Bu davrga kelib hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Mehnat unumdorligi o'sishi bilan qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarila boshlandi. Bu esa ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishiga olib keldi. Temir va po'latdan yasalgan buyumlardan keng miqyosda foydalanish qishloqlar taraqqiyotiga ham samarali ta'sir ko'rsatdi.

Qishloqlar murakkab mudofaa inshootli qal'alarga aylantirib mustahkamlandi. Bindixontepa, Kuchuktepa, Qiziltepa, Talashqontepa va boshqa yodgorliklar shular jumlasidandir. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, O'zbekiston qadimgi shahar sivilizatsiyasi ilk bor shakllangan hududga kiradi. Bunga Sopolitepa va Jarqo'ton topilmalari misol bo'la oladi.

Dastlabki sivilizatsiya ma'lum darajada til va yozuvlar bilan bog'liq. Yozuv madaniyatining eng qadimgi o'choqlari Misr, Mesopotamiya, Old Osiyodir. Markaziy Osiyoda ham yozuv mil.avv. I-mingyilliklarda paydo bo'lgan. Yozuv yaratish harakatlarining dastlabki qadamlarini xalqamizdagi qoyatoshlarga ishlangan ajoyib suratlarda ko'ramiz. Bundan 2,5 mingyil avval yurtimiz xalqlari ilk bor chizma belgilarda nutq tovushini ifodalovchi (fonetik) yozuv tajribasini yarata boshlagan. Bu harakat axmoniy davrida ma'lum bir yozuvga aylangan. Mutaxassis olimlar mil. av. V-III asrlarda oramiy yozuvlari tajribasi asosida So'g'd, Xorazm, Baxtar, Parfiya kabi o'lkalarda

mahalliy tillarni ifodalashga mo'ljallangan yangi yozuvlar yaratildi, deb ta'kidlaydilar. Bular fonetik ifoda jihatdan oromiydan farq qiluvchi mustaqil yozuv tizimlari bo'lgan. Mil. avv. IV-III asrlarda, shuningdek, Yunon imlosi ham ishlatilgan. Ajdodlarimiz turkiy-run (Urxun-Enasoy), uyg'ur, so'g'd yozuvlarini qo'llaganlar.

2.3. "Avesto" – O'zbekiston tarixi bo'yicha eng qadimgi manba sifatida

Qadimda o'lkamizda yashagan aholining ma'naviy va madaniy qiyofasi mashhur "Avesto" mazmunida o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, bu muqaddas kitob Markaziy Osiyo xalqlari to'g'risidagi dastlabki noyob manbadir. "Avesto" avval xalq og'zaki ijodi shaklida tarqalgan va bir necha asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib, qadimgi Turon, Xuroson, Eron, Ozarbayjon elatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, olam haqidagi tasavvurlarini va diniy qarashlarini o'zida aks ettirgan. Bu asar ko'p yillar davomida zardushtiylik-otashparastlik dinining ulamo qoxinlari tomonidan to'ldirilib, takomillashtirilgan. Abu Rayxon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida ta'kidlanishicha, "Avesto" ilk bor mil. av. VI asr boshlarida to'liq holda 12 ming qoramol (ho'kiz) terisiga zarxal harflar bilan bitilgan.

Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) Sharqni zabt etganda "Avesto"ning nodir nushasidan o'ziga ma'qul bo'lgan joylarini tarjima qildirib olib qolgan, boshqa qismini esa yoqtirib yuborgan. Shu sabab, bu qomusiy asarning 5 dan 3 qismi yoqib yuborilgan. Keyinchalik milodiy I-IV asrlarda "Avesto"ning qolgan qismlari jamlanib, ayrim joylari qayta tiklanib, yangidan kitob holiga keltirilgan. Bizga qadar "Avesto"ning ayrim qismlarigina yetib kelgan. Bular:

"Yasna" – ibodat paytida ijro etiladigan matnlar;

"Yasht" – otashparastlarning tangrini ta'riflash madhiyalari;

"Vendidot" – zardushtiylikda zulm timsoli bo'lgan devlarga qarshi qonunlar va afsonalar;

"Visparat" – ibodat yo'sinlari va mazmuni haqida ma'lumotlardir.

"Avesto" katta hajmda bo'lganligi sabab, dindorlarning kundalik faoliyatida foydalanishi uchun kichik "Avesto" ham yaratilgan. Unga katta "Avesto"dan tanlab olingan duolar kiritilgan. Demak, "Avesto"da zardushtiylik dinining qonun-qoidalari, ibodat vaqtida ijro etiladigan qo'shiqlari bitilgan.

"Avesto" ta'limotining asoschisi tarixda payg'ambar nomi bilan tanilgan Zardushtra (Zardust) ismli shaxs bo'lgan. Zardushtra-oltin tuyali yoki oltin tuya yetaklovchisi degan ma'noda ishlatilgan.

Zardushtra otashparastlik g'oyalarini o'z hamfikrlari bilan birgalikda Katta Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Eron, Ozarbayjon qisman Hindiston aholisi o'rtasida targ'ib etgan. Beruniy keltirgan rivoyatga ko'ra, Baqtriya podshosi Vishtasp va malika Xutaosa birinchilardan bo'lib zardushtiylik e'tiqodini qabul etganlar, so'ng bu din keng yoyilgan.

“Avesto”da dunyo ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashidan iborat, ezgulik xudosi Axuramazda (Xurmuzd) yovuzlik tangrisi Axriman ustidan g'alaba qozonishi bayon etilgan. Zardushtiylik dinida olov muqaddaslashtirilib, u insonning baxtu-saodati ramzi sifatida ulug'langan. Zardushtiylik jamiyatda barcha odamlar tanasining rangidan, tili, urf-odatlar va yashagan joylaridan qat'i nazar, osoyishtalik bilan yorqin hayot kechirishga haqlidir, deb hisoblaydi. Bu din odamlarni jur'atli, dovyurak, yetuk insonlar bo'lishga da'vat etadi. Otashparastlikda zamin (yer), suv, quyosh va xavo ilohiyat darajasiga ko'tariladi va ularni ifloslash og'ir gunoh hisoblanadi.

Kitobda aytilishicha, Zardusht odamlarga murojaat qilib, yerga, tuproqqa sifatli urug'lar sepinglar, pirovard natijada o'zlaringiz har xil illatlardan va balolardan holi bo'lasizlar. Bilib qo'yinglar, ishlov berilmagan tashlandiq yerlarda turli kasalliklar, iflos narsalar va baloqazolar paydo bo'ladi. Demak, sizlar yerga ishlov berib, unga yaxshi urug' sepib, tuproqni e'zozlasangiz har xil balolardan qutulasiz, hayotga, insonga ishonchingiz kuchayadi, yashagan joyingizga, O'zbekistoningizga mehringiz oshadi, deydi. Ko'rib turibmizki, zardushtiylikda tabiatga ehtirom asosiy yo'nalish bo'lgan. Zardushtiylik diniga oid turli buyumlar, rasmlar, urf-odat asoratlari qadimgi Xorazm, So'g'd va boshqa o'lkalarda ko'plab topilgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, “Avesto” yaratilgan hudud Amudaryo sohili, aniqrog'i qadimgi Xorazmdir. Bu asarda olingan 16 ta yirik hududiy-geografik nomlarning ko'pchiligi O'rta Osiyoga taalluqlidir. Bular Xorazm, So'g'd, Baqtriya yurtlari, Hisor, Pomir, Tiyanshan tog'lari, Kaspiy, Orol, Issiqko'l suv xavzalari, Amudaryo va Sirdaryolardir.

“Avesto” jahon olimlari tan olgan nodir madaniy yodgorlik va noyob tarixiy manbadir. U dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Kitob fransuz, ingliz, rus, nemis, fors va boshqa tillarda chop etilgan. Asarning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham 1999- yil noyabrda YUNESKO bosh konferensiyasi “Avesto” yaratilganligining 2700- yilligini dunyo miqyosida keng

nishonlashga qaror qildi, 2001- yil oktabrida Xorazm zaminida “Avesto” va uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi.

Ma’lumki, qadimgi zamon moddiy va ma’naviy taraqqiyoti fanda antik, ya’ni, qadimgi sivilizatsiya deb ataladi Jahonning turli mintaqalarida vujudga kelgan bunyodkorlik va taraqqiyot bora-bora umuminsoniy qadriyatlarga, madaniyatga, sivilizatsiyaga aylandi. O‘zbekiston esa insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Demak, o‘lkamizda yashab o‘tgan qadimgi odamlar jahon ravnaqiga, uning bugungi rivojiga o‘zining munosib hissalarini qo‘shganlar. Shu bois bugungi mustaqil O‘zbekiston xalqlarida milliy g‘urur bilan birga taraqqiyotga, sivilizatsiyaga intilish hissi kattadir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. “Sivilizatsiya” tushunchasining mazmuni.
2. Olimlar sivilizatsiyalarning qanday turlarini ajratadilar?
3. Ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy davrlari sanab bering.
4. Odam evolutsiyasi haqida nimalar bilasiz.
5. Dastlabki ma’lumot almashinuvi qanday amalga oshirilgan?
6. O‘rta Osiyodagi dastlabki yozma manbalar tasnifini bering.
7. “Avesto” – O‘zbekiston tarixi sifatida ahamiyatini korsatib bering.
8. “Avesto”da yaxshilik va yomonlik o‘rtasida kurash nimalarda namoyon bo‘ladi?

3- MAVZU. O‘ZBEK DAVLATCHILINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Asosiy tushuncha va iboralar: davlat; davlat tuzilmalari; podsholik; harbiy demokratiya; aloqa vositalari; pochta; ellinizm; konfederasiya; teokratik davlat.

3.1. O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi davlatlar (Qadimgi Baqiriya podsholigi, Katta Xorazm)

“Avesto” hamda yunon mualliflarining guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O‘zbekiston hududida So‘g‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud So‘g‘da (“Avesto”da), Suquda (Behistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kursiy Ruf asarlarida esa So‘g‘diyona deb nomlangan.

Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan o‘troq dehqon elatlari xorazmliklar bo‘lgan. Ularning yurti Xvarizam (“Avesto”da), Xvarazmish (Bexistun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan.

So‘g‘diylarning eng yaqin qo‘shnilari baqtriyaliklar bo‘lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg‘onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u Baxdi (“Avesto”da), Baqtrish (Bexistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflari uni Baqtriana yoki Baqtriya deb ataganlar.

Amudaryo bo‘ylarida ko‘chmanchi massaget qabilalari yashaganlar. Markaziy Osiyoning tog‘lik, cho‘l va sahro yerlarida asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan saklar istiqomat qilishgan. Miloddan avvalgi VI asrda ular o‘z yerlarini turli qabilalar hujumidan ximoya qilish uchun harbiy-ittifoq tuzadilar.

Qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch ijtimoiy guruhga bo‘lingan. Ularning ko‘pchilik qismi saka-tigra-xauda, ya’ni o‘tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog‘iston yerlarida yashaganlar. Ikkinchi guruh saka-tiay-darayya, ya’ni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi bo‘ylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar. Pomirning toqli tumanlarida va Farg‘onada saka-xaumovarka deb ataluvchi saklar yashaganlar.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda yuqorida ko‘rsatilgan o‘lkalarda yashovchi aholi ilk davlat uyushmalarini tashkil etganlar. Bu davlat

uyushmalari o'zining ma'lum hududi, chegaralariga ega bo'lib, iqtisodiy-geografik makon-katta bir viloyat sifatida shakllanib borgan. Bu davrlarda Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, Farg'ona kabi viloyatlar mavjud edi. Ahamoniylar bosqiniga qadar o'lkaning asosiy qismini birlashtirib turuvchi siyosiy markaz shimolda Xorazm, janubda Baqtriya hisoblangan.

“Katta Xorazm” davlat uyushmasi ittifoqi hududi hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki uning atroflari – hozirgi Qoraqalpog'iston, Marv hamda Amudaryoning quyi oqimigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Yunon tarixchisi Gerodot ma'lumotiga ko'ra, qadimda Oks (Amudaryo) bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy kanallar, suv inshootlari mavjud bo'lgan. Dehqonchilikda dukkakli ekinlar, meva-sabzavot yetishtirishga e'tibor ko'p bo'lgan. Paxtachilik rivoj topa boshlagan. Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Janbosqal'a kabi shaharlar barpo etilgan. Qurilishda paxsa, xom qisht ishlatilgan.

Davlatni mustahkamlash maqsadida poytaxt va boshqa shaharlar qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan edi. Ichki va tashqi savdo-sotiq yuksak darajada rivojlandi. Hunarmandchilik sohalari, tog'-kon ishlari rivoj topadi. Chorvachilikda ot, tuya, qo'y-echkilar boqishga e'tibor kuchayadi. Tabiiyki, bu jarayonda dastlabki davlat tizimining uyushtiruvchilik o'rni o'sib borgan. “Avesto”da ta'kidlanishicha, Xorazmning dastlabki sulolasi Siyovushiylar bo'lgan.

Xorazm davlati miloddan avvalgi VI asrgacha o'z mustaqilligini saqlab qola olgan. Xorazmning mustaqil davlat sifatida saqlanib qolishiga uning mukammal harbiy bazasi sabab bo'lgan. Harbiy qism mustahkam otliq va piyoda askarlardan iborat bo'lib, yaxshi qurollangan va qattiq itizomga rioya qilgan edilar.

Markaziy Osiyodagi yana bir qadimgi davlat uyushmasi Baqtriya bo'lgan. Bu davlatning hozirgi Surxondaryo, qisman Qashqadaryo viloyatlari, janubiy Tojikiston va shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashganligi ma'lum. Uning poytaxti Baqtro (hozirgi Balx) shahri, podshohlaridan biri Oqslart ismli shaxs bo'lgan. Gerodot Baqtriyani Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga oladi. Qadimgi Baqtriya tabiiy boyliklari tufayli Xitoy, Hindiston, Misr, Bobilga qadar mashxur bo'lgan. Masalan, Badaxshon lojuvardi (lazuriti) boshqa yurtlarda ham qadrlangan. “Avesto”da Baqtriya eng go'zal o'lkalardan biri sifatida ta'riflanadi. Unga qarashli Vaxsh vodiysi unumdor bo'lib, dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan. Hunarmandchilik ayniqsa zargarlik keng rivojlangan edi.

Eronda saroy tabibi bo‘lib ishlagan yunon tarixchisi Ktesiyning yozishicha, Baqtriya miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda qudratli davlat bo‘lgan. Bu davlat bir qancha mahalliy hokimliklarni birlashtirgan harbiy demokratiya tipidagi davlat edi. Baqtriya hukmdorlari oltin va kumush tangalar zarb etganlar. “Baqtriya” nomi Esxilning eramizgacha bo‘lgan 472- yili sahnaga qo‘yilgan “Forslar” tragediyasida ham uchraydi. Ko‘plab mualliflar baqtriyaliklarga “ko‘p sonli”, “jangavor” va “botir” xalq sifatida tavsif beradilar. Mamlakatda mustahkamligi sababli “zabt etib bo‘lmaydigan” ko‘plab joylar, shu jumladan, poytaxt Baqtra (Balx) bor edi, deb hisoblaganlar.

3.2. O‘rta Osiyo Ahmoniylar saltanati tarkibida.

Ahamoniylar davrida pochta xizmati va kommunikatsiyalarning rivojlanishi

Mil. av. VI asr boshlarida vujudga kelib kuchayib borgan ahmoniylar davlati atrofidagi bir qancha hududlarni bosib oladi va bu sulola Eronda yirik saltanat barpo etadi. So‘ng ular 545- yildan boshlab O‘rta Osiyoga bir necha bor harbiy yurishlar qiladi, lekin massagetlarning qarshiligiga duch keladi. Ahmoniylar podshosi Kir II ning qo‘shinlari Markaziy Osiyoga qilgan ikkinchi yurishida ham mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchraydilar. Mil. avv. 530- yilda Kir II massagetlar ustiga yangi yurish qilganda bosqinchilarga qarshi kurashga malika To‘maris boshchilik qiladi. Bu janglarda ahmoniylar katta talofot ko‘radi, Kir II esa o‘ldiriladi.

Miloddan avvalgi 522- yilda Eronda hokimiyat tepasiga kelgan Doro I ga qarshi Marg‘iyonada keng xalq ommasi Frada boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘taradi. Ammo u shafqatsizlik bilan bostiriladi. Bunday harakatlar keyingi davrlarda ham davom etib, mil.av 519-518- yillarda Doro I Markaziy Osiyodagi sak qabilalari ustiga yurish qiladi. Bu janglarda mahalliy aholining ko‘pchiligi o‘ldirilib, bir qismi asir olinadi. Saklarning bosqinchilarga qarshi kurashida otboqar Shiroq kabi mardonavor O‘zbekistonparvarlar jonbozlik qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, uzoq yillar davomidagi ahmoniylarning O‘rta Osiyo hududiga harbiy yurishlari natijasida bu o‘lka katta Eron imperiyasi tarkibiga qo‘shib olindi. Ahmoniylar yurtimizda deyarli 200 yil mobaynida hukmronlik qildilar. O‘sha paytlarda O‘rta Osiyo to‘rt satraplikka (viloyatga) bo‘lindi-Eron amaldorlari boshliq etib tayinlandi. Mahalliy aholi ahmoniylarga katta miqdorda kumush hisobidan soliq to‘lar edi. Shuningdek, soliq sifatida qimmatbaho toshlar, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari ham Eron podsholariga "sovg‘a" etilar edi.

3.3. O‘rta Osiyo hududining Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinishi. Antik davlatlar

Mil.avv. IV asrda qadimgi dunyo tarixida bir qancha siyosiy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Bu davrda makedoniyaliklar ahmoniyalarga qaqshatgich zarba beradi. Mil.av. 336- yilda Makedoniya taxtiga Filippning o‘g‘li 20 yoshli Iskandar o‘tirdi va dunyoni zabt etishni davom ettirdi. Natijada mil.av. 329- yilning bahorida uning qo‘shinlari Amudaryo bo‘ylariga yetib keldi va O‘rta Osiyoni istilo etishga kirishdi. Amudaryodan suzib o‘tgan yunon-makedon qo‘shinlari dastlab Navtaka viloyatiga, so‘ng So‘g‘diyoning poytaxti Maroqanda shahriga yo‘l oladilar. Lekin bu yerda bosqinchilarning harbiy yurishlari og‘ir kechdi. So‘g‘dlar o‘z yerlarining ozodligi va mustaqilligini mardonavor ximoya qildilar. Bu yunon-makedon qo‘shinlariga qarshi kurashning birinchi bosqichi edi.

Baqtriya va So‘g‘diyoning barcha joylarida Iskandarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari ko‘tariladi. Miloddan avvalgi 329- yilning ko‘zida boshlangan bu qo‘zg‘olonlarga mahalliy sarkardalardan bo‘lgan Spitamen boshchilik qildi. Samarqandda Iskandar qoldirib ketgan harbiy garnizonni qirib tashlab, shaharni egalladi.

Natijada Iskandar Zarafshon aholisidan qattiq o‘ch olish niyatida o‘z qo‘shinlari zarbasini tinch aholiga qaratdi. So‘g‘diyona, Baqtriya o‘lkasida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo‘lishga qaratilgan bo‘lib Iskandarning “varvarlarni” osonlikcha bosib olmoqchi bo‘lganini chippakka chiqardi. Lekin harbiy kuch-qudrat jihatidan Iskandar qo‘shini ustun edi. Uzoq vaqt shafqatsiz davom etgan janglarda yunonlar g‘alaba qozondi. Spitamenning halokati bilan yunon-makedon bosqinchilariga qarshi ozodlik harakati to‘xtab qolmadi. Harakatning ikkinchi bosqichi yakunlandi, xolos. Bosqinchilar uchun So‘g‘diyoadagi ahvol xavfli bo‘lib qolaverdi.

Ularga qarshi harakatning uchinchi bosqichida qo‘zg‘olonchilar mahalliy zodagonlar boshchiligida toq qal’alarida kurashni davom ettirdilar. Yunon askarlari anchagina toliqqan, charchagan edi. Bundan epchillik bilan foydalangan “Qadimiy Xorazm” podshoh Farasman vaziyatga qarab murosa qiluvni afzal ko‘rdi. Iskandar Zulqarnayn Baqtriya So‘g‘diyonani zabt etganda Farasman o‘z qo‘shiniga bosh bo‘lib sovg‘a-salomlar bilan Iskandar huzuriga borib, unga Xorazmni zabt etmaslikni iltimos qiladi va oqibatda diplomatik usullarni ishlatganligi tufayli Xorazm o‘z mustaqilligini saqlab qoladi.

Nihoyat, Iskandar So‘g‘diyona va Baqtriya aholisining qarshiligini

kuch bilan yenga ololmasligiga ishongandan soʻng mil. av. 328- yildan boshlab turli yoʻllar bilan ularga yaqinlashishga, munosabatlariga iliqlik kiritishga harakat qiladi. Natijada, u zardushtiylik dinini qabul qildi, mahalliy zodagonlar Oqslart, Sisimitr, Xorien qabilarning mulklarini ham qaytarib berdi, ular bilan qarindoshchilik aloqalarini oʻrnatdi. Mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi asta-sekin Iskandar hokimiyatini tan olib, uning xizmatiga oʻtdilar. Mil.av. 327- yilning oxirlarida qoʻzgʻolonlar bostirilib, Oʻrta Osiyo Iskandar hukmronligi ostida qoldi. Shunday qilib, Soʻgʻdiylarning yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch- yil davomida olib borgan kurashi tugadi. Iskandar qoʻshinlariga qarshi kurash olib borar ekan, mintaqa xalqlari mislsiz jasorat koʻrsatdi. Ular oʻz davrining yuksak harbiy sanʼati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Yunon qoʻshinlari bunday qattiq qarshilikka hech qaerda uchramagan edilar.

Ulkan saltanatga asos solgan Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 323- yilda vafot etadi. Uning vafotidan keyin bepoyon davlat uch qismga: Makedoniya, Misr va Suriyaga boʻlinib ketadi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin safdoshlari tomonidan boshqariladi. Uzoq davom etgan oʻzaro urushlardan keyin, miloddan avvalgi 312- yilda lashkarboshilardan biri Salavk Bobil davlati hukmdori boʻladi. Salavkiylar davlati tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Natriya, Soʻgʻdiyona davlatlari kirgan edi.

Salavkiylar davlatida boshqarish tizimi uch boʻhindan: satraplar, eparxlar va giparxlardan -iborat boʻlgan. Shu bois Salavk Markaziy Osiyo yerlarini satrapliklarga boʻlib boshqarar edi. Ularga oʻziga yaqin kishilardan satraplar tayinlardi.

Salavk I mil.av. 293- yilda oʻgʻli Antioxni sharqiy viloyatlar: Parfiya, Baqtriya, Soʻgʻdiyona hukmdori qilib tayinlaydi. Bu hududlar harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgani sabab, savdo yoʻllari boʻylab shahar va boshqa manzilgohlar qurdirgan edi.

Antiox I davrida Baqtriya hayotida dastlabki tangalar-kumush, mis draxm va tetradraxmlar (pul birligi) zarb qilingan. Urushlar tufayli izdan chiqqan turmush Soʻgʻdiyona, Baqtriyada tiklana boshladi va savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlana boshladi. Bu davrda Baqtriya madaniyatida yunon madaniyatining taʼsiri birmuncha kuchaydi.

Hududga yunon yozuvi, yunon ogʻirlik oʻlchov birliklari, pul munosabatlari, hunarmandchilik va ellin sanʼati kirib keladi. Moddiy va badiiy madaniyat, savdo va shahar sozlik yangicha yoʻnalishda rivojlana

boshlaydi. O'z navbatida, yunonlar mahalliy madaniyat va an'analarni qo'llay boshlaganlar. Natijada, aralash madaniyatning-yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni yuzaga keldi.

Antiox I ning g'arbga qilgan harbiy yurishlari natijasida sharqiy viloyatlar ma'lum darajada uning e'tiboridan chetda qoldi. Bundan foydalangan sharqiy viloyatlar mustaqil siyosat yurita boshlaydilar. Natijada mil.av. 250- yillarga kelib, O'rta Osiyoda salavkiylar davlatidan ikkita – Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari ajralib chiqadi. Yunon-Baqtriya davlati salavkiylar sulolasidan bo'lgan Diodot davrida tashkil topadi. Bu davlat Baqtriya hududida bo'lib poytaxti shimoliy Afg'onistondagi Baqtro (Balx) shahri bo'lgan, yunonlar boshqargan. Hukmdorlardan Yevtidem, Demetriy, Evkratid davrlarida Hindistonning shimoli-harbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar bosib olinadi.

Yunon-Baqtriya davlatida hokimiyat podshoh tomonidan boshqarilgan edi. Davlat bir necha viloyatlarga bo'lingan. Viloyat hokimlari esa podshohga bo'ysungan. Yunon-Baqtriya podshohligi davrida O'rta Osiyoda dehqonchilik, hunarmandchilik va shaharsozlik rivojlanganini, madaniy hayot o'sganligini arxeologik topilmalardan bilish mumkin. Yunon-Baqtriya davlatida tangalar hukmdor tasviri bilan zarb qilingan. Termiz, Taxti-Sangin, Denov, Hampirtepa Afrosiyobdan topilgan yodgorliklar bu davlatning ijtimoiy madaniy hayotda ellinlar madaniyatining sezilarli ta'siri bo'lganligidan darak beradi.

Osiyoning tubjoy aholisi o'zlarining qadimiy madaniyatlari, an'alariga sodiq qoldilar. Shu bilan ular ellin madaniyatining afzal tomonlarini qabul qiladi. Yunon-Baqtriya podshohligi davrida deyarli barcha viloyatlarda iqtisod va madaniyat yuksaladi.

Mil av. II asrning o'rtalariga kelib Yunon-Baqtriya davlati o'z qudratini yo'qota boshlaydi. II asrning uchinchi choragiga kelib bu davlat Sharqiy Turkiston orqali kirib kelgan Yue-chje qabilalari hujumi natijasida inqirozga uchraydi.

3.4. O'rta Osiyoda mahalliy davlatlarning rivojlanishi (Q'ang', Dovon, Xorazmshohlar podshohligi)

Mil. av. III asr oxiri – mil.av. II asrda Farg'ona Dovonda, So'g'dda alohida shahar-davlatlar shakllanadi. Ayni shu davrda Qang' davlati qaror topishi yuz bergan. Bu davlatlarning har biri o'z tangalarini zarb etgan.

Tadqiqotchi olimlarning fikriga ko'ra, Farg'ona vodiysida davlatchilik V-IV asrlarda paydo bo'lgan. Mil. av. II-I asrlarga oid Xitoy

manbalrida qadimgi Farg‘ona keng, boy va ko‘p aholili, 70 dan ortiq katta va kichik shaharlari bor deb tilga olinadi. "Polona" bu Farg‘onaning xitoycha talaffuz etilishidir. Vohada shaharlar ko‘p bo‘lib, poytaxti Ershi shahri (hozirgi Marhamat) bo‘lgan. Dovon qishloq xo‘jaligi yuksak darajada rivojlangan mamlakat edi. Dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi bilan bir qatorda, Farg‘onaning cho‘l va dasht hududlarida ko‘chmanchi chorvador aholi ham yashagan. Manbalarda bu ko‘chmanchilarning ot ustida turib hamon otishga mohir ekanliklari haqida qayd etiladi.

O‘sha davrda Dovon davlati o‘zining “afsonaviy” va “samoviy” otlari bilan shuhrat qozongan. Dovon arg‘umoqlari mamlakatdan tashqarida ham xususan, Xitoyda qadrlangan. Dovonliklar usta savdogar hisoblanganlar va foyda ustida raqobatlashganlar. Mil.av. II asrning oxirlarida Xitoy imperatorlari Dovonni bosib olishga bir necha bor harakat qiladilar. Ammo Xitoy qo‘shinlari istexkomga aylantirilgan Dovon qal‘alarini sindirishga o‘zlik qiladilar. Shuningdek, qo‘shni davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan dovonliklar xitoyliklar ta’siriga tushmasdan o‘z mustaqilliklarini saqlab qola oladilar.

Qadimgi Farg‘ona davlati ancha adolatli va demokratik jamiyat hisoblangan. Podshoh davlat ishlarini Oqsoqollar kengashiga suyanan holda yuritgan. Oqsoqollar kengashi doimiy bo‘lib, unda davlatning eng muhim masalalari muxohama qilingan. U o‘ziga xos qonun chiqaruvchi organ vazifasini bajargan. Mamlakat hududlari shaharlar va vohalarga bo‘lingan holda boshqarilgan. Har bir shahar, vohaning o‘z hukmdori bo‘lgan.

Ichki tartibni saqlash, mamlakatni tashqi dushmanlardan himoya qilish uchun Dovonda asosan piyoda askarlar va suvoriylardan iborat bo‘lgan 60 ming kishilik qo‘shin mavjud bo‘lgan. Jangchilar zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zlarini o‘zlarini ta’minlaganlar. Dovon o‘zining butun tarixi davomida yirik imperiyalar va kuchli davlatlar ta’siri ostiga tushmasdan o‘z siyosiy erkinligini saqlab kelgan.

Qang‘ davlati mil.av. III asrning boshlarida Yunon-makedon hukmronligiga qarshi kurashlar va ichki nizolari keskinlashuvi natijasida paydo bo‘lgan. Bu davlat hududi dastlab Sirdaryoning o‘rta oqimidagi yerlar (Toshkent vohasi hamda unga tutash tog‘ va cho‘l zonalari)dan iborat edi. Mil.av. II asrning boshlariga kelib Qang‘ davlatining yerlari birmuncha kengayib, sharqda Farg‘ona vodiysi shimoliy-sharqda Yuechje qabilalari bilan, shimoli – g‘arbda Sarisuv daryosi, g‘arbda Sirdaryogacha borgan. Bu katta hudud Toshkent vohasini, Talas

vodiysini va qisman Chu daryosining quyi oqimidagi hudud Qang' davlatining asosiy yerlari hisoblangan. Bu davlat iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan edi. Davlatning taqshi siyosati qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish, keskinlashgan vaziyatning oldini olish va o'z hududida osoyishtalik o'rnatishga qaratilgan edi. Shu bilan birga payti kelganda kuchsizlanib qolgan qabilalarga, viloyatlarga hujum qilib ularni qaram qilishga harakat qilgan.

Qang' davlatining asosiy aholisi o'troq va yarim o'troq bo'lib uning hududida ko'chmanchi chorvadorlar ham yashar edi. O'troq aholi asosan vodiya yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan. Sun'iy sug'orish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Chorva mollarining ko'pchiligi qisman ko'chmanchi va yarim o'troq xolda yashovchi aholi ixtiyorida bo'lgan. Qang' podshohlari, ya'ni xoqonlari va ularning xonadoniga yaqin kishilar boy chorvadorlardan bo'lgan. Qang' hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita bo'lib, yozni 'trorda, qishlovni Qang'dizda (uning harobalari Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) o'tkazar edilar.

Qang'liklarda ko'plab qal'a va ko'rganlar bo'lib, ular dushman qamaliga bardosh beradigan qilib qurilgan. Ularda hunarmandchilikning turli sohalari yaxshi rivojlangan. Qang' harobasidan, Choshtepa va Toshkent vohasi boshqa tepaqo'rg'onlardan topilgan arxeologik ashyolar Qang' davlati madaniyatining namunasi hisoblanadi.

Miloddan avvalgi IV-II asrlarda qadimgi Xorazm mustaqil davlat bo'lib, Iskandar, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibiga kirmagan. Bu hol Xorazmda o'ziga xos mahalliy davlatchilik tizimi rivojiga muhim omil bo'ldi. Davlat tipi – podshohlik bo'lib boshqarish shakli mutloq monarxiya, ya'ni yakkahokimlik edi. Milodiy I asrdan boshlab Xorazmda Afrigidlar sulolasi hokimlik tepasiga kelgan va 700-800 yil davomida hukmronlik qilgan. Bu davrlarda podshohlikda markazlashtirilgan tartibda tanga zarb qilingan va hokimiyat sulolaviy tarzda meros bo'lib qolgan. Zarb qilingan tanga pullarda Artov, Artamux, Vazamir kabi Xorazmshohlar ismlari uchraydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazm hududlaridan ko'plab yodgorliklar topilgan. Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a shular jumlasidandir. Bu shaharlar atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devorlarda shinaklar va minoralar mavjud bo'lgan. Ko'xna shaharlarning asosiy inshooti ulkan qal'a bo'lib, Xorazm

hukmdorlarining qarorgohi bo'lgan. Tuproqqal'ada ikki qavatli binolar bo'lib, ulardan turli maqsadlarda foydalanilgan. Tashqari xonadonlarda maxsus qabulxonalar, ya'ni "shohlar koshonasi" ham bo'lgan. Qabulxonaning devorlari va supalari turli tasvirlar bilan bezalgan. Shuningdek, bu qal'ada yozuv namunalari ham topilgan. Xorazmda dehqonchilik va hunarmandchilik yuqori darajada rivojlangan. Shaharlar muhim savdo yo'llarida joylashgan.

3.5. O'zbekiston hududi Kushon davlati tarkibida

Kushon podshohligi. Spitamen qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragandan so'ng mil.av. IV asr oxirlarida asli O'rta Osiyoda yashagan massaget-tohar qabilalarining katta bir qismi Sharqiy Turkistondan to Mug'iliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga ko'chib o'tganlar. Ana shu qabilalar tarixi bilan bog'liq mil.av. IV asr oxirlari va milodning V asriga oid ma'lumotlar Xitoy manbalaridan olinganligi sababli qabila, urug', shaxslar, joy va shahar nomlari xitoycha nomlar bilan berilgan. O'rta Osiyodan Sharqqa tomon ko'chib o'tgan massaget-toharlar Xitoy manbalarida yue-chjelar nomi bilan atalganlar. Xitoyning shimolidagi katta hududlarda xunn qabilalari yashagan. Taqdir taqozosiga ko'ra, xunlar bilan yue-chjelar o'rtasida ziddiyatlar kuchayadi. Natijada, xunlar mil.av. 176- yili yue-chjelarni g'arbga siqqib chiqaradi.

Farg'ona (Dovon) podshohligi hududlariga chekingan yue-chje qabilalari bu yerda shahar va qishloqlar barpo qiladilar. Hozirgi Namangan viloyati Kushon qishlog'i va Kosonsoy tumani shular jumlasidandir. Ular mil.av. 140-130- yillarda Yunon-Baqtriyani ham o'zlariga tobe qiladilar va "Katta Yue-chje" davlat uyushmasiga asos soladilar. Bu davlat uyushmasiga beshta hokimlik: Guyshuan, Xyumi, Shaunmi, Xise va Dumilar bo'ysunar edi.

Bulardan biri Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchayib, boshqa hokimliklarni birlashtiradi va Guyshuan hokimi Kujula Kadfiz o'zini yagona hokim deb e'lon qiladi. Natijada, yangi davlat – Kushon davlati paydo bo'ladi va hozirgi Surxondaryo viloyatining Shurchi tumanidagi Dalvarzintepada joylashgan manzilgoh bu davlatning poytaxti bo'lib qoladi. Kujula Kadfiz davlat chegaralarini kengaytirib, qudratini oshiradi. Parfiya, hozirgi Afg'oniston hududi va Kashmirni egallaydi. Kujula vafotidan keyin uning o'g'li Vima taxtga chiqadi va Hindistonning markaziy viloyatlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib oladi.

Vima Kadfiz 30 yil hukmronlik qilgan. Undan so'ng Kanishka mamlakatni boshqaradi va u Hindistonning janubiy hududlarini zabt etadi. Natijada, Kushon davlati katta saltanatga aylanib, Xitoydagi Xan

davlati hamda Rim imperayasi bilan raqobatlashish darajasiga ko'tariladi. Kushonda davlat tipi konfederativ podshohlik bo'lib, boshqaruv shakli monarxiya edi. Viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilgan. Ular oliy hukmdorga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar to'lab turganlar.

Kushonlar davlatida zarb etilgan kumush, oltin tangalarning bir tomonida Budda xudolari, zardushtiylar xudolari Anaxita, Mitra rasmlari uchrasa, ikkinchi tomonida esa "shoh", "shohlar shohi" atamasini ko'ramiz. Buyuk ipak yo'li tarmoqlarida joylashgan Kushon podshohligi gulab yashnadi. Ko'pdan-ko'p yangi shaharlar bunyod etildi. Bu davrda ko'plab sug'orish inshootlari qurilib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Shaharlar qurilishida aniq binokorlik qoidalari amalga oshirilgan. Shaharlar to'g'ri burchakli bo'lib, qalin devorlar bilan o'ralgan. Shahar tuzilishiga ko'ra, u bir necha qismlarga bo'lingan: hokim saroyi (qal'a), hunarmandchilik ustaxonalari, guzarlar, alohida ibodatxonalar joylashgan qismi, savdo maydoni va boshqalar tartibli ravishda joylashgan edi.

Kushon podshohligi iqtisodiyotining asosini sug'orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik tashkil qilgan. Ular yuqori darajada rivojlangan. Hindiston, Xitoy va Rim saltanati bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatilgan edi. Savdo munosabatlarining rivojlanishida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Termizdan Rim tangalari xazinasini, o'rta yer dengizi atrofi hududlarida esa kushon tangalari topilgan.

Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan Budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari bilan birga kushon yozuvi ham mavjud bo'lgan. Kushon saltanati davrida me'morchilik va tasviriy san'at yuksak darajada rivojlangan edi. Buni o'lkamizning Ayritom, Ko'xna Termiz, Qoratepa budda ibodatxonalarini Fayoztepa, Xolchayon, Dalvarzintepa va boshqa joylardan qazib olingan arxeologik topilmalardan ko'rishimiz mumkin.

Kushon saltanati inqirozi Xuvishka podshohligi davridan boshlanadi. Bu jarayon Erondagi Sosoniylar davlatining tarix sahnasiga chiquviga asosiy omil bo'ldi. Xususan, sosoniy hukmdorlardan Shopur I ning (milodiy 242-243- yillar) va Shopur II ning (milodiy 309-379- yillar) Kushonlarga bergan zarbalari hal qiluvchi o'rin tutdi. IV asrga kelib Kushon podshohligi asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Kushonlarning ayrim mulklari faqat Shimoliy Hindistonda ma'lum vaqtgacha saqlanib qoldi.

3.6. Oʻrta Osiyoda kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishda Buyuk Ipak yoʻlining oʻrni

Buyuk ipak yoʻli miloddan avvalgi I ming- yillikning ikkinchi yarmidan to milodiy XV asrgacha Xitoy, Hindiston, Oʻrta Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda Oʻrta dengiz mamlakatlarini gʻarb bilan tutashtiruvchi savdo-sotiq iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishida asosiy vosita boʻlgan. Nemis sharqshunos olimi Ferdinand fon Rixtgofen 1877- yilda Xitoy nomli asarida bu karvon yoʻllar tarmogʻini avvallari ular orqali asosan ipak va shoyi tashilgani uchun "ipak yoʻli" deb atadi. Keyinchalik "Buyuk ipak yoʻli" atamasini koʻpchilik tadqiqotchi va olimlar ishlatadigan boʻldilar. Lekin miloddan burungi bir necha asrlar qimmatbaho toshlar tashiladigan "Lojuvard yoʻli" Badaxshonni Eron, Mesopotamiya, Suriya Misr kabi davlatlar bilan bogʻlangan. "Nefrit yoʻli" esa Turkistonni Sharqiy Xitoy bilan bogʻlangan.

Miloddan avvalgi II asr oxiridan boshlab Oʻrta Osiyo bilan Xitoy oʻrtasida muntazam diplomatik va savdo munosabatlari amalga oshirila boshlangan. Xitoy hukmdorlari oʻz elchilarini katta sovgʻa-salomlar bilan nafaqat Oʻrta Osiyoga, balki Buyuk ipak yoʻli orqali Eron Mesopotamiya va Kichik Osiyo davlatlariga ham yuborganlar. Buyuk ipak yoʻlida yangi-yangi shaharlar, karvonsaroylar va savdo nuqtalari bunyod etildi. Oʻrta Osiyo hududlari oʻzining geografik joylashgan mavqeiga koʻra Buyuk ipak yoʻli taraqqiyotida munosib oʻrin egallagan. Chunki, savdogarlar Sharqiy Turkiston, Xorazm, Buxoro, Naxshab, Termiz, Samarqand kabi shaharlarda oʻz mollarini sotib bu hududlardan oʻzlariga kerakli boʻlgan buyumlarni harid qilib qaytar edilar.

Buyuk ipak yoʻli 12 ming km uzunlikda boʻlgan. U Sariq dengiz sohilidan boshlanib, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali Oʻrta er dengizi sohillarigacha borgan. Ikkinchi yoʻnalish Markaziy Osiyo orqali Hindistonga olib borgan. Bu yoʻlda qator qadimiy shaharlar joylashgan: Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv va boshqalar. Markaziy Osiyo kumushiga ehtiyoj sezgan mamlakatlarga boradigan "Kumush yoʻli" ham boʻlgan. Bu yoʻl Xazar xoqonligi va Bulgʻor davlati orqali Kiev, Rusi va Yevropa mamlakatlariga borgan. U Buyuk ipak yoʻlining shimoliy tarmogʻi hisoblanib, VI asrdan boshlab ishga tushgan.

Fargʻona vodiysida ipak yoʻli ikki tarmoqqa boʻlingan. Birinchisi Oʻzgandan Axxi, qamchiq davoni orqali (yozda) Iloq vohasi va Toshkentga kelgan. Ikkinchisi janubiy tarmoq boʻlib, oʻzgandan Oʻsh,

Quva, Marg‘ilon, Qo‘qon orqali Xo‘jand, Samarqand, Buxoroga o‘tgan. Asosiy karvon yo‘llaridan tashqari ichki savdo yo‘llari ham bo‘lgan. Biri Axsidan Koson orqali Chust vohasiga o‘tgan. Yana biri Pop, Zarkent orqali konchilar qarorgohlari va yaylovlariga borgan. Qurama va Oloy tog‘lari qazilma boyliklari va Zarafshon daryosi boyliklari tufayli bu yo‘l tarmog‘i “Oltin yo‘l” deb atalgan.

Bu yo‘l XV-XVI asrlarga kelib o‘zining dastlabki mavqeini yo‘qota bordi. Chunki bu davrlarda dengiz yo‘li kashf etildi, savdo kemalari orqali turli yurtlar bilan bordi-keldi qilinadigan bo‘ldi. Keyingi asrlarda o‘zaro iqtisodiy va o‘zga munosabatlar birmuncha osonlashdi, yangidan-yangi transport vositalari kashf etildi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Davlat tushunchasining mazmun mohiyati nimada?
2. Davlatning shakllanishi va paydo bo‘lishidagi asosiy omillarni ko‘rsating.
3. O‘rta Osiyodagi ilk davlatlarning boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
4. Katta Xorazmning geografik o‘rnini toping.
5. Qadimgi Baqtriya va So‘g‘d hoqimligining davlat boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
6. O‘rta Osiyoga ajnabiy bosqinchilarning hujumi qanday oqibatlariga olib keldi?
7. Salavkiylar qachon va qanday qilib hokimiyat tepasiga keldi?
8. Yunon-Baqtriya davlati Salavkiylar davlatidan qachon, qanday ajralib chiqqan?
9. O‘rta Osiyoda mahalliy davlatchilik qanday rivojlandi?
10. Qadimgi Dovon va Qang‘ davlatlarining boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
11. Kushon saltanatining geografik o‘rnini aniqlang.
12. Kushon podshohligidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanish jarayoni qanday kechgan?
13. Davlatlarning rivojlanishida Buyuk ipak yo‘lining roli qanday bo‘lgan?

4- MAVZU. ILK O`RTA ASRLARDA O`ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Asosiy tushuncha va iboralar: eftaliylar; kadivarlar; kashovarlar; dehqon; xalqning etnik shakllanishi; islom; xiroj; jizya; ushr; kommunikasiya; pochta aloqasi.

4.1. Ilk o`rta asrlarda O`rta Osiyoda ijtimoiy hayotdagi o`zgarishlar

Qabila boshliqlari, ishboshilar o`zlariga tegishli yer maydonlarini sug`orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to`g`on boshi atrofidan ajratib olganlar. Bu yo`l bilan ular suvdan dehqonchilikda bimalol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o`z ta`sirini o`tkazish imkoniyatiga ega bo`lganlar. Shu tariqa, ular ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaganlar. O`sha davrda ular dehqonlar deb atalgan.

Dehqonlar shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do`kon-u rastalaridan iborat kattagina xo`jalikka ham ega bo`lganlar. Qishloqlarda esa ekinzor paykallardan tashqari, ularning ko`shk va istehkomli qo`rg`onlari, tegirmonlari bo`lgan. Ko`pdan ko`p xizmatkorlar dehqonlarning xo`jaligida qishin-yozin mehnat qilganlar. Har bir katta yer egasining 30–40, 50–100 va ba`zan undan ortiq maxsus askarlar guruhi – chokarlari bo`lgan. Chokarlar baquvvat va abjir hamda o`z xojasiga sadoqatli o`spirinlardan tanlab olingan. Bunday sodiq va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yov hujumi paytlarida dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashgan. Boshqa vaqtlarda ular dehqon xo`jaligidagi tartibga qarab turganlar.

Qishloqlarda dehqonlarning mavqeyi ortib, katta-katta yerlarga ega bo`lib oldilar. Bu esa o`z navbatida mamlakatning ijtimoiy hayotiga ta`sir o`tkazdi. Yer egaligining tarkib topishi oqibatida mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o`zgarishlar sodir bo`ldi. Qishloq jamoalari yerli mulkdor dehqon va unga qaram bo`lgan yersiz va erksiz kadivarlarga ajralib borgan. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo`lgan erkin ziroatchilar tabaqasi kashovarlar deb atalardi. Keyinchalik ularning ma`lum bir qismi yerlaridan mahrum bo`lib, bora-bora kadivarlarga aylanib borganlar. Ayrim dehqonlar esa o`z viloyatlarida hatto mustaqil hokim bo`lib olganlar. V asrning o`rtalariga kelib, garchi ekin yerlarining ma`lum bir qismi mulkdor dehqonlar qo`l ostidagi mulklardan iborat bo`lsa ham,

ammo ziroatkor vohalardagi sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog'ida edi.

4.2. Eftaliylar davlati (V-VI asrlar)

Mamlakatimiz hududida ilk o'rta asrlar davrida tashkil topgan yirik davlatlardan biri Eftaliylar davlatidir. Eftaliylarning etnik jihatdan qaysi qabilaga mansubligi, tillari tarixda yetarlicha tadqiq qilingan emas. Olimlarning xulosalariga qaraganda, milodning IV asr o'rtalarida kushonlar bilan Eftaliylar boshqa qabilalar bilan birlashganlar. "Eftal" so'zi esa eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog'liqdir. Vaxshunvor 457- yildan e'tiboran Chohaniyon, Tohariston, Badaxshonni o'ziga bo'ysundirib O'rta Osiyoda katta davlatga asos soldi.

V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida Eftaliylar davlati hududlariga O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston erlari kirar edi. Eftaliylar zamonida saltanat yakka xukmdor tomonidan boshqarilgan. Davlat boshqaruv tipi konfederativ podshohlik bo'lib, boshqaruv shakli cheklangan monarxiya bo'lgan. Taxt vorisini aniqlab, taqdim etadigan kengash mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo'tabar vakillari, amirlar, yirik arkonlardan iborat bo'lgan. Eng muhimi, Eftaliylar davrida davlatimiz qonunlar asosida boshqarilib, bu turkiy tuzuklardan iborat bo'lgan. Katta hududni egallagan bu davlatda ba'zi katta viloyatlar mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilgan.

Eftaliylarning harbiy qo'shinlari katta kuchga ega bo'lgan. Askarlari qo'lida harbiy qurol-yaroqlardan gurzi, o'q-yoy va asosiysi qilich muhim o'rin tutgan. Ular lashkarlarining asosini otliq askarlar tashkil etgan. Milodiy V asrda sosoniylar va eftaliylar davlati o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarda eftaliylar qo'shinining ustun kelishi, ular harbiy maxoratining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Sosoniylarning sharqqa yurishlari eftaliylarning qarshiligi tufayli to'xtadi. Ular Eron podshohlarining ichki siyosatiga ham aralashib turdilar, xatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo'lida bo'lgan. Eron davlati har- yili eftaliylarga o'lpon to'lab turgan.

Eftaliylar davlatining poytaxti haqida ma'lumotlar yo'q. Bunday markaz Poykan (Boykent) yoki Balx bo'lgan degan taxminlar bor. Bu davrda jamiyatda yerga egalik munosabati shakllanayotgan bo'lsada, qullar mehnatidan foydalanish davom etgan. Qaror topayotgan yerga egalik qilish munosabatlariga ko'ra, katta yerlarni egallab olganlar

dehqon nomi bilan atalgan. "Dehqon" qishloq hokimi ma'nosini anglatgan. O'zining kichikroq yerida xo'jalik yuritganlar kashivarzlar, yeridan ajralib qolib dehqon xo'jaliklarida yollanib ishlaganlar kadivarlar deb nomlangan.

Eftaliylarning bir qismi ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullansalar, asosiy qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Ko'pgina hududlarda, xususan, Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarda g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Shuningdek, ko'plab g'o'za ekilgan va Markaziy Osiyoning paxtasi, xatto Xitoyda ham mashhur bo'lgan yilqichilik bilan shug'ullangan aholi asosan tog' va tog' oldi yerlarda yashashgan, zotdor arg'umoqlar Farg'ona vodiysida ko'paytirilgan. Sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi feodal munosabatlarning qaror topa boshlashi bilan mulkdor zodagon tabaqa vakillari-"dehqonlar" qo'liga o'ta boshlagan. Bu esa erkin dehqonlarning zodagon dehqonlarga qaram kadivarlarga aylanishiga asos bo'lgan.

Dehqonchilik vohalarida Eftaliylarning V-VI asrlarda o'troqlashuvi kuchayadi va sug'orma yerlarga talab ortadi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan. Zahariq, Bo'zsuv, Darhom kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan bo'lgan.

Shu davr me'morchiligida qasrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Bu qasrlar 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon qilib yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. Saroy va qasrlar qurilishida V asrdan boshlab pishiq g'ishtlar ishlatila boshlangan. Saroy ibodatxonalar devorlari rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi bo'lib, u buxorxudotlarning VI-VII asrlardagi qarorgohlar bo'lgan.

Eftaliylar davrida hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, chilangirlik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsozlik kabi turlari yaxshi taraqqiy etgan. Eftaliylar Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan elchilik, savdo-sotiq munosabatlarini olib borishgan. Xususan, 456- yili Eftaliylar Xitoyga o'zi elchilarini yuborganlari tarixda qayd etilgan.

V-VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavvurlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan sopol haykalchalarni yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Ulkan hududga yoyilgan Eftaliylar davlatida turli diniy e'tiqodlar turlicha bo'lgan. So'g'dda zardushtiylik keng tarqalgan. Tohariston va Sharqiy Turkistonda esa buddiylikka e'tiqod qiluvchilar ko'p bo'lgan.

Shunday qilib, V-VI asrlarda yurtimizda Eftaliylar sulolasi 100

yildan ortiq hukmronlik qildi. Bu sulola vakillari tarqoq mamlakatni birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotining yuksalishiga erishdi. Ammo 563-567- yillarda turk xoqonlari tomonidan berilgan zarbadan so'ng Eftaliylar inqiroz sari yuzlandilar va xoqonlik ta'siriga tushib qoldilar.

4.3. Turk xoqonligi

VI asr boshlarida Oltoy o'lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O'sha paytda hozirgi Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqei ko'tariladi. Ashin urug'iga mansub Asan va Tuu 460-545- yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o'g'li Bumin Tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551- yilda Jujan xonining qo'shinlarini engib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Tuuning o'g'li Bumin 551- yilda Markaziy Osiyoda eng kuchli hisoblangan jujanlar xonini yengib, Turk xoqonligi davlatiga asos soldi. Xoqonlikda birinchi hukmdor Bumin bo'lib, u taxtga Ili xoqon unvoni bilan o'tirdi. 553-572- yillarda hukmronlik qilgan Muqan xoqon davrida esa xoqonlik Markaziy Osiyoda siyosiy ustunlikni o'z qo'liga oldi.

Aynan mana shu, davrda turklarning g'arbda jujan qabilalari va eftaliylarga qarshi faol harbiy harakatlari boshlandi. 552-555- yillardayoq Buminning ukasi Istami "O'n tuman qo'shinining" sarkardasi bo'lib, harbiy yerlarni o'ziga bo'ysundira boshlagan edi. Eftaliylar davlati tor-mor etilgandan so'ng bosib olingan hududlar bevosita g'oliblarning oliy hokimiyatiga bo'ysundirilgan edi.

Xoqonlik o'sha davrning eng yirik davlatlari Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoyning siyosiy va iqtisodiy munosabatlari tizimiga qo'shildi va Buyuk ipak yo'li ustidan nazorat o'rnatish uchun kurasha boshladi. Turk xoqonligining tarixi uzluksiz urushlar va o'zaro ichki kurashlar bilan to'lgan edi. Buning natijasida 581-603- yillar oralig'ida u ikki qismga Sharqiy va harbiy turk xoqonliklariga bo'linib ketdi.

G'arbiy xoqonlik tarkibiga Yettisuv, Chu vodiysi, Irtish, Ishim daryolari bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyodagi yarim mustaqil davlatlar qo'shib olingan edi. Turk xoqonligining sharqiy yerlaridan farqli o'laroq G'arbiy hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Negaki, sharqiy hududlarda yashagan ko'pchilik ko'chmanchi turkiy elatlarda urug'-qabilachilik munosabatlari

hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budunlar deb atalgan. Urug'-qabilaning nomdor vakillari "yabg'u" deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodagonlar kengashi – "Qurultoy" boshqargan. O'rta Osiyo yerlarida esa bu davrda dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O'lkaning Farg'ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko'plab suv ayirg'ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod etilgan.

VII asrning birinchi choragida G'arbiy xoqonlik nihoyatda kuchaygan. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, janubda esa Sind (Hind) daryosi bo'ylariga borib yetgan. G'arbiy xoqonlik o'ziga qaram viloyatlarni boshqarishda mahalliy sulolalarni saqlab qolgan. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan ayrim o'lkalarda esa xoqon xonadoniga tegishli mansabdorlar tayinlangan. Xoqon To'ng yabg'u (618–630) hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh qilingan. Islohotga ko'ra, mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning "yabg'u" unvoni berilib, ular xoqonning noibiga (vakiliga) aylanadilar. Shu bilan birga O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytiriladi. Ular huzuriga xoqonlikning noiblari – tudunlar yuboriladi. Biroq ichki kurash oqibatida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib boradi.

Qadimgi turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikni o'zida mujassam etuvchi shaxs xoqon yoki uning sulolasi bo'lgan. Xoqon uch kuchga tayanar edi. Bular Osmon-Tangri irodasi, yer-suv saxovati va turk xalqining faoliyati edi. Xoqonning rafiqasi Xotun unvoniga ega bo'lgan. Keyinchalik bu unvonni olgan ayol etnik mansubligidan qat'i nazar umuman hukmdorning rafiqasini anglatadigan bo'lib qoldi. Taxtga vorislik tartibiga ko'ra, taxt otadan o'g'ilga emas akadan ukaga, kichik amakidan katta jiyanga meros qolar edi. Shahzodalar o'zlarining hukmdorlik navbatlari kutib, ungacha o'zlariga berilgan uluslarda hokimlik qilar edilar. Hokimiyatni hukmron sulola qo'lida jamlash odati Markaziy Osiyo davlatlarida boshqaruvning an'anaviy usuli bo'lib, u ikki yoqlama samara berardi. Bir tomondan, ko'chmanchi chorvachilik hukmron bo'lgan sharoitlarda boshqaruvning va mudofaaning barqarorligi ta'minlansa, ikkinchi tomondan, sulolaning o'z ichida ham nisbatan osoyishtalikka erishilar edi.

Davlatning asosini yer bilan xalq tashkil etardi. Xoqonlik davlatchilikning mustaqil va an'anaviy O'rta Osiyo shakllarini rivojlantirdi. Davlatni boshqarishda xoqonga, uning qarindoshlari, eng avvalo, hukmron sulola a'zolari va ular tomonidan yaratilgan boshqaruv

apparati yordam berar edi. Xoqonning qarindoshlari va og‘a-inilariga tegin unvoni berilgan. Davlatda turli-tuman lavozimlar bo‘lib, ulardan beshtasi oliy mansab hisoblangan: yabg‘u, shad, teginlar, eltabarlar va tudunlar. Barcha mansablar meros qilib qoldirilgan. Tudunlar bo‘ysundirilganlar ustidan nazorat qilish va soliqlar yig‘ish vazifasi bilan shug‘ullanganlar.

Turk davlati yetarli darajada ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo‘lgan. Jazoning asosiy turlari qatl etish, kompozisiya, ya’ni tovon to‘lash hisoblangan. o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik va xokazo) hamda odam o‘ldirganlik uchun berilgan. Odam o‘ldirganlik uchun qatl etish yoki odam a’zosini kesib tashlash talion deyilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar kompozisiya, ya’ni etkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, tovon kabi usullar qo‘llanilgan.

Xoqonlikda aholi va qo‘shin bo‘linishida o‘nlik tizimi mavjud bo‘lgan. Ular orasida shaxsiy soqchilar, xoqonlarning zirixli gvardiyasi ajralib turgan. 10, 20 va 40 kishilik alohida qo‘shilmalar shadlar yoki yobg‘u qo‘mondonligida bo‘lgan. Qo‘shinda xizmat qilish majburiy hisoblangan. Davlat, odatda 100 ming kishilik qo‘shin olish qudratiga ega bo‘lgan. Bunday qo‘shin davlat qudratining asosiy tayanchi hisoblangan.

VII asr o‘rtalariga kelib xoqonlik zaiflashib bir necha qismlarga bo‘linib ketgan. Bu vaziyatdan Xitoyning Tan saltanati foydalanib, O‘rta Osiyo erlariga bir necha marta suqilib kirishga harakat qilib ko‘rgan. Xoqonlik ulkan hudud ichida tinchlik saqlashga erishgan, bo‘ysundirilgan xalqlarning ichki ishlariga aralashmagan, ularning xo‘jalik, savdo-sotiq, madaniyat sohalaridagi faoliyatiga to‘sqinlik qilmagan. Zabt etilgan yerlarning mahalliy aholisi o‘z ijtimoiy tuzilmalarini saqlab bu tuzilmalar ustidan noib-tutuq nazorat qilib turgan.

Turk xoqonligi qo‘lida birlashgan xalqlar taraqqiyotning har xil bosqichida edilar. Turk qabilalarining bir qismi VI-VII asrlarda o‘tovlarda yashaganlar va to‘rt g‘ildirakli aravalarda ko‘chib yurganlar. Mamlakatda ziroatchilik, boqdorchilik, shaharlarda qurilish, hunarmandchilik, savdo-sotiq avj olgan, kulolchilik, qurolsozlik, shishasozlik rivojlangan. Turklar yasagan qurol-yaroqlar, zebi-ziynat buyumlari xilma-xilligi va pishiq-puxtaligi bilan ajralib turgan. Buyuk ipak yo‘li samarali ishlashda davom etib, xoqonlikning asosiy savdo hamkorlari Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya bo‘lgan.

Turk xoqonlari Oʻrta Osiyoda hukmronlik qilsa-da, biroq oʻzlari bu hududga koʻchib kelmaganlar. Ular Ettisuv va boshqa hududlardagi bosh qarorgohlarida qolib, boʻysungan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-oʻlponlar va toʻlovlar bilan kifoyalanganlar. Bundan koʻrinadiki, Turk xoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlari davom etgan. Xoqonlik istisno hollardagina oʻlkaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashgan. Bu narsa koʻproq tashqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalariga daxl etardi. Xitoy manbalarida taʼkidlanganidek, Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida bu davrda 9 ta mustaqil hokimlik mavjud boʻlgan: Samarqand, Ishtixon, Maymurgʻ, Kesh, Naxshab, Kushon, Buxoro, Amul va Andxoy shular jumlasidandir. Ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xorazm va Choch (Toshkent) hokimliklari oʻzlariga ancha mustaqil boʻlganlar. Buxorxudotlar zarb etgan tanga pullar keng muomalada boʻlgan. Shu bilan birlikda bu nisbatan mustaqil hokimliklar oʻrtasida oʻzaro kurash, ichki ziddiyatlar ham toʻxtovsiz boʻlib turgan. Bu esa mahalliy aholi hayoti, turmushini nochor ahvolga duchor etgan. Masalan, 585-586- yillarda Buxoroda zodagon dehqon va boy savdogarlarga qarshi qoʻzgʻolon koʻtariladi. Unga Abroʻy boshchilik qiladi. Xoqon Qorachoʻrin qoʻshinlari qoʻzgʻolonni bostirib, qoʻzgʻolonchilarni qattiq jazolaydi.

Sanʼat ham taraqqiy etgan. Haykaltaroshlik, oʻymakorlik, naqqoshlik, musiqa, raqs sanʼatlari rivojlangan. Bunyodkorlik ishlari sugʻorish inshootlari, qoʻrgʻonlar, shaharlar barpo etishga eʼtibor oshadi. Koʻp qabilalar tan olgan yagona Xudo Tangri deb atalgan, unga qurbonlik keltirganlar. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonganlar. Oʻrta Osiyoning turk xoqonligi tarkibida boʻlganligi ijobiy ahamiyatga ega edi. U turkiy qabilalarning jipslashuviga xizmat qildi, bir qator turkiy xalqlarning shakllanishiga asos soldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Turk xoqonligida davlatchilik Oʻrta Osiyoning qadimiy anʼanalari va turkiy-qabilalar tomonidan keltirilgan anʼanalar asosida oʻziga xos xususiyat kasb etdi. Bunda siyosiy ittifoq Oʻrta Osiyodagi mustaqil va yarim mustaqil mulklarning federasiyasi shakllandi. Bu federasiyada tashkil topgan davlatchilik maʼlum maʼnoda yuqori bosqichga koʻtarilgan boʻlib, oʻsha davrning hayotiy talablari va xususiyatlarini oʻzida aks ettirgan. Bu esa oʻzbek davlatchiligi poydevorini mustahkam lash tomon qoʻyilgan muhim qadamlardan biri boʻldi.

4.4. O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi (VII-VIII asrlar)

VII-VIII asrlarda markazlashgan Arab xalifaligi Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Vizantiya va Eronni bo‘ysundirib, kuchli imperiyaga aylanadi. Xalifalik O‘rta Osiyo yerlariga ham yetib keldi.

651- yili arablar jangsiz Marv shahrini egallaydilar. Arablar Amudaryo (Jayxun)ning shimolida joylashgan yerlarga “Movarounnahr”, ya’ni “daryoning ortidagi yerlar” deb nom beradi. Hozirgi Afg‘onistonning shimoliy, Eronning shimoliy-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan hududlar esa Xuroson deb yuritilgan. Avval boshida Xurosonning markaziy shahri Marv, keyinchalik Hirot bo‘lgan.

Arablarning Movarounnahrqa qarshi harbiy yurishlari o‘z maqsad va rejalari bilan 2 davrga bo‘linadi. 1-davrda Xalifalik istilo etishni emas, balki harbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rish, mahalliy hukmdorlar kuch-qudratini sinab ko‘rish, geografik, harbiy, iqtisodiy, siyosiy joylashuvini o‘rganish, kichik yurishlar orqali o‘ljalar orttirish rejasini amalga oshiradi. Bu davr 650-704- yillarni o‘z ichiga oladi.

Movarounnahrqa ilk bor hujumlar 654-yilda Maymurg‘ va 667-yilda Chag‘oniyondan boshlanadi. Manbalarda qayd etilishicha, bu davrda Xorazm arablar tomonidan ikki marotaba talon-toroj etilgan. Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa Muoviya I (661-680) farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib, Buxoro hududiga bostirib kiradi. Poykand va Romittonni egallab, Buxoro hukmdori qo‘shinlarini yengadi va o‘z foydasiga sulh tuzib, bir lak (yuz ming) dirham hajmida tovon undiradi. Tovondan tashqari arablar to‘rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat ko‘p o‘ljalar bilan Marvga qaytadilar. Yo‘l-yo‘lakay arablar Termiz shahrini egallaydilar.

Xalifa Abdumalik ibn Marvon (685-705) davrida ichki nizolarga chek qo‘yilgandan so‘nggina arab siyosiy arboblari va zadogonlari Movarounnahrqa harbiy yurish vaqti keldi, deb topdilar. Yangi tayin etilgan Xuroson noibi Qutayba ibn Muslimga Movarounnahrni butkul egallash va qat‘iyat bilan harakat qilish topshiriladi. 704-yilda Qutayba ibn Muslimning Xuroson noibi qilib tayinlanishi va Xurosonning arab xalifaligi tomonidan to‘liq bo‘ysundirilishi bilan arab bosqinchilari tomonidan bu yurti zabt etishning ikkinchi davri boshlanadi. Markaziy Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlar o‘rtasidagi nizolar Qutaybaga qo‘l keldi. O‘z harbiy yurishlarini Qutayba 705- yili Balx

viloyatini bosib olish bilan boshladi. Bu yurish bilan arablarning Movarounnahrda 2-asosiy harbiy harakati boshlandi. Balxdan tashqari Qutaybaga Chagʻoniyon, Shuman, Markaziy Osiyodagi kichik viloyatlar boʻysunardi.

706- yili Qutayba katta qoʻshin bilan Movarounnahrda kirib keldi. Tarixchi Tabariyning maʼlumotiga koʻra, Qutayba obod va boy shaharlardan biri Poykand tomon harakat qildi va ogʻir janglardan soʻng u arablar qoʻliga oʻtdi. Arablar ketma-ket Movarounnahr yerlarini egallay boshlaydilar. 708-709- yillar mobaynida Qutayba Buxoroga bir necha bor hujum qilib shaharni zabt etadi. Soʻng Xorazm va Samarqandni oʻziga boʻysundiradi. 713- yilda Qutayba Choch qoʻshinini tor-mor etib, uni egallaydi, Ustrushonada hal qiluvchi jang olib borib, Xoʻjand va Kosonni zabt etadi. 714-715- yillar boshida Qutayba Qashqargacha boʻlgan yerlarni qoʻlga kiritadi. Oʻsha- yili arab xalifasi Volid vafot etadi. Xalifalik taxtiga Sulaymon ibn Abdumalik oʻtiradi. Qutayba Sulaymonga nisbatan gʻanimlik munosabatida boʻlib uni qoʻllab quvvatlamas edi. Qutayba uning taxtga chiqishidan norozi boʻlib, isyon koʻtaradi. Natijada, bu isyon muvaffaqiyatsiz tugab, Qutaybaning oʻzi 715- yili Fargʻonada oʻldiriladi.

Oʻrta Osiyo bosib olinganidan soʻng bu hududlarni boshqarish markazi Marv shahri boʻlib qolgan edi. Bu yerda xalifalikning noibi turgan va u Movarounnahr, Xurosonni idora qilgan. Dehqonlar xalifalik noibining mahalliy aholi orasidan boʻlgan vakiliga boʻysunganlar. Bunday kishilar amir unvoniga ega hisoblanar edilar. Xalifa davlatni boshqarishda vazir ul-vuzaro (ulugʻ vazir)ga tayangan. Harbiy ishlar, umuman, harbiy qoʻshinlar amir ul-umaro qoʻli ostida boʻlgan. Xalifa turli masalalarni devon ad-dar, yaʼni kengashda koʻrib chiqar edi. Devon ad-dar uchta asosiy devonga boʻlingan, ular: devon al-mashriq, devon al-magʻrib va devon al-xarajdan iborat boʻlgan.

4.5. Arab xalifaligi davri davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Xalifalik oʻlkani zabt etish jarayonida uning deyarli barcha obod dehqonchilik vohalarini, juda koʻp shahar va qishloqlarga oʻt qoʻyib vayron etdi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ekin maydonlari suvsizlikdan qurib qoldi. Zabt etilgan shahar va qishloq aholisidan oltin, kumush, qimmatbaho buyumlar va koʻplab qurol-yarogʻlar tortib olindi. Sulh tuzishga majbur boʻlgan Buxoro, Poykand, Sugʻd hukmdorlaridan katta miqdorda boj-u tovonlar undirib olindi. Xalifalik qoʻshinlariga minglab nafar mahalliy yigitlarni jalb etdilar.

Arablar Movarounnahrni bosib olgach, bu yerdagi yer-mulklar xalifaga qarashli bo'lib qoldi. Xalifa davlat yerlarini iqto tariqasida in'om qilgan. Davlat yerlari ayrim harbiy yo'l boshchilar va amaldorlarga umr bo'yi yoki mulkka vorislik tariqasida berilgan. Biroq yerlarning asosiy egasi xalifa sanalar va u iqtodordlardan ushr olish huquqiga ega edi. Yirik yer egalari – dehqonlar arab xalifaligi davrida ham o'z yerlarining egalari bo'lib qoldilar, biroq ular endilikda ijaradorga aylanib, daromadning ma'lum qismini xalifalik xazinasiga jo'natish majburiyatini olgan edilar.

Arablar tomonidan Movarounnahr bosib olingach, “Xiroj”, “ushr”, “zakot”, “jizya” kabi soliqlar joriy etiladi. “Juz'ya” jon boshiga solinadigan soliq bo'lib, musulmon bo'lmagan fuqarolardan asosan pul yoki mahsulot shaklida undirilgan. Islomni qabul qilmagan boylardan 48, o'rtahollardan 24, kambag'al dehqon va hunarmandlardan 12 dirhamdan jizya solig'i olingan. “Xiroj” esa dehqonlar daromadidan undirilgan va bu daromadning 1/3 qismiga, hatto undan ortig'iga ham teng bo'lgan. “Zakot” odatda pul daromadlarining 1/40 ulushi (2,5%) ga teng bo'lishi kerak edi. Shuningdek, “Ushr” (arabcha o'ndan bir) degan soliq ham bo'lgan. Bu soliq turi davlat foydasiga olinadigan soliq bo'lib, natura va pul shaklida asosan dehqonchilik mahsulotlaridan olingan. Bulardan tashqari aholiga mahalliy va mavsumiy soliq va majburiyatlar ham yuklangan edi. Aholidan olinadigan markazlashgan soliqlar hajmi daromadning qariyb yarmini tashkil etardi. IX asrda yashagan arab tarixchisi Xo'rdodbehning ma'lumot berishicha, xalifalikka faqat xiroj solig'i hisobiga Sug'd viloyati 326 ming, Farg'ona 280 ming, Shosh 607 ming, Ustrushona 50 ming dirham soliq to'lagan. Buxoroga belgilangan xiroj solig'i miqdori bulardan ham ko'p bo'lgan.

Arablar og'ir soliqlarni o'z vaqtida to'lay olmagan fuqarolarni haqoratlab va xo'rlab taxtachalarga “qarzdor” degan yozuvlar yozdirib, ularning bo'yniga osdirib qo'yar edilar. Arablar islom dinini qabul qilib musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularga imtiyozlar berdilar. Jumladan, islomni qabul qilganlar “juz'ya” va “xiroj” kabi soliqlardan ozod qilingan. Bu ikki soliqdan ozod qilish siyosatini xalifa Umar II ham qo'llagan va qonun ijrosini Xurosonga 717-yilda noiblikka tayinlangan Jarroh ibn Abdulladan talab qilgan.

4.6. Arab xalifaligiga qarshi xalq qo'zg'olonlari

Xalifalikning talonchilik siyosati mahalliy xalqni barcha haq-huquqlardan mahrum etdi. Madaniyatning oyoqosti qilinishi, arab tili,

yozuvi va xalifalik qonun-qoidalarining zoʻrlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qoʻzgʻolonlar koʻtarilishiga sabab boʻldi. Xalifa Umar ibn Abdulaziz (717–719) murakkab vaziyatni hisobga olib, boʻysundirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur boʻldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni toʻxtatish hamda moliyaviy islohot oʻtkazish toʻgʻrisida farmon berdi.

Bunga binoan musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan mahalliy xalqlardan xiroj va jizya soliqlarini olish bekor qilindi. Biroq Movarounnahr zodagonlarining koʻpchiligi oʻzini haqiqiy musulmon deb hisoblab, soliq toʻlamay qoʻyadi. Soʻngra xalifalik maʼmuriyati bir yoʻla hammadan jizya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan arab maʼmuriyati oʻrtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda bosqinchilarga qarshi xalq qoʻzgʻolonlari koʻtariladi.

720-722-yillarda Soʻgʻdiyonda yuz bergan Gʻoʻrak (Samarqand hukmdori) va Divashtich (Panjikent hokimi) boshchiligidagi qoʻzgʻolon arablar hukmronlikligiga qarshi dastlabki yirik xalq harakatlaridan biri boʻlgan. Unda arablar siyosati va zulmidan gʻazabga kelgan oʻn minglab mahalliy xalq vakillari ishtirok etgan. Xurosonning yangi tayinlangan va zolimligi bilan nom chiqargan noibi Said Xarashiy katta muntazam harbiy kuch bilan mazkur qoʻzgʻolonni shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq boʻladi. Qoʻzgʻolon rahbarlaridan biri boʻlgan Divashtich ushlab qatl etiladi. Arablar mahalliy aholini faqat harbiy kuch bilan ushlab turish mumkin emasligini yaxshi anglardilar. Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros Islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Bu aholini tinchlantirishga qaratilgan vaqtinchalik tadbir edi. Zodagon dehqonlarning koʻpi oʻz chokarlari va ka-divarlari bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga oʻtadilar.

736-737-yillarda Toxariston va Soʻgʻdda arablarga qarshi yana qoʻzgʻolon koʻtariladi. Natijada arablar juda ogʻir ahvolga tushib qoladi va bu vaziyatdan qutulish maqsadida Xuroson va Movarounnahming noiblari hamda amirlari bir necha marta oʻzgartiriladi. Xususan, 738-748-yillarda Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor davrida koʻrilgan tadbirlar tufayli arablar oʻlkada oʻz mavqelarini mustahkamlash imkoniyatiga ega boʻldi. U maʼlum bir muddat davomida mamlakatda nisbiy osoyishtalik oʻmata oldi.

Nasr ibn Sayyor mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlab olish maqsadida moliya islohoti o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jizyadan ozod etildi. Barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi, yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar ularning xiroj to'lashi shart qilib qo'yiladi. Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnatiladi. Ayni vaqtda o'zi ham namuna ko'rsatib, Buxorxudotning qiziga uylanadi. Bunday siyosat natijasida arablar bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga kela boshladi. Ammo bu ozodlik yo'lida olib borilayotgan xalq harakatlariga barham bera olmaydi. Movarounnahr xalifalikdagi eng notinch va isyonkor o'lkalardan biri bo'lib qolaveradi.

Arablar bosib olgan hududlarda, xususan, Xuroson va Movarounnahrda kuchayib ketgan xalq ommasining ummaviylar xalifaligiga noroziligi kun sayin oshirib bordi. Ummaviylarni siyosiy hokimiyatdan ag'darib tashlashni o'z oldiga bosh vazifa qilib qo'yan raqib guruhlar paydo bo'la boshladi. Ana shunday guruhlardan biri abbosiylar edilar. Bu sulolaga Muhammadning amakisi Abbasning evarasi Muhammad ibn Ali asos solgan. Abbosiylar ummaviylarni rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblaydilar. Abbosiylar o'z g'oyalarini tashviq-targ'ib qilish maqsadida shu guruhning eng ishonchli, sodiq vakillari xalifalikning barcha hududlariga yuborildi.

Ummaviylarga qarshi norozilik harakati xalifa Marvon II (744-750) davrida kuchaydi. Bu davrda ummaviylarga qarshi uyushtirilgan harakatga abbosiylarning e'tiborli va obro'li vakillaridan imom Ibrohim ibn Muhammad boshchilik qildi. Xuddi mana shu davrda Xurosondagi abbosiylar harakatiga boshchilik qilish uchun (746-yil) Abu Muslim (Abdurahmon ibn Asad) yuborilgan edi.

Abu Muslim Xurosonga kelgach o'zining qarorgohi qilib, Marv shahridan uch farsah g'arbda Xarkon kanali bo'yidagi mustahkamlangan Safizanj qishlog'ini tanladi. Abu Muslim o'z faoliyatini Xuroson aholisining yuqori tabaqa vakillariga murojaatdan boshladi. Dastlab arab zodagonlari, so'ngra mahalliy dehqonlar Abu Muslimni qo'llab-quvvatlaydilar. Ummaviylarga qarshi tashviqotning sadosi tez orada Xuroson, Movarounnahr va Toxariston viloyatlariga keng tarqaladi. Mamlakat aholisi xalifalikka qarshi qo'zg'aladi. Qo'zg'olonchilarning deyarli barchasi qora libos kiyib olgan edilar. Avvalo, qora kiyim motam ramzi, qolaversa, zabardast kuch bayrog'i hamda shiddatli janglarda qo'zg'olonchilarni umaviy harbiylardan ajratib turadigan belgini anglatgan.

Yetarli miqdorda kuch to'plaganligiga ishonch hosil qilgan Abu Muslim 747-yilda o'zining qora rangli libos kiygan qo'shinlarini ummaviylarga qarshi ochiq kurashga da'vat etdi. Aynan shu paytda Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor bilan Marv boshlig'i Al-Kirmoniy o'rtasida nizo chiqib, ikki o'rtada urush boshlandi. Sayyor Kirmoniyni asir olib, qatl ettirdi. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor Kirmoniyni qatl ettirib katta xatoga yo'l qo'ydi. Kirmoniyning Azd qabilasi unga dushman bo'lib qoldi. Tahlikaga tushgan Nasr ibn Sayyor 748-yilda Marvni jangsiz tashlab, Nishopurga chekindi. Ammo Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olonchi kuchlar Nasrga hal qiluvchi zarbani berdilar. Bu mag'lubiyat ummaviylar hukmronligi taqdirini uzil-kesil hal qildi. Tez orada qo'zg'olonchilar Xurosonni egallab olib, 749-yilda Iroq va Jazoirda ummaviylar qo'shinlariga bir necha bor qaqshatg'ich zarbalar berdilar. Shundan so'ng Abu Muslim lashkarlari poytaxt Damashqqa tomon yurish qildi va xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dardi.

Shu tariqa xalifalik taxti abbosiylar qo'liga o'tdi. Ular 750-1258-yillar davomida xalifalik taxtini boshqardilar. Xalifalik taxtiga abbosiylardan birinchi bo'lib Muhammad payg'ambarning amaki avlodlaridan Abul Abbos as-Saffoh (750-754) o'tirdi.

Abbosiylarning xalifalik taxtiga chiqishi mehnatkash aholiga hech qanday yengillik keltirmagan. Abu Muslim vositasida abbosiylar tomonidan xalq ommasiga berilgan va'dalardan birortasi ham amalga oshmadi. Abu Muslim Bag'dodda davlat va harbiy kuchlarning yuqori lavozimiga tayinlanadi. Biroq abbosiylar uning xalq orasidagi obro'yining tobora ortib borishiga xayrixoh emas edilar. Oqibat Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrda noib qilib yuboriladi. Mehnatkash aholi o'rtasida abbosiylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish kayfiyati paydo bo'ladi. Bunday qo'zg'olonlardan biri 750-yilda Buxoroda sodir bo'ldi. Qo'zg'olonga asli arablardan bo'lgan Sharik ibn Shayx Almaxriy boshchilik qildi. Abu Muslim mahalliy kuchlar yordami bilan qo'zg'olonnig zo'rg'a bostirdi.

Movarounnahrda arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon tufayli mamlakatda vujudga kelgan ichki ziddiyat va to'polonlardan foydalangan Xitoy davlatining qo'shinlari sarkarda Gao-Syan-Chji boshchiligidagi Markaziy Osiyo hududiga bostirib kiradilar. 751-yilda Talas vodiysida Xitoy qo'shinlari bilan Abu Muslim tomonidan yuborilgan lashkarlar o'rtasida dahshatli jang bo'ldi. Bu jang arablarning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Abbosiy xalifalar Abu Muslimni taxtga birinchi da'vogar hisoblab, uni yo'qotish payiga tushdilar. Nihoyat, 755-yilda Xalifa Mansur (754-775) Makkaga yo'lga o'tlangan Abu Muslimni o'z saroyiga kirib o'tishini so'raydi. Qurolsiz va yolg'iz saroyga kirgan Abu Muslimni Mansur poyloqchilari qo'lga olib, uni o'ldiradilar. Bu dahshatli fojia Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarini yanada kuchli tus olishiga turtki bo'ldi. Ana shunday harakatlardan biri 755-yilda Reyda Sunbod boshchiligida bo'lib o'tdi. Tabariy ma'umotlariga ko'ra, Bu qo'zg'olon, 70 kun davom etgan. Qo'zg'olon qattiqqoilik bilan bostirilgan, qo'zg'olonchilardan olti mingga yaqin kishi oidirilgan. Qo'zg'olon rahbari Sunbod qo'lga olinib, qatl etilgan. Sunbod qo'zg'oloni bilan bir vaqtning o'zida Movarounnahrda ham abbosiylarga qarshi harakat boshlangan. Bu qo'zg'olonning rahbari Abu Muslim harakatining tarafdori Ishoq edi.

Movarounnahrda yana bir xalq qo'zg'olonlardan biri 769-783-yillarda bo'lib o'tgan. Qo'zg'olonchilar oq libos kiyganlari uchun tarixda u "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni nomi bilan tilga olinadi. Bu harakatning rahbari Hoshim ibn Hakim ismli hunarmand bo'lgan. U boshi va yuziga ko'k parda tutib yurganligi uchun uni "Muqanna", ya'ni "Niqobdor" laqabi bilan atashgan. Muqanna Xurosonda kichik lashkarboshidan vazirlik darajasigacha ko'tarilgan.

Muqanna ajnabiylar hukmronligi va zulmiga qarshi qo'zg'alishga da'vat qilib, Movarounnahrda yo'l oladi va o'z yaqinlari bilan Naxshab va Kesh shahriga yetib boradi. Kesh yaqinida tog' tepasiga bino qilingan Som qal'asini o'z qarorgohiga aylantiradi. Tez orada butun Qashqadaryo vohasi "Oq kiyimlilar" qo'liga o'tadi. Natijada "Oq kiyimlilar" harakati kengayib, katta xalq qo'zg'oloniga aylanadi. U ayniqsa Sug'dda avj olib, Eloq (Ohangaron) vodiysi va Shoshga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Qo'zg'olonda turli tabaqalar qatnashadi.

"Oq kiyimlilar" qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa Mansur 775-yilda katta harbiy kuchni Movarounnahrda safarbar qiladi. Muqannaga qarshi kurashgan arablarning Jabroil ibn Yahyo va Maoz ibn Muslim boshchiligidagi birlashgan kuchlari ham ular ustidan sezilarli yutuqqa erisha olmagan. Faqat 777-778-yillar davomidagi urush harakatlari chogida buxorolik bir kishi tomonidan iste'dodli sarkarda Sug'diyonning oidirilishi "oq kiyimlilar" uchun juda katta yo'qotish boigan. Shundan so'nggina arablar Samarqandni ishg'ol qilganlar. Narshax va Samarqandda "Oq kiyimlilar" yengilgach, mahalliy mulkdor tabaqa vakillari arablarga yordam bera boshlaydilar.

Kurashning oxirgi bosqichi Kesh vodiysida bo‘lib o‘tadi. 783-yilda Muqannaning Som qal’asidagi qarorgohi qamalga olinadi. Uzoq davom etgan qamaldan so‘ng kurashdan tinkasi qurigan qo‘zg‘olonchilar taslim bo‘ladilar. Istilochilarga taslim bo‘lishni istamagan Muqanna o‘zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo‘ladi.

4.7. Ilk o‘rta asrlarda aloqa vositalari va pochta tizimi

Avvalgi o‘tgan davrlarda mamlakatlar, shaharlar bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatish, xabar va axborotlar almashish va tarqatish ishlarini amalga oshirish masalalari chuqur tarixga ega. Qadimdan xabar almashuvining xar hil turlari bo‘lib, jumladan, ovoqli ya`ni nog‘ora sadolari, olovli, tutunli, yoruqlik nurlaridan foydalanish, kabutarlar yordamida xabar almashish hamda karvonlar orqali estafeta usuli bilan kerakli ishlar tashkil etilgan.

O‘tgan asrlarda davlatlar, shaharlar va zarur joylar bilan aloqa o‘rnatish, axborot almashish, xabar yuborish, o‘zaro muloqot ishlarini tashkil etish Buyuk Ipak Yo‘li orqali amalga oshirilganligi haqidagi ma`lumotlar Arastuning qadimiy qo‘lyozmalarida o‘z ifodasini topgan. Qadimda choparlar yordamida Buyuk Ipak Yo‘li orqali axborot almashish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu karvon yo‘li bo‘ylab, xar 15-20 kilometr oraliqda alohida pochta stansiyalari (rovotlar) bo‘lib, ushbu stansiyalar maxsus xarbiylar tomonidan qo‘riqlangan.

Maxsus choparlik xizmatini o‘tovchilar xonlikning maxsus kumush yoki bronzadan yasalgan 3-6 santimetrli, egalari nomi ko‘rsatilgan tamg‘alar bilan ta`minlangan. Mazkur tamg‘alar choparlarga karvon yo‘llari va belgilangan yo‘nalishlarda erkin harakatlanishlari, xonlik pistirmalaridan bemalol o‘tish, pochta stansiyalarida ovqatlanish, otlarni almashtirish, dam olish va o‘zidagi barcha axborotlarni keyingi choparga uzatish imkoniyatlarini bergan.

VII asrdan boshlab O‘rta Osiyo hududi Arab xalifaligi tomonidan amalga oshirildi. Arab xalifaligi g‘arbda Ispaniyadan sharqda Xitoy chegarasigacha bo‘lgan hududni egallagan ulkan hududni egallagan. Shuning uchun bu uch qit’ada joylashgan mamlakatda pochta tizimini rivojlantirish hayotiy zarurat edi. Arab tarixchisi At-Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarida turklar yurtida joylashgan rabotlar, ularning ta`minoti va umumiy aloqa tizimi haqida ma`lumot beriladi. Yana bir arab tarixchisi Ibn al-Xamadoniyning “Axxor al-Buldon” asarida O‘rta Osiyo hududida, shimoliy karvon yo‘llari bo‘yida tashkil etilgan pochta bekatlari haqida ma`lumot beradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Eftaliylar davlatidagi boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?
2. O'rta Osiyoda qachon yerga egalik munosabatlari shakllana boshlagan?
3. Turk xoqonligidagi davlat boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?
4. O'rta Osiyoni arablar qachon, qanday istilo qildilar?
5. Arablar hukmronligi davrida davlat boshqaruv tizimi qanday bo'lga
6. Muqanna qo'zg'olonining boshlanish sabablarini aniqlang.
7. O'rta Osiyoga islom dinining yoyilishi qanday ahamiyatga ega?
8. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda aloqa vositalari va pochta tizimi holati qanday bo'lgan?

5- MAVZU. IX-XII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIIY-SIYOSIY VA IQTISODIY HAYOT. O‘RTA OSIYOLIK ALLOMALAR JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Asosiy tushuncha va iboralar: islohot; dargoh; devon; iqto; ilokxon; vazir; renessans; hadis; so‘fiylik; pochta xizmati; ilmiy aloqalar.

5.1. Tohiriylar va Somoniylar davlatining tashkil topishi.

IX asr boshlariga kelib Arab xalifaligida yuzaga kelgan bo‘hronli vaziyat, siyosiy tanglik, Xuroson va Movarounnahrda kechayotgan ziddiyatli jarayonlar, eng muhimi, bu hududda yuz bergan Rofe ibn Lays qo‘zg‘oloni (806-810) mazkur o‘lka xalqlari uchun xalifalik tobeligidan qutilish, yurt mustaqilligini qo‘lga kiritish yo‘lida qulay imkoniyatlarni vujudga keltirgandi. Xususan, mashhur xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan so‘ng xalifalik taxtini egallash uchun uning o‘g‘illari – Amin va Ma‘mun o‘rtasida keskin kurash boshlangan edi. Bir necha yilga cho‘zilgan bu siyosiy mojaro nafaqat xalifalik markazini tang ahvolga solib qolmasdan, balki unga tobe bo‘lgan hududlardagi voqealar rivojiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Ma‘munga xizmat qilgan xurosonlik Tohir ibn Husayn (Hirot viloyatining Bushang shahridan) qo‘shini Aminga qarshi kurashib, 813-yilda Bag‘dodni egallab, xalifalik taxtiga ko‘tariladi. Xalifalikda Tohir ibn Husayn katta hurmat-e‘tiborga loyiq nufuzli kishi bo‘lib qoldi. 821-yilda u Xurosonning noibi etib tayinlandi. Movarounnahr ham Xuroson noibligi tarkibiga kirar edi. Tohir o‘z qo‘l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan-ochiq harakat qilib, noiblikka tayinlangan kundan bir yil o‘tar-o‘tmas, jome‘ masjidida juma namozida o‘qiladigan xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi. Bu o‘sha davr uchun xalifaga qarshi ko‘tarilgan isyon bilan teng edi. Bu voqeadan ko‘p vaqt o‘tmay Tohir ibn Husayn to‘satdan (822-yilda) vafot etdi.

Tohirning o‘limi haqida mish-mishlar tarqalgani uchun xalifa uning o‘rniga navbatma-navbat o‘g‘illari Talxa ibn Tohir (822-830) va Abdulloh ibn Tohir (830-844)ni Xuroson noibi qilib qo‘yadi. Shu bilan Xuroson va Movarounnahrda yangi Tohiriylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Abdullohning noibligi davrida (830-844) Xuroson xalifaga

rasman tobe bo'lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib, poytaxt Marvdan Nishopurga ko'chirildi.

Tohiriylar hukmdorlar, ayniqsa, so'nggi hukmdorlar: Tohir ibn Abdulloh (844-862), Muhammad ibn Tohir (862-873) davrida oddiy xalq ahvoli ancha og'irlashadi. Ular haddan ziyod o'pimon va soliqlar to'lashga majbur etiladi. Jumladan, birgina 844-yilda ulardan olinadigan soliq miqdori 48 mln. dirhamni tashkil etgan. Bu holatlar tohiriylarga qarshi xalq g'alayonlarini kuchayishiga sabab bo'lgan. IX asrning 60-yillaridan e'tiboran Tohiriylar hukmdorlariga qarshi xalq harakatlari yanada kuchaydi. Bu harakatlarga g'oziyalar boshchilik qildilar ("g'oziyalar" asosan ko'chmanchi qabilalar hujumini bartaraf qilish maqsadida kambag'al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo'shin edi). Ularning harakatini aka-uka Yoqub va Amir ibn Lays boshqardi. Ular dastlab Seyistonda hokimiyatni qo'liga olgach, 873-yilda Tohiriylarning qo'shinlariga katta zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egalladilar. Shu davrdan e'tiboran tohiriylar sulolasi barham topdi.

Movarounnahrda Arab xalifaligi hukmronligidan so'ng dastlabki mustaqil davlat Somoniylar davlati hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek, xalifa Ma'mun o'ziga sodiqlik bilan xizmat qilgan mahalliy hukmdorlarga bir qator huquqlar bergan edi. Bunday huquqlar mahalliy hukmdor Somonxudot nabiralari ham beriladi. Ulardan Nuhga Samarqandni, Ahmadga Farg'onani, Yahyoga Shosh va Ustrushonani boshqarish huquqlari berilgan edi. IX asr o'rtalariga kelib Ahmad va uning katta o'g'li Nasr Somoniylar Movarounnahrning katta qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi va Samarqandni poytaxt deb e'lon qiladi. Nasr Somoniy (865-888) davrida Movarounnahr mavqeyi ancha kuchaydi. IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tadi. Nasr butun Movarounnahrning hukmdoriga aylanadi. U kumush dirham zarb etadi.

873-yilda Tohiriylar taxtdan ag'darilgach, uning tarkibiga kirgan Buxoro ham Somoniylar tasarrufiga o'tadi. Nasr ukasi Ismoilni Buxoroga noib etib tayinlaydi (874) va Movarounnahr to'liq Somoniylar qo'liga o'tadi. Keyinchalik ikki aka-uka o'rtasidagi kelishmovchiliklar sababli 888-yilda urush kelib chiqib, bu urushda Ismoil Somoniy g'olib chiqib, 892-yildan boshlab esa Ismoil Somoniy Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoladi.

Ismoil Somoniy o'z davrining qobiliyatli, serg'ayrat va zukko davlat arbobi bo'lib, Movarounnahr hududida yirik markazlashgan

davlatga asos soldi. U o'z davlatiga doimo xavf solib turgan ko'chmanchilar ustiga 893- yilda qo'shin tortdi, Taroz shahrini egallab, shimoldan bo'ladigan hujumlarga barham berdi. Kuchayib borayotgan va mustaqillikka intilayotgan Ismoil Somoniy siyosati Arab xalifaligini tashvishga solayotgan edi. Shu bois xalifa Mu'tazid Somoniy bilan Xuroson noibi Amr ibn Laysni to'qnashtirib, o'z maqsadiga erishmoqchi bo'ldi. 900- yilda Ismoil hal qiluvchi jangda Amr ibn Laysni engib, Xurosonni ham o'ziga qo'shib oldi. Natijada, xalifa Somoniy davlatini tan olib, unga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Ana shu tariqa IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi hukmronligidan xalos bo'ldi.

Somoniy davlati muayyan tarixiy bosqichlarda ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarda qanchalik yuksalish, muhim o'zgarish jarayonlarini boshdan kechirmasin, biroq keyinchalik asta-sekin tushkunlik, parokandalik sari yuz tutgan. X asming ikkinchi yarmidan boshlab, xususan keyingi Somoniy hukmdorlar: Abdumalik ibn Nuh (954-961), Mansur ibn Abdumalik (961-976), Nuh ibn Mansur (976-997), Mansur ibn Nuh (997-999), Abdumalik ibn Mansur (999-1000) davrida mamlakatda ham mahalliy hukmdorlar, amaldorlar o'rtasida, ham hukmdor sulola vakillari o'rtasida o'zaro ichki nizolar, ziddiyatlar to'xtovsiz kuchayib bordi. Natijada Somoniylar davlati inqirozga uchrab, Movarounnahr va Xurosondagi Somoniylarga tegishli boigan hududlar Qoraxoniylar va G'aznaviylar tomonidan bolib olinadi.

5.2. Somoniylar davlatida boshqaruvi va xo'jalik tizimi

Somoniy davlati tepasida amir turgan. Amirlikning ma'muriy tizimi quyidagicha bo'lgan: dargoh (amir saroyi) va devon (davlat idorasi). Saroydagi eng ulug' mansabdor – xojibi buzurg (ulug' xojib) bo'lib, unga saroy ahliga ko'z-quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan edi. Undan keyin sohibi haros (saroy soqchilari boshlig'i) turgan. Amiri haros oliy hukmdor farmonlarini ijro etgan. Dargohning xo'jalik ishlari bilan vakil shug'ullangan. Davlat boshqaruvi Buxoro Registoni atrofida joylashgan unta devon qo'lida bo'lgan. Devoni vazir yoki xojayi kalon barcha ma'muriy, siyosiy na xo'jalik muassasalarini nazorat qilgan. Vazir barcha harbiy kuchlarni ham boshqargan.

Somoniy davrida quyidagi devonlar bo'lgan:

1. Devoni mustavfiy – moliyaviy ishlar devoni, uni xazinachi boshqargan.

2. Devoni amid – elchilik va muhim davlat ishlarini boshqargan. U devoni rasoyil, devoni insho ham deyilgan.

3. Devoni sohibushrot – sipohiylarni va shox saroyini moddiy jihatdan ta'minlagan yiliga to'rt marta lashkar sipohiylariga maosh berilgan.

4. Devoni sohibbarid – davlat elchilari va viloyat hokimlari ustidan maxfiy nazorat ishlarini boshqargan.

5. Devoni muxtasib – bozorlarda tarozu va narh-navoni, keyinchalik aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilib turuvchi muassasa.

6. Devoni mushrif (nazorat qiluvchi) – xazina kirim-chiqimi va boshqa muhim davlat ishlarini nazorat qilgan.

7. Devoni qozi.

8. Devoni ziyo.

9. Devoni mamlakati xos (davlat mulklarini boshqargan).

10. Devoni vaqf mavjud bo'lgan.

Barcha devonlarning viloyat va shaharlarda bo'limlari bo'lib, hokimlarga bo'ysungan. Faqat devoni barid muassasalari markaziy davlatga bo'ysungan. Shaharlar maxsus raislar tomonidan boshqarilgan. Amaldorlar orasida ruhoniylarning nufuzi yuqori bo'lib, ular Shayxulislomga itoat qilganlar.

Somoniylar qo'shinlari muntazam va mahalliy hokimlar qo'lidagi ixtiyoriy yo'llangan lashkardan tashkil topgan edi. Somoniylarda sud ishlari shariat qonun-qoidalariga asoslangan edi. Sud ishlari qozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayoni qozikalon, qozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Og'ir jinoyat qilganlar o'limga yoki uzoq muddat qamoq jazosiga mahkum etilgan.

Davlat xizmatchilari (amaldorlar) boy dehqonlar (yirik yer egalari)dan tayinlangan. Bunda ular yuqori tabaqadan bo'lishlaridan qat'i nazar, bilimdon, ma'rifatli kishilar bo'lishlari shart edi. Amaldorlar arab va fors tillarini, shariat qoidalarini (qonunlari)ni yaxshi bilishlari talab qilingan. Shuningdek, ular dunyoviy bilimlardan ham yaxshi xabardor bo'lishlari ko'zda tutilgan.

X asrlarda xo'jalikning barcha sohalari rivojlana boshladi. Jumladan, konchilik nihoyat darajada taraqqiy etdi. Temir, mis, qo'rqoshin, oltin, kumush, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olindi. Xatto Farg'onada toshko'mir va neft topib ishlatilgan. Bu davrda mamlakatda bir tomondan dehqonchilik ikkinchi tomondan hunarmandchilikning rivojlanishi ichki va tashqi savdoning kuchayishiga olib keldi.

X asrda tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng

foydalanilgan. Ichki bozorda “fals” deb atalgan mis chaqa, savdo sotiqda esa kumush tanga-dirhamlar ishlatilgan. Somoniylar “ismoiliy”, “muhammadiy”, “qitrifiy” nomlari bilan bir necha kumush dirhamlar chiqarganlar. Somoniylar davlati yer egaligiga asoslanganligi tufayli undagi mulkiy bo‘linish ham turli xil shakllarga ega bo‘lgan. Bular quyidagilardir:

1. Mulki sultoniy – sulton (amir)ga tegishli yerlar. Undan tushadigan daromadlar davlat xazinasiga o‘tkazilar edi. Bu daromad juda katta yer-mulklarni, shu jumladan, ko‘p sonli dehqon mulklarini ham o‘z ichiga oladi.

2. Mulk yerlari – xususiy mulk yerlari. U asosan hukmron sulola vakillari hamda yuqori tabaqa namoyondalari ixtiyorida yerlar.

3. Vaqf yerlari – bu machit, madrasa va boshda diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar. Ulardan keladigan barcha daromadlar musulmon ruhoniylari manfaatlari uchun sarf qilingan. Bu yerlar soliq to‘lashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan.

Markazlashgan davlatdagi siyosiy barqarorlik jamiyat hayotining turli tomonlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon ijtimoiy hayotda iqtisodiyot va madaniyatda ham o‘z ifodasini topdi. Bu yerdagi shaharlar qisqa muddat ichida musulmon Sharqining har tomonlama rivojlangan yirik shaharlariga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Somoniylar davlati har qancha kuchli bo‘lib ko‘rinsa-da biroq u barcha ijtimoiy ziddiyatlarni xal eta olmadi. Bu oxir oqibatda uni ichdan yemirdi. Somoniylar davlati ichidagi o‘zaro ziddiyatlarning kuchayib borishi, hambag‘al tabaqalar va yersiz aholinning qo‘zg‘olonlari uning zaiflashuviga olib keldi. Shuningdek, oliy hokimiyat tizimi bilan mahalliy hokimlar o‘rtasidagi ixtiloflarning chuqurlashib borishi esa uning inqirozi bilan tugallandi. Buning natijasida X asr oxiriga kelib, bu hududda qoraxoniylardan iborat yangi sulolaning hukmronligi vujudga keldi va mustahkam lanib bordi.

5.2. Qoraxoniylar davlati. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Qoraxoniylar davlati. X asr o‘rtalariga kelib Yettisuv va Qashqar hududida yashovchi qarluq, chigil va yag‘mo qabilalarining birlashuv jarayoni yangi pallaga kirdi. Qarluqlar madaniy taraqqiyotda boshqa qabilalardan ancha yuqori turgan. Qoraxoniylar davlatining vujudga kelishida chigillar, to‘xsilar, arg‘unlar, yag‘molar, turgashlar, qipchoqlar, o‘g‘izlar, qirqizlar singari urug‘ qabilalari ham muhim rol

o'ynadilar. Bu davlatga yag'mo urug'idan chiqqan, o'z qavmi bilan islom dinini qabul qilgan Sotuq Abdul Karim qoraxon (Buqroxon) asos solgan. "qora" iborasi qadimgi turkiy tilda "buyuklik", "ulug'lik" ma'nolarini anglatgan.

X asrning oxiriga kelib siyosiy jihatdan kuchaygan, harbiy qudratga ega bo'lgan Qoraxoniylar davlati Movarounnahr sarhadlari tomon yurish boshlaydi. Bu davrda Somoniylar tushkunlikka yuz tutib, hukmdorlarining nufuzi va ta'siri tushib ketgan edi. Somoniylar hokimiyatining asosiy tayanchi bo'lib kelgan turk g'ulomlari, ularning sarkardalari somoniy hukmdorlarning izmiga bo'ysunmay qo'ygan edilar. Natijada, 999- yilga kelib Buxoro qoraxoniylar tomonidan ishg'ol qilindi. 1001- yilda Mahmud G'aznaviy bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, Amudaryoning shimolidagi barcha hududlar qoraxoniylarga tegishli bo'lib qoldi. Shu tariqa Somoniylar davlati o'rnida 2 ta – Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlati tashkil topdi.

Somoniylar davrida vujudga kelgan markazlashgan davlat o'rnida mamlakatni udel tizimi (ayrim viloyatlarga bo'lingan tizim) asosida boshqaruv o'rnatildi. Qashqardan Amudaryogacha cho'zilib ketgan katta hudud bir necha viloyatlarga bo'lingan edi. Movarounnahr viloyatlarining poytaxti Samarqand, Farg'onaning poytaxti esa o'zgan bo'lib, qashqarda bosh xoqon istiqomat qilgan.

Shunday ulkan hududdagi barcha yerlar qoraxoniylar xonadanining (sulolasining) shaxsiy mulki hisoblanib, uning tepasida ulug' (bosh) xon turgan. Sulola boshlig'i "xonlar xoni" yoki "sultonlar sultoni" nomi bilan yuritilgan. Rasman bu "Tamqachxon" deb atalgan.

Udellar (viloyatlar)ni qoraxoniylar avlodi vakillari boshqargan. Masalan, Sharofuddin ismli Tamqachxon viloyatlarni aka-ukalari, o'g'illari va qarindosh-urug'lariga bo'lib bergan, o'zi esa bevosita Qashqar va Bolasoqunni boshqargan. Demak, ilgari xonlar, amirlar singari davlat boshqaruvida sulola vorisligi saqlanib qolgan. Ammo "xonlar xoni" (Tamqachxon) bilan viloyat xonlari (iloqxonlar) o'rtasida aloqa, munosabatlar mustahkam bo'lmagan. Qoraxoniylar davlati boshlig'i lavozimi xoqon taxti merosiy sanalgan. Ma'muriy idoralar ikkiga bo'lingan: dargoh va devonga. Xoqonning ulug' xojibi xoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan.

Xoqon harbiy qo'shinlari cherik deyilgan, unga sipoxsolar qo'mondonlik qilgan. Qo'shin o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingan. Xoqon qoshida doim to'qqizta sariq bayroq xilpirab turgan. Xoqonlikda elchi yalovoch deb atalgan. Tamqachxonlar o'z pullarini chiqarganlar. Bu pullar

misdan yasalgan (zarb etilgan) tangalardan iborat edi. Milliy pul chiqarash, ma'lumki, davlat mustaqilligining muhim alomatlaridan biridir.

Qoraxoniylar o'z xususiyatlarini saqlab qolgan holda, somoniylar davridagi idora boshqaruv tartib-qoidalarini qo'llaganlar va somoniylar davlatida xizmat qilgan quyi pog'onadagi ilmi xodimlardan foydalanganlar.

Xoqonlik hududlari el viloyatlarga bo'lingan. El-yurt hokimlari "Iloqxon" viloyat noiblari "takin" deb yuritilgan. Iloqxonlar o'z nomlari bilan chaqa tangalar zarb qilar, viloyatlarning mustaqilligi uchun intilar edilar. Viloyat boshqaruv ma'muriyatida somoniylar davridagidek sohibbaridlar, mustavfiylar xizmat qilardi. Shaharlar va shahar hokimi, rais va muxtasiblar tomonidan boshqarilar edi. Har bir xon o'ziga mustaqil bo'lishga intilgan, bu esa davlatning zaiflanishiga olib keladi. Imomlar, saidlar, sadrlar katta imtiyozga ega bo'lganlar. qoraxoniylar ularni izzat qilib qo'llab-quvvatlaganlar.

Qoraxoniylar davrida bir qator ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ularning asosiy tayanchi bo'lmish ko'chmanchi chorvadorlarning bir qismi dehqonchilik bilan shug'ullanib o'troq hayotga o'tdi. o'troq dehqon aholisi o'rtasida feodal munosabatlarning rivojlanishi tez sur'atlar bilan bordi va sinfiy tabaqalanish jarayoni kuchaydi.

Ilgari jamiyatda, davlatda katta mavqega, imtiyozlarga ega bo'lgan yirik yer egalari (ma'lumki, ular dehqonlar deb atalardi) qoraxoniylar hukmronligi davrida o'z imtiyoz-ustunliklarini yo'qotdilar, xatto ko'plari yerlaridan mahrum bo'ldilar, oddiy xalq qatoriga tushib qoldilar. Shu vaqtdan boshlab "dehqon" so'zi yerda ishlaydigan oddiy tabaqaga tegishli bo'lib qoldi. Davlat ixtiyoriga o'tgan dehqon yerlari harbiylar, ruhoniylar va boshqa oliy tabaqa vakillariga xizmatlari evaziga iqta sifatida bo'lib beriladi. Shu davrdan boshlab, zamindorlar "iqtadorlar" deb atala boshlandi.

Qoraxoniylar davrida hududimizda turklashish jarayoni, ya'ni turkiy qabilalarning, turkiy tilning bu zaminda yashab kelayotgan sharqiy Eron tilida so'zlovchi qabilalarga, elatlarga tasiri, turkiy urf-odatlarining yoyilishi, hayotga kirib borishi kuchaydi. Qoraxoniylar hukmronligi davri o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirgiz, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarning etnik shakllanishida muhim bosqich bo'ldi.

Turkiylarning mavqei oshdi, o'troq aholi son jihatdan ko'paydi, aholi o'rtasida ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchaydi. Mamlakatda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, me'morchilik, madaniyat, san'at ravnaq topdi.

XI asrning 40- yillariga kelib qoraxoniylar o'rtasidagi sulolaviy kurashlar oqibatida xonlik ikkiga bo'linib ketadi. Harbiy xonlik markazi Buxoro bo'lib, unga Movarounnahr va Farg'onaning harbiy hududlari kirgan. Sharqiy xonlik markazi Bolasoqun bo'lib uning tarkibiga Talos, Isfijob, Shosh, Farg'onaning sharqiy qismi, Yettisuv va Qashg'ar yerlari kirgan. Qoraxoniylarning yer, mol, dunyo va davlat talashib g'aznaviylar, saljuqiylar va qoraxoniylar bilan olib borgan urushlari natijasida davlat kuchsizlanib boradi. 1130- yilda qoraxoniylar davlati saljuqiy Sulton Sanjarga qaram bo'lib qoldi. 1211- yilda esa Xorazmshoh Aloviddin Muhammad qoraxoniylarga so'nggi zarbani berdi va Movarounnahrda qoraxoniylar sulolasini tugatdi.

5.3. Xorazmshohlar (Anushteginiylar) davlati.

Xorazmshohlar davlati 1017- yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etib, o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Xorazm ko'p vaqt o'tmay (1044), saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoldi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh o'z ma'murlaridan Anushtakinni Xorazmga noib hukmdor qilib tayinlaydi. Anushtakin vafotidan so'ng Xorazmda uning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097-1127) noiblik qildi.

Xorazmning mustaqilligi uchun kurash XII asrning ikkinchi choragidan boshlanadi. U Qutbiddin Muhammadning o'g'li Otsiz (1127-1156) nomi bilan bog'liqdir. Mohir diplomat va g'ayratli lashkarboshi Otsiz va uning vorislari Xorazmni saljuqiylar tasarrufidan ajratib olindi. Otsiz siyosatini uning vorislari Elarlon (1156-1172) va Alouddin Takash (1172-1200) davom ettirdilar.

1156- yilda Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchilar isyon ko'tardi. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab, parchalanib ketdi. Xorazmning hukmronlik doirasi kengayib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlandi. Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi Takash davrida kengaydi. U 1187- yili Nishopurni, 1192- yilda Rayni, 1193- yilda Marvni egalladi. 1194- yilda Saljuqiylar sultoni Tug'rubek II ga zarba berdi. Butun Sharq va g'arbiy Eron hududlari Takash qo'lga o'tdi va Xorazmshohlar davlatining yerlari ikki barobardan ko'proq kengaydi.

Takash davlati harbiy feodal davlat edi. Uning doimiy 150 ming kishilik qo'shini bor edi. Xorazmshohlar davlatining siyosiy tizimi ancha samarali edi. Unda devon bosh idora hisoblanar edi. Devon tepasida turgan vazir davlat ichki va tashqi siyosatini o'z qo'li ostidagi xodimlar orqali amalga oshirar edi. Takashning xotini Turkonxotun tufayli Xorazmga kelgan turk zodagonlari va qipchoqlar davlatning

barcha mas'uliyatli lavozimlarini va qo'shinda qo'mondonlik o'rnini egallaydilar.

Takashdan so'ng uning o'g'li Sulton Muhammad Alovuddin (1200-1220) ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. Dastlab u Xirot va uning atroflari hamda Xurosonning Xorazm davlatiga kiritilmagan viloyatlarini egalladi, U qoraxoniylarga zarba berib, Movarounnahrni ular qo'lidan tortib olishga harakat qildi.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoliy-g'arbiy va harbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubiy g'arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubiy-sharqiy hududlari qazna viloyatidan, shimoliy-sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti qipchoqdan o'tar edi. Bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Biroq qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar Xorazmshoh Alovuddin Muhammadni esankiratib qo'ydi. U o'zini dunyoda eng qudratli, yengilmas shoh deb hisobladi. Shu bilan birga o'zini "Iskandari soniy" ("Ikkinchi Iskandar") deb ham atay boshladi.

1217- yil Xorazmshoh lashkarlarining Bog'dodga qarshi yurishida omad uncha boqmad. Biroq, 1219- yil mo'g'ullar Movarounnahrga hujum boshlaganligi to'g'risida xabar keldi. Xorazmshoh faqat tashqi ko'rinishdangina kuchli ko'rinar edi. Viloyat hukmdorlarining isyonlari, xalqning norozilik harakatlari Xorazmshoh davlatni zaiflashtirdi. Chingizxon boshliq mo'g'ullar hujumiga bardosh bera olmay, saltanat tez fursatda qo'ladi.

5.4. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda aloqa tizimi taraqqiyoti

IX-XII asrlar O'rta Osiyo tarixida rivojlanish davri hisoblanadi. Bu rivojlanish nafaqat ilm-fan va madaniyat sohasida, shuningdek, iqtisodiyot sohasida ham kuzatildi. Albatta, bu taraqqiyot asosida bir necha faktorlar yotadi. Ular ichida aloqa tizimi o'ziga xos ahamiyatga ega.

X-XI asrlarda O'rta Osiyoda Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar va Anushteginiylar hukmronligi o'rnatildi. Bu davrda ilm-fan va tashqi aloqalarning rivojlanib borishi pochta xizmatiga bo'lgan talabni oshirdi. Shuning O'rta Osiyodagi yuqorida nomlari keltirilgan mahalliy va tashqi davlatlar orasida pochta-korrespondentlik xizmati faoliyati qayta tashkil etildi. Pochta bekatlarining moddiy ta'minoti yaxshilandi. Hamda pochta xizmati tarmog'i kengaydi. Ibn Xordadbek "Kitob al-Masalik va al-Mamalik" ("Mamlakatlar va yo'llar kitobi") asarida xalifalik hududida pochta xizmati tarmog'i ko'lami haqida quyidagi ma'lumotlar keltiradi: musulmon davlatlarida taxmiman 930 ta pochta bekati bo'lib, ularning

ta'minoti (ot sotib olish, bekat boshlig'i va xabarchilar maoshi) uchun shu davr uchun ulkan summa – 159 ming dinor sarflangan.

O'rta asrlarda shoshilinch va xos hujjatlarni yetkazishda ba'zi holatlarda harbiy qismlar xizmatidan ham foydalanilgan. Masalan, Abulfayz Bayhaqiyning asarida keltirilishicha, harbiy qismlar yurishda bo'lgan Ma'sud G'aznaviyga qisqa muddat ichida Balxdan Termiz orqali Chag'oniyonga maxsus maktubni yetkazishgan. Nizomulkning "Siyar ul-Muluk" asarida davlatda barqarorlik va tinchlikni saqlashda xabarchilar ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Ushbu asar o'rta asrlar sharq mamlakatlarida davlat boshqaruvi bo'yicha qanday ahamiyatligini e'tiborga olsak, shunchalik pochta xizmatining davlat uchun ahamiyatini ham ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, pochta xizmati o'rta asrlar davlatlari hududiy birligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun davlat boshqaruv tizimi tarkibida pochta aloqasi bilan shug'ullanuvchi maxsus xizmatlar bo'lgan. Masalan, Somoniylar davlat boshqaruvi o'nta devondan iborat bo'lib, ulardan biri – "Devoni barid" maxsus pochta xizmatini tashkil etishda mas'ul bo'lgan. Ushbu bo'lim boshlig'i bosh vazirga emas, balki bevosita oily hukmdorga bo'ysungan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. IX asr boshidagi Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat qanday bo'lgan?
2. Movarounnahrda Somoniylar davlati qanday boshqaruv tizimini joriy etdi?
3. Qoraxoniylar davlati tashkil topishida qaysi qabilalar rol o'ynagan?
4. Qoraxoniylar davlatidagi boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?
5. Xorazmshohlar davlatiga qachon asos solindi?
6. Xorazmshohlar davlatining yuksalish jarayoni nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Somoniylar, Qoraxoniylar va G'aznaviylar o'rtasida aloqalar.
8. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda aloqa tizimi qanday tashkil etilgan?

6- MAVZU. O'RTA OSIYO XALQLARINING MO'G'UL BOSQINCHILARIGA QARSHI KURASHI. JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATI

Asosiy tushuncha va iboralar: tuman; ulus; qurultoy; bosqoq; xon; bosqin; begar; payza; aloqa.

6.1. Chingizxon tomonidan mo'g'ullar imperiyasiga asos solinishi hamda uning Xorazmshohlar davlati bilan munosabatlari

XI-XII asrlarda mo'g'ullar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda qoloq hisoblanar edi. Ularda xali urug'-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo'lib, asosan chorvachilik, ovchilik va o'zaro tovar ayirboshlash, savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelishgan. XII asr oxiri – XIII asr boshlarida mo'g'ul urug' boshliqlari orasida ichki kurashlar avj oldi. Bu kurashlarda Temuchin ismli bahodir g'olib chiqib, 1204-1205- yillarda ko'chmanchi chorvador urug'larni siyosiy jihatdan birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1206- yilda u Onon daryosining yuqori qismida qurultoy chaqirdi. Bu qurultoyda Temuchinga Chingizxon unvoni berildi, ya'ni kuchli, qattiq, shiddatli xon ma'nosini bildirgan.

Ana shu tariqa Temuchin ko'p sonli jangari qabilalar saltanatining kuchli hukmdoriga aylandi. Bu saltanat qudratining o'zagini Chingizxon yurgizgan qattiqo'l va huquqiy jihatdan asoslangan, markazlashgan siyosat tashkil etdi. Diniy va ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarini o'z ichiga olgan bu huquqiy siyosat 1206- yildagi qurultoyda qabul qilingan, "Yasoq" qonunida asoslab berilgan edi. Ta'kidlash joizki, "Yasoq" ko'p yillik hayot tajribasi, qabila va urug'larning urfu-odati, an'anasi, o'zini oqlagan udumlar asosida tuzilgan edi.

"Yasoq"ning e'lon qilinishi Chingizxonning mutloq hukmdorligini, o'ta qattiq intizomli va kuchli harbiylashgan mamlakatning yuzaga kelganligini isbotlaydi. Ikir-chikirlarigacha mukammal ishlab chiqilgan va harakatga keltirilgan bu ulkan tizim o'zga davlatlar uchun jiddiy xavf edi. Chingizxon qo'shinlari turli qismga bo'lingan bo'lib, o'n jangchiga bir boshlik-o'nboshi va shunga o'xshab yuzboshi, mingboshi va tumanboshilar qo'yilgan. Davlat unvonlari va mansablar – ulug', o'rta va kichik hokimlar dorug'alar, oliy va quyi hokimlardan iborat bo'lgan. Chingizxon davlatining poytaxti Qoraqurum edi. Yozuv va o'qishdan bexabar bo'lgan xon bu boradagi davlat ishlarida uyg'urlar va savdogarlar xizmatidan keng foydalanar edi.

Chingizxon 1207- yilda o'z mamlakatining shimoliy yerlarini,

1207-1208- yillarda Yenisoy daryosi xavzasini, 1211-1215- yillarda Xitoyni egalladi. Ayniqsa, Sin sulolasining qulatilishi va uning natijasida erishilgan behisob harbiy o'lja va boylik, zamonaviy jang asboblari va uskunalar Chingizxon qo'shinini yangi yurishlarga ilhomlantirdi. Mo'g'ullar davlati qisqa muddat ichida O'rta Osiyodagi Xorazmshohlar davlatiga chegaradosh mamlakatga aylandi.

Shunday siyosiy sharoitda Chingizxon va Xorazmshoh davlatlari o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatildi. 1216- yil Chingizxon xuzuriga Xorazmshoh o'z elchilarini yuboradi. O'zaro totuvlik va do'stlik qaror topib, ikki davlat hududlarida savdogarlarning erkin qatnoviga xoxish bildirildi. So'ng, 1218- yili Xorazmshoh yangi elchilarni yuboradi. Bunga javoban Chingizxon Mahmud Yalovoch boshchiligida Xorazmshoh davlatiga elchi yuboradi. Ammo munosabatlar borgan sari keskinlashib bormoqda edi.

1218- yil Chingizxon Xorazmga navbatdagi 500 tuya hamda 450 savdogarlardan iborat savdo karvonini jo'natadi. Biroq O'tror noibi Inalxonning farmoniga ko'ra, karvon talanadi, savdogarlar qirib tashlanadi. O'tror shahridagi elchi va savdogarlar fojiasi ikki o'rtada urush bo'lishini muqarrar qilib qo'ydi. O'tror fojiasi xususida turli ma'lumotlar mavjud. Tarixchi Nasaviyning yozishicha, karvon O'tror shahriga yetib kelganida shahar hokimi, Turkon xotunning amakivachchasi Inolchiqxon undagi qimmatbaho mollami ko'rib, ochko'zligi avj oladi va niyati buzilib, Xorazmshohga "karvondagilar o'zlarini josusdek tutayaptilar", deb shoshilinch xabar yuboradi. Xorazmshoh hokimga karvonni mamlakat ichkarisiga kiritmay, to'xtatib turish haqida buyruq yuboradi. Lekin Turkon Xotun himoyasiga ishongan Inolchiq katta fojiaga qo'l uradi, ya'ni uning buyrag'i bilan karvon qo'lga olinadi, savdogarlar va boshqa kishilar qatl etilib, karvondagi mollar musodara qilinadi. Tasodif tufayli tirik qolgan bir tuyakash Chingizxon huzuriga yetib borib, fojia haqida unga xabar berishga muvaffaq bo'ladi.

Arab tarixchisi Ibn al-Asming yozishicha, Inolchiqxon katta karvonni O'troga yetib kelganligi haqida Xorazmshohga xabar beradi. Xorazmshoh karvondagi barcha savdogar va xizmatchilarni o'ldirishni va boyliklarni saroyga yuborishni buyuradi.

Xorazmshoh albatta, O'tror fojiasi aybdorlarini Chingizxonga topshirish talablarini bajara olmasligi aniq edi. Chunki bir tomondan, Inolchiq Turkon Xotunni amakivachchasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, qipchoq sarkardalari bilan qarindosh edi. Tabiiyki, ular bu ishga, ya'ni

Inolchiqni hibsga olib, Chingizxonga yuborilishiga yo‘l qo‘ymasdilar. Shu sabab Chingizxon bilan munosabatlar yanada keskinlashdi. Shuni ta’kidlash joizki, Xorazmshohning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi otasiga elchilarga nisbatan xushmuomalada bo‘lishni, o‘tror fojiasining asosiy aybdori Inolchiqni Chingizxon huzuriga jo‘natishni maslahat beradi. U Sirdaryo bo‘ylaridan to Suriyagacha cho‘zilgan katta davlatdagi musulmonlarning qoni to‘kilgandan ko‘ra, bitta odamning qoni to‘kilishini afzal bilgan edi. Biroq, shoh Jaloliddinning dono maslahatini inobatga olmaydi. Jaloliddin bo‘lajak dahshatli urushni, qirg‘inni awaldan ko‘ra bilgan edi.

Chingizxon bu voqeadan nihoyatda darg‘azab bo‘lsada, g‘azabini bosib, Ibn Kufroj Buhroni ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan birga Xorazmshoh xuzuriga elchi qilib yuboradi. Chingizxon aybdorni jazolash, Inalxonni unga topshirishni talab qiladi. Xorazmshoh Chingizxonning talabiga javoban elchini o‘ldirishni va ikki mulozimni soqol-mo‘ylovini qirib sharmandali qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikki davlat o‘rtasida harbiy to‘qnashuv muqarrar ekanligini ko‘rsatadi.

Xorazm mamlakatining harbiy qudrati, geografik holati davlat boshqaruvidagi qarama-qarshilik va zaifliklarini obdon o‘rgangan Chingizxon ijtimoiy-siyosiy vaziyat urush uchun nihoyatda qulay ekanini tushunadi hamda 1218- yil chaqirilgan navbatdagi qurultoyda harbiy harakatlar taktikasini ishlab chiqadi.

6.2. O‘rta Osiyoga mo‘g‘ullar hujumi

1219- yilning kuzida Chingizxonning deyarli 200 minglik qo‘shini to‘rt yo‘nalish bo‘yicha Xorazm yerlariga yopirilib keladi. O‘gillari Chig‘atoy va O‘qtoy O‘tror (Sirdaryo bo‘yida)ga, yana bir o‘g‘li Jo‘ji Urganchga, Chingizxonning o‘zi Buxoroga hujum boshlaydi.

Harbiy kengashdayagona to‘g‘ri taklifni (ko‘pchilik nomidan) Shahobiddin al-Xivaqiy kiritdi. U 400 ming kishilik Xorazm qo‘shinini Sirdaryoning narigi tomoniga to‘plash, uzoq yo‘ldan charchab kelgan mo‘g‘ul qo‘shiniga dam olgani qo‘ymay, hujum qilib tor-mor etishni taklif qildi. Kengash ishtirokchisi shahzoda Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ul qo‘shinini Movarounnahrda kirib kelishigayo‘l qo‘yish, keyinchalik mahalliy sharoitni bilganlikdan foydalanib, unga to‘rt tomondan hujum qilib, tor-mor etish taklifini o‘rtaga tashladi. Ba’zilar esa, ko‘p sonli Xorazm qo‘shinini qal’alarga bo‘lib tashlash va har bir qal’aning mudofaasini tashkil etishni o‘sha qal’a himoyachilariga

topshirish taklifini kiritdi. Bu taklif Xorazm davlati uchun kuchli dushman bilan yakkama-yakka kurashishda halokatli taklif edi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, Xorazmshohga ushbu taklif ma'qul keldi. Tarixchi Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh o'zining ko'p sonli qudratli qo'shinini qafalarga bo'lib yuborib, tuzatib bo'lmaydigan katta xatoga yo'l qo'yadi. Hatto, yevropalik tarixchi olimlar ham o'z asarlarida Xorazmshoh Muhammadni Chingizxonga qarshi kurashda noto'g'ri taktika qo'llab, o'z mamalakatini halokatga olib borganlikda ayblaydilar. Sulton Muhammadning qabul qilgan qat'iy qarori bilan amalga oshirilgan himoya natijasida mo'g'ullar bo'linib-bo'lmib ketgan harbiy qismlarni osongina birin-ketin tor-mor qilib, qisqa fursatda Movarounnahrni egallashlariga qulay imkoniyat tug'ilgan edi.

Mo'g'ul istilochilari yo'lidagi dastlabki yirik shahar O'tror edi. Lekin, shahar mudofaachilari mo'g'ullarning quturib qilgan hujumlariga qaramay, ulami qattiq turib qaytarmoqda edilar. Manbalarga ko'ra, O'tror qamali besh oydan ortiqroq davom etgan va uning himoyasida 80 mingdan ziyod askar ishtirok etgan. Qamal paytida mo'g'ullarga ham katta talafot yetkazilgan. Inolchiq sarkardalaridan Qoracha Hojib qarshilik ko'rsatish befoyda deb, mo'g'ullarga taslim bo'lishni taklif qiladi. Inolchiqdan rad javobini olgach, u o'z qo'shini bilan shahardan chiqib mo'g'ullarga taslim bo'ladi.

Nihoyat, boshqa himoyachilar ham dushmanga taslim bo'ladi va mo'g'ullar shaharga bostirib kirib, juda qattiq vahshiyliklar qiladi. Himoyachilar qirib tashlanadi. Hokim Inolchiq esa, tezda qo'lga olinib, uning ko'zi va qulog'iga qo'rg'oshinni eritib quyadilar. Mo'g'ullar sotqin Qoracha Hojibni o'z hukmdoriga sodiq boimagan - bizga ham sodiq boimaydi, deb qatl etdilar. Shunday qilib, O'tror shahrining mudofaasi Xorazmshohning loqaydligi tufayli fojia bilan tugaydi. Bu vaqtda Jo'chi boshliq mo'g'ul qo'shini Sirdaryoning quyi qismida joylashgan Sig'noq shahrini yetti kunlik qamaldan so'ng ishgo'l qildi. Dushman shahar himoyachilaridan qattiq o'ch oldi.

Ammo oddiy xalq va o'z yerining ozodligi uchun kurashgan hokimlar mo'g'ullar istilosiga qarshi jiddiy kurashga bel bog'laydi. O'tror shahri Inalxon boshchiligida 5 oy davomida qamal xolatida bosqinchilar hujumlarini daf etadilar. Nihoyatda katta talofat ko'rgan mo'g'ullar kuch safarbar etib shaharni egallagach, uning ximoyachilaridan shafqatsiz o'ch oladilar va ular bo'ysunmas shaharni yer yuzidan yo'q qilib tashlash uchun ko'p harakat qilganlar.

Xo‘jand shahriga endigina hokim etib tayinlangan jasur sarkarda Temur Malik taqdiriga esa dushmanning katta kuchiga qarshi kurashish yozilgan edi. Jon-jahdi bilan Xo‘jandni himoya qilgan Temur Malik kuchlar nisbatidagi katta farqni yaxshi tushunib, 72 ta qayiq tayyorlatdi. Qayiqdari hamda odamlari bilan ko‘p qurbonlar berib, daryo oqimi bo‘ylab suzib, mashaqqatlar bilan bilan Urganchga yetib keldi. Xo‘jand ham dushman tomonidan egallandi. Temur Malik Xorazmda urushga qurbi yetadigan kattagina qo‘shin to‘plab, mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib boradi. Hatto Sirdaryoning quyi oqimlaridagi Yangikent shahrini mo‘g‘ullardan tortib olishga ham erishadi. U keyinchalik Jaloliddin Manguberdi bilan birlashdi.

1220-yil fevralida Chingizxon katta kuch bilan qadim Buxoroni qamal qildi. Noteng dushmanga qarshi Gurxon boshchiligidagi 400 jangchi 12 kun davomida Buxoroning Ark qal'asida taslim bo‘lmay, umrining oxirigacha kurashadilar. Alamga mingan mo‘g‘ullar bunga javoban buxoroliklarning 30 mingini qirib tashlaydilar. 1220- yil martida Samarqandga qarshi harakat boshlanadi. Janglar natijasida shaharliklarning 75 foizi halok bo‘lgan yoki asirlikka olingan.

Samarqand jangidan so‘ng Alovuddin Muhammad tahlikaga tushib, o‘z mamlakatidan qocha boshlaydi. Avval Iroqqa, so‘ng Kaspiy bo‘ylariga ketadi. 1221- yilning fevralida u ayanhli tarzda vafot etadi. Manbalarga ko‘ra, Xorazmshoh o‘limi oldidan saltanatni faqat Jaloliddingina saqlab qolishi mumkinligiga ko‘zi yetgach, uning beliga qilich taqadi. Jaloliddinni taxt vorisi va valiahd deb e‘lon qilingani hamda qolgan farzandlarining uning izmidan chiqmasligi haqidagi barcha vasiyatlarini yozma ravishda Jaloliddinga beradi.

1220-yil kuzida mo‘g‘ullar qattiq hujumlar bilan Termiz shahrini egallab, uni talon-taroj qildi. Endi Chingizxon xorazmshohlaming markazi, tayanchi bo‘lgan Urganch shahrini egallashga bel bog‘ladi. Chingizxon bu shahar istilosiga eng sara 50 ming kishilik askar kuchlarni tashlaydi. Shahar aholisi mudofaaga yaxshi tayyorgarlik ko‘rib, mo‘g‘ullarga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Urganchga mo‘g‘ullar bostirib kelayotganini eshitgan Xorazmshohning o‘g‘illari Uzloqshoh va Oqshohlar shaharni tashlab qochgan edilar. Lekin, ular uzoqqa bora olmadi va Niso (hozirgi Ashxobod) shahri yaqinida mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldilar. Shahami himoya qilish esa, qo‘rqoq va amalparast, o‘zini sulton deb e‘lon qilgan Xumortegin degan kimsaga tekkan edi.

Uzoq davom etgan ko'cha janglarida minglab dushman askarlari o'ldiriladi. Mo'g'ullar shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar. Bu qonli kurash, manbalarda qayd etilishicha, besh oy davom etgan. Mo'g'ullar shafqatsiz jang olib boradilar. Shahar ximoyasida sabot turgan 76 yoshli shayx Najmiddin Kubro (asl ismi Ahmad ibn Umar Xivakiy) ning "Yo Vatan, yo sharaflı o'lim" deb qilgan xitobi ila har qaysi uy uchun jang olib boriladi. Urganch kurashi yetti oy davom etadi. Xaligacha mo'g'ullar hech yerda bunchalik ko'p talofat ko'rmagan edi. Shubhasiz, harbiy kuchda va intizomda ustun boigan mo'g'ullarga qarshi kurashgan urganchliklarning g'alaba qozonishi mushkul edi. Ilojsizlikdan holi tang boib, taslim bolgan Urganch bosqinchilar tomonidan talon-taroj etiladi. Juvayniyning yozishicha, 100 ming nafar hunarmand asirga olinib, qolganlari qirib tashlanadi. Shaharning bosh to'g'oni buzib yuboriladi va Urganchni suv bosib, vayron boladi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng mamlakat hududini tasvirlash nihoyatda og'ir. Bu hududlarda gullab-yashnayotgan shahar va qishloqlar bamisoli kultepaga aylandi, hayot butunlay izdan chiqdi. Bir paytlar aholisi gavjum bo'lgan guzarlar, bozorlar va savdo yo'llari bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Mo'g'ullar bosqini o'lka xalqlarining moddiy va ma'naviy taraqqiyotini bir necha yuz yillar orqaga surib yubordi. Yozma manbalar, nodir va bebaho kitoblar yondirildi, oyoq osti qilindi. Ular xalqning turli sohadagi arboblari, olim-u donolarini, ulug' kishilarining ko'pchiligini qirib tashladilar. Umuman, taraqqiyotga shu qadar katta zarba berildiki, uni XIV asrning deyarli yarmiga qadar ham tiklash juda mashaqqatli kechdi.

6.3. Jaloliddin Manguberdi Vatan qahramoni

Poytaxt Urganchda Jaloliddinga qarshi turli fitnalar tashkil etildi. Natijada u shaharni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Jaloliddin Niso ostonasida 300 dan ortiq qo'shini bilan uning yo'lini to'sib turgan 700 dan ortiq mo'g'ul qo'shinini yengadi. G'aznaga kelib, yangi kuch to'play boshlab, mo'g'ullar ustidan bir necha bor zafar quchadi. Qandahor shahrini qamal qilayotgan mo'g'ullami shiddatli janglardan so'ng tor-mor qiladi. G'aznada uning qo'shiniga har tomondan harbiy kuchlar qo'shila boshlaydi.

Xalaj qabilasi harbiy boshlig'i Sayfiddin Ag'roq, Balx hokimi A'zam Malik, Afg'on lashkarining sardori Muzaffar Malik va qarluqlar yo'l boshchisi Al-Hasan qo'shinlari Jaloliddinga kelib qo'shildi. U Valiyon qa'lasini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlarini ham yakson

qilgach, bu g'alaba xabari Chingizxon gayetib boradi va bundan bezovtalangan xon o'zining eng sinalgan sarkardasi Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shinini Jaloliddinga qarshi yuboradi. Jaloliddin Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlariga qarshi hujum qilib, ularni tor-mor etadi. Bu Jaloliddinning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Ikki yirik qo'shin Afg'onistonning Parvona dashti yaqinida to'qnashadi. Ushbu jangda Sulton Jaloliddin o'zining harbiy talantini yana bir bor namoyon etadi. Jang shafqatsiz, beomon bo'ladi. Jangda Jaloliddin qo'shinlari o'zidan kuchli bo'lgan mo'g'ul qo'shinlarini tor-mor qiladi. Parvonadagi jang mo'g'ullarning birinchi katta mag'lubiyati edi. Jaloliddinning Parvonadagi g'alabasining eng e'tiborli tomonlaridan biri shunda ediki, bir qancha shahar aholisi bu g'alabadan xabar topadi, undan ruhlanib, mo'g'ullarga qarshi isyon ko'taradi, ularning noiblarini o'ldiradi.

Biroq g'alabadan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanadi. Nizo tufayli lashkarboshilar Sayfiddin Ag'roq, Aminlar har biri 20 mingdan ortiq lashkar bilan arazlab ketib qoladi (keyinchalik mo'g'ullar ularning barchasini alohida-alohida yengib, qirib tashlashadi). Jaloliddinning ularni qaytarish yo'lidagi urinishlari naf bermadi. Bu voqeadan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchi zaiflashib qoladi. Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga askar tortadi va ajralib chiqqanlarni alohida-alohida tor-mor etadi. Jaloliddin tengsiz janglar olib borib, Sind (Hind) daryosi qirg'oqlariga yaqinlashib boradi.

Sind daryosi bo'yida bo'yida 1221-yilning 25-noyabrida ikki o'rtada qattiq jang bo'ladi. Jaloliddin Chingizxon qo'shinining ilg'orini yengadi. Mo'g'ullarning pistirmalarga qo'yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangni yakunlaydi. Jaloliddin taslim bo'lishni xohlamay otda Sind daryosiga sakrab, narigi qirg'oqqa suzib o'tadi. U bilan birga uning to'rt ming kishilik askari ham daryodan o'tib oladi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni "Ot sakrash", narigi tomoni "Cho'li Jaloliy" deb ataladi. Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon uni ta'qib qilish fikridan qaytadi. Hatto, u o'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim", – degan ekan. Chingizxon bungacha hech bir shoh, hukmdor yoki sarkardaga tan bermagan va hech kimni o'ziga munosib raqib ko'rmagan edi.

Jaloliddin Sind darayosidan kechib o'tganidan so'ng qolgan jangchilarini to'plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha

davlatlar hukmdorlari bilan aloqa o'rnatishga harakat qildi. Jaloliddin Hindistonda turli jang va fitnalarni boshdan kechirib, uch yil-u yetti oy hukmronlik qiladi. Bu yerda u katta davlat barpo etarkan, unga tevarakatrofdan yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. U o'z davlat chegaralarini kengaytirib, katta kuch to'plab, so'ng mo'g'ullar bilan kurash olib borishni rejalashtirgan edi. Shu maqsadda harbiy yurish qilib, Iroqqa lashkar tortadi. Iroq va Eronning obro'li amaldorlari u tomonga o'tadi. Misr va Suriya hukmdorlari ham unga tobeliklarini bildirib, elchi yuboradi. 1226-yilgacha Ozarbayjon va Gurjistonni jang bilan egallab, 1227-yil 5-sentabrda Jaloliddin Isfahon yaqinida Eronni mo'g'ullardan himoya qiladi va ular ustidan katta g'alabani qo'lga kiritadi.

Jaloliddinning bu yutuqlari, uning kuch-qudrati, obro'-e'tiborining oshib borishi xalifa an-Nosirni bezovta qila boshlaydi va u qanday bo'lmasin Jaloliddinni yo'q qilish payiga tushadi. Al-Nosir mo'g'ullarga qarshi kuchlarni birlashtirish o'rniga, Jaloliddinni yo'q qilishga va boshqa musulmon hukmdorlarni unga qarshi qo'yishga harakat qildi. Bu harakatlari bilan mo'g'ullarga qarshi kurashda yagona qo'shin tuzilishini imkonsiz qildi. Jaloliddin Xorazmshohlar davlati hududida unga qarshi bo'lgan ana shunday ichki raqiblar bilan kurashishga ko'p vaqt va kuch ajratishga majbur bo'ladi.

1230-yil avgustda Ko'niya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari Arzinjon yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberding kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan 1231-yilda Ozarbayjonga bostirib kirib, Jaloliddin Manguberдини ta'qib etishadi. Mo'g'ullar uning qarorgohiga uyushtirgan tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberding oz sonli qo'shinini tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberдини o'zi esa ta'qibdan qutulib Kurdiston tog'lariga chiqib ketadi. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'lga asir tushib, o'ttiz uch yoshida fojiali halok bo'lgan. U o'n yil davomida Markaziy Osiyoning turli nuqtalarida mo'g'ullarga qarshi kurashdi. O'z xalqi yerining mustaqilligi va ozodligi yo'lida astoydil kurashdi. Garchi hhalok bo'lgan bo'lsa-da Jaloliddin Manguberdi bo'ysunmas O'zbekistonparvar, milliy qahramon sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.

O'zbekiston hukumati 1998-yilda Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, Vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi

tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida” qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalariga va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O‘zbekistonda 1999-yili keng nishonlandi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesalar yaratildi, 2000- yil 30-avgustda “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’ sis etildi.

6.4. Chig‘atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy holat va davlat boshqaruvi

Zabt etilgan o‘lka va viloyatlarni Chingizxon hayotlik paytidayoq o‘g‘illari va nabiralariga taqsimlab berdi. Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrda uning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoy ega bo‘ldi. Chingizxon vafotidan so‘ng (1227- y.) O‘qtoy mo‘g‘ullar davlatining ulug‘ xoqoni qilib tayinlandi. Turkiy aholi odati bo‘yicha podshoh yoki xoqon deb, ulus hukmdorlari esa xon deb yuritilardi.

Chig‘atoy davlatini boshqarishda o‘ziga bo‘ysundirilgan xalqlarning yuqori tabaqa vakillari xizmatidan foydalanar edi. U Movarounnahrni bevosita idora etish ishlarini xorazmlik savdogar sudxo‘r Mahmud Yalovochga beradi. Mahmud Yalovoch xalqdan turli soliqlar undirib berar edi. Kalon dehqonlardan olinadigan asosiy soliq bo‘lib, xosilning 10/1 qismini tashkil qilgan. Kopchur chorvadordan olinib, “Yasoq” qonuni bo‘yicha aholidan Shulsi deb atalgan soliq undirilgan. Yuqoridagi soliq va majburiyatlardan tashqari aholi yana mahalliy to‘ralarning zulmidan azob chekar edilar.

Bosqinchilar va mahalliy zodagonlarining zulm va sitamlariga qarshi xalq bir necha bor kurashga ko‘tarildi. 1238- yilda Buxoroga yaqin Torob qishlog‘ida boshlangan qo‘zg‘olonga shu qishloqlik hunarmand Mahmud Torobiy boshchilik qildi. qo‘zg‘olonga Buxoro ruhoniylarining boshlig‘i Shamsuddin Mahbubiy ham qo‘shildi. Qo‘zg‘olonchilar mo‘g‘ul lashkarlarini Buxoro ostonalarida tor-mor keltirdilar. Mag‘lubiyatga uchragan mo‘g‘ullar Karmanaga chekinadilar. Mahmud Torobiy o‘zini Buxoro va atrof yurtlarning hukmdori deb, Shamsuddin Mahbubiy esa sadr deb rasmiy ravishda e‘lon qildi.

Karmana ostonalarida qo‘zg‘olonchilar bilan mo‘g‘ullar o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi. Bu jangda mo‘g‘ullardan 10 ming kishi o‘ldiriladi. Ammo qo‘zg‘olonchilarning rahbari Mahmud Torobiy va Shamsuddin Mahbubiylar ham jangda xalok bo‘ladi. Mahmud Torobiyning ukalari Muhammad va Ali qo‘zg‘olonga rahbarlikni o‘z qo‘llariga olgan bo‘lsalar-da, ular yoshlik va tajribasizlik qildilar. Xo‘jandga yetib kelgan

Mahmud Yalovoch qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi va qo'zg'olonchilar qattiq jazolanadi. Mahmud Torobiy qo'zg'olonining ahamiyati katta edi.

Mahmud Yalovoch amalidan chetlatiladi va Pekinga hukmdor qilib tayinlanadi. Chig'atoy ulusiga Yalovochning o'g'li Ma'sudbek noib hamda ijarador qilib tayinlanadi.

XIII asrning o'rtalarida mo'g'ullar davlatining umumsiyosiy ahvoli og'irlashdi. Chingiziylar o'rtasida ziddiyatlar kuchayadi. 1251- yil Qoraqurumda chaqirilgan qurultoyda ziddiyatlarga chek qo'yish maqsadida Guluxonning bosh farzandi Munka ulug' xoqon etib saylanadi. Munka davrida Chig'atoy ulusi tugatiladi. Ammo tez orada Chig'atoy nabirasi Olquxon Oltin o'rdaga qarshi keskin choralar ko'rib, 1260- yillarda Chig'atoy ulusini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'ladi.

XIII asrning 70-80- yillarida Movarounnahrda sekinlik bilan bo'lsada, shahar hayoti, hunarmandchilik va savdo munosobatlari jonlana boshladi. Ma'sudbek pul isloxoti o'tkazib, o'lkaning 16 shahar va viloyatlarida bir xil vazn va o'lchovda yuqori qiymatga ega bo'lgan kumush tangalar zarb ettirib, muomalaga kiritdi. Chig'atoy avlodlari o'troq madaniy hayotga intilib, asta-sekin mahalliy aholi bilan qo'shib ketadilar. Ular hokimiyatlarini mustahkamlash maqsadida islom dinidan foydalanadilar Chig'atoyning nabirasi Muborakshoh (1364) mo'g'ul hukmdorlaridan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan.

Chig'atoy xonlaridan biri Kebek (1318-1326) qadimgi Nasaf shahri yonida o'ziga saroy qurdirgan. Saroy mo'g'ul tilida "Qarshi" deb yuritilgan. Keyinchalik bu saroy atrofida yangi shahar qad ko'taradi va u ham "Qarshi" deb atala boshlanadi.

Kebek davlatni idora etish tizimini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida ma'muriy va pul sohasida isloxot o'tkazadi. Bu isloxotlar qadimiy ananalarga barham bera olmagan bo'lsada, u Movarounnahrda feodal davlatni mustahkamlashda ijobiy rol o'ynadi. Kebek davrida ichki va tashqi savdoni yaxshilash maqsadida mamlakatda yagona pul birligi joriy qilindi.

Chig'atoy ulusi hukmdorlari davrida yerga egalik qilishning to'rt turi mavjud edi:

1. Mulki devon, ya'ni davlatga qarashli yerlar;
2. Mulki inju-xon noiblari va ularning avlod-ajdodlariga qarashli yerlar;
3. Mulki vaqf-masjid, madrasa, xonaqoh, mozar va maqbaralarga tegishli yerlar;

4. Xususiy mulk yerlar.

1269- yilda Chig'atoy ulusi ikki qismga bo'linib ketadi. Uning Sharqiy qismida – Sharqiy Turkiston, Yettisuvda mo'g'ullarning Duqlat amirligi, harbiy qismida esa Movarounnahr amirligi tashkil topadi. Mo'g'ullar bosqini o'lkamiz moddiy va madaniyati taraqqiyotini bir necha yuz- yillar orqaga yubordi.

6.5. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqinidan so'ng aloqa tizimi ahvoli

Istilolar natijasida yuzaga kelgan ulkan imperiyada boshqaruv tizimini tashkil etishda aloqa muhim vazifani amalga oshirgan. XIII asrda mo'g'ullar imperiyasiga sayohat qilgan venetsiyalik Marko Poloning kundaliklarida bu davlatda yaxshi tashkil etilgan pochta xizmati haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, har bir pochta bekatida doimo 200 dan 400 gacha ot tayyor turishi tasvirlanadi. Aloqa yo'llari va bekatlarida qat'iy intizom o'rnatilishi natijasida pochta faoliyati tartibli tashkil etilgan. G'arb olimlarining ta'kidlashicha, mo'g'ullar imperiyasida kunlik pochta almashinuvi o'rta asrlar uchun rekord – 600 km. doirasida amalga oshirilgan.

Ammo ushbu aloqa bekatlarining ta'minotini yetarli darajada ta'minlash bosib olingan hududlar aholisi zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, elchilar va xabarchilarga juda katta imtiyozlar berilib, ularga maxsus yorliq (payza) taqdim etilgan. Payza egalari mahalliy aholidan ot, oziq-ovqat talab qilish va ularning uylarida turishga haqli edilar. Bu huquqlar odatda suiste'mol qilinib, aholining noroziligiga sabab bo'lgan. Mo'g'ulistonning ulug' xoqoni Munke soliq va hashar ishlarini tartibga solish to'g'risida maxsus farmon – yorliq chiqaradi. Yomlar bo'ylab pochta xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etiladi. Shuningdek, elchilarga, qo'llarida bevosita topshiriqlari bo'lmasa, shahar yoki qishloqlarga kirmasligi va aholidan ular uchun belgilanadigan ortiqcha yem-xashak hamda oziq-ovqat olmasligi uqtiriladi. Shu tariqa aholi o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan hisobsiz to'lovlardan ozod bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Markazlashgan mo'g'ullar davlati qachon qaerda tashkil topdi?
2. XII asr oxiri -XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy ahvol qanday bo'lgan?
3. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilosi necha yo'nalishda boshlandi?
4. Mo'g'ullarga qarshi kurashda kimlar qahramonlik ko'rsatdi?

5. Chigʻatoy ulusi qachon tashkil etilgan?
6. Chigʻatoy ulusidagi boshqaruv tizimi qanday boʻlgan?
7. Mahmud Tarobiy qoʻzgʻolonining sabablarini aniqlang?
8. Moʻgʻullar davlatida pochta tizimi qanday tashkil eilgan?

7- MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY- IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOT

Asosiy tushuncha va iboralar: sarbadorlar harakati; markazlashgan davlat; “Temur tuzuklari”; devonxona; shayx ul-islam; suyurg‘ol; aloqa vositalari; ma’lumot uzatish.

7.1. XIVning ikkinchi tarmida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat. Amir Temurning saltanatining tashkil etishi

Amir Temur 1336- yilning aprel oyida Kesh shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida (hozirgi Yakkabog‘ tumani hududida) barlos qabilasi ulug‘laridan Tarag‘ay Bahodir xonadonida dunyoga keldi. Temurbekning otasi Muhammad Tarag‘oy va amakisi Hoji Barlos barlos qabilasining yirik mulkdorlaridan bo‘lgan. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Amir Tarag‘ay o‘g‘lini yoshligidan aslzodalarga yarasha o‘qitgan va har taraflama bilim bergan: katta-kichik bilan muomala ilmini, ov qilish va harbiy ilmlarni o‘rgatgan. Yosh Temurni yetti yoshidayoq madrasaga o‘qishga beradilar. U madrasaga kelganda alifbodan mukammal xabardor bo‘lgan. O‘n ikki yoshidan boshlab bolalarga xos bo‘lgan ermak o‘yinlardan voz kechib, keyinchalik o‘z tengqurlari bilan sipohiylikka oid o‘yinlar bilan shug‘ullanadi. Amir Temur yoshlik chog‘laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo‘lib, kamondan nishonga o‘q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishni yoqtirar edi.

Amir Temur o‘z zamonisining o‘qimishli va uquvli hukmdorlaridan bo‘lib yetishadi. Tibbiyot, matematika, falakiyot, me’morchilik va tarix ilmidan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan. Amir Temur bilan yuzma-yuz o‘tirib suhbatlashishga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldunning ta’kidlashicha, Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur o‘rgangan, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtira olgan zot ekan. O‘zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o‘zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko‘rsatgan va janglarda chiniqqan. Harbiy mahorat va oliyhimmatlilik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong‘i butun Qashqadaryo vohasi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan.

XIV asrning 60-yillarida Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelganda O‘rta Osiyoda hali mo‘g‘ullar hukmronligi davom etayotgan

edi. 1346-yili Chigʻatoy ulusi xoni Qozonxon amir Qazagʻan tomonidan oidiriladi, 1358-yilda amir Qozogʻon ham oidiriladi, natijada ulus 10 ga yaqin beklklarga bolinib ketadi. Xorazmda soʻfiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloyirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayyidlar hukmronligi boshlanadi. XIV asrning 50-60- yillarida Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik gʻoyatda kuchayib, oʻzaro kurash yanada keskinlashdi. Davlat ishlari esa butunlay izdan chiqqan edi. Siyosiy parokandalik, oʻzaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab boʻlib, oʻlka aholisini, ayniqsa dehqonchilik xoʻjaligini xonavayron qilgan edi.

Mana shunday vaziyatda, 1348- yilda Moʻgʻuliston xoni qilib koʻtarilgan Chigʻatoy naslidan boʻlgan Tugʻluq Temurxon Moʻgʻuliston amirlari ulusning gʻarbiy qismi – Movarounnahrni ham bosib olishga harakat qildi. Bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talab qaytdi. Natijada moʻgʻullar istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlandi. Shunday siyosiy beqarorlik davrida Temurbek siyosat maydoniga dastlabki qadamlarni qoʻymoqda edi.

1360 va 1361- yillarda Tugʻluq Temur Movarounnahrdagi ogʻir siyosiy vaziyatdan foydalanib, uni butunlay oʻziga boʻysundirishga harakat qiladi. U hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryo vohasiga bostirib kirdi. Oʻsha vaqtlarda Qashqadaryo viloyatining hokimi Hoji Barlos dushmanga qarshi kurashish oʻrniga Xurosonga qochdi va oʻsha yerda oʻldirildi.

Amir Temur amakisining viloyatini qoʻldan bermaslik maqsadida Tugʻluq Temurxon ishonchini qozonib uning xizmatiga oʻtdi va Kesh viloyatiga hokim etib tayinlandi. Tugʻluq Temurxon oʻgʻli Ilyosxoja Movarounnahrning hokimi etib yubordi. Ammo Temurbek unga xizmat qilishni istamadi va Balx hokimi amir Husayn ibn Musallab bilan ittifoq tuzdi. Temurbek Amir Husaynning singlisi Oʻljoy Turkon ogʻoga uylangach, ularning ittifoqi qarindoshlik aloqalari tufayli yanada mustahkamlandi. Amir Temurbek avval oʻzboshimcha amirlarga qarshi ichki, soʻngra esa moʻgʻullarga qarshi tashqi kurash olib bordi. Seyistondagi janglarda qoʻli va oyogʻidan ogʻir yaralandi.

1363- yil Tugʻluq Temurxon vafot etib, Moʻgʻulistonda xonlik taxtini Ilyosxoja egallaydi. Oʻsha- yili Amudaryoning chap sohildagi Qunduz shahar yonida moʻgʻullar bilan boʻlgan 1-jangda Temurbek gʻalaba gʻozondi. Shundan soʻng moʻgʻullarni toʻxtovsiz taʻqib etish boshlandi. Moʻgʻullar ham Movarounnahrni osongina berib qoʻyishni istamas edilar. Ilyosxoja 1365- yilda katta qoʻshin bilan Sirdaryo tomon

yo'lga chiqdi. Husayn va Temurbek ham zudlik bilan jangga tayyorlandilar.

Ular o'rtasidagi jang 1365- yilning 22- mayida Chinoz bilan Toshkent o'rtasida bo'ldi. Jang paytida qattiq jala yog'ib, hammayoq loy bo'lganligidan tarixda u "Loy jangi" nomi bilan mashhur bo'lib qolgan. Jangda Temurbek bilan Husayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ularning birlashgan qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Bu mag'lubiyat dushmanga Movarounnahr, xususan, uning markaziy shahri Samarqandga tomon yo'l ochib berdi. Mo'g'ullar Movarounnahrning markaziy viloyatlarida odatiy talon-torajni yana davom ettirdilar.

Bu davrda Samarqandda sarbadorlar harakatining faollari bo'lib, ular shahar aholisini mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olonga undadi. Qo'zg'olonga madrasa talabasi Mavlonozoda, paxta tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Quluyi Naddof va mergan Xurdak Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo'g'ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba berdilar. Temurbek va Husaynlar sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g'alabalaridan mamnun bo'lganliklarini va ular bilan uchrashmoqchi ekanliklarini bildiradilar. Biroq sarbadorlarning boshliqlari Amir Husayn huzuriga kelganlarida ular qatl etiladi. Faqat Mavlonzodani Temurbek o'z himoyasiga olib, qutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar harakati boshliqsiz qoldirilib, Movarounnahrda Amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi. Ammo ko'p o'tmay Husayn bilan Temurbek o'rtasidagi munosabat yomonlashib, ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi.

1370- yil mart oyida Temur yaxshi qurollangan qo'shini bilan Keshdan chiqib, Balxni qamal qilib, shaharni egalladi. Movarounnahrning hukmdori Amir Husayn qatl etildi. O'sha- yili Balxda qo'shin boshliqlarining qurultoyida Temur Amir deb e'lon qilindi va uning hukmronligi rasman qaror topadi. Amir Temur qadimgi odatga binoan oq kigiz ustiga o'tqazilib, yuqori ko'tariladi. Amir Temurning piri Sayyid Baraka duoyi fotiha qilgach, u Movarounnahrning hukmdori deb e'lon qilinadi. Hokimiyat tepasiga kelgan Amir Temur o'z oldiga markazlashgan, kuchli, qudratli davlat barpo etish vazifasini qo'yadi.

7.2. Amir Temur harbiy yurishlari va qo'shin tuzilishi

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yo'lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va

ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Sohibqiron intizomli qo‘shin tuzishga, jang paytida qo‘shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan.

Amir Temur dastlab o‘ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus qo‘shin tashkil qiladi, so‘ngra o‘z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni, shuningdek, Farg‘ona va Shosh viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi. Amir Temur Chig‘atoy ulusining oldingi chegaralarini tiklash maqsadida 1372- yilda Xorazmga birinchi bor yurish qildi. Xorazmliklar mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsalar ham, Amir Temurga bo‘ysunmadilar. Shu boisdan Amir Temur Xorazmga 5 marta yurish qilib, nihoyat, 1388- yilda uni butunlay qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Tashqi siyosatda o‘z yurishini Amir Temur dastavval Xurosondan boshladi. 1381- yil u Hirotni, 1381-84- yillarda Eronning katta qismini egalladi. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga 3 marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda “uch yillik”, “besh yillik” va “yetti- yillik” urushlar nomi bilan mashhur.

Amir Temur Oltin O‘rdaning faqat Sirdaryoning quyi oqimidagi Xorazm va Movarounnahrqa iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bevosita bog‘liq yerlarinigina qo‘shib olmoqchi edi. Bu davrda Oltin O‘rda va Oq O‘rdada 2 mustaqil hokimiyat qaror topib, ular o‘rtasida kuchli nizolar davom etardi. Urusxonning tazyiqidan qochib, o‘z huzuriga homiylik istab kelgan Oq O‘rda xonzodalaridan To‘xtamishga Amir Temur bir necha bor harbiy yordam berdi. 1379- yilda To‘xtamish Amir Temurning homiyligida Oq O‘rda, keyinroq Oltin O‘rdani qo‘lga kiritgandan so‘ng, Amir Temur kutgandek uning ta’siri va panohi ostida qolmadi. To‘xtamish oyoqqa turib olgach, mustaqil siyosat yurgizib, kezi kelganda hatto Amir Temurga qarshi ish ko‘ra boshladi. 1387-88- yillarda To‘xtamish Amir Temurning navbatdagi harbiy yurishi vaqtida fursatdan foydalanib, Movarounnahrqa hujum qiladi. Natijada Amir Temur To‘xtamishga qarshi 1389, 1391 va 1394-95- yillarda 3 marta katta yurish qildi. Ayniqsa so‘nggi 2 yurish uning uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Amir Temur va To‘xtamish qo‘shinlari o‘rtasida so‘nggi shiddatli jang 1395- yilda Shimoliy Kavkazda Terek daryosi vodiysida sodir

bo'ldi. Bu dafa jangda ham Amir Temur o'z dushmaniga qaqshatqich zarba berdi va To'xtamish hukmronligiga barham berildi. Shundan so'ng Amir Temur o'zining diqqat-e'tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyoni zabt etishga qaratdi.

Shunday qilib, 1399-1404- yillardagi harbiy yurishlar natijasida Shomning Halb, Xums, Baalbek, Damashq kabi yirik shaharlari va arab Iroqining Ubuliston o'lkasi bilan Bag'dod zabt etiladi. Usmonli turk imperiyasi sultoni Boyazid I yildirimga tegishli Kamoh qal'asini, so'ngra Anqarani qamal qiladi. Boyazid zudlik bilan Anqaraga ko'makka oshiqadi. Amir Temur bilan Boyazid qo'shinlari o'rtasida jang 1402- yilning 20- iyulida Anqara yonida boshlandi, bu jangda Boyazidning 160 minglik qo'shini mag'lubiyatga uchraydi.

1404- yil mayida Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytib keladi va o'zining Xitoyga bo'ladigan harbiy yurishiga taraddud ko'radi. Safar uchun kerakli ma'lumotlar- yillar davomida Xitoyga yuborilgan savdo karvonlari orqali allaqachon to'plab olingandi. 1404- yilning oxirida qahraton qishda u yaxshi qurollangan 200 minglik qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqadi. Lekin Xitoy ustiga yurish Sohibqironning O'trorda vafoti (1405- yil 18- fevral) tufayli amalga oshmay qoladi.

Amir Temur qo'shiniga chorvadorlar qatori o'troq aholidan ham askar to'plangan. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Amir Temur qo'shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-bosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan.

Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar tuman – o'n minglik, hazora – minglik, qo'shun – yuzlik va ayl – o'nlik birikmalariga bo'lingan. Amir Temur o'n minglik askarni boshqarish uchun tuman og'asi, minglik bo'linmalar uchun mirihazora, yuzliklar uchun qo'shunboshi va o'nliklar uchun esa aylboshi kabi harbiy mansablarni ta'sis etadi. Amir Temur jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo'llagan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo'lib qo'shinga o'tsochar qurol – to'pni olib kirgan. Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil qilingan. Jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman

hujumidan muhofaza qilish va o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – qunbulning joriy etilishi bo'lgan.

Harbiy yurish paytida oldinda xabarchilar, ular orasidan yasovul bo'linmasi, undan keyinroqda manglay – avangard qism borardi. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mondonning qarorgohi va uning yon-atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan bo'lib, u “izofa” deb yuritilgan. Amir Temur qo'shining asosiy jangovar qismlari markaz, o'ng – burong'or va chap – juvong'or qanotlaridan iborat bo'lgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'shimcha qo'riqchi manglay – avangardi, yon tomonida esa bittadan qo'riqchi askariy qo'shilmalar – qanbullar bo'lar edi. Shu tariqa qo'shin yetti qism – qo'llardan iborat edi. Sharafiddin Ali Yazdiy qo'shinni yetti qo'lga – qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi. Bu qo'llar janglarda mustaqil harakat qilib, faqat qo'shin qo'mondoniga bo'ysungan.

7.3. Temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi. Davlat tuzilishi. “Temur tezuklari”

Amir Temur davlat boshqaruvida suyurg'ol siyosatini qo'lladi, davlatni markazdan turib idora etdi. Amir Temur davrida davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi-bosh vazir boshliq 7 vazirlikdan iborat arkoni davlat, Vazirlik mahkamasi turardi. Birinchi vazir – soliq-o'lponlar va mamlakat obodonligi bilan shug'ullangan. Ikkinchisi – harbiy ishlar vaziri bo'lgan. Uchinchi – vazir savdo ishlari, tamg'a, zakot va meros ishlariga qaragan. To'rtinchisi – moliya vaziri, davlat xazinasini boshqargan. Chegara viloyatlari va tobe mamlakatlar boshqaruvini nazorat qilish uchun maxsus 3 ta vazir tayin etilgan. Davlat siyosatida qo'shinga alohida ahamiyat berilgan.

Amir Temur nomi bilan bog'liq bo'lgan, uning siyosiy, huquqiy qarashlari to'plami “Tuzuki Temuriy” (“Temur tuzuklari”), “Voqioti Temuriy” (“Temurning boshidan kechirganlari”) kabi nomlari bilan sharq va g'arbda mashhur bo'lgan asari xorijiy tillarga tarjima qilingan va mamlakatimizda hamda Angliya, Fransiya, AQSh, Finlyandiya, Daniya, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr kabi davlatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

Bu kitobning mashhurligi, dunyoga yoyilishining boisi, unda davlatning idora qilish tamoyillari, usullari, ayniqsa sipohni tashkil qilish va janglarda g'olib chiqish kabi qator siyosiy-huquqiy va harbiy g'oyalarning bo'lishidir. Kitob ko'proq siyosatchilar, shohlar va

shaxzodalar uchun zarur edi. Shuning uchun ham ko'pgina mashhur shohlar kitobni o'z kutubxonalarida asrab, undan davlatlarni idora qilish san'atini o'rganganlar.

Masalan Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi Shoh Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842), Buxoro amiri Abdullaxodxon (1885-1910) va boshqalar xattotlarga buyurib, undan ko'chirmalar olganlar. Alisher Navoiy ham Husayn Bayqaroga Temurning tuzuklarini o'qib turishini maslahat bergan.

“Temur tuzuklari” shohlar, amirlar bilan bir qatorda tarixchi, siyosatchi olimlarning ham diqqat e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan va kelmoqda. Shuning uchun ham u 1783- yilda izohlar bilan Angliyada, 1785 va 1981- yillarda Hindistonda, 1868- yil Eronda bosmadan chiqdi.

Jahon jamoatchiligining diqqat-e'tiborini jalb qilgan va fransuz (1787), ingliz (1830), urdu (1845), rus (1894, 1934), turk (eski o'zbek) tiliga to'liq bo'lmagan nusxasi (1835, 1857) chop etildi. Ammo o'zining ona yurtida ona tilida 1991- yildagina to'liq nashr qilindi.

Kitob asosan 2 qismdan iborat. 1-qismda Sohibqiron Temurning 7 yoshidan (1342) to uning so'nggi kunigacha bo'lgan hayoti, siyosiy faoliyati tasvirlanadi. Boshqacha aytganda A.Temurning asta-sekin Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga kiritishi va undan keyin mashhur yurishlari asosida To'xtamishxon (1376-1395), Turk sultoni Boyazid-yildirim (1389-1402) kabi jahongir shohlarni mag'lubiyatga uchratgani va juda katta hududda Temuriylar imperiyasiga asos solgani aniq-qisqa hikoya qilinadi.

2-qismda esa, Jahongir Sohibqiron Temur nomidan shaxzodalarga qarata aytilgan vasiyatlar, pand-nasihatlardir. Unda Jahongir o'z vorislariga qarata davlatni idora qilish san'atining nozik sirlari, tamoyillari haqida, Amir vazirlar va beklarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, qo'shin boshliqlari, ularning xizmatlarini taqdirlash, sipohiylar va ularning maoshlari kabi masalalar hususida vasiyat qiladi.

Hofizi Abruning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanday bilimni qadrlagan. Amir Temur davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashgan.

U zabt etilgan mamlakatlardan moddiy boyliklar bilan birga juda ko'p hunarmandlar, san'at ahllari va olimlarni Movarounnahrda olib keladi va mamlakatni obod etishda ulardan foydalanadi. Amir Temurga

har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo'lgan. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qildirsa-da, lekin o'zining sahovat va himmatini Kesh (Shahrisabz) va Samarqandda oliy imoratlar qurdirishda ko'rsatdi. O'zining ona O'zbekistoni Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Keshda dunyoga dong'i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko'tardi.

Samarqandda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me'moru binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar va bo'stonlar barpo etiladi.

7.4. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Elsuvi daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. Bag'dod, Darband va Baylakon shaharlari shular jumlasidandir. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi.

Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi. Siyosiy tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy oqibatlariga olib keldi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida tanazzulga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo'jalikning asosi bo'lgan sug'orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

1402-yilda jahonga, ayniqsa, Bolqon yarimoroli hamda Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarga tahdid solgan Turkiya sulton Boyazid I Yildirim tor-mor keltirilganidan soʻng, fransuzlar Amir Temurning oltindan haykalchasini quydirib, ostiga “Yevropa xaloskoriga” deb yozdirib qoʻyilgan ekan. Bugun bu ulugʻ zotni buyuk bunyodkor, ulugʻ davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida butun dunyo tan oldi. Davlat arboblari, olim-u fozil kishilar hazrat sohibqiron haqida iliq fikrlarni aytmoqdalar, uning hayoti va faoliyatiga yuksak baho bermoqdalar. Hozirgi paytga kelib Amir Temur va Temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyod chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etilgan.

Shoʻrolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib, bir yoqlama baho berib kelindi. Shunga qaramasdan, 1968-yilda faylasuf olim Ibrohim Moʻminovning “Amir Temurning Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrni va roli” risolasini nashr etilishi jamoatchilikning bu mavzuga qiziqishini yanada avj oldirib yubordi. Asar keskin tanqidga uchradi. Ammo I.M. Moʻminovning Amir Temur shaxsini oʻrganish tashabbusi bilan chiqishi bu uning ilmiy jasorat va yuksak vatanparvarlik fazilatining yorqin ifodasi boʻldi.

Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida Oʻzbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim oʻrin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda “Sohibi jahon” hamda “Sohibi adl” – “Adolat sohibi” nomlari bilan ulugʻlanadi. Xalqaro YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi va shu yil Oʻzbekistonda “Amir Temur yili” deb eʼlon qilindi. 2017-yil 30-iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida soʻzlagan nutqi davomida yoshlarga harbiy taʼlim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga “Temurbeklar maktabi” deb nom berish taklifini ilgari surdi.

7.5. Amir Temur davlatida pochta xizmati va aloqa vositalari

Amir Temur imperiyasida oʻz davrining mukammal aloqa tizimi faoliyat yuritgan. Ushbu tizim yordamida poytaxt – Samarqandga imperiyaning turli burchaklaridan qisqa muddatda maʼlumotlar oliy hukmdorga yetkazilgan. Masalan, Erondan Samarqandga xat 3 kunda yetkazilgan. Amir Temur davlatida pochta xizmati bilan maxsus maxfiy boʻlinmalar shugʻullangan. XV asr boshlarida Samarqandga tashrif buyurgan Kastiliya qiroluqi Genrix III ning elchisi Rui Gonzales de

Klavixo Amir Temur davlatida pochta xizmati faoliyatini yuqori baholagan. Boshqa chet el manablarida ham Amir Temur davridagi pochta xizmati haqida ma'lumot beriladi.

Ma'lumki, 1402- yilda Amir Temurning Anqara jangidan so'ng asirga tushgan askarlar ozod etilgan edi. Ular ichida nemis ritsari Iogann Shiltberger bor edi. Iogann Shiltberger o'z kundaliklarida Amir Temur davlatida pochta tizimi tasnifini beradi. Kundalikda keltirilishicha, Amir Temur davlatida xabarchi aloqa bekatiga yaqin kelganda maxsus ovozli signal bergan va shu zahotiyoq bekatda ot tayyorlab qo'yilgan.

“Temur tuzuklari”da Amir Temur doimo savdogarlarga homiyli qilgani va ularni “O'n ikki tabaqa”ga kiritganligi haqida ma'lumot beriladi. O'z navbatida, savdogarlar Amir Temurni uzoq yurtlardan ma'lumotlar bilan ta'minlab turganlar: Shu haqda “Temur tuzuklari”da quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: “Men barcha mamlakat va o'lka savdogarlariga yordam qo'lini cho'zdim. Ular (savdogarlar) menga uzoq o'lkalardan xabarlar hamda Xitoy, Xotan (Xitoy Xalq Respublikasi Uyg'ur-Shenjon avtonom viloyatining janubi-sharqi), Hindiston, Misr, Traviya, Shom, Rum shaharlari va orollardan kamyob mahsulotlar olib kelib turishgan”. Amir Temur davlatida aloqa va savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor berilgan. Bu yo'llarda savdogarlar va xabarchilar xavfsizligi xos boshqaruvchilar tomonidan ta'minlangan.

Amir Temur vafotidan so'ng imperiyaning parchalanishi natijasida Temuriylar davlati hududi birmuncha qisqardi. Lekin aloqa tizimi o'zining sifatini ma'lum ma'noda saqlab qoldi. Keyingi asrda Amir Temur davrida tashkil etilgan pochta tizimi Zaxiriddin Muhammad Bobur zamonida yangi bosqichga ko'tarildi. Hindistonda tashkil topgan Boburiylar davlatida qo'shni hududlar – Xuroson, Afg'oniston, Movarounnahr, Eron va boshqalar bilan aloqa o'rnatish uchun faol ishlar olib borildi. Lekin dastlab pochta tizimi holati talabga javob bermas edi. “Boburnoma” asarida ma'lumot berilishicha, Agraga jo'natilgan xatlar ikki- yilda ham manziliga yetib bormas edi.

Shuning uchun yangi barpo etilayotgan yangi imperiyasida pochta xizmatini tashkil etish hayotiy zaruriyatga aylandi. Bobur tomonidan qisqa vaqt ichida o'rta asrlar uchun ancha mukammal bo'lgan pochta tizimi yaratildi. Xabarchilarga doimiy maosh tayinlandi. Ko'p tilli imperiyada terminologik aniqlikka erishish uchun, masofani yagona standart masofa o'lchov birliklari – “mil” va “kurux” amalga kiritildi. Shuningdek, yirik shaharlar o'rtasidagi aniq masofa o'lchab chiqilib,

ular orasida bekatlar soni aniqlandi. Masalan, 1528- yilda Agra va Qobul o'rtasidagi masofani o'lchash ishlari Chaqmoqbek va mirzo Shoxi Tamg'achi yuklatildi. Ular har to'qqiz kurux (taxmiman 18 km) masofada qoravullik punkti, o'n sakkiz kurux masofada esa 6 ot bilan ta'minlangan yom bekatni tashkil etishdi.

"Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Boburning qo'shni davlat hukmdorlari bilan aloqalari va ular o'rtasidagi noma almashunuvi tasvirlangan. Masalan, Umarshayx mirzoning sodiq amirlaridan biri – Xudoyberdi Temurtoshning o'limi munosabati bilan Hirotidan O'shga Abdul Vahob orqali yuborilgan maktub 4 kunda o'z manziliga yetib brogan (masofa 120 yig'och, ya'ni taxminan 1000 km).

Amir Temur va Temuriylar sulolasi davri O'rta Osiyoda tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Bu o'ziga xoslik avvalo ilm-fan, madaniyat, qurilish, iqtisod va tashqi aloqalarning nihoyatda rivojlanishida aks etadi. XIV-XV asrlarda tashqi aloqalarning birmuncha jonlanishi pochta-alloqa tizimiga bo'lgan talabni oshirib, uning rivojlanishiga bevosita yo'l ochgan.

7.6. Movarounnahr va Xuroson Temuriylar davrida

Amir Temurning vafotidan so'ng vorislar o'rtasida toju taxt talashuvi boshlanadi. Amir Temurning vasiyatiga muvofiq, Pirmuhammadni taxtga o'tqazish tarafdorlari kuchli bo'lsa-da, biroq Mironshohning o'g'li Xalil Sulton Mirzo 1405- yilning 18- mart kuni Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qildi. Oqibatda amirlar, viloyat noiblari va shahzodalarning noroziligi kuchayib, isyon ko'taradilar. Amir Temur taxtining asosiy valiahdi.

Pirmuhammad Amudaryodan kechib o'tib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga tomon askar tortadi. Amir Temur saltanatida boshlangan o'zaro urushlar shu tariqa avj olib ketadi. Pirmuhammad 1407- yil 21- fevralda vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'ldi. 1408- yil 22- aprel kuni qoraqo'yunli turkmanlarining qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'ladi. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari Temuriylar qo'lidan ketdi.

1409- yil Temurning kenja o'g'li Shohruh Temur saltanatining bir qismini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Movarounnahrni to'ng'ich o'g'li Ulug'bek ixtiyoriga beradi, o'zi esa Hirotga qaytib Xuroson davlatini idora qilishni davom ettiradi. 1409- yilda Mirzo Ulug'bek Samarqand taxtiga o'tirganda 15 yoshli o'spirin edi. Shahzoda balog'atga yetgunga qadar davlatni boshqarishni Shohruh o'zining sodiq amirlaridan biri Shohmalikning ixtiyoriga topshiradi.

Ulug‘bek otasining roziligi bilan 1425-yilning erta bahorida Mo‘g‘uliston ustiga yurish boshladi. Issiqko‘l yaqinida sodir bo‘lgan to‘qnashuvda Ulug‘bek mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonib, katta o‘lja bilan Samarqandga qaytadi. O‘ljalar orasida ikki bo‘lak nefrit (kosh) toshi ham bor edi. Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur sag‘anasiga qabr toshi yasattiriladi. Ammo uning keyingi yurishlari muvaffaqiyatsiz bo‘ldi. Shu bois u butun faoliyatini davlatning ichki siyosatini mustahkamlashga qaratdi. Movarounnahrni idora etishda, ayniqsa, mamlakat tashqi siyosatida Ulug‘bek ayrim hollardagina, mustaqil harakat qilgan bo‘lsada, ammo aslida u saltanat oliy hukmdori Shohruxning Movarounnahrda intizomli va itoatkor noibi bo‘lib qoladi.

1447-yil 19-mart Shohrux kuni nevarasi Sulton Muhammad (Boysunqurning o‘g‘li) isyonini bostirish vaqtida betoblanib, Ray viloyatida olamdan o‘tadi. Xuroson va Movarounnahrda shahzodalar o‘rtasida toju taxt uchun kurash yana avjga minib, mamlakatni beqarorlik chulg‘ab oladi. Bu kurash oqibatida zamonasining mashhur olimi va hukmdori Mirzo Ulug‘bek 1449-yil 27-oktabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali suratda shahid bo‘ladi.

Muhammad Tarag‘ay – Ulug‘bekning tarixdagi o‘rni uning davlat arbobi sifatidagi ko‘p- yillik faoliyatidan ko‘ra ham afzalroq buyuk olimlik, ilmu urfon xomiysi maqomidagi ulkan xizmatlari bilan belgilanadi. Ulug‘bek farmoni bilan 1417-yilda Buxoroda, 1417-1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G‘ijduvonda madrasalar qad ko‘tardi.

Ulug‘bek atrofida uyushgan ko‘plab buyuk qomusiy olim sohiblari- Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Muxammad Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylar ilm-fanning turli sohalarida, ayniqsa astronomiya, matematika singari aniq fanlar bo‘yicha barakali ijod qildilar hamda o‘zlaridan salmoqli ilmiy meros qoldirib ketdilar. Ulug‘bek rasadxonasida 1018 ta yulduzlar harakati o‘rganilib jadval tuzildi. Uning qalamiga mansub “Ziji Kurogoniy” asari o‘zining ilmiy yechimlari, xulosalari bilan hozirga qadar ham jahon olimlari etiborini qozonib kelmoqda. Mirzo Ulug‘bek “To‘rt ulus tarixi” nomli tarixiy asar hamda musiqaga bag‘ishlangan besh risola ham yozgan.

Xuroson yerlarida esa Sulton Xusayn Bayqaro davrida siyosiy barqarorlikni saqlash xalq turmush darajasini ko‘tarish, obodonchilik borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Mashhaddagi Gavxarshod masjidi, Marv va Hirotdagi bir qator binolarning ta‘mirlanishi, Ixlosiya

madrasasi, “Qudsiya” masjidi, “Safoiya” hammomi, “Shifoiya” davolash uyi kabi inshootlar shu davrdagi ishlar jumlasidandir. Bu davrda she’riyat va rassomlik borasida alohida maktab yuzaga keldi.

Shunday qilib, Temur va temuriylar davrida o‘lkamizda fan va madaniyat barq urib o‘sdi, rivojlandi va kamol topdi. Fan va madaniyatning qaysi bir sohasini ko‘zdan kechirmaylik, diyorimiz XIV-XV asrlarda jahon sivilizatsiyasining oldingi saflaridan joy olganligining guvohi bo‘lamiz. Temuriylar sulolasi davri jahon fani va madaniyatining Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ubaydullox Axror kabi ulug vakillarni yetishtirib berdi. Bu davrda zamonasining iste’dodli shoirlari va adiblari Lutfiy, Bobur, Abdurahmon Jomiy va boshqa olimlar yashab ijod etishgan. Lutfiy nafis uzbek tilida asarlar yozish bilan birga tojik tilida ham qasidalar bitdi. Lutfiyning “Zafarnoma”, “Gul va Navro‘z” dostonlari shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridan biridir. Bu davr madaniyati taraqqiyotida ulug‘ shoir Abduraxmon Jomiyning roli buyukdir. Jomiyning yirik va mashxur asari yettita katta dostonidan iborat “Xaft avrang”, “Bahoriston” kabilardir.

Alisher Navoiy homiyligida Mirxond, Xondamir, Vosifiy va boshqa tarixchilar ijod qildilar. Xondamir 63 yillik umri davomida taxminan 13 ta asar yozgan, ulardan bizgacha sakkiztasi yetib kelgan.

XIV-XVI asrlarda nafis kitob va xattotlik san’atining buyuk namoyandalari yetishadi. Bular Mir Ali Qilqalam, Sulton Ali Xandon, Halvoniy. Rafiqiy, Miroq Naqqosh, Behzod, Shoh Muzaffar va boshqalar.

Xattotlik san’atida o‘ziga xos maktab yaratgan Sultonali Mashhadiy (1432-1520) nasta’lik xatining mislsiz ustoz, Alisher Navoiyning kotiblaridan biri sifatida tanilgan edi. U Nizomiy, Faxriddin Attor, Xo‘ja Xofiz, Sa’diy, Xusrav Dexlaviy, Abduraxmon Jomiy, Xusayn Boyqaro va boshqa mualliflarning asarlarini kitobot qilgan.

Temur va temuriylar davrining ulkan muvaffaqiyatlaridan biri tasviriy san’atning gurkirab o‘sganligi bo‘ldi. XIV-XVI asrlarda tasviriy san’atda Behzod, Mirok Naqqosh, Qosim Ali, Maqsud boshqalar barakali ijod qildilar. Ular chizgan yorqin tasvirlar, portretlar, tabiat manzaralari yoki jang tafsilotlari o‘zining tabiiyligi, tiniqligi va sofliligi bilan kishini hayratga soladi.

O‘z zamonasining mashhur rassomi va o‘ta noyob qobiliyat egasi Kamoliddin Behzod taxminan 1455- yillarda Hirotda tug‘iladi. Ota-onadan yoshlikda yetim qolgan Behzodni Husayn Boyqaro kitobdori

Mirak Naqqosh o‘z tarbiyasiga oladi. Alisher Navoiy qobiliyatli Behzodga har tomonlama yordam qo‘lini cho‘zadi. Kamoliddin Behzod o‘zining hayratomuz rassomchilik san‘ati bilan “Moniyi soniy” (“Ikkinchi Moniy”) va “Sharq Rafaeli” nomi bilan jahonga mashhur bo‘lgan. XIV-XV asrlar O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa san‘ati taraqqiyotida ham yangi va mahsuldor bir bosqich bo‘ldi. Bu davrda yangi kuy, qo‘shiqlar, cholg‘u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratildi.

Shunday qilib, Temur va temuriylar davrida o‘lkamizda fan va madaniyat barq urib o‘sdi, rivojlandi va kamol topdi. Fan, madaniyatning qaysi bir sohasi, qaysi bir tarmog‘ini ko‘zdan kechirmaylik, ona diyorumiz XIV-XV asrlarda jahon sivilizatsiyasining eng oldingi saflaridan joy olganligining guvohi bo‘lamiz.

7.7. Temuriylar davrida ilm-fan va adabiyot

XV asrda Samarqand va Hirotda olimlar-u fuzalolar, shoirlar-u bastakorlarning kattagina guruhi to‘plangan edi. Ilm-fan va san‘atning taraqqiyotida zamonasining madaniy muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug‘bekning hissasi nihoyatda buyukdir. Ulug‘bek mamlakatni boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan shug‘ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi.

Ulug‘bek o‘tmishdoshlari Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino asarlarini batafsil o‘rganadi. Bu buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali u qadimgi yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomeylarning mumtoz asarlari bilan ham tanishadi. Astronomiya va matematika sohasida erishilgan buyuk muvaffaqiyatlar Temuriylar davlatiga katta shuhrat keltirdi. Bu shuhrat birinchi navbatda Ulug‘bek nomi bilan bog‘liqdir.

Samarqandda o‘z atrofida to‘plangan taniqli olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida Mirzo Ulug‘bek 1424-1429- yillarda shahar yaqinidagi Obirahmat anhuri bo‘yida rasadxona qurdiradi. Hanuzgacha olimlarning qiziqishini uyg‘otib kelayotgan bu ulkan imoratning balandligi 31 metr edi. G‘iyosiddin Jamshid boshchiligida rasadxonaning asosiy o‘lchov asbobuskunasi – ulkan sekstant o‘rnatilgan. Samarqand sekstanti o‘sha davrda Sharqda ma‘lum bo‘lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Ulug‘bekning faol ishtiroki bilan Ulug‘bek rasadxonasi o‘sha zamon sharoitiga mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug‘bek bilan birga mashhur

matematik va astronomlardan “Aflotuni zamon” deb nom olgan Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy, “o‘z davrining Ptolomeyi” nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va ko‘pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug‘bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi.

Ulug‘bekning shoh asari “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 ta qo‘zg‘almas yulduzlarning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Ulug‘bekning astronomik jadvali o‘sha zamondagi shunga o‘xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Ulug‘bekning- yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo‘lsak, u bor-yo‘g‘i bir minut-u ikki sekundga farq qiladi. Bu XV asr uchun g‘oyat yuksak aniqlik bo‘lib, hozirgi zamon o‘lchovlariga juda yaqindir.

Ulug‘bek “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risola ham yozgan. Ulug‘bekning astronomiya maktabi o‘z davrining o‘ziga xos akademiyasi edi. Ulug‘bek tevaragida uyushgan 100 dan ortiq olimlarning o‘z bag‘rida yetishtirgan nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o‘tagan. Ulug‘bekning astronomiya maktabi o‘rta asrlar musulmon Sharqi astronomiyasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Durbek tomonidan qayta ishlangan “Yusuf va Zulayho” dostoni, toshkentlik shoir Atoiyning devoni shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridir. Bu davrda o‘zbek shoirlari ichida Lutfiy (1366–1465) alohida o‘rin tutadi. Navoiyga qadar o‘zbek she‘riyatida Lutfiy darajasiga yetadigan shoir bo‘lmagan. U birgina turkiy tilida asarlar yaratib qolmadi, balki fors tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo‘lishni targ‘ib qilish, ilm va san’atni sevish kabi fikrlar katta o‘rin olgan.

XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida buyuk davlat arbobi, ulug‘ shoir, olim, mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) va buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ning hissallari g‘oyat buyukdir. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o‘zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi. U o‘zbek adabiy tili, o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Navoiy o‘ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi.

“Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” shular jumlasidandir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. XIV asr boshlarida Movarounnahrda siyosiy ahvol qanday bo‘lgan?
2. Amir Temur qachon markazlashgan davlat tuzdi?
3. Temur davlatining boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
4. “Temur tuzuklari” nima?
5. Amir Temur qanday harbiy yurishlarini amalga oshirgan?
6. Davlatdagi tashqi siyosat, xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlar qanday bo‘lgan?
7. Temuriylar davrida ilm-fan qanday taraqqiy etgan?
8. Ulug‘bekning ilmiy maktabi haqida nimalar bilasiz?

8- MAVZU: O‘RTA OSIYO HUDUDLARINING XONLIKLARGA BO‘LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Asosiy tushuncha va iboralar: xonlik; amirlik; xutba; shayx ul-islom; inoq; amlakdor; madrasa; pochta tizimi.

8.1. XV asr oxiri va-XVI asr boshlariva Movarounnahrda siyosiy vaziyat. Shayboniylar hukmronligining o‘rnatilishi

XIV asr boshlariga kelib, 1236-yilda Botuxon tomonidan asos solingan Oltin O‘rda davlati ikki qismga bo‘linib ketdi va uning sharqiy qismida Oq O‘rda davlati tashkil topdi. Ayrim tarixiy manbalarda bu hududlar “O‘zbeklar mamlakati” deb ham eslatiladi. XV asrning o‘rtalariga kelib Sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybon urug‘idan bo‘lgan Abulxayrxon ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatiga asos soldi va Movarounnahrda o‘zaro kurashlardan foydalanib Sirdaryoning o‘rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olishga erishdi. Shayboniylar sulolasining kuchli rivojlangan va bevosita Movarounnahrda aloqador davri Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon nomi bilan bog‘liq.

U 1451- yilda tug‘ilgan. Bobosi, Abulxayrxon va otasi Shoh Budog‘ Sulton o‘limidan so‘ng boshlangan qirg‘inlardan Movarounnahrda qochib qutulgan. Avval Samarqand, keyin Buxoro madrasalarida ta‘lim olgan. Uzoq harakatlar natijasida nufuzli ruhoniylar va O‘rta Osiyoning zadagonlari yordamida XV asr oxirlariga kelib Muhammad Dashtu qipchoq nomi bilan mashhur bo‘lgan yerlarda o‘z hukmronligini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladi. Oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi Turkiston zaminidagi siyosiy beqarorlikni tugatish, kuchli markazlashgan davlat tuzish edi.

XV asrning so‘nggi choragiga kelib temuriy shahzodalar o‘rtasidagi toj-taxt uchun o‘zaro kurashlar avj olib, ko‘pgina mulk va viloyatlar, xususan, Farg‘ona, Hisor, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm o‘zlarini mustaqil hisoblab, ko‘p hollarda bir-birlari bilan kurash olib borar edi. Shuning uchun ham Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo‘linib ketdi, Shayboniyxon esa bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qildi.

XV asrning 90- yillarida Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Dashti Qipchoqning janubiy qismini,

jumladan, O‘tror, Sabron, Yassi (Turkiston) va boshqa shaharlarni ishg‘ol qiladi. Shayboniyxon qo‘shinlari 1499- yildan Movarounnahrni istilo qilishga kirishdi. U Qarshi va Shahrisabzga bosib boradi, katta o‘lja bilan Dashti qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay Shayboniyxon katta kuch bilan Samarqandni qamalga oldi. Shu asnoda Dabusiya qal‘asi yaqinida u samarqandliklarga yordamga kelayotgan Buxoro hokimi Muhammad Boqi Tarxon qo‘shinlarini tor-mor qilib, avval Buxoroni, so‘ngra Qorako‘lni egallaydi.

Shayboniyxon Buxoroga o‘z dorug‘asi (hokim)ni tayin etib, uni o‘zining bosh qarorgohiga aylantiradi. Buxoro va Qorako‘lda Shayboniyxonga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon shafqatsiz bostiriladi. Shayboniyxon yana Samarqand ustiga yurish qilib shaharni to‘qqiz oy qamalda tutadi.

Bu vaqtda Samarqandda Abu Saidning nabirasi Sulton Ali Mirzo hukmdorlik qilardi. Og‘ir iqtisodiy tanglik va taxt uchun kurashlardan bezor bo‘lgan mehnatkash omma shahar zodagonlarining ma‘lum qismi Temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg‘ona hukmdori Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da‘vat etadilar. Bobur qo‘shinlari bilan Samarqandga yetib kelgach, unga peshvoz chiqilib, shahar darvozalari ochib beriladi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon katta kuch bilan yana Samarqandga yurish boshlaydi.

1501- yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamalga olinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi. Noilojlikdan Bobur 1501- yilning 2- yarmida Samarqandni tark etib, Toshkentga tog‘asi Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi. Shayboniyxon Samarqandni ikkinchi marotaba jangsiz egallab, mudofaachilarning aksariyatini qilichdan o‘tkazadi.

1503- yilda Shayboniyxon Sirdaryo tomon yurish qilib, Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va Sulton Ahmadxonning birlashgan kuchlarini tor-mor keltiradi. Toshkent va Shohruxiya shaharlari zabt etiladi. 1504- yilda Farg‘ona ishg‘ol qilinadi. Shayboniyxon Samarqandni o‘z davlatining poytaxti qilib, Buxoroga inisi Mahmud Sultonni hokim etib tayinlaydi. Toshkent xonligi va Sirdaryo bo‘yidagi shaharlarni amakilari Ko‘chkunchixon bilan Suyunchxo‘jaxonga topshiradi.

Movarounnahrda siyosiy mavqeini mustahkamlab olgach, Shayboniyxon 1504- yilda avval Hisor hukmdori Xusravshohni yengib

Qunduzni bo'ysundiradi. So'ngra Xorazmga yurish qiladi, o'n oy davom etgan qamaldan keyin 1505- yilning avgust oyida Urganch taslim bo'ladi. Natijada butun Xorazm yerlari Shayboniyxon tasarrufiga o'tadi.

1507- yil may oyida Shayboniyxon Hirotga yo'l oladi. Jangda Hirot qo'shinlari tor-mor etiladi. Shayboniyxon shaharga 100 ming tanga, zodagon va suyurg'ol egalariga alohida yana 20 ming tanga tovon soladi. Temuriylarning mol-mulklari musodara qilinib, shahar aholisi ikki kun talanadi. Temuriylar davlati sakkiz- yil mobaynida butunlay istilo qilinib, uning xarobalarida Shayboniyxon saltanati tashkil topadi. Bu saltanatga Kaspiy dengizidan Yettisuvgacha, Dashti Qipchoqdan Xurosonning janubiy chegaralarigacha bo'lgan yerlar kirdi. Temuriylar davlatining barham topishiga yuqori tabaqa vakillarining ma'lum qismi mamlakatda o'z mavqelari hamda mol-mulklarini saqlab qolish maqsadida Shayboniylar bilan kelishib, sotqinlik yo'liga o'tishlari ham sabab bo'ldi.

Movarounnahr va Xurosonda qozonilgan g'alabadan so'ng, Shayboniyxon shimolda kuchayib borayotgan Qozoq xonligi, janubda Eron Safaviylari bilan to'qnashadi.

1510- yilda Shayboniyxon Murg'ob daryosining narigi tomonida bo'lgan katta jangda qizilboshlilar Shayboniyxon qo'shinlarini qurshovga olib, butunlay tor-mor qiladilar. Muhorabada Shayboniyxon ham halok bo'ladi. Shayboniylar zudlik bilan Toshkent hokimi Suyunchxo'jaxonni sulola boshlig'i qilib saylaydilar, lekin shayboniylar o'rtasida nizolar to'xtamagach, xon avlodining yoshi ulug'i Ko'chkunchixonni yurtning yangi hukmdori qilib ko'taradilar. Shayboniyxondan keyin shoh Ismoilga qarshi kurashuvchi munosib sarkarda topilmaydi.

8.2. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi

Qobulni egallab turgan Bobur shoh Ismoilning madadi bilan Movarounnahr tomon yurish boshlaydi. 1511- yilda u Qunduz orqali Amudaryodan o'tib, Puli Sangin ko'prigi yaqinida bo'lgan shiddatli jangda Shayboniylarni tor-mor qiladi. So'ngra Samarqandga tomon yo'l oladi. Qarshi, Samarqand va Buxoroni Shayboniylar jangsiz bo'shatib ketadilar. Bobur Movarounnahrni hech qanday qarshiliksiz egallaydi. Shu bilan bu o'lkada Shayboniylar hukmronligi vaqtincha to'xtaydi. Boburning qaytishi va g'alabasini Movarounnahr aholisi xayrixohlik bilan qarshi olsa ham, ammo uning hukmronligi uzoqqa bormadi.

Shayboniyxonning jiyani Ubayd Sulton qulay fursatdan foydalanib 1512- yil bahorida Movarounnahrda yurish qilib Buxorogacha bosib

boradi. Jondor tumani yaqinidagi Malik ko‘li yonida Bobur lashkari Ubaydulla Sultondan yengiladi. Bobur Hisorga chekinadi. Ubaydulla Samarqandni egallab, Shayboniylar hukmronligini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ladi.

Bobur garchi Movarounnahrni qaytarib olish niyatidan voz kechmagan bo‘lsa-da, lekin Shayboniylar bilan bundan keyin kurash olib borish maqsadidan qaytadi. Qobulga qaytgach, u keyinchalik Shimoliy Hindistonni o‘ziga bo‘ysundirib, bu o‘lkada Boburiylar saltanatiga asos soladi. Amudaryoning o‘ng sohiligacha bo‘lgan viloyatlarda yana Shayboniylar hukmronligi tiklandi.

Shayboniylar hokimiyati tepasida xon turgan. Viloyatlarni xonning o‘g‘illari, yaqin qarindoshlari (sultonlar) hamda ko‘chmanchi qabila boshliqlari (biylar) idora qilgan. Jumladan, nayman qabilasi sardori Jon Vafobiy Hirot dorug‘asi etib tayinlangan (1507). Turkistonni Ko‘chkunchixon (1503-1509), Toshkentni Suyunchxo‘jaxon (1503-1525) boshqargan. Buxoro va Qorako‘l noibligi (1501-1504) Muhammad Shayboniixonning inisi Mahmud sultonga, Samarqand va uning viloyati to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammad Temur sultonga berilgan.

Buxoro xonligi (amirligi) Shayboniylar sulolasi 100 yil hukm surgan. Poytaxt dastlab Samarqand, keyinchalik Ubaydullaxon davrida 1533- yil Buxoroga ko‘chirilgan. Davlat shundan so‘ng Buxoro xonligi deb atala boshlagan. Ubaydullaxon xonlikni tashqi va ichki dushmanlardan himoya qilishda, uni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Biroq Ubaydullaxon vafoti (1540) dan so‘ng xonlik mayda mustaqil mulklarga parchalanib ketgan. Xususan, Buxoroda Ubaydullaxonning o‘g‘li Abdulazizxon (1540-1550), Samarqandda Ko‘chkunchixonning o‘g‘li Abdullatifxon (1540-1551), Balxda Pirmuhammadxon (1546-1567), Toshkent va Turkistonda Baroqxon (Navro‘z Ahmadxon 1551-1556- yillarda Movarounnahr xoni), Miyonqol va Karmanada esa (1529-1561) Iskandarxon mustaqil hokim bo‘lishgan.

1551-1556- yillarda Movarounnahr uchun shayboniylar o‘rtasidagi kurashda Abdullaxon II g‘olib chiqib markaziy hokimiyatni mustahkamlagan, ayirmachilik harakatlariga chek qo‘ygan kuchli qo‘shin tashkil etilgan. Uning bu harakatlarini jo‘ybor shayxlari Muhammad Islom hamda uning o‘g‘li Xo‘ja Sa‘dlar faol qo‘llab-quvvatlab turdi. Muhammad Islom va uning avlodlari o‘zlarining kelib chiqishini ota tomonidan Muhammad payg‘ambar avlodlariga, ona tomonidan esa Chingizxon va Jo‘jiga bog‘lar edilar. 1556-yilda Navro‘z

Ahmadxon vafot etgach, Abdullaxon II darhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukmronligini tikladi. Muhammad Islomning ko'magi bilan esa Buxoro taxtini egalladi va uning poytaxt maqomini qayta tikladi.

Dastlab Abdullaxon II amakasi Pirmuhammad, keyinchalik otasi Iskandarxonlar nomidan davlatni boshqardi. 1561-yilda Abdullaxon II Pirmuhammad aloqalarni uzdi va otasi Iskandar Sultonni (1561-1583) xon deb e'lon qildi. Iskandar Sulton nomigagina xon bo'lib, mamlakatni boshqaruv ishlariga deyarli aralashmas, hokimiyat amalda Abdullaxon II qo'lida edi. 1583-yilda Iskandar Sulton vafot etgach, Abdullaxon II rasmiy xon deb e'lon etildi.

Shayboniy hukmdorlari orasida Abdullaxon II o'zining qat'iyatliliigi, yaxshi siyosati va sarkardalik qobiliyati bilan ajralib turadi. U markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida bebosh va o'zlarini mustaqil hisoblaydigan amirlar, sultonlar, mulklar hukmdorlari bilan tinimsiz kurash olib borishga majbur bo'ldi. Tinimsiz urushlar natijasida 1573-yilda Farg'ona, 1574-yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari, 1578-yilda Samarqand, 1582-yilda Toshkent, Shohruxiya, Sayram, Ohangaron, 1583-yilda Balx, 1584-yilda Badaxshon, 1588-yilda Hirot va uning atroflari, 1595-yilda Xorazm Abdullaxon II hokimiyati ostiga birlashtirildi. Tinimsiz urushlardan charchagan joylardagi mahalliy aholi ko'p hollarda Abdullaxon II ning markazlashtirish siyosatini qo'llab-quvatlar edi.

Abdullaxon II davrida xonlik chegarasi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlarni qamragan. Abdullaxon faol tashqi siyosat olib borgan. Buxoro xonligi Eron, Hindiston, Turkiya, Xitoy, Rossiya va b. mamlakatlar bilan keng diplomatik, iqtisodiy, savdo aloqalari olib borgan. Ichki siyosatda mamlakatda pul islohoti o'tkazilgan, ko'plab sug'orish inshootlari, ko'priklar, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, timlar qurilgan. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan, madaniy hayot rivojlangan. Abdullaxon vafotidan so'ng taxt uchun kurashlar yana avj olgan. Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'minxonning olti oylik hukmronligidan so'ng u muxolif kuchlar tomonidan o'ldirilgan. Taxtga Pirmuhammadxon II chiqqan. Ammo uning hukmronligi ham uzoqqa bormay, 1601- yil taxtdan ag'darilgan.

Shayboniylar sulolasidan taxtga da'vogar qolmagani tufayli Movarounnahrda hokimiyat **Ashtarxoniylar sulolasi** qo'lga o'tgan.

XV asming boshlarida Oltin O'rda (Jo'ji ulusi) zaiflashib, parchalinish xavfi kuchayadi. Natijada XV asrning 30-yillarida Volgabo'yi yerlarida Astraxon xonligi yuzaga keladi. Ashtarxon "Astraxan"ning o'zbek tiliga moslanganidir. Ashtarxon aslida "Hoji Tarxon" so'zidan olingan. "Tarxon" turkiy tilli xalqlar hayotida imtiyozli unvonlardan hisoblanib, uning egasi odatda soliqlardan ozod etilgan. 1556-yilda xonlik Rossiya hukmdori Ivan IV tomonidan bosib olindi. Ashtarxon xonligi tugatilgach, xon xonadoniga mansub kishilar jon saqlash uchun turli taraflardan boshpana izlashga majbur bo'ldilar. Shulardan biri Yormuhammadxon edi. Yormuhammadxon va uning oilasi Buxoro xonligidan boshpana topdi. U Buxoro xoni Iskandarxon (Abdullaxon II ning otasi) bilan yaqin munosabatda bo'lgan.

Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoroga kelgach, Iskandarxon ularni izzat-ikrom bilan kutib oldi va qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga turmushga berdi. Jonibek Sulton Zuhrabegimdan uch o'g'il (Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'rdi. Ota-o'g'illar Buxoro xonligida yuksak mavqega erishdilar. Shayboniylar sulolasidan taxt vorisi qolmagach, Jonibek Sulton xonlik taxtiga eng munosib nomzod bo'lib qoldi. Xonlikning nufuzli kishilari unga taxtni taklif etdilar. Lekin u o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechdi. Biroq bu orada Xurosonda Eron hukmdori Shoh Abbos qo'shini bilan yuz bergan jangda Din Muhammad halok bo'ldi.

Boqimuhammadxon (1601-1605) mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlashga e'tibor qaratdi. Chunki shayboniy Pirmuhammadxon davrida zaiflashib qolgan markaziy hokimiyat sulolalar almashuvi natijasida yanada kuchsizlanib, Marv, Xorazm, Balxdagi siyosiy kuchlarning boshboshdoqligi boshlangan edi. Boqimuhammad 1602-yilda Balx tomon yurish uyushtiradi va Balx bilan birga Anxud, Shibirg'on, Chechaktu, Maymana, Faryob-Murg'ob daryosigacha bo'lgan yerlarni hamda Bag'lon, Badaxshon, Hisorni ham Buxoroga bo'ysundiradi. O'zining ukasi Valimuhammadxonni valiahd deb e'lon qilib, uni Balxga hukmdor etib tayinlaydi. 1603-yilda Eron safaviylarining Balxga hujum qilgan qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi.

Boqimuhammad 1605-yilda vafot etadi, taxtga valiahd hisoblanuvchi ukasi Valimuhammad (1605-1611) o'tiradi. Biroq qabila amirlari xon hokimiyatiga bo'ysunmay, muxolifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirganligidan xabar topgan

Vali Muhammad qochib ketdi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadxonning o'g'li Imomqulixonni o'tqazdilar. Abbos oldiga qochishi bilan tugaydi. Buxoro taxtiga Imomqulixon chiqadi. 1611-yilda Valimuhhammadxon shoh Abbos bergan yordam natijasida Buxoro taxtini qisqa muddat davomida qayta egallashga erishadi, ammo 1611-yil oktabrda Imomqulixon bilan Samarqand atrofidagi navbatdagi to'qnashuvda halok bo'ladi.

Imomqulixon davrida (1611-1642) ko'chmanchi qozoqlarning Buxoro xonligi yerlariga talonchilik yurishlari kuchaygan, markaziy hokimiyatga qarshi isyonlar bo'lib o'tgan. Masalan, Toshkentga hokim etib tayinlangan Iskandar (Imomqulixon o'g'li)ga qarshi shahar aholisi qo'zg'olon ko'targan va uni o'ldirgan. Bunga javoban Imomqulixon qo'zg'olonni bostirib, Toshkentda tartib o'rnatgan. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi.

Imomqulixon dan keyin taxtni egallagan ukasi Nodir Muhammad (1642-1645) davrida esa siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Bunga xonning mamlakat viloyatlarini o'g'illariga va yaqin qarindoshlariga mulk qilib taqsimlab berganligi sabab bo'ldi. Oqibatda, davlatchilik asoslari zaiflashdi. 1645-yilda qozoqlar yana Movarounnahrda yurish qilib, Xo'jandgacha yetib keldilar. Nodir Muhammad ularga qarshi o'g'li Abdulaziz boshchiligidagi katta qo'shinni safarbar etdi. Xondan norozi bo'lgan bir guruh amirlar yurish davrida Abdulazizni xon deb e'lon qildilar va uni taxtga o'tqazdilar. Nodir Muhammad esa Balxga chekindi va yerda ma'lum muddat hokimlik qildi (1645-1651).

Nodir Muhammad toj-u taxtni qaytarib olish maqsadida Hindiston podshohi temuriyzoda Shoh Jahondan yordam so'radi. Shoh Jahon Balx viloyatini o'ziga bo'ysundirish maqsadida qo'shin yubordi. Uning asl niyatini payqab qolgan Nodir Muhammad hind qo'shiniga qarshi chiqdi. Biroq u jangda yengildi va Eronga qochib ketdi. Abdulazizxon Balxni ikki yildan so'ngina qaytarib oldi. 1649-yilda otasi Nodir Muhammadni yana Balx hokimi etib tayinladi. Biroq otasining Eron yordamida o'z mavqeyini mustahkamlashga uringanligi Abdulazizxonni tashvishga solib qo'ydi. Endi u otasiga qarshi ukasi Subhonqulixon yetakchiligida qo'shin yubordi. 1651-yilda Subhonqulixon Balxni egalladi. Ayni paytda, u Balx hokimi etib tayinlandi. Otasi Nodir Muhammad esa Makkaga hajga borayotib yo'lda vafot etdi.

Abdulazizxon (1645-1681) davrida bir tomondan, ichki kurashlar va boshqa tomondan Xiva xonlarining Buxoroga hujumi kuchayib ketdi. 1681-yilda keksayib qolgan Abdulazizxon ichki ziddiyatlar va tashqi

hujumlar Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini murakkablashtirib yuborganligi va siyosiy vaziyat izdan chiqqanligi tufayli taxtdan voz kechdi. Abdulazizxondan keyin taxtga o'tirgan Subhonqulixon (1681-1702) davrida ham ahvol o'nglanmadi. Subhonqulixon bir tomondan o'g'illariga qarshi, ikkinchi tomondan viloyatlardagi amir va beklaming markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lish yo'lidagi harakatlariga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ldi.

Subhonqulixon mamlakatni nisbatan uzoq boshqargan bo'lsa-da, mazkur yigirma yil davomida u ham Balx masalasi bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Balxga bir necha marotaba o'z o'g'illarini tayinlagan va bir necha marotaba fitnalar tufayli shahzodalar qurbon bo'lgan. Bu holat markaziy hokimiyatning Balxdagi mavqeyi nihoyatda zaiflashib ketganini va mahalliy siyosiy kuchlaming, xususan, yirik amirlaming nufuzi oshib borganini ko'rsatadi. Buni 1688 -1697-yillar davomida Balx hukumatining yirik amirlaridan Mahmudbiy ixtiyorida bo'lganligi ham isbotlaydi.

Buning ustiga, mamlakat g'arbida ham notinchlik hukm surgan. Chunonchi, Xiva xoni Anushaxon ashtarxoniylar hududlariga hujumlar uyushtirib, talon-tarojlik qilish bilan shug'ullangan. Masalan, 1684-yilning yozida hatto Samarqandni egallashga erishib, bu yerda o'z nomidan xutba ham o'qitgan. Biroq Subhonqulixon qatag'on urug'idan bo'lgan Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq yordamida Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga erishdi. U Xiva hujumiga chek qo'yish uchun Anushaxonga qarshi fitna tayyorladi. Buning natijasida Anushaxon taxtdan tushirildi va 1688-yilda xonlikni Buxoro tasarrufiga kiritdi. Ichki nizolar oxir-oqibat mamlakat iqtisodiyotini chuqur tanazzulga uchratdi.

1702-yili Subhonqulixon vafot etdi. Taxtni o'g'li Ubaydullaxon II (1702-1711) egalladi. Ubaydullaxonning asosiy maqsadi siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi. U ana shu maqsad yo'lida goh isyonkor qabilalarga qarshi, goh bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko'chmanchilarga qarshi urush olib borishga majbur bo'ldi.

Dastlab u Balxni bo'ysundirish yo'lini izladi. Ma'lumki, Ubaydullaxon II ning otasi Subhonqulixon Balxni qatag'on qabilasi boshlig'i, Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa alohida xizmatlari uchun tortiq qilgan edi. Ubaydullaxon davrida Mahmudbiy Balxda hokimiyatni to'liq o'z qo'liga oldi va o'zini 1706-yilda xon deb e'lon qildi. Bu Mahmudbiyga qarshi bir necha bor uyushtirilgan harbiy

yurishlar natija bermagach, Ubaydullaxon uning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Ubaydullaxon II o'tkazgan islohotlar ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ubaydullaxon II davrida iqtisodiy tanazzul va ichki nizolardan tashqari jung'orlar (qalmoqlar)ning harbiy bosqinlari vaziyatni yanada murakkablashtirgan. Ubaydullaxon II ma'muriy sohada islohotlar o'tkazib, davlatni boshqarishga o'rta tabaqa: hunarmandlar va savdogarlarni jalb qilgan, markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun yirik yer egalarining imtiyozlarini qisqartirgan. 1708-1709- yillarda o'tkazilgan pul islohoti natijasida pul qiymati 4 marta tushib ketgan, bu esa xalq g'alayonlariga sabab bo'lgan. Tanga tarkibida kumush foizining kamayishi do'kondor va hunarmandlarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Endi ular o'z mahsulotlarini sotmay qo'ydilar. Savdo ishlari susaydi va oqibatda, mamlakat iqtisodiy hayoti inqirozga yuz tutdi.

1709-yilda Farg'ona vodiysining Buxoro xonligidan ajralib chiqishi esa siyosiy ahvolni yanada murakkablashtirdi. Va nihoyat, fitnachilar 1711-yilda Ubaydullaxonni o'ldirdilar. Taxtga fitna ishtirokchisi, Ubaydullaxonning ukasi Abulfayzxon o'tqazildi. Ubaydullaxon tariximizda mahalliy hokimlaming o'zboshimchaligiga chek qo'yishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdor sifatida nom qoldirdi.

1711-yilda Buxoro taxtiga Ubaydullaxonga qarshi fitna ishtirokchisi bo'lgan Abulfayzxon o'tqazildi. Taxtga o'tqazilgan Abulfayzxon davrida xonning hokimiyati obro'si tushib, xon amirlar va zodagonlar qo'lidagi bir qo'g'irchoqqa aylandi. Uning farmonlari saroy ostonasidan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi. Xon hokimiyatining bu darajaga tushib qolishiga xonlikning muntazam qo'shinga ega bo'lmaganligi ham sabab bo'ldi. Muntazam qo'shin tuzishga va uni saqlashga esa mablag' yetishmasdi. Bunga esa xonlik iqtisodiyotining nochorligi sabab bo'ldi. Abulfayzxon davrida o'zbeklarning mang'it qabilasidan chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bo'lib oldi. U barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olindi. Bu boshqa qabilalar aslzodalarining qat'iy noroziligiga sabab bo'ldi. Ichki nizo va o'zaro urushlar kuchayib ketdi.

8.3. Buxoro amirligining tashkil topishi

Movarounnahrda siyosiy tanglikdan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740- yil Buxoro va Xiva xonliklarini o'ziga tobe qiladi. 1747-yilda Nodirshoh Eronda o'ldirilgach, Buxoro xonligi o'z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo'lgan. Buxoro xoni Abulfayzxon

1747-yilda mangʻitlardan boʻlgan Muhammad Rahim otaliq boshliq fitnachilar tomonidan oʻldirilgan. 1747-56- yillar davomida taxtga “qoʻgʻirchoq” xonlar oʻtqazilgan. Mamlakat yana ichki nizolar girdobiga tortilib, viloyat hokimlari isyon koʻtarganlar. Muhammad Rahim ularni shafqatsiz suratda bostirgan. U arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan 1756- yil 16- dekabrda rasmiy ravishda Buxoro taxtini egalladi va oʻzini amir deb eʼlon qilgan. Shunday qilib, Ashtarxoniylar sulolasi rasman barham topib mangʻitlar sulolasi hukmronligi boshlangan. Shu vaqtdan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb nom olgan.

Muhammad Rahim vafotidan soʻng uning amakisi Doniyolbiy otaliq hokimiyatni oʻz qoʻliga oldi (1758-1785). U qoʻshinni mustahkamlashga, unga tayanib ish koʻrishga harakat qildi. Barcha mangʻit beklariga katta yer-mulkni tanho shaklida boʻlib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni koʻpavtirdi. Bundan norozi xalq qoʻzgʻolon koʻtarar, Doniyolbiy esa ularni bostirishga ulgurmasdi. Uning davrida Balx, Hisor, Koʻlob, Oʻratepa viloyatlarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta yer egalarining oʻzboshimchaligi haddan oshdi.

Doniyolbiy shunday sharoitda taxtni oʻgʻli Shohmurodga (1785-1800) topshirdi. Madrasani bitirib, darveshlik jamoasi targʻibotchisidan biriga aylandi. Shohmurod darveshona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda yuk tashuvchilik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali roʻzgʻor tebratdi. Shohmurod faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. Shu jihatlari bilan xalq orasida katta obroʻ qozongan edi. Amir Shohmurod yoshligidan xudojoʻy, porso (pokiza) boʻlib oʻsdi.

Amir Shohmurod islohotlar oʻtkazib, davlatni mustahkamlashga erishdi. U mamlakat hayotida savdogar va hunarmand qatlamining qanchalik ahamiyatga egaligini toʻgʻri baholay oldi. Shuning uchun ham savdo va hunarmandchilikning oʻsishi uchun barcha zarur sharoitlarni taʼminlab berdi. Aholi savdo daromadidan toʻlaydigan boj soligʻidan ozod etildi. Hunarmandlardan pul yigʻish, ularni majburiy mehnatga jalb etish taqiqlandi. Asosiy soliq boʻlgan xiroj miqdori kamaytirildi.

Shuningdek, urush kelib chiqqanida qoʻshinning xarajati uchun “jul” deb ataluvchi yangi soliq joriy etildi. Zarafshon vodiysida, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida sugʻorish tizimlarini qayta tiklatdi. Ayni paytda markaziy hokimiyatga boʻysunishni istamagan viloyat hokimlariga qarshi shiddatli kurash olib bordi. Rais (muhtasib) va qozi askar (harbiy sud) mansablarining nufuzini yanada orttirdi. Mamlakat iqtisodini yoʻlga qoʻyishda Shohmurod oʻtkazgan pul islohoti

ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ashtarxoniylar davrida zarb qilingan taugalarda kumush miqdori kamaytirib yuborilgan edi. Xalq uni hurmat bilan „amiri ma’sum“ (begunoh amir) deb atadi.

Amir Shohmurod vafot etgach, taxtga o‘g‘li Amir Haydar o‘tirdi (1800—1826). Ayrim viloyatlar hukmdorlari uning tajribasizligidan foydalanib, markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka urindilar. Ayni paytda, Amir Haydar qanchalik harakat qilmasin, amirlikda to‘la osoyishtalikni ta‘minlay olmadi. Bunga bir tomondan markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamagan ayrim viloyat hokimlarining harakati, ikkinchi tomondan esa jamiyat hayotidagi adolatsizliklarga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonlari sabab bo‘ldi. Chunonchi, Amir Haydar Shahrisabz va Miyonqolni amirlik tarkibida saqlab qolish uchun kurash olib borishga majbur bo‘ldi. O‘ratepani qo‘lda saqlab qolish uchun esa Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy harakatlar olib bordi. Ayni paytda, o‘zi 1806-yilda Xiva xonligi hujumiga uchradi.

Garchand Xiva qo‘shini quvib chiqarilgan bo‘lsa-da, mamlakatda tinchlik qaror topgani yo‘q. Tez orada davlat va uning amaldorlarining adolatsiz siyosatiga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlandi. 1804-yilda amirga qarshi ukasi Dinnosirbek boshchiligidagi Marv aholisi, 1821-yili Miyonqolda qo‘zg‘olon boshlandi. Harbiy harakatlar va ichki nizolar oddiy mehnatkashlarning binningsiz ham og‘ir ahvolini yanada og‘irlashtirdi.

Amir Haydar vafot etgach, qisqa vaqt oralig‘ida lining ikki o‘g‘li taxtga o‘tirdi. Biroq ular fitna qurboni bo‘lishdi. Nihoyat, taxtni uning uchinchi o‘g‘li Nasrullo egalladi (1826-1860). Amir Nasrullo amirlik tarkibiga rasmangina kirgan bekliliklarni yagona davlatga birlashtirish yo‘lida qat’iyat bilan kurash olib bordi. Shahrisabz va Kitob bekliliklarini to‘la bo‘ysundirish uchun kurash 30 yil davom etdi. Nihoyat, 1856-yildagina u Shahrisabz va Kitobni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi.

Bundan tashqari, mang‘it amirlari o‘zlarining mutlaq hokimiyatini qaror toptirishni bosh vazifalaridan biri deb hisobladilar. Shu maqsadda ular amir shaxsiga sig‘inish siyosatini yuritdilar. Natijada, fuqarolar jazoga tortilishdan qo‘rqqanlaridan uning nomini baland ovoz bilan ayta olmaydigan bo‘lib qoldilar. Hukmron tabaqalar amirga xushomadgo‘ylik qilardilar. Amaldorlar amirdan ko‘rsatma kutib o‘tirmasdan uning xohish-istagini topa bilishga intildilar. Har bir amaldor amiming, kichik amaldor o‘zidan katta amaldorning qahriga uchrab qolishdan qo‘rqib yashardi. O‘zining bugungi mavqeyi, mulki, hayoti, oilasining omonligi uchun shunday bir qo‘rquv muhiti vujudga

keltirildiki, natijada hech kim ishonch bilan ertangi kundan umidvor bo‘la olmaydigan bo‘lib qoldi.

8.4. Xiva xonligi

Temuriylar tasarrufida bo‘lgan Xorazm hududini Shayboniyxon 1505- yilda bosib olgan. Shayboniyxon vafoti (1510- yil)dan keyin Xorazm Eron safaviylari qo‘l ostiga o‘tgan. Ularga qarshi Vazir qal’asi qozisi Umar va Baqirg‘on qishlog‘idan mulla Said Hisomiddin boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. Ikki- yil davom etgan kurash natijasida eroniylar mamlakatdan quvib chiqarilgan va xorazmliklar taklifi bilan 1511- yil Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbarsxon Xorazm hukmdori deb tan olingan.

Elbarsxon davrida (1511-1516) Turkmanistonning janubiy qismi, Eron shimolidagi Saraxs, shuningdek, Orol va Mang‘ishloq qo‘shib olingan. Yangi yerlarni Elbarsxon o‘g‘illari va ukasi, qarindoshlariga bo‘lib berishi natijasida mayda hokimliklar paydo bo‘lgan. Elbarsxon vafotidan keyin uzluksiz o‘zaro nizolar sababli xonlar tez-tez almashib turgan. Bu davrda xalq Elbarsxon avlodlari o‘rtasidagi o‘zaro qirg‘inlardan tashqari Buxoro va Xiva o‘rtasidagi urushlar azobini ham tortishga majbur bo‘lgan. Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronlik davrlarida Buxoro xonligi Xorazmga hujum qilib, qisqa vaqt uni Buxoroga bo‘ysundirgan. Bu urushlar hamda XVI asrning 70- yillarida Amudaryoning o‘z o‘zanini o‘zgarib, Kaspiy dengiziga oqmay qo‘ygani ham Xorazm iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

XVII asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo‘lgan sulolaviy kurashlardan so‘ng taxtga o‘tirgan Arab Muhammadxon davrida xonlikda davlat parokandaligi o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetgan. Rus kazaklari, qozoqlar va qalmiqlarning talonchilik yurishlari, Arab Muhammadxonning o‘g‘illari Habash va Elbarsning otasiga qarshi chiqishi parokandalikni avj oldirgan. Ular kurashda muvaffaqiyat qozonib, Qum qal’asida otasining ko‘ziga mil tortib, so‘ngra qatl ettirganlar. Ko‘pgina padarkushlar kabi Elbars va Habash sultonlar (1621-1623) akalari Asfandiyor (1623-1643) tomonidan taxtdan tushirilib, qatl qilingan.

XVII asrning oxiri-XVIII asr boshlarida Xiva xonligida o‘nlab xonlar almashgan. Bu esa mamlakat ahvolini yanada og‘irlashtirgan. XVIII asrning 60- yillaridan badavlat shaharliklar va ruhoniylarning qo‘llab-quvvatlashiga erishgan qo‘ng‘irot urug‘lari Xiva xonligida hokimiyatni qo‘lga ola boshlagan. Inoq Muhammad Amin 1770- yilda turkmanlarning qarshiligini sindirib, 1782- yilda Buxoro amirligi

hujumini qaytarib, xonlikda qo'ng'irotlarning amaldagi hokimiyatini mustahkamlagan.

Avaz Muhammad inoq davrida Xivada markaziy hokimiyat mustahkamlanib, iqtisodiy ahvol birmuncha yaxshilangan. Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazgan. 1811-yilda bir qancha yurishlardan keyin qoraqalpoqlarni ham xonlik tarkibiga qo'shib olgan. U o'tkazgan siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy islohotlar natijasida boshqaruv tizimi takomillashib, soliqlar tartibga tushgan. Xazina daromadlari ko'paygan.

Xiva xonligi boshqaruv tizimi, asosan, Buxoro va Qo'qon xonliklaridagidek bo'lib, asosiy farqi XIX asr boshlaridan xon huzurida Kengash (Devon) faoliyat ko'rsatganligidir. Eng yuqori amaldorlardan tashkil topgan Kengash vakolati cheklangan edi. Asosiy qarorlar xon tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, amaldorlarning xonlik boshqaruvidagi mavqei baland bo'lgan. Mansab va unvonlar harbiy-ma'muriy, harbiy va diniy toifalarga bo'lingan. Inoq, otaliq, biy, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi va boshqa unvon va mansablar xonlik iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, harbiy hayotida muhim o'rin tutgan. Xonlik sud ishlari asosan, diniy ulamolar qo'lida bo'lib, ularning mamlakat hayotida ta'siri kuchli bo'lgan. Xonlikda davlat tili o'zbek tili bo'lib barcha farmonlar, davlat hujjatlari o'zbek tilida yozilgan.

XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligining ma'muriy jihatdan bo'linishi viloyat deb atalgan bo'lsa, XVIII asrdan bekliliklar deb atala boshlagan. Dastlab xonlikda 18 ta viloyat, 2 ta noiblik bo'lgan bo'lsa, keyinchalik viloyatlar soni 22 taga yetgan. Ularni xon tomonidan tayinlangan hokim va noiblar boshqargan. Xiva shahri esa xon va bosh vazir tomonidan boshqarilgan.

Ijtimoiy hayotda xon va uning amaldorlari va diniy ulamolarning mavqei yuqori bo'lib, iqtisodiy hayotning asosini tashkil qiluvchi yer ham, asosan, ular qo'lida bo'lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlagan va ularning ahvoli juda og'ir bo'lgan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik mamlakat iqtisodida muhim o'rin tutgani uchun Amudaryodan chiqarilgan kanallarni qazish davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sodiq ham iqtisodiy hayotda muhim o'rin tutgan. Xonlik harbiy qo'shini zarur qurol-aslahaga ega bo'lmagan. Qo'shinni ko'proq yarim ko'chmanchi turkmanlar tashkil etgan.

Xiva xonligi Buxoro, Qo'qon, Eron va Rossiya kabi qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq olib borgan. Soliqlar barcha musulmon

davlatlaridagidek xiroj, zakot, boj va juz'yadan iborat bo'lgan. Shu bilan majburiy mehnatning ba'zi turlari amalga oshirilgan. Xiva xonligida adabiyot, tarixnavislik, me'morlik ancha rivojlangan bo'lsa ham, tabiiy va texnika fanlariga, dunyoviy ilmlarga e'tibor deyarli qaratilmagan.

Boshlang'ich maktabda o'qish, yozishni o'rgangan bolalar madrasalarda o'qitilgan. XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang'ich maktab va 103 ta madrasa mavjud bo'lgan. Xiva shahrining o'zida 22 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda Xiva xonligida adabiyot, tarixnavislik, xattotlik, musiqa san'ati, me'morlik va madaniyatning boshqa sohalarida muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan.

8.5. Qo'qon xonligi

XVII asr oxiri-XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida ichki nizolar tufayli markaziy hokimiyat zaiflashgan. Xonlik tarkibiga kirgan viloyatlarda mustaqillikka intilish kuchaygan. Natijada 1709- yil Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi vujudga kelgan. Unga minglar urug'idan bo'lgan Shohruxbiy asos solgan. Bu davlat tarkibiga dastlab Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan. Abdurahimbiy davrida Buxoro xonligiga harbiy yurish qilinib Xo'jand (1725), O'ratepa (1726), Samarqand (1732) egallanadi. Abdulkarimbiy davrida 1746- yil qalmoqlar Farg'ona vodiysiga hujum qilib, O'sh, Andijon, Marg'ilon kabi shaharlarini egallab, Qo'qonni qamal qilgan. Qo'qonliklarga yordamga kelgan O'ratepa hokimi Fozilbiy qo'shinlari bilan birgalikda ularni Farg'ona vodiysidan quvib chiqarishgan. Norbo'tabiy davrida Chust va Namangan beklarining mustaqillik uchun ko'targan g'alayonlari bostirilgan. Bu davrda mamlakatda sug'orish inshootlari barpo qilinadi, savdo va hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi rivoj topadi va mamlakatda arzonchilik bo'ladi.

Norbo'tabiyning o'g'li Olimbek hukmronligi davrida Qo'qonning siyosiy mavqei yanada kuchaygan, harbiy islohot o'tkazilgan, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayram tobe etilgan, tashqi savdoga ham e'tibor kuchaytirilgan. 1805- yil davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilinib, Olimbek "xon" unvonini olgan. Olimxonning markazlashgan kuchli davlat tuzish borasida qilayotgan harakatlari ayrim zodagonlar guruhida norozilik kayfiyatlarini vujudga keltiradi. Natijada, ular Olimxonning safardaligidan foydalanib, 1810- yil Qo'qonda "Olimxon Toshkentda o'ldi", degan mish-mish tarqatishadi va uning ukasi Umarbekka toj kiygizadilar. Olimxon bundan xabar topib, Qo'qonga yo'l oladi, biroq u Oltiqush mavzesida otib o'ldiriladi.

Umarxon davrida xonlik hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish choralari koʻrilgan. 1815- yil Buxoro xonligiga qarashli Turkiston, 1817- yil esa Oʻratepa bosib olingan. Sirdaryo boʻyida bir qancha harbiy istehkomlar barpo etilgan; sugʻorish inshootlarini kengaytirish, kanallar qazish, masjid va madrasalar qurishga eʼtibor berilgan. Xususan, Qoʻqon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyoota (hozirgi Tarozi shahri)da masjid va madrasalar qurilgan. 1821- yilda Chimkent va Sayramda koʻtarilgan qoʻzgʻolon bostirilgan. Umarxon hukmronligi davrida Qoʻqon xonligida fan, adabiyot, sanʼat rivojlangan. Bunda uning sevimli xotini-mashhur oʻzbek shoirasi Nodirabegimning xizmati katta boʻlgan. Umarxonning oʻzi ham oʻqimishli kishi boʻlib, "Amiriy" taxallusi bilan oʻzbek va tojik tillarida gʻazallar yozgan. Umarxon vafotidan soʻng uning 12 yoshli oʻgʻli Muhammad Alixon taxtga oʻtirgan. Xon yosh boʻlganligi uchun davlatni dastlabki davrda onasi Nodirabegim boshqargan. Nodirabegim madaniyat va sanʼatni rivojlantirishga alohida eʼtibor bergan.

1829- yil Sharqiy Turkistonda xitoylarga qarshi bosh koʻtargan musulmon aholiga yordam berish uchun Muhammad Alixon qoʻshin tortib borgan. Natijada Xitoy hukumati Sharqiy Turkistonning 6 ta shahridan soliq olish huquqini berishga majbur boʻlgan.

Muhammad Alixon xonlik hududini kengaytirishga intilib, Janubiy Oloy togʻ etagidagi Qorategin, Darvoz, Shugʻnon, Roʻshon, Vohon bekliklarini boʻysundirgan. Bu davrda xonlikda sugʻorish ishlari kengaytirilgan. Toshkent yaqinida Xonariq kanali qazilgan. Tashqi iqtisodiy-savdo aloqalari ham yaxshilangan.

1840- yil Buxoro amiri Nasrulla bilan yuz bergan urushda Muhammad Alixon yengilib, Xoʻjandni amir Nasrullaga topshirishga va oʻzini uning noibi deb tan olishga majbur boʻlgan. Ammo Buxoro-Qoʻqon munosabatlari bundan keyin ham keskinlashgan. Natijada 1841- yil noyabr oyida Muhammad Alixon oʻz ukasi Sulton Mahmud foydasiga taxtdan voz kechgan. Bu voqeadan xabar topgan amir Nasrulla Qoʻqonga bostirib kelib, uni talon-toroj qiladi. U shu qirgʻinbarot davomida Muhammad Alini, uning ukasi Sulton Mahmudxonni, onasi Nodirabegimni va boshqa yuqori mansabdorlarni qatl ettiradi.

Amir farmoni bilan Qoʻqon xonligi Buxoro noibi tomonidan boshqarila boshlangan. Amir noibi xonlik aholisiga ogʻir soliqlar yuklaydi. Natijada 1842- yil yozida qoʻqonliklar qoʻzgʻolon koʻtarib, amir Nasrullaga sodiq kishilarning koʻpchiligini oʻldiradi va

Norbo'tabiyning ukasi Hojibekning o'g'li Sheralini xon qilib ko'tarishadi. Buni eshitgan Buxoro amiri Qo'qonga qo'shin tortib o'z hukmronligini qayta o'rnatish uchun uni qamal qiladi. Biroq qamalning qirqinchi kuni Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro hududiga qilgan hujumi haqidagi xabarni eshitib, orqaga qaytishga majbur bo'lgan. Natijada, Xo'jand, Toshkent kabi ko'pgina hududlari yana Qo'qon xonligi ixtiyorida qoladi.

Sheralixonning (1842-1845) taxtga o'tirishida ko'makchi va xayrixoh bo'lgan qipchoqlardan Musulmonqul mingboshi qilib tayinlangan. Musulmonqul, asosan, harbiy ishlar bilan shug'ullangan va xon qo'shinlarining tarkibini ko'proq qipchoq yigitlari bilan to'ldirgan. Musulmonqul o'z mavqeidan foydalanib, Sheralixonga o'z ta'sirini o'tkazishga intilgan, ammo xon bunga yo'l qo'ymagan. Musulmonqul xondan norozi bo'lib, boshqalarning qo'li bilan suiqasd uyushtirishga harakat qiladi. 1845- yil O'shda xonning soliq siyosatiga qarshi qo'zg'olon boshlanadi. Musulmonqul tarafdorlari Olimxonning o'g'li Murodbekni Qo'qonga taklif qilib taxtga o'tqazganlar.

Sheralixon esa o'ldirilgan. Musulmonqul O'shdan Namanganga kelib qizini Sheralixonning o'g'li Xudoyorga turmushga beradi va u bilan Qo'qonga kelib, Murodxonni o'ldirib, yosh Xudoyorni xon deb e'lon qiladi. Musulmonqul xonning yoshligidan foydalanib, xonlikni deyarli mustaqil ravishda o'zi boshqaradi, katta lavozimlar qipchoqlarga ulashib beriladi. Xudoyorxon taxtda mustahklanib olgach, Musulmonqulga qarshi xonlik hududida norozilik harakati kuchaydi va u mingboshilikdan bo'shatiladi. Zodagonlar qipchoqlardan qutulish yo'lini axtarib Xudoyorxonni o'zlari tarafiga og'dirib, 1853- yil qipchoqlar qirg'inini boshlab yuborishgan. Musulmonqul asirga olinib, qatl qilingan.

Biroq Qo'qon xonligida o'zaro taxt uchun kurashlar tinchimagan, qisqa vaqt ichida xonlar bir necha marta almashganlar. Qo'qon xonligida quyidagi mansablar mavjud bo'lgan: mingboshi, otaliq, shayxulislom, qozikalon, qushbegi, mehtar, parvonachi, naqib, dodxoh, eshik og'asi, inoq, shig'ovul, to'qsoba, miroxur, qorovulbegi va boshqalar.

Qo'qon xonligida quyidagi harbiy unvonlar mavjud bo'lgan: mingboshi-odatda, u vazirlik vazifasini birga olib borgan. Keyin ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o'nboshi, zambarakchi va bulardan tashqari boshqa turli harbiy mansablar ham bo'lgan. Qo'qonda yashagan sarboz va to'pchilar faqat alohida vazifadagi noib, dodxohning doimiy tasarrufida bo'lganlar. Urush davrida noib, dodxoh o'z qismiga

harakatdagi qo‘shinning hamma sarbozlarini qabul qilgan, unga vaqtinchalik boshchilik qilishni maxsus tayinlangan amiri lashkar (bosh qo‘mondon)ga topshirardi.

XIX asrning 1-yarmida Qo‘qon xonligi shimolda Rossiya bilan (ular o‘rtasida katta cho‘l zonasi bor edi); g‘arbda Xiva va Buxoro bilan; janubda Qorategin, Darboz va Ko‘lob; sharqda Sharqiy Turkiston bilan chegaradosh edi.

Qo‘qon xonligi aholisining soni 3 mln.ga yaqin edi. Rossiya Imperiyasi qo‘shinlari uning shimol-g‘arbiy viloyatlarini bosib olgach, xonlik hududi ancha qisqarib, asosan, Farg‘ona vodiysi bilan cheklanadi va aholi soni taxm. 2 mln.ga tushib qoladi. Qo‘qon xonligining aholisi, asosan, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi.

Qo‘qon xonligida ham yerga egalik qilish va undan foydalanish turli xil bo‘lgan. Xonlikka qarashli bo‘lgan yerlar amlok yerlar, vaqf yerlari, mulki xiroj va mulki ushriyaga taqsimlangan. Dehqonlar o‘rtasida yakka dehqon xo‘jaligi ham rivojlangan. O‘z yerlaridan ajralgan kambag‘al dehqonlarning ko‘pchiligi yirik yer egalari qo‘lida chorakorlik qilgan. Yerning bahosi uning unumdorligi va qanchalik suv bilan ta‘minlanganligiga qarab belgilangan.

Qo‘qon xonligi hayotida savdo-sotiq muhim o‘rin egallagan. U ichki va tashqi savdoga bo‘lingan. Aholi o‘zining ehtiyojlarini asosan o‘z xonligidagi mahsulotlar bilan qondirishgan. Qo‘qon, Marg‘ilon va Namangan shaharlarida ip va ipak matolar (atlas, shoyi, beqasam, adras, chit, bo‘z va boshqalar to‘qilgan. Shuningdek, boshqa hunarmandchilik tarmoqlarida xo‘jalik asboblari, dehqonchilik uchun kerakli uskunalari, qurol-yarog‘lar, zargarlik buyumlari, qog‘ozlar ishlab chiqarilgan. Qo‘qon xonligidan chet davlatlarga quritilgan mevalar, jun, teri, ipak, gilam, paxta va ipak matolar chiqarilgan. Tashqi mamlakatlardan esa turli metall rudalari, metall buyumlar, qand va boshqa mahsulotlar keltirilgan.

Qo‘qon xonligining XVIII-XIX asrlar 1-yarmida kechgan madaniy hayotida ham birmuncha ijobiy o‘zgarishlar yuz bergan. XIX asrda xonlikda tarixnavislik rivojlangan. Oldinlari yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va yangi kitoblar yozildi.

XIX asr boshlarida shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti ham xonlikning madaniy hayotida katta o‘rin tutgan. Qo‘qon hukmdorlarining bir qancha namoyandalari temuriylar an‘anasini davom

ettirib, o'zlari ham ilm-ma'rifat bilan shug'ullanib, bu sohani ravnaq toptirishga katta sa'y-harakat qilganlar. Ayniqsa, bunda Qo'qon xonlaridan Umarxon (1810-1822) va Muhammad Alixon (1822-1841) davrlari yaqqol ajralib turadi.

Umuman olganda, XIX asrning o'rtalariga kelib, O'rta Osiyo xonliklarida adabiyot va tarixshunoslik bilan bir qatorda matematika, tibbiyot, geografiya, astronomiyaga oid hamda diniy asarlar yaratilgan. Bu xonliklarda rassomchilik va xattotlik ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Bu davrning madaniy hayotida dorbozlik, askiya, qo'g'irchoq teatri, masxarabozlik ayniqsa, bastakorlik rivojlangan.

Qo'qon xonligining barcha beklklarida madrasa, maktabxonalar mavjud bo'lgan. Xonlikda me'morlik ayniqsa rivojlangan. 1842- yil Qo'qon shahri atrofi yangi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Uning 12 ta darvozasi bo'lgan. Shuningdek, Toshkent, Andijon, Namangan kabi shaharlardagi shu davr me'moriy yodgorliklarini ko'rsatish mumkin.

8.6. Xonliklarning ma'muriy tuzilishi va boshqaruv tizimi

Xonliklar davridagi boshqamv tizimi masalasiga e'tibor qaratiladigan boisa, Xiva va Qo'qon xonliklarida boshqaruvning xonlik, Buxoroda esa amirlik tizimi joriy etilgan. Xonliklarda eng oliy davlat maqomi xon, amirlikda amir hisoblangan. Bu davrda markaziy boshqaruv toialigicha dargohda, ijroiya vazifalari to'g'ridan-to'g'ri saroydagi u yoki bu lavozimda yoki biron-bir yirik arbob faoliyatida mujassamlashgan. Masalan, ashtarxoniy Ubaydullaxon zamonida mamlakatdagi eng nufuzli davlat maqomiga aylangan qushbegi Buxoro amirligida mangitlar davrida amirdan keyingi ikkinchi shaxsga aylangan. Bosh vazir o'midagi qushbegi mamlakat boshqamvi, moliya, soliq, xazina, poytaxtdagi ahvol bilan bogiiq eng muhim masalalarni nazorat qilgan.

Shuningdek, unga barcha viloyatlar bo'ysungan. Muhimligi jihatidan keyingi vazifa moliya vaziri (devonbegi) hisoblanib, uni odatda quyi qushbegi deb atashgan. Sababi, qushbegi-bosh vazir arkda faoliyat ko'rsatgan boisa, moliya ishlari, asosan zakot bilan mashg'ul qushbegi idorasi arkdan pastda joylashgan. Shuning uchun ham xalq orasida bosh vazir bosh qushbegi, moliya vaziri esa quyi qushbegi deyilgan. Mangitlar davrida shayboniylar, ayniqsa, ashtarxoniyilar zamonida katta mavqe kasb etib kelgan otaliq lavozimi xizmati endi asosan Samarqand va Buxoro, ya'ni amirlikning markaziy qismini sug'orish ishlari, suv taqsimoti bilan bogiiq tadbirlarga bosh-qosh boigan.

Shuningdek, amirlikda parvonachi (oliy hukmdor yorliqlarini amaldorlar, umuman tegishli kishilarga yetkazuvchi; unga shuningdek arab millatiga mansub aholi bilan shug'ullanish ham yuklatilgan), dodxoh (jabrlanuvchilar arzini amirga yetkazish va javobini olib berishga mas'ul, ba'zan oliy hukmdor ruxsati bilan o'zi ham da'vogarlaming talablarini qondirish mumkin boigan) kabi ilgarigi asrlardayoq joriy boigan vazifalar bor edi. Ammo mazkur davlat lavozimlarining mavqeyi endi ko'proq shu mansabdagi shaxs nufiizi bilan oichanadigan bo'lib qolgandi. Xuddi shunga o'xshash holatni inoq mansabida ham ko'rish mumkin. U o'z lavozimiga ko'ra, oliy hukmdor buyruqlarini hukumatdagi oddiy xizmatchilarga yetkazish, demak, buyruqni amalga oshirishni tashkil qilish va umuman hali davlat mansabini egallamagan, lekin hokimiyat xizmatida boiganlar bilan shug'ullangan.

Inoq lavozimining bosh (katta) va kichiklari ham boigan. Yuqorida zikr etilgan vazifalar katta (bosh) inoqqa tegishli. Kichik inoqlar esa chet el elchilari tomonidan taqdim qilingan hujjatlar, nomalarni qabul qilgan. Aynan unda oliy hukmdor muhri ham saqlangan.

Amirlikdagi muhim davlat mansablaridan biri **to'qsobo** boigan. Asl ma'nosiga ko'ra, tug', ya'ni oliy hukmdor-davlat bayroqdori hisoblansa-da, u oliy marosimlarda ishonchli shaxs sifatida hukmdor oldiga taom tortish kabi mas'uliyatli tadbirlarni ham bajargan. Shu bilan birga unga biron-bir tuman ham birlashtirib qo'yilgan. Ammo XIX asrga kelib esa mazkur lavozim egasi xuddi dodxoh kabi harbiy vakil darajasiga ko'tarilgan. Harbiy ishlar bo'yicha eng yuqori darajada esa harbiy vazir turgan. Uni ko'proq lashkar to'pchiboshisi nomi bilan ataganlar. Buxoro gamizoni boshligi lashkar boshligi sanalib, amalda harbiy vazir vazifasini o'tagan.

Harbiy vazirning lashkar to'pchiboshisi deb atalishi qo'shin va undagi o'sha davr eng zamonaviy qurollari bilan bogliangan. Shuningdek, boshqaruvda ko'kaldosh (mamlakat miqyosida xavfsizlik xizmati boshligi), bosh xoja (haram xodimlari boshligi), mehtar, qutvol (qurilish ishlariga mas'ul), bakovulboshi, kichik urog' (oliy hukmdor va amaldorlarning xizmatidagilami nazorat qilib turuvchi xodim), eshikog'aboshi, miroxur, qo'rchiboshi (qurol-aslahaga mas'ul), qorovulbegi (shahar, yoilar posboni), udaychi (urush paytida harbiylarni turiga qarab taqsimlovchi), shig'ovul (elchilar qabulini uyushtiruvchi) kabi qator lavozim va xizmatlar ham boiganki, ular o'zlarining

to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifalaridan tashqari, amirlik siyosiy hayotida tutgan shaxsiy mavqelari bilan ham qadrlanganlar.

Boshqa xonliklar singari amirlikda ham mafkuraviy munosabatlarda eng oliy daraja hisoblangan shayxulislom mansabi bo‘lgan, u hatto jamiyat ma‘naviy hayotida muhim o‘rin egallab, hukmdor turish-turmushiga ta‘sir ham etgan. Bu lavozimga hatto qozi kalon ham bo‘ysungan. Oliy qoziga o‘z o‘rnida quyi tabaqa qozilari, jumladan, askar qozisi ham hisob berib turgan. Qozi kalonning vakolatiga quyidagilar kirgan: umuman sud ishlari, ijtimoiy adolat bilan bog‘liq masalalar, xususan, bozor, ko‘cha-kuylardagi ahvol, madrasalardagi ta‘lim, vaqf ishlari, yo‘qolgan vaqf hujjatlarini tiklash, yetim va bevalar haq-huquqini himoya qilish, karvonsaroylardagi tartib va hokazo.

Amir Shohmurod davrida qozilik tizimida qator o‘zgarishlar qilingan. Chunonchi, oliy mahkama ta‘sis etilib, uning ishida 40 nafar faqih (qonunshunos) faoliyat ko‘rsatgan. Sud jarayonida ayblanuvchi ham, jabrlanuvchi ham albatta ishtirok etishi kerak bo‘lgan. Biron-bir tomon egallab turgan yuqori lavozimi orqasida javobgarlik, guvohlikdan bosh tortolmagan. Shuningdek, mazkur tizimda muftiy (rivoyat va fatvo bilan ta‘minlovchi), rais (muhtasib), sadr (vaqf mulklari hisob-kitobi va nazorati bilan shug‘ullanuvchi) kabi xizmatlar ham faoliyat ko‘rsatgan.

8.7. Xonliklarda madaniy holat

O‘tgan sulolalar kabi mang‘itlar, qo‘ng‘irotlar, minglardan chiqqan namoyandalar ham o‘z davri va doiralarning o‘qimishli shaxslari bo‘lgan. Masalan, Qo‘qon xoni Umarxon “Amiriy”, malika Mohlaroyim “Nodira”, “Komila”, “Maknuna”, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II “Feruz”, uning akasi Otajon To‘ra Murod “Murodiy” taxallusida she‘rlar bitgan. Abulg‘oziy Bahodirxon “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” kabi o‘zbek tilida asarlar yozgan. Fazliy, Mushrif, G‘oziy, Afsus, Sodiq, Xijolat, Hoziq, Xotif, Mahmur, Gulxaniy kabi etuk qalam sohiblari Farg‘ona vodiysida yashab ijod qilgan. Shuningdek “Afzal at-tavorix”, “Tarixi Umarxon”. “Risolayi askariya”, “Muntaxab at-tavorix”, “Tarixi Shohruxiy”, “Tarixi jahonnamoy”, “Xulosat al-axbor”, “Tasnifi g‘arib” kabi boshqa ko‘plab tarixiy asarlar ham xuddi shu davrda Qo‘qon xonligi doirasida yaratilgan. O‘sha davrdagi tarixiy asarlar orasida Toshkentning yangi tarixiga bag‘ishlangan “Tarixi jadidai Toshkand” kitobi ham yozilgan.

Buxoro amirligida ham tarix yozishlik harakati to‘xtamagan. Bu yerda “Tuhfat al-xoniy”, “Tarixi amir Haydar”, “Fathnomayi sultoniyy”,

“Mang‘itlar xonodoni saltanati qisqacha tarixi”, “O‘zbek nodshohlari zikri”, “Tarixi salotini mang‘itiya, o‘zbakiya va ashtarxoniya” kabi asarlar yaratilgan.

Xiva ham tarixiy asarlar bitish borasida o ziga xos markazga aylangan. Zikr qilingan “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, Munisning “Firdavs aliqbol”, Ogahiyning “Riyoz ad-davla”, “Zubdat at-tavorix”, “Iqboli Feruziy”, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi”, “Jome al-voqeoti sultoniyy”, “Gulshan ad-davlat”, “Iqboli Feruziy” asanarining yozilganligi eng katta dalildir. Xivalik tarixchilar Mirxond, Xondamir, Yazdiy, Vosifiy, Rashi diddin, Binoiy, Sa‘diy, Nizomiy, Xisraviy, Nosiriy, Darvish Ahmad, Mas‘udiy asarlarini arab va fors tillaridan o‘zbekchaga o‘giranlar. Xiva olimlari va tarixchilari o‘z asarlarini yangi o‘zbek tilida yozib, tarixshunoslikka katta hissa qo‘shganlar. Xiva xonligida doston kuylovchilar – “baxshilar” ko‘p bo‘lgan. Bu xonlik hududida turkmanlar, qoraqalpoqlar ham yashashgan. Ularda ham “baxshilar” boigan. Ular o‘z baxshilarini jirlovchilar deb atagan.

Xullas, xonliklar davrida ajdodlar sun‘iy sug‘orish ishlari, qurilish, dehqonchilik, hunarmandchilik, fan va madaniyat, savdo, tashqi aloqalar (Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Xitoy, Rossiya va boshqalar) masalalarida to‘xtab qolmaslik harakatlarini qilgan. Undan oldingi o‘tmish madaniyatini nazarda tutsak, kelayotgan fan va texnika asrida taraqqiyotning oldingi saflarida turishlari uchun ularning potensial imkoniyatlari bor edi. Ammo davlat siyosatida, yakkahukmdorlik asosida qurilgan ijtimoiy-siyosiy tizimdagi yetakchi kuchlar-xon-u amirlar, bek-u amaldorlar faoliyatida ana shu zamonaviy taraqqiyot asoslarining inkor etilishi, ulardan milliy manfaat yoiida foydalana bilmaslik, o‘z tor doiralarida o‘ralashib qolishlik, dunyo miqyosida fikrlashning yo‘qligi pirovardida qimmatga tushdi.

8.8. Xonliklarda pochta tizimi

Xonliklar davrida, shu jumladan, XVIII asrga kelib pochta jo‘natmalari ot arava yoki piyodalar bilan ayrim holatlarda esa savdo karvonlari orqali yetkazib berilgan. O‘tgan davrlardagi oddiy aholi qatlami bir-birlari bilan faqat og‘zaki xabar almashib turganlar. XIX asr oxirlariga kelib, O‘rta Osiyoda yozma yoki og‘zaki ma‘lumotlarni yuborish juda qiyin ahvolda bo‘lib, qo‘llanilayotgan imkoniyat va choralarga moslashish ham juda murakkab edi. Pullik xizmatning asosini yozma jo‘natmalar va ularni joylarga yetkazish tashkil etardi.

Aholiga xizmat ko'rsatadigan maxsus aloqa korxonalari, pochta xizmati uchun mo'ljallangan pochta qutilari ish hajmining juda kamligi sababli ochilmagan. Pochta almashinuvi asosan hukumat korrespondensiyalarini yetkazib berish bo'yicha ishlarni amalga oshirilgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. O'rta Osiyoda XV asr boshidagi siyosiy vaziyat qanday bo'lgan?
2. Shayboniylar davlati qachon shakllandi?
3. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi qanday rivojlangan?
4. Qanday qilib Buxoro xonligi Buxoro amirlikiga aylanib qoldi?
5. Xiva xonligi qachon qanday tashkil topdi?
6. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot qanday rivojlangan?
7. Qo'qon xonligida ijtimoiy-siyosiy va xo'jalik hayot qanday bo'lgan?
8. Qo'qon adabiy va madaniy muhiti qanday rivojlandi?

9- MAVZU: O‘ZBEK XONLIKLARNING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY OZODLIK HARAKATI. JADIDCHILIK.

Asosiy tushuncha va iboralar: avtarkiya; bosib olish; mustamlakachilik; mustamlaka; metropoliya; protektorat; jadidchilik; temiryo‘l tizimi; telegraf; telefon; konka.

9.1. Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi

Rossiya Imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olish harakatlari XVIII asr boshlaridan boshlanadi. Dastlabki harakatlar Pyotr I zamonida, 1714-1717-yillarida boshlangan edi. Shu maqsadda 1714-yili Preobrajinskiy polkining poruchigi knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida yuborilgan ekspeditsiya Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘oqlarini o‘rganib, Krasnovodsk qo‘ltig‘ida istehkom qurishi, Xiva xonligiga yetib borib xonni rus fuqaroligiga o‘tishga undashi, undan Buxoroga o‘tib Amirni ham Rossiya panohiga o‘tishga ko‘ndirishi kerak edi. Amalda ekspeditsiya Krasnovodsk qo‘ltig‘ida 3 ta istehkom qurdi. Rus askarlarining ko‘pchiligini bezgak kasalligi bilan qirilib ketishi natijasida ekspeditsiya 1716-yili Astraxanga qaytib ketishga majbur bo‘ldi.

1717-yilda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida yangi tuzilgan ekspeditsiya Orol dengizining G‘arbiy sohili bo‘ylab Amudaryo orqali Xivaga yetib, Sherg‘ozixon bilan muzokaralar olib boradi. Sherg‘ozixon hiyla ishlatib ekspeditsiya a‘zolarini qirib tashlaydi. Shunday qilib, Pyotr I ning O‘rta Osiyoni bosib olishdagi maqsadlari uning umri davrida amalga oshirilmaydi. Shu davrdan boshlab O‘rta Osiyoga boradigan asosiy yo‘llar bo‘ylab harbiy qal’alar qurila boshlanib, Rossiya Imperiyasi chegarasi xonliklarga yaqinlashib bordi. 1718-yilda Irtish daryosi bo‘yida bunday istehqomlardan yettitasi qurib qurildi.

Rossiya Imperiyasining keyingi hukmdorlari to XIX asming ikkinchi yarmigacha asosan o‘zining elchilarini, josus-sayohatchilarini yuborish orqali O‘rta Osiyoning tabiatini, boyliklarini, harbiy va iqtisodiy imkoniyatlarini o‘rganishga kirishadi. Birgina Nikolay I (1825-1855) va Aleksandr II podsholigi (1855-1881) davrida Qozog‘iston hududlarida 103 ga yaqin harbiy qal’alar, tayanch punktlari qurildi.

1840-yilning noyabrida Orenburg gubernatori general mayor V. A.Perovski 2 ta zambarak, 40 ta arava, besh ming tuyadan iborat harbiy qism bilan Xivaga qarshi yurish boshlaydi. Biroq, cho'ldagi qattiq sovuqlar, kiyim-kechak, suv yetishmasligi natijasida kasallik ko'payadi va bu yurish ham natijasiz tugaydi. Bundan buyon Rossiya xonliklar bilan jouslik yo'lida diplomatik va savdo aloqalarini kuchaytirishga harakat qila boshlaydi.

Bu davrda yirik mustamlakachi davlat hisoblangan Angliya ham O'rta Osiyo hududiga qiziqish bildirib boshlaydi. Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. Shu maqsadda 1825-1845- yillarda Angliya hukumati tomonidan Hindistondagi Ost-Indiya kompaniyasi orqali bir necha missiyalar yuborildi. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida bo'lib, Rossiya tajovuzidan saqlanish uchun uchala xonlik bir-birlariga yordamlashishini, kuchlarni birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin bilan yordam berishga va'da qiladilar.

Inglizlarning O'rta Osiyoda jiddiyroq siyosat yuritishiga Afg'oniston xalaqit berardi. Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirish va uni egallashga intilishi Rossiyani tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo'lganidan foydalanib, harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Rossiya Imperiyasining O'rta Osiyoni tezroq egallashdan asosiy maqsadlari quyidagilar edi:

1. Bu davrda Rossiya G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSh dan iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan edi: 1860-yili Rossiya Fransiyadan 7,2 barobar, Germaniyadan 9 barobar, Angliyadan 18 barobar kam sanoat mahsuloti ishlab chiqarardi. Shu sababli rus tovarlari Yevropa bozorida raqobatga bardosh bera olmas edi.

2. 1853-1856-yillardagi Qrim urushida Rossiyaning mag'lubiyatga uchrashi natijasida Bolqon va Kichik Osiyo yo'nalishida mustamlakachilik siyosatini vaqtinchalik to'xtatishga majbur bo'ldi. Bu esa mustamlaka obyekti sifatida O'rta Osiyoning ahamiyatini yanada oshirdi. Ikkinchi tomondan, urushda Angliyaning Turkiya tomonidan turib Rossiyaga qarshi urushganligi uchun O'rta Osiyoni bosib olish orqali Hindiston chegaralariga yaqinlashish hamda Angliyaga siyosiy ta'sir etish.

3. 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushi natijasida Amerika paxtasining Yevropa va Rossiyaga kelmay qolishi Rossiya yengil

to‘qimachilik sanoatini qiyin ahvolga solib qo‘ydi. Natijada Rossiyaning tajovuzkorlik harakati tezlashdi.

9.2. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishining asosiy bosqichlari. Buxoro amirligi va Xiva xonligida Rossiya imperiyasi protektoratining o‘rnatilishi

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi to‘rt bosqichda ro‘y berdi.

I bosqich – 1847-1864- yillar bo‘lib, bu davrda Rossiya Imperiyasi armiyasi 1847- yili Sirdaryoning quyi oqimini bosib oldi. 1853- yilda Qo‘qon xonligining Oqmasjid qal’asi bosib olindi va uning ornida Perovsk istehkomi qurildi. 1864- yilda chor qo‘shinlari Pishpek va Toqmoqni bosib oldilar.

II bosqich – 1865- yildan boshlanib, 1868- yilga qadar davom etadi. 1865- yilda Toshkent, 1866- yilda Xojand, Oratepa, Jizzax, 1968- yilda Samarqand va Kattaqorg‘on shaharlari bosib olindi.

III bosqich – 1873- yili fevralidan to 1879- yil avgust oyigacha davom etadi. 1873- yili Xiva, 1876- yil Namangan bosib olindi. Biroq Go‘ktepa qal’asini qamal qilayotganida chor qoshinlari mag‘lubiyatga uchradi.

IV bosqich – 1880- yil oxiridan to 1885- yilga qadar davom etadi. 1881- yilda Go‘ktepa (Ashxobod) qal’asi bosib olindi, 1885- yilda esa ingliz ofitserlari qomondonlik qilgan afg‘on otryadlari tor-mor etildi.

Quyida Rossiya Imperiyasi O‘rta Osiyoga bosqinining ayrim tafsilotlariga to‘xtalamiz.

1859- yilda Aleksandr II Qo‘qon xonligini bosib olish tog‘risida qaror qabul qildi. Qo‘qon xonligining hali 1853- yildayoq bosib olingan sobiq Oqmasjid qal’asi bolmish “Perovskiy istehkomi” hujumning tayanch manziliga aylandi. Qo‘qonliklar qahramonlarcha mudofaa qilishiga qaramasdan, Oqsuv, Peshtepa va Chordevor qal’alari ham bosib olindi.

1864- yil iyun oyida Turkiston, oktyabrda esa Chimkent shahrlari bosib olindi. 1864- yil oktyabrda general Chernyaev Toshkent shahrini egallash maqsadida hujum boshladi. Toshkent aholisiga yordamga lashkarboshi Mulla Alimqul Qo‘qondan yetib keldi va shahar mudofaasini tashkil etishga kirishdi. Shahar mudofaachilari bu hujumni qaytardi va chor qoshinlari Chimkentga chekinishga majbur bo‘ldi. Bu og‘ir mag‘lubiyat Rossiya Imperiyasini to‘xtatib qololmadi. 1865- yilning bahoridan general Chernyaev Toshkentga qarshi yangi hujum harakatlarini boshlab yubordi.

Chernyaev 1865- yil 7- mayida Toshkentga yaqinlashib keladi. Jang dahshatli tus olib, ikki tomondan ko'p qurbonlar va yaradorlar boladi. Jangda Mulla Alimqul og'ir yarador bo'lib, Toshkentda vafot etadi. Chernyaevning buyrug'i bilan uylar yondirildi, egalari otib tashlandi, biro'rta ham yoshu qariga shafqat qilinmadi. 1865- yil iyun oyida Toshkent taslim bo'ldi. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuzildi, uning harbiy gubernatori etib M. Chernyaev tayinlandi.

Chernyaev 1866- yil yanvarida Jizzaxga hujum qiladi va mag'lubiyatga uchraydi, oqibatda Chernyaev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi, orniga general D. Romanovskiyy tayinlandi. U Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshladi. 1866- yil may oyida bo'lgan jangda amir Muzaffar qo'shinlari engildi. Romanovskiyy Xo'jandni egalladi. 1866- yil avgustda Orenburgdan general-gubernator Krijanovskiyy Toshkentga keldi va Romanovskiyy bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlashdi. Katta qo'shin tortib 1866- yil oktyabrda O'ratepa viloyati, Zomin qal'asini bosib oldi, so'ng Jizzaxni egalladi.

Podsho Aleksandr II 1867- yil 14- iyulda Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugini tuzish tog'risida Farmon berdi. General-gubernator va okrug qomondoni etib general-ad'yutant Fon Kaufman tayinlandi. Unga keng vakolat berilib harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan edi, shu boisdan u "Yarim podshoh" deb atalardi. Bu tadbir Rossiya Imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish yolidagi harakatida yangi bosqich bo'ldi.

1868- yil Buxoro amiri qo'shinlari bilan Rossiya Imperiyasi qo'shinlari o'rtasida Choqonota tepaligida jang bo'ldi. Bu hujumga Turkiston general-gubernatori Kaufmanning shaxsan ozi boshchilik qildi va Samarqand egallandi. Amir Muzaffar 1868- yilda Fon Kaufman bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi va Rossiya imperatorining vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan qaram davlatga aylantirildi. Sulhga binoan Xojand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqorg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir 500 ming som tovon tolash majburiyatini oldi.

Fon Kaufman 1873- yil bahorida Xiva xonligiga yurish boshladi. Amudaryo boylarida qirg'inbarot janglar bo'ldi. 1873- yil Kaufman otryadlari Amudaryodan otib Xazoraspni egalladi, Qong'iro't va Xo'jayl shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etildi, talandi. Jstilochi qoshinlar Xivani

zabt etadi. 1873- yil 12- avgustda Kaufman bilan Rahimxon uchrashuvi bo‘ldi va Gandimiyon shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq, Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylantirildi, Amudaryo quyi oqimining ong tomonidagi erlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, xonlikka 2 million 200 ming som tovon to‘lash yuklatildi, Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida boj va majburiyatlarni bajarishdan ozod etildi.

Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo‘qon xonligini tugatishga kirishdi. Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman Qo‘qon xonligidan bosib olingan erlarni Rossiya tarkibiga kiritilganligini rasmiy qonunlashtirib olish maqsadida polkovnik Shaufusni Xudoyorxon huzuriga yubordi va xon 1868- yil uni qabul qilib, shartnomaga muhr bosdi. Unga kora, rus savdogarlariga katta imtiyozlar berildi. Xonlik tashqi olamdan uzib tashlandi va Rossiyaning siyosiy qaramligiga tushib qoldi. Qo‘qon xonligi bosib olinishiga qarshi katta g‘alayon yuz berdi.

Bu qozg‘olon 1873-1876- yillarda bo‘lib otib, unga Abdurahmon oftobachi va Po‘latxon rahbarlik qilgan. Ushbu xalq harakati bostirildi. Qo‘qon xonligi tugatilib, uning o‘rnida Farg‘ona viloyati tuzildi va Turkiston general-gubernatorligiga qo‘shib olindi. Viloyatga general Skobelev gubernator etib tayinlandi. Qo‘qon xonligining aholisi uch million som tovon to‘lashga majbur qilindi. Rossiya Imperiyasi O‘rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Milliy davlatchilik tugatildi. O‘lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo‘lida topildi. General-gubernatorlik kengashi va to‘rt bolimdan iborat mahkama tuzildi.

9.3. Turkiston general-gubernatorligining ma‘muriy tuzilishi

1867-yilda Rossiya Imperiyasi harbiy vaziri D.Milyutin, Imperator maslahatchisi V.Girs tomonidan “Turkiston o‘lkasini boshqarish tartibi haqida Nizom” loyihasini tuzildi va amalda kuchga kirdi. Unga ko‘ra o‘lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo‘lida to‘plandi. Turkiston general-gubernatori etib fon Kaufman (1867-1881) tayinlandi. Turkiston general-gubernatorligi dastlab tashkil etilganda uning tarkibiga ikkita viloyat Sirdaryo (markazi – Toshkent) va Yettisuv (markazi – Verniy (hozirgi Olma-Ota)) kirgan. Turkiston general-gubernatorligining viloyatlarga bo‘linishi tabiiy-geografik va aholining iqtisodiy shart-sharoitlarini o‘rganish asosida emas, balki o‘lkani bosib olish jarayoni bilan bog‘liq holda amalga oshirildi. O‘rta Osiyoning hududlari kengroq bosib olinishi natijasida Turkiston general-

gubernatorligi tarkibida XIX asr oxirlariga kelib besh viloyat tashkil etildi. Sirdaryo (1867), Farg‘ona (1876), Samarqand (1868), Ettisuv (1867), Kaspiyorti (1881) viloyatlarini shaxsan imperatorning ozi tayinlagan harbiy gubernatorlar boshqarardi.

Turkiston general-gubernatori o‘lkani boshqarishda keng vakolatlarga ega edi, harbiy okrug qoshinlari qomondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo‘lgan. U Buxoro amiri faoliyatini Rossiya Imperator agentligi orqali, Xiva xonini esa Amudaryo bolimi boshlig‘i orqali nazorat qilib turgan. Rossiya Imperiyasi Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini takomillashtirib bordi. Ushbu maqsadda 1886-yil 12-iyunda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom” qabul qilindi.

Ushbu Nizomga muvofiq Turkiston general-gubernatorligining ma‘muriy boshqaruvi yangi idora – Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to‘ldirildi. Viloyat harbiy gubernatorlari, general-gubernator devoni boshqaruvchisi, Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig‘i bu Kengashning doimiy a‘zolari hisoblanishgan. General-gubematorlik Kengashi va to‘rt bo‘limdan iborat mahkama tuzildi. Birinchi bo‘lim ma‘muriy va nazorat, ikkinchisi moliyaviy-xo‘jalik, uchinchisi soliq va shaharlar mablag‘lari ishlarini boshqargan. To‘rtinchisi maxsus bo‘lim deb atalgan.

Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarga, viloyatlar uezdlariga, uezdlar esa volostlarga, volostlar uchastkalariga, uchastkalar esa oqsoqollar boshqaradigan hududlarga bolingan. Uyezd boshlig‘i ma‘muriy, politsiya, harbiy hokimiyatlarni o‘zida birlashtirgan, odamlarga jarima solishi, 7 kungacha hibsdan saqlashi mumkin bo‘lgan. Uchastka boshliqlari ham odamlarga jarima solishi, 3 kungacha hibsdan saqlab turishi mumkin bo‘lgan.

Mustamlakachilar Toshkent shahrini Turkiston general-gubernatorligining ma‘muriy markazi etib tanlashdi. Ma‘muriyat Toshkentning sharqiy qismidan joy tanlab, tanlangan joydagi mahalliy aholini ko‘chirib, Rossiyadan kelganlar yashaydigan uylar, kochalar, oromgohlar qurdilar. Shaharning bu qismi yangi shahar deb ataldi (shaharni hokim boshqargan). Eski shaharning, ya‘ni mahalliy aholi yashaydigan qism aholisining rus aholisi yashaydigan shahar qismiga otishi ta‘qiqlangan edi.

1877-yilda Toshkentda “Shahar Nizomi” joriy etilgan bo‘lib, unga ko‘ra shahar boshqaruvi Dumaga o‘tgan edi. Toshkent shahar Dumasi farmoyish beruvchi organ bo‘lib, uni shahar hokimi – oqsoqol

boshqarardi. Turkiston general-gubernatori tomonidan Duma oqsoqoli (golova) etib shahar hokimi polkovnik E.P.Pukalov tayinlandi. Noiblar orasidan ijro etuvchi hokimiyat – shahar boshqarmasi (mahkamasi) tuziladi.

Rossiya Imperiyasining Turkistondagi asosiy tayanch ma'muriy va majbur qiluvchi tashkiloti politsiya idorasi bo'lib, u katta vakolatlarga ega edi. Mustamlakachilik ma'muriyatining muhim huquqiy bog'ini sud organlari hisoblangan. Sudlar ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, ular sudlar va xalq sudlari deb atalgan. Ularning birinchisi mustamlakachilik shaklida bolsa, xalq sudlari shariat asosida ish yurituvchi qozilik idorasi edi.

Rossiya imperiyasining 1886- yilgi "Nizom"i o'lkaga rus aholisini ko'chirib keltirish yo'li bilan o'lkani ruslashtirish harakatini qonunan mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi. Ko'chib keluvchi har bir oilaga 10 tanobdan ham bo'lmagan yer ajratish belgilandi. 15 yil davomida (1875-1890) Turkistonga 1300 oila kochib kelib joylashdi.

9.4. Rossiya imperiyasining Turkistondagi iqtisodiy siyosati

Rossiya Imperiyasi Turkistonni bosib olishda albatta, iqtisodiy maqsadga ega edilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, Rossiya to'qimachilik sanoati AQSh paxtasiga bo'g'liq edi. Rossiya to'qimachilik sanoati uchun keltirilayotgan Amerika paxtasi uchun yiliga 30-40 million rubl to'lab kelardi. Shu boisdan, Turkistonni paxta xomashyosi yetishtiradigan bazaga aylantirish Rossiya agrar siyosatining bosh maqsadi deb belgilandi.

1886-yil Nizomga ko'ra xonliklar davrida davlat mulki hisoblangan yer maydonlari Rossiya davlati xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. Vaqf mulklari ham asta-sekin davlat ixtiyoriga olindi. Xususiy mulk hisoblangan yerlar ilgarigi egalariga merosiy ravishda foydalanishga berildi va soliq solindi. Ijaraga yer olib, undan amalda foydalanib kelayotgan xonadonlarga o'sha yerlar meros qilib birlashtirildi va ularga soliq solindi. Shu tariqa, o'lkaning barcha hosildor yerlari Rossiyaning daromad manbaiga aylantirildi. XIX asr oxirida yer solig'i 4 million rublni tashkil etgan bo'lsa, 1916- yilda 38 million rubldan oshib ketdi.

Shuning uchun Turkistonda paxta plantasiyalarini kengaytirishga jiddiy e'tibor berildi. Paxta plantasiyalari asosan Farg'ona viloyatida tashkil etildi. Xususan, Turkistonda 1885-1916- yillarda paxta ekiladigan yer maydoni 40 ming tanobdan 550 ming tanobga ko'paydi. 1884-yilda hosildorlikni oshirish maqsadida tajriba- urug'chilik

stansiyasi ochildi. Shu yildan paxtachilikda pishiq tolali va hosildor “Amerika” navini ekish keng tarqala boshlandi.

Shuningdek, Turkistonda yangi ekinlar paydo bo‘lib, Rossiya iqtisodiyotiga foyda keltiradigan mahsulotlar yetishtirish oshirildi. Qishloq xo‘jaligida pilla yetishtirish ko‘paytirildi, o‘lkada qand lavlagi, kartoshka, karam ekinlarini ekish o‘zlashtirildi. Vinochilik, asalarichilik paydo bo‘ldi.

Turkistonni Rossiya bilan bog‘lash uchun qurilgan temir yo‘l tizimi avvalo harbiy maqsadlarda qurilgan bo‘lsa-da, uning qurilishi ma‘lum darajada o‘lka boyliklarini tashib ketishda ham foydalanildi. 1880-1889- yillar oralig‘ida Krasnovodsk, Ashxobod, Marv, Chorjo‘y, Kushka, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo‘qon, Andijon shaharlarini bog‘lovchi O‘rta Osiyo temir yo‘li qurildi. 1890-1905-yillarda Toshkent–Orenburg temir yo‘li qurilib, Turkiston Rossiyaning markazi bilan bevosita bog‘landi. 1915- yilda Buxoro-Qarshi va Termiz-Qarshi-Shahrisabz-Kitob temir yo‘li qurildi.

Turkiston Rossiyaning markazi bilan temir yo‘l orqali bog‘langach, rus kapitali (sarmoyalari) o‘lkaga kirib kelishi jadallashfi. Turkistonda Rus-Osiyo banki, Moskva savdogarlar banki, Rossiya davlat bankining filiallari tashkil etildi. O‘lkada bir qator zavodlar, savdo shahobchalari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar qurildi. Paxta va uni xarid qilish bilan shug‘ullanuvchi 30 ga yaqin savdo shahobchasi vujudga keldi. Turkiston iqtisodiyotiga yirik sarmoyadorlar ta’siri kuchaydi. Masalan, yirik sarmoyador Vodyaevlar Turkistonda “Vodyayevlar savdo uyi”ni tashkil etib, 30 ta paxta zavodi qurdi. Farg‘ona vodiysidagi keng paxta dalalari, temir yo‘llar, paxta tozalash zavodlari va Ivanovo to‘qimachilik korxonalari ham ushbu shirkatga tegishli edi.

Turkistonda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ta’sirida milliy sarmoyadorlar va ishchilarning shakllanish jarayoni boshladi. 1914-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘lkada 49,5 ming ishchi bo‘lib, ulardan 25,5 mingi sanoatda, 24 mingi temir yo‘l va unga xizmat qiluvchi ustaxonalarda ishlagan. Turkistonda paxta tozalash zavodlari, do‘konlar, tegirmonlar, yirik bog' va uzumzorlarga ega bo‘lgan mahalliy mulkdorlar ham faoliyat yuritdi.

Turkiston iqtisodiyotining mustamlakachilik xususiyatidan yana biri, o‘lka Rossiya tovarlari sotiladigan bozorga aylantirildi. 1895- yilda Turkistonda Rossiya korxonalarida tayyorlangan taxminan 6 million rubl miqdorida temir, mis, chinni buyumlar, gazlama, yog‘och, choy,

oziq-ovqat va boshqa buyumlar sotilgan bo'lsa, 1914- yilda sotilgan buyumlar salmog'i 243 million rubldan oshib ketdi. Sotilgan mahsulotlarning 40 foizini o'lkadan tashib ketilgan paxtadan Rossiya to'qimachilik korxonalarida to'qilgan gazlamalar tashkil etardi.

Rossiya savdogarlari va sanoatchilari Turkistonda sanoat mahsulotlari sotishdan ham, bu yerdan xomashyo sotib olishdan ham katta daromad olardilar. Shunday qilib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston Rossiya Imperiyasining nafaqat siyosiy, shuningdek, iqtisodiy mustamlakasiga aylantirildi. O'lkada tramvay, telegraf, elektr, telefon, temir yo'l kabi fan-texnika yutuqlarining paydo bo'lishi shu davrga to'g'ri kelishini ta'kidlash zarur.

9.5. Turkiston xalqlarining Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy-ozodlik harakati

Turkistonni Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olingach, uning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotida ma'lum o'zgarishlar amalga oshirildi. Rossiya Imperiyasining mustamlakachilik siyosati unga qarshi xalqning noroziligi oshib borishiga, isyon va qozg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 1880-1883- yillarda Xo'jand, O'ratepa, Namangan, O'sh va Chustda ko'tarilgan qozg'olonlar bunga misol bola oladi. Manbalarda 1885-1892- yillarda Farg'ona viloyatida mahalliy xalqning 205 marta norozilik chiqishlari qayd etilgan. Qozg'olonlarning harakatlantiruvchi ijtimoiy asosini dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblari, kambag'allar tashkil etdi. Bu harakatlarda mahalliy ruhoniylar, ziyolilar va ba'zi boy zamindorlar ham ishtirok etdilar.

1892- yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda tarixga "Vabo isyoni" yoki "Toshotar voqeasi" sifatida kirgan qozg'olon bo'ldi. 1892- yilning iyun oyida Toshkentda vabo tarqaldi. Shahar ma'muriyati shoshilinch choralar ko'rdi. Mustamlaka ma'muriyati tibbiyot nuqtai nazaridan tog'ri bo'lgan tadbirlar haqida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim, qonun-qoidalarini hisobga olmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Shaharning taniqli kishilaridan hisoblanmish Aziziyor Eshon, Abdulqosim xo'ja, bozor oqsoqoli Ziyomuhammad boshchiligidagi mingga yaqin kishi shahar boshlig'i polkovnik S.R. Putinsev va eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub oldiga adolat talab qilib bordilar. Ammo ushbu amaldorlarning xalq talablarini mensimasligi, keskin norozilikka sabab bo'ldi.

Mashhur "Toshotar" voqeasi boshlanib ketdi. Oqsoqol otdan tushib hokimning idorasiga qochib yashirindi. Polkovnik Putinsev esa o'zining

xalqni tinchitishga urindi. Xalq undan oqsoqolni berishni talab qildi. Putinsev ham muzokara o'rniga kuch ishlatishni afzal ko'rib, to'pponchasini g'ilofdan chiqarib dag'dag'aga o'tdi. Sabr kosasi to'lgan olomon, uzoq oylab o'tirmay, hokimga hujum boshladi. Qurollangan soldatlar etib kelgach, isyonni bostirdilar. Natijada ko'p kishilar halok bo'ldi yoki yaralandilar. Qo'lga olingan 60 kishi turli muddatlarga qamoq jazosi va surgunga hukm qilindi.

Turkistonda ko'tarilgan ozodlik harakatining yana biri 1898- yilgi Andijon qozg'olonidir. Qozg'olonga Andijon yaqinidagi Mingtepa qishlog'ida yashovchi Muhammad Ali Eshon boshchilik qildi. Qozg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy gornizoniga bostirib kiradi va bu yerdagi qurol-yarog'larni egallashadi. Yordamga yetib kelgan qo'shinlar shaharni o'rab olib, qozg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostiradi.

Jazo qo'shinlari Muhammad Ali Eshonni tutish uchun Mingtepagaga bostirib kirdilar, uch soatcha otishma va tintuv o'tkazdilar. Nihoyat, Eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda qo'lga tushirildi. Eshon va uning muridlari, tanish-bilishlari, maslakdoshlariga nisbatan dahshatli qatag'on uyushtirildi. Dukchi Eshon osib o'ldirildi, uning 45 nafar yordamchilari qatl etildi, 208 kishi Sibirga surgun qilindi. Dukchi Eshon qozg'oloni izsiz ketmadi. Butun Farg'ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi harakat davom etdi. Yakkatut, Namangan, Beshariq, Marg'ilon va boshqa tuman, qishloqlarda mustamlakachilarga qarshi harakatlar bo'ldi.

Rossiya imperatori Nikolay II 1916- yil 25- iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front orqasidagi xizmatlar uchun safarbar qilish tog'risida farmon chiqardi. Turkiston general-gubernatoriga zudlik bilan farmonni amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 38 ming, Farg'ona zimmasiga 50 ming kishi yuborish majburiyati yuklandi.

O'lkada safarbar qilinuvchilarning ro'yxatlari tuzila boshlandi. Xalq bu tadbirga "mardikorlikka olish" deb nom berdi. Mahalliy ma'muriyat mardikorlikka chaqirishni boylik orttirish vositasiga aylantirdi. Boylarning o'g'illari pul bilan qutulib qolar, hambag'al oilalar esa yolg'iz og'ildan, boquvchisidan ayrilar edi. Bu hol xalqning kuchli noroziligiga olib keldi. Iyul oyida Xojand shahrida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. Unga dehqonlar, mardikorlar, chorakorlar, ayollar-jami 3000 dan ortiq kishi qatnashib, namoyish "Mardikor bermaymiz!" shiori ostida o'tdi. Politsiya namoyishni bostirishga kirishdi, ular ustiga tosh yog'ildi. Harbiy qismdan soldatlar etib kelib

politsiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi. Samarqand uezdining Urgut qishlog'ida g'azabga kelgan 2000 kishilik dehqonlar olomoni volost boshqaruvining mahkamasi oldiga to'plandi. Mahkama xodimlari kaltaklandi. O'sha kuni Samarqand uezdining Siyob, Mahalla, Xo'ja Ahror va Angor volostlarida ham namoyishlar bo'lib o'tdi.

11-iyulda Toshkentda hunarmandlar, ishchilar, shahar hambag'allari va shahar atrofidagi dehqonlar Beshyog'ochdagi politsiya boshqarmasi tomon yo'l oldilar. Namoyishchilar «bolalarimizni bergandan kora ozimiz olganimiz yaxshiroq, podshoh o'lib ketsin» deya maydonni larzaga keltirib qichqirdilar. Mahalliy aholi faollaridan Yolchi Ibrohimov (konchi), G'ulom Kamolov (g'isht teruvchi), ishchi ayol Zuhrabibi Musaeva va boshqalar xalqni podshoh hukumatiga qarshi qat'iy kurash boshlashga da'vat etdilar.

Tez orada jazo qoshini etib keldi. Natijada ular 5 kishini otib oldirishdi, 15 kishi yarador bo'ldi. Noroziliklar Farg'ona vodiysida tobora kuchaya boshladi. G'alayonlar Qo'qon shahri, Kattaqorg'on, Rishton qishloqlarida ham bo'lib otdi. Ularning barchasi ayovsiz bostirildi. 9 iyul kuni Andijon jome masjidida podshoh farmoni oqib eshittirildi. Aholi yashin tezligida maydonni toldirdi. Xalq safarbarlikni bekor qilishni talab etdi. Politsiya va kazaklarga hujum boshlandi. Jazolovchilar qozg'olonchilarga o't ochib 3 kishini oldirib, 12 kishini yarador qildilar.

1916- yildagi qozg'olonning eng kuchli nuqtasi Jizzaxda bo'ldi. Shahar aholisi 13-iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar royxatini talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga toplandilar. Oqsoqolni o'ldirib, mingboshi mahkamasini vayron qildilar, royxatni topib olib yondirib tashladilar. Iyul oyiga kelib butun Turkiston o'lkasida harbiy holat e'lon qilindi. Jazo otryadlari va mustamlakachi ma'murlarga juda katta huquq berildi. Qozg'olonchilar safi kengayib bordi. 18 iyul kuni Nazirxo'ja Eshon boshchiligida yangi shahar tomon yurdilar. Jazo otryadi bilan qozg'olonchilar o'rtasida bo'lgan toqnashuvda ikkala tomondan ham qurbonlar bo'ldi.

Turkiston general-gubernatori Jizzax qozg'olonini bostirish uchun polkovnik Ivanov boshchiligida oltita top va 13 ta rota askar, 300 kishilik kazak otryadi va 3 rota sapyorlarni safarbar etdi. Jazo I otryadi qozg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi. Omon qolgan Jizzax aholisi jazirama cho'lga haydaldi. Jizzax ishi bo'yicha 1000 dan ortiq kishi hibsga olindi, 151 kishi sud qilinib, turli muddatlarga qamaldi. 1916-yilgi qozg'olon butun Turkistonga yoyildi, dehqonlar va kambag'allar

qozgʻolonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch boʻldi. Qozgʻolon bostirilgan boʻlsa-da, mustamlakachilar ham anchagina kuchlaridan ajraldilar. Shuning uchun ham, A. F. Kerenskiy “Urush frontlariga yangi bir front-Turkiston fronti qoʻshildi”, - deb vaziyatga jiddiy baho bergan edi. 1916- yil qozgʻoloni oʻlkadagi Rossiya Imperiyasi mustamlakachilik tizimining yemirilayotganidan darak berardi.

9.6. Jadidchilik mazmun-mohiyati va maqsadlari

“Jadid” arabcha soʻz boʻlib, “yangi” degan maʼnoni bildiradi. Ismoilbek Gaspirali gʻoyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning gʻoyalari esa jadidchilik nomini oldi. Ismoilbek Gaspirali darslik yaratdi, oʻzining “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida targʻib qildi. Bu gazeta Turkiston oikasi shaharlarida, shuningdek Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham tarqala boshladi.

1892- yilda Ismoil Gaspirali Turkistonga tashrifi ham jadidchilik gʻoyalarining keyingi rivojiga taʼsir korsatdi. U chor maʼmurlari hukmdorlari va Buxoro amiri Abdulaxadxon qabulida boʻldi. U Buxoro amirini qiyinchilik bilan amirlik poytaxtida yangi usul maktabi ochishga kondirishga erishdi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi berildi. 1899- yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901- yilda Qoʻqonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi boʻlib jadid maktablari ochdilar. 1903- yilga kelib birgina Turkiston oʻlkasida 100 dan ziyod boshlangʻich jadid usuli maktablari ochilgan edi.

Turkiston jadidlariga Mahmudxoʻja Bexbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa onlab milliy ziyolilar rahnomolik qildilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari alohida eʼtiborga molikdir. Jadidlar yoshlarni chet ellarga oqishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. Boy tabaqaning ilgʻor vakillari jadidlarning bu harakatini maʼqullab tegishli mablagʻ bilan komaklashdilar. Koʻpgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga oqishga yuborildi. 1910- yili Buxoroda mudarris Hoji Rafiy va boshqalar “Bolalar tarbiyasi” xayriya jamiyatini tashkil etib, 1911- yilda 15 ta, 1912- yilda 30 ta talabani Turkiyaga oqishga joʻnatdi. Jadidchilik Turkistonda madaniy-maʼrifiy harakat sifatida rivojlandi va

asosiy maqsadi milliy hayotni zamonaviylashtirishga qaratildi. Bu jumladan quyidagilarni anglatar edi:

- xalq ta’limini isloh qilish;
- adabiyotni rivojlantirish;
- zamonaviy matbuotni yaratish;
- islom aqidaparastligi va mutaassibiikni rad etish;
- zamonaviy teatr va dramaturgiyani yaratish;
- tarix fanini rivojlantirish va o‘zbek xalqining yangi tarixini yozish.

Jadidlar etiqodli, izchil va chinaham musulmonlar bo‘lib, hech mahal Turkistonda islom dini arkonlarini taftish qilishni istamaganlar. Jadidlar islomni har xil sohtaliklardan tozalab, haqiqiy dinni qaror toptirish va dunyoviy bilimlarni egallash yoli bilan jamiyatda uning ta’sirini mustahkamlashga erishmoqchi edilar. Jadidlarga mutaassib ruhoniylar qarshilik korsatdilar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari keng qamrovli bo‘lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo‘lganlar. Shu bilan birga, jadidlar milliy teatrga asos soldilar. Munavvar qori rahnamoligida 1913- yilda musulmon drama san’ati havaskorlari jamiyati – “Turon” truppsi tuzildi. 1914- yil 27- fevralda Toshkentdagi “Kolizey” teatri binosida o‘zbek milliy teatrining 1-rasmiy ochilish marosimi bo‘ldi. O‘sha kuni sahnada Behbudiyning “Padarkush” pyesasi namoyish etildi.

Abduqodir Shukuriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori va boshqalar kuch-g‘ayratlarini o‘z islohotchilik g‘oyalarini aholi orasida targ‘ib etishga qaratishdi. Qattiq qol senzuraga qaramasdan, ular o‘z gazeta va jurnallarini nashr eta boshlashdi. Turkistonda 1906-1908- yillarda jadidlarning “Taraqqiy”, “Shuxrat”, “Xurshid”, 1913-1917- yillarda “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyina”, “Turon”, “Buxoroi Sharif”, “Sadoi Farg‘ona” va boshqa gazetalari bosmadan chiqa boshladi.

Mustamlakachi ma’murlar jadidlar harakatini jilovlash choralari kordilar. Ular ustidan nazorat o‘rnatar, gazeta va jurnallarini man etib, nashriyotlarni buzib tashlar, kitob dokonlari, qiroatxonalarni yopib tashlar edi. Mustamlakachilarning jadidlarga nisbatan qo‘llagan zoravonlik choralari ularni ma’naviy-ma’rifiy islohotdan siyosiy qarshilik korsatish darajasiga kotarilishga olib keldi. Jadidlar boy tarixiy merosida milliy g‘oya va milliy mafkura alohida orin tutadi. Jadidchilik faqat madaniy hodisa bo‘lib qolmasdan, u, avvalo, siyosiy hodisa ham

edi. Milliy taraqqiyparvarlar o'z faoliyatida davlat va uning qurilishidan tortib, jamiyat va uning ma'naviy hayotigacha bo'lgan barcha masalalarni qamrab olishgandi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda maydonga kelgan Jadidchilik madaniy-ma'rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U osib mustamlakachilarga qarshi kotarilgan milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylandi. Xulosa qilib aytganda, XIX asrdagi parokandalik, uch xonlikdagi ozaro notinchlik va mahalliychilik yurtimizni jahongir davlatlar iskanjasiga soldi. Bosqinchilar uchun qulay zamin yaratdi. Natijada, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston xalqlarini asoratga soldi. U o'lkani siyosiy-hududiy jihatdan zabt etibgina qolmay, balki erksevar, zahmatkash xalqni ma'naviy-ruhiy boysundirishga erishdi.

Rossiya imperiyasi o'lkani Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidan iborat uch qismga bo'lib, tub aholi birligi va siyosiy qudratini sindirish yolida barcha vositalardan foydalandi. Mustamlakachilar Turkiston xalqlari turmushida nimaiki ularning istiqboliga to'g'anoq bo'lsa, ularni ozodlik uchun kurashdan chalg'itsa, hammasini qo'llab-quvvatlagan holda, istiqloлга xizmat qiluvchi barcha intilishlarning payini qirqdilar. Rossiya mustamlakachilarining og'ir asorati sharoitida ham xalqimiz o'zligini, milliy qadriyatlarini, ma'naviyatini, madaniyatini, urf-odatlarini va turmush tarzini saqlab qola oldi.

9.7. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistonda aloqa tizimi

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugining tashkil etilishi, ushbu hududlarning taraqqiyot yo'lini ochib berdi, iqtisod va ma'lumotlar almashish ishlari hamda elektr aloqa sohasining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Turkistonda iqtisodiy munosabatlari bilan ajralib turgan aholi yashash punktlari bilan shaharlari o'rtasida yangi pochta traktari qurildi. Pochta aloqa tarmog'i asosan shaharlarni qamrab oldi, shaharlarda pochta qutilari o'rnatildi, lekin qishloq joylarida pochta xizmatlari deyarli yo'q edi. Viloyatlardagi ayrim joylari gubernatorlar pochtasidan foydalanmaslik maqsadida, viloyat idoralari bilan pochta korrespondensiyalarini almashib turish maqsadida o'zlarining pochta bo'limlarini ochishga majbur bo'ldilar. Pochta xizmatlarini ko'rsatish juda past darajada edi: korespondensiya juda kech muddatlarda egalari

yetkazib berilgan, yetqazish yoʻllari orqali yurishda koʻp qiyinchiliklar mavjud edi. Shuning uchun pochta joylarga yetkazish maqsadida asosan otli, tuyali aravalardan foydalanilgan.

Aravalar orqali yuborilayotgan korrespondensiyalarning maxsusligi, muhimligi va qiymatiga qarab, 2 tadan 10 tagacha qurollangan soqchilar aravalarni qoʻriqlab borishgan. Bu xizmat turi bilan 1865- yildan 1888- yilgacha pochta aloqa xizmatlari koʻrsatilgan. Oʻzbekiston hududida, 1888- yildan boshlab, pochta aloqasi temir yoʻl transporti orqali amalga oshirilgan.

Pochta aloqa xizmati rivojlana boshlagan bir vaqtlarda bosqichma-bosqich telegraf aloqasi ham rivojlana boshladi. 1873- yil iyun oyida Turkistonda Toshkent- Orenburg yoʻnalishi boʻyicha birinchi xalqaro telegraf aloqasi ishga tushirildi. 1876- yilda Turkistonning katta shaharlaridan: Samarqandda, Yangi Margʻilonda, Kattaqoʻrgʻonda telegraf aloqasi tashkil etildi. 1884-1900- yillarda Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida ham telegraf liniyalari ochildi. 1901- yilda Qoʻqon-Andijon, Namangan-Chust shaharlari oʻrtasida telegraf aloqa liniyalari ishga tushirildi.

Telegraf aloqasi rivojlanayotgan bir vaqtda aloqa uskunalari oʻrtanish imkoniyatiga ega boʻlmagan togʻliklarda hamda bir-birlari bilan kesishgan vodiylarda aloqaning boshqa turidan-geliografikaloqadan foydalanish imkoniyatlari ochildi. Mazkur aloqa xizmati faqat bir-birini toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrish imkoniyatlari boʻlgan vaqtlarda, yaʼni bahor-yoz oylarida qoʻllanilgan. Chunki shu aloqa xizmatini tashkil etish uchun kunduz kunlari quyosh nuridan, kechalari esa ochiq alanga yoki oying yoruqlik nurlaridan foydalanilgan. Morze telegraf alfavitiga monand boʻlgan yoruqlik dastasi 60 vvorst masofagacha boʻlgan maxsus aylanma uskunasi oʻrnatilgan oynalar yoki oynaga tushyotgan tasvirlar orqali yuborilgan.

Turkistonda iqtisodiyotning sezilarli oʻsishi, shaharlarda sanoat, bank-moliyaviy tashkilotlari, tijorat korxonalari faoliyat koʻrsata boshlashi oʻlkada shahar va shaharlararo telefon aloqasining asta-sekin rivojlanishigakatta asos boʻldi. 1887- yilda Okrug boshligʻi xonadoni bilan Toshkent pochta-telegraf idorasi oʻrtasida telefon aloqasi tashkil etildi.

1891- yil iyulda Turkiston pochta-telegraf okrugi boshligʻi bilan Turkiston general-gubernatori oʻrtasida gʻaznadagi mablagʻlar hisobidan Toshkent telefon tarmogʻini tashkil etish boʻyicha muzokaralar boʻlib oʻtdi va 1891- yilda Toshkent shahrida umumiy foydalanish

imkoniyatlarini beruvchi telefon tarmogʻi tashkil etildi. Shu tufayli, 1901- yilga kelib, Toshkentda telefonaloqasi xizmatidan foydalanuvchilar soni 55 nafarga etdi.

1904- yil 7- sentabrda 200 raqamli “Simens va Galske” tizimidagi birinchi qoʻl bilan boshqariladigan telefon stansiyasini ekspluatatsiyaga qabul qilish boʻyicha kerakli hujjatlar imzolandi. 1904- yilga kelib, Toshkent shahrida birinchi davlat telefon stansiyasi ishga tushirildi.

Toshkent shahridan keyin shunday telefon stansiya Samarqand shahrida qurildi. 1907- yilda esatelefon tarmogʻida va telefon apparatlarda boʻlayotgan nosozliklarni bartaraf etish uchun Toshkent shahrida shaxsiy telefon ustaxonasi ochildi. 1895- yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxonning topshirigʻiga koʻra, Xiva shahrida birinchi shaxsiy telefon stansiyasi ishga tushirildi. Ushbu qoʻl bilan boshqariladigan stansiya 20 nomerli boʻlib, mahalliy batareyali, “Eriksson” Shved firmasi tomonidan ishlab chiqilgan edi. 1917- yilga kelib, Xiva shahrida 100 ga yaqin telefon nomerlaridan foydalanish imkoniyatlari ochildi.

1901- yil 26- iyulda Turkiston Ichki ishlar vazirligi tomonidan xususiy tadbirkorlarga shahar telefon stansiyalarini qurish, ishga tushirish va ekspluatatsiya qilish huquqi berish haqidagi farmoyishi imzolandi. 1914- yilga kelib, Toshkentda 942 abonent va 5 telefon-avtomat boʻlib, telefon-avtomatlar yuqorida koʻrsatilgan joylardan tashqari, Tovar idorasiga ham oʻrnatildi. 1915- yilda shahar eski chegarasini telefon aloqasi bilan taʼminlash maqsadida qoʻshimcha telefon stansiyasi qurildi.

XX asr birinchi yarmiga kelib, telegraf aloqasi xizmatini koʻrsatayotgan korxonalar aholi tomonidan tushayotgan oddiy buyurtmalarni ham bajara olmay qoldilar. Oʻsha davrda oʻlkaning har bir aholisiga oʻrta hisobda 0,25 ta telegramma toʻgʻri kelib, ushbu koʻrsatgichni Markaziy yevropa regionlaridagi koʻrsatgichlar bilan taqqoslaganda, ancha miqdorda kam edi. Katta hududlar, jumladan, Qoraqalpogʻiston, Qashqadaryo, Surxandaryoda yashayotgan aholi telefon aloqasi xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega emas edi.

1917- yil boshlarida 10 ta ishlayotgan telefon stansiyalaridan 9 tasi xususiy shaxslarga tegishli boʻlib, ular asosan aloqa xizmatlaridan tijorat ishlarini olib borishda foydalanishgan. Oʻrtacha hisobda, bitta telefon aloqa stansiyasi 6400 kv.km maydonda istiqomat qilayotgan 150 minggacha boʻlgan aholiga xizmat koʻrsata olgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Rossiya O'rta Osiyoni qachon va qaysi bsoqichlarda bosib oldi?
2. Turkistonda mustamlakachilik boshqaruvi tizimining o'ziga xos xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Rossiya Imperiyasi hukmron doiralarining Turkistonda yuritgan iqtisodiy siyosati mazmun-mohiyati?
4. Turkiston xalqlari mustamlakachilik zulmiga qarshi qanday ozodlik kurashlari olib bordilar?
5. Turkistonda ma'naviy va madaniy hayot qanday bo'lgan?
6. Jadidchilik harakati mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
7. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistonda aloqa tizimida qanday yangiliklar paydo bo'ldi?

10- MAVZU. TURKISTON MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O‘RNATILISHI VA UNING O‘LKADA YURITGAN SIYOSATI

Asosiy tushuncha va iboralar: Muvaqqat hukumat; “Sho‘roi islomiya”; “Sho‘roi ulamo”; muxtoriyat; sovet hokimiyati; Turkiston Muxtoriyati; qo‘rboshi; qurultoy; yosh xivaliklar; yosh buxoroliklar; totalitar tuzum.

10.1. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi. “Turkiston muhtoriyati”

Rossiyaning birinchi jahon urushida qatnashishi, frontdagi mag‘lubiyatlar, jiddiy iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy-siyosiy inqiroz tub ozgarishlarga olib keldi. Petrograd, Moskva va boshqa ko‘plab sanoat rayonlarida ommaviy ish tashlashlar boshlanib ketdi. Podsho va uning vazirlari mamlakatni boshqara olmay qoldilar. Natijada, IV Davlat dumasi deputatlari fevral oyi oxirlarida podsho Nikolay II ni taxtdan voz kechishga majbur etdilar. Shu tariqa Rossiyada fevral burjua demokratik inqilobi g‘alaba qozondi va monarxiya tugatildi. Hokimiyat tepasiga IV Davlat dumasi tuzgan Muvaqqat hukumat keldi. Jahon urushi qiyinchiliklari, Rossiyadagi 1917- yil fevral voqealari Turkiston xalqlari hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi, xususan, Muxtoriyatga umid uyg‘otdi. Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun harakatlar kuchayib ketdi. O‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida Muxtoriyat g‘oyasi asosiy masala bo‘lib qoldi.

1917- yilning 25-26- oktyabrda V. I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar Petrogradga Muvaqqat hukumatni ag‘darib tashlab, davlat tontarishi amalga oshirdilar. Bu haqdagi xabar Toshkentga 28- oktyabrda etib keldi. Turkiston bolsheviklari rahbarlik qilgan Toshkent soveti ishchi va soldatlarni qozg‘olon ko‘tarishga da’vat qildi. Lekin general Korovichenkoga sodiq qolgan qismlar bunga qarshilik korsatdilar. 1917- yil 28- oktyabrda Toshkentning yangi shaharida qurolli toqnashuvlar avj oldi. 1- noyabrda Toshkent harbiy qal’asi taslim bo‘ldi, shu kuni qurolli qozg‘olon g‘alaba qozondi, deb e’lon qilindi. Qurolli qozg‘olon natijasida Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi ag‘darildi, yangi hokimiyatning o‘lka organi esa darhol tuzilmadi. Uning vazifasini dastlabki paytlarda Toshkent Soveti bajarib turdi. Ushbu boshqaruv organi 1- noyabrda o‘lkadagi barcha Sovetlarga telegramma yuborib, unda «Butun hokimiyatni sovetlar qabul qildi. Hokimiyatni o‘z qo‘lingizga olingiz» deyilgan edi.

1917- yil 12-15- noyabrda Toshkent shahrida Sherali Lapin raisligida butun Turkiston o'lkasi musulmon tashkilotlarining qoshma majlisi bo'ldi. Unda Butunrossiya miqyosida hokimiyat tuzish masalasi hal qilinguncha «Turkiston hokimiyatini tashkil etish» muammosi muhohama qilindi. Mazkur anjumanda Mahalliy aholi manfaatlari bilan bir qatorda evropalik aholi manfaatlari ham hamsitilmadi. Anjumanda qabul qilingan rezolyutsiyada «Turkiston hukumati qomitasi» 12 kishidan iborat vakillardan tashkil topishi va uning organi bo'lgan «Turkiston o'lkasi kengashi»ni nazorat qilishi lozim edi. Hukumat tarkibiga ishchi va soldat deputatlari kengashlaridan 3 tadan, o'z-o'zini boshqarish idoralardan 3 tadan, o'lkasi musulmon syezdi dan 6 vakil kiritilishi ko'zda tutilgan. Mazkur rezolyutsiya mazmunini sovetlarning III syezdi delegatlari e'tiboriga etkazish Sherali Lapin boshchiligidagi komissiyaga yuklatildi.

1917- yil 15- noyabrda Sovetlarning III syezdi o'z ishini boshladi, 18 noyabrda Sherali Lapin sovetlarning III o'lkasi syezdi da musulmon tashkilotlari kengashining rezolyutsiyasini e'lon qildi. U aytdiki: «Musulmonlarning tutgan yo'li mustaqil yo'ldir, bu yo'lni ularga Qur'on va shariat qoidalari ko'rsatib bergan. Shuning uchun ular rus siyosiy partiyalaridan biro'rtasiga ham qoshila olmaydilar, lekin barcha xalq tashkilotlariga tayanib, Ta'sis majlisiga olib keladigan hokimiyatni qollab-quvvatlaydilar... Musulmonlar rus inqilobining xalqlarni o'z taqdirini ozi belgilashi to'g'risidagi va'dasiga ishonadilar». Shundan so'ng Sherali Lapin musulmonlar kengashi nomidan o'lkani idora qilishni tashkil etish haqidagi takliflarni ma'lum qiladi.

Biroq Sovetlarning III o'lkasi syezdi bu taklifni butunlay rad etdi. Bunga sabab qilib «Sezdda mahalliy ishchilar va boshqa «mehnatkash aholi» qatlamlarining juda ozchilikni tashkil etganligi» deb ko'rsatdilar. Shunga qaramasdan, sezddagi ayrim fraktsiyalarning rahbarlari o'lkaning rahbar organlari tarkibiga mahalliy aholi vakillaridan ozroq miqdorda bo'lsa-da kiritish haqidagi takliflar bilan chiqdilar. Ammo bolsheviklar boshqa fraksiyalarning fikrini inobatga olmadilar. O'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarning III qurultoyida "Xalq komissarlari soveti" deb nomlangan evropaliklardan iborat bo'lgan hukumat tashkil topdi. Unda 8 o'rin sol eserlarga, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi.

Turkiston XKS raisi lavozimini kasbi chizmachi bo'lgan bolshevik F.Kolesov egalladi, harbiy komissar qilib aravakash Perfilev, boshqa komissarlik lavozimiga o'rtamiyona yurist va shunga oxshaganlar

tayinlandilar. Bu sezdda qonun chiqaruvchi organ Markaziy Ijroiya Qo'mita ham saylanmadi. Hukumat a'zolari qatoriga tub aholi vakillari kiritilmadi. Bolsheviklar Turkistonga muxtoriyat berish u yoqda tursin, ozlarini musulmon aholiga mutlaqo ishonmaydigan, uning manfaatlari va orzu-umidlarini nazar-pisand qilmaydigan shovinistlar sifatida korsatdilar.

Turkistondagi bu hukumat, birinchi galda bolsheviklar mohiyatan Rossiya Imperiyasi mustamlakachilik siyosati asosida ish boshladilar. Shu bilan birga, oktyabr tontarishidan keyin Rossiyada bo'lgan i singari, Turkistonda ham inqilobiy aqidalarga, eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi, Mulkdorlar-ekspluatator, ezuvchilar: milliy ziyolilar, oqimishli, obro-e'tiborli xalq vakillari-milliy burjuaziya korchalonlari va malaylari: islom dini rahnamolari reaksion oqim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlab yuborildi. Rusiyazon hukumat o'lkadagi harbiy qismlari, qurollangan ishchi gvardiyasiga tayanib ish ko'rdi. Bu hokimiyat faoliyati zo'rlikka, buzg'unchilikka, qon tokishga qaratildi. Ong saviyasi past, ko'pincha jinoiy unsurlar bo'lgan soldatlar, ishchi gvardiyachilar erli aholi, ayniqsa, dehqonlarni shafqatsizlik bilan talay boshladilar.

Yerli aholi jamoatchiligining demokratik yonalishidagi sa'y-harakatlari, milliy davlatchilikni joriy qilish sari tashlagan qadamlariga ashaddiy qarshilik ko'rsatildi. Shu tariqa, bolsheviklar sol eserlarning qo'llab-quvvatlashi bilan ko'p millionli mahalliy aholining amaliy ishtirokisiz, uning fikri va manfaatlarini hisobga olmasdan turib, Turkistonda oktyabr lontarishini amalga oshirdilar, sovet hokimiyatini e'lon qilib, bolsheviklar tuzumini o'rnatdilar. Lekin Turkistondagi milliy siyosiy tashkilotlar siyosiy kurashni to'xtatmadilar. 1917- yilning oxiriga kelib o'lkadagi mavjud ijtimoiy siyosiy vaziyat shundan dalolat berar ediki, Turkiston amaliy jihatdan muxtoriyatga erishish arafasida turgan edi.

Turkiston jadidlari, milliy ziyolilar hamda islom ulamolarining etakchilari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Munavvar qori Abdurashidxon og'li (1878-1931), Ubaydulla Xojaev (1882-1938), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Mustafu Cho'qayev (1890-1941) va boshqalar o'lkada yangi tashkil qilingan "Shoroi Islomiya" (1917- yil, mart), "Shoroi Ulamo" (1917- yil, iyun), "Turon" jamiyatlari va "Turk odami markaziyat firqasi" (1917- yil, iyul), "Ittifoqi muslimin" (1917- yil, sentyabr) siyosiy partiyalarining tuzilishida muhimrol o'ynadilar. Turkistonning bu ilg'or ziyolilari Turkistondagi idora usuli, boshqaruv

shakllari, davlatchilik nazariyasi va amaliyoti bilan faol shug'ullandilar. Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, "Shoroi islomiya", "Shoroi Ulamo", "Turon" va boshqa jamiyatlarning dasturlarida davlatchilik masalalariga alohida e'tibor beriigan edi.

Jadidchilik 1917- yilda ma'rifatchilik harakatidan allaqachon siyosiy harakat darajasiga kotarilib bo'lgan edi. Osha 1917- yilning ozida tort marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi otkazildi. 16-23- aprelda Toshkentda bo'lgan I qurultoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish g'oyasi olg'a surildi. Bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lidagi dastlabki qadami edi. Butun Turkiston musulmonlar qurultoyi majlisida Markaziy rahbar organ – Turkiston o'lka musulmonlar Kengashi (Kraymussovet) tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Uni tuzishdan asosiy maqsad milliy-ozodlik harakatiga tashkiliy va markazlashtirilgan xususiyat kasb etish uchun bir-biri bilan tarqoq aloqada bo'lgan jamiyat, qomita va ittifoqni birlashtirishdan iborat edi.

Shunday qilib, Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Tarixda ilk marta butun Turkiston miqyosida musulmonlar qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf-odatlar va turmush tarzlarini izchil turib himoya qilishi aytili. Bu manfaatlarning ifodachisi bo'lgan Milliy Markaz – Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi tashkil etildi. Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Asr boshidan buyon davom etib kelayotgan "jadidi-qadim" nizolari demokratik harakat saflarida parchalanish yuz berishiga olib keldi. Yuqorida qayd qilingan "Shoroi Islomiya" tashkiloti vakillari asosan jadidlardan iborat edi. 1917- yil iyun oyida bu tashkilotdan "Shoroi Ulamo" ajralib chiqdi.

Sherali Lapin uning Toshkent shobasiga asos soldi, ko'p otmay Qo'qonda ham "Shoroi Ulamo" jamiyati tuzildi. Bu ikki jamiyat o'rtasida g'oyaviy kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, umumiy kurashga rahna solib turardi. 1917- yil 7-11- sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. Qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Faqat Miliy Markaz – Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub erli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin, degan fikr qat'iy qilib qoyildi.

1917- yil 26-28- noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Turkistonni

boshqarish shakli tog'risidagi masala qurultoyning diqqat markazida bo'lgan. Qurultoyda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil hozir bo'ldi. Mandat komissiyasining a'zosi T.Norbotabekov qurultoy qatnashchilarining tarkibi haqida axborot berdi. Unga kora qurultoyda Farg'onadan – 100, Sirdaryodan – 22, Samarqanddan – 21, Buxorodan – 4 va Kaspiyortidan – 1 vakil, shuningdek, "Shoroi Islom", "Shoroi Ulamo" musulmon harbiylari kengashi, o'lka yahudiylar jamiyati, mahalliy yahudiylar vakillari qatnashdilar. Ochiq ovoz bilan hay'at a'zoliciga quyidagilar: M.Cho'qaev, U.Xojaev, Yu.Agaev, S.Akaev, S.Gertsfeld, O.Mahmudov, A.O'razaev va boshqalar saylandilar.

1917- yil 27- noyabr kuni qurultoyda qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topishi shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi". Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini e'lon qildi. Mazkur davlatning nomi Turkiston Muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Ta'sis majlis chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qolida bolishi kerak, deb qaror qabul qildi. Xalq majlisi tarkibiga saylanadigan 54 orindan 18 orin o'lkadagi turli evropalik aholi tashkilotlarining vakillari uchun ajratildi, bu esa uchdan bir o'rin evropalik aholi vakillariga tegishini bildirar edi. Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi, yana 4 kishi evropalik aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach, qayd qilinishi kozda tutildi.

Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tanishboev saylandi. Islom Sulton o'g'li Shoahmedov-Bosh vazir orinbosari, Mustafo Choqaev-tashqi ishlar vaziri, Ubaydulla Xojaev harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg'uli Agaev- yer va suv boyliklari vaziri, Solomon Abramovich Gertsfeld-moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berib, M.Choqaev Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Vazirlardan uch kishi oliy ma'lumptli huquqshunos, ikki kishi o'rtacha malakali huquqshunos hamda agronom va muhandislardan iborat bo'lganligi Muxtoriyat hukumati a'zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Qurultoy tugagach, 1- dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumat a'zolari (8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi. Oradan ko'p o'tmay, Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e'lon qilindi, shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi.

Turli tillarda gazetalar nashr qilina boshlandi. Muxtoriyat hukumati milliy qoshin tashkil qilishga kirishdi. 1918- yil boshida harbiy vazir Ubaydulla Xojaev ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 kishiga etgan. Hukumat iqtisodiy sohada 30 million so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yolga qo'ydi va Turkiston aholisiga Orenburg orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun amaliy qadamlar tashlandi. Yangi hukumat qisqa vaqt ichida omma o'rtasida e'tibor qozonib, butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

Turkiston o'lkasining turli shahar va qishloqlarida muxtoriyatni olqishlab, ko'p ming kishilik namoyishlar bo'lib o'tdi. Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917- yil 13- dekabrda bo'lib otgan voqealar alohida o'rin tutadi. O'sha kuni Toshkentda eski shahar aholisi "Muxtor Turkiston uchun!" shiorlari ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdilar. Ammo Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan tartib ornashga buyruq berdilar.

Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan o'qqa tutildi, 16 kishi ana shu to'qnashuv qurboni bo'ldi. Bolsheviklar rejimining bunday tazyiqlariga qaramay, Muxtoriyat hukumatini qo'llab-quvvatlash butun o'lka bo'ylab davom etaverdi. Afsuski, ilk demokratik va xalqchil hukumat bo'lgan Turkiston Muxtoriyatining faoliyati uzoqqa chozilmadi. Muxtor hukumatning obro-e'tibori va nufuzi bolsheviklarni jiddiy tashvishga solib qo'ydi.

Natijada, 1918- yil 19-26- yanvarda Toshkentda bo'lgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarning favqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb, hukumat a'zolarini qamoqqa olish tog'risida qaror chiqardi. 30 yanvardan Turkiston XKS Muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Buning uchun armanlarning "Dashnoqtsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli to'dalardan ham keng foydalanildi.

Shu kunlarda Muxtoriyat hukumati ichida ham ziddiyatlar kuchayib, 18 fevralda M. Cho‘qaev hukumati ulamochilarning tazyiqi bilan iste’foga chiqdi. Shu kundan Qo‘qon shahar mirshablari boshlig‘i Ergash (Kichik Ergash) amalda Muxtoriyat hukumatining rahbariga aylandi.

18-fevralda Turkiston o‘lkasi harbiy komissari E.Perfilev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon Qo‘qonga keldi, Qizil askarlar shaharda bosqinlar uyushtirib, uni talon-taroj qilishga kirishdilar. Shahar ustiga uch kun davomida to‘plardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Muxtoriyat qoshinining tirik qolgan qismi shahardan chiqib ketdi. Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari oqibatida ag‘darib tashlandi.

Qo‘qon va uning atrofidagi tinch aholini talash, oldirish avjga chiqdi. Shahar butkul vayronaga aylantirildi. O‘qqa tutilgan, oldirilgan, talangan va taxqirlangan qo‘qonliklarning tirik qolgan qismi sovet hokimiyatini tan olishga majbur bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr korgan bo‘lsa-da, u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqloq uchun kurashga da’vat etdi. O‘zbekiston tuyg‘usidek muqaddas tuyg‘u qalbining toridan joy olgan Turkiston munavvarlarining muxtoriyat uchun olib borgan kurashlari izsiz ketmadi.

1918- yil 20- aprel – 1 may kunlari Turkiston sovetlarining V qurultoyida Rossiya Federatsiyasi tarkibida Turkiston avtonom sovet respublikasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. TASRning Markaziy Ijroiya komiteti (MIK) va XKS saylandi, bular tarkibiga oz bolsa-da, tub millatlar vakillari kiritildi. Qurultoyda, shuningdek, sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qilish va ba’zi boshqa masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi. 1918- yil iyun oyida Turkiston Kompartiyasi ta’ sis etildi.

10.2. Sovetlarning Turkistonda amalga oshirgan siyosatlarini

XX asrning 20- yillarida Turkistonda sodir bo‘lgan hokimiyat ozgarishlari, siyosiy beqarorliklarga qaramasdan tub aholi o‘lkada ijtimoiy hayotni yolg‘a qoyishga intildilar. Qishloqlar, daha-mahallalarda oqsoqollar, miroblar jamoat ishlariga rahbarlikni davom ettirdilar. Ammo qozixonalar yopilgan, fuqarolarning nizoli ishlari chiqib qolganda, ular yangi shaharlarga borib sudga murojaat qilishlari kerak edi. Bu bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqarardi. Aholi boshqaruv idora-mahkamalarni tuzishga asosan manfaatdorlik bilan yondashdi. Mahalliy boshqaruv idoralari faol, obro-e’tiborii, savodli vakillarni ko‘rsatib sayladilar.

Bularga: Turor Risqulov Turkiston MIK raisi, keyinchalik Turkiston XKS raisi, Nazir Toraqulov Turkiston kompartiyasi MK kotibi, Qayg'usiz O'taboev Turkiston XKS raisi, so'ngra Buxoro respublikasi nozirlar shorosi raisi muovini, Abdulla Rahimboev Turkiston MIK raisi, Inomjon Xidiraliev Turkiston MIK raisi, O'zbekiston yer ishlari komissari kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Ular xalq ommasi manfaatlari uchun astoydil xizmat qildilar. Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilgan yerli xalq vakillari ijtimoiy adolat, erkinlik shiorlariga ishonidilar.

Zo'ravonliklar, xalqni talashga barham berishga bel bog'ladilar va bu yolda kurash olib bordilar. Tub erlik xodimlar, jumladan yuqori lavozimlardagi arboblal faoliyati markaz tomonidan qattiq nazorat qilinlar edi. O'lkaniing tobeligini kuchaytirish uchun Markazdan bolshevik kadrlar yuborildi. 1920-1932- yillarda Turkistonga 1400 rusiyzabon bolshevik keldi. Markaz O'lkada hukmronlik qiluvchi organ sifatida RKP(b) Turkiston byurosi (Turkbyuro)ni ham tashkil qildi. Tez orada bu byuro O'rta Osiyo byurosiga aylantirildi. Xorazm, Buxoro Kompartiyalari O'rta Osiyo byurosi tarkibiga kiritilib, uning korsatmalari boyicha ish olib bordilar.

20- yillarga kelib markazda Turkistonni bo'lib yuborish, uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yoq qilish g'oyasi ustuvor bo'lib qoldi. Tarixan tarkib topgan uchta davlatni tugatib, ularning orniga yangi davlatlar tuzish fikrini Turkkomissiya raisi Ya.E.Rudzutak 1920-yillarning boshlaridayoq o'rtaga tashlagan edi. 1921- yiI boshiga kelib O'rta Osiyoda TASSRdan tashqari Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalari ham bor edi.

Hududlarni qaytadan belgilash va chegaralash tarafdorlari til tafovutlari, milliy tafovutlarga diqqatini ko'proq qaratib, xo'jalikka oid iqtisodiy omillarni, mavjud suv resurslari, sug'orish tizimlarining umumiy ekanligini hamroq hisobga oldilar. Rahbar xodimlar orasida rusiyzabonlar bilan tub xalqlar vakillari o'rtasidagi ixtiloflar, ayrim guruhbozlik korinishlarini Rudzutak va boshqalar O'rta Osiyodagi milliy mojaro deb, davlatlar hududini tubdan qayta belgilash uchun hal qiluvchi asosiy dalil sifatida ilgari surdilar.

1924- yildan O'rta Osiyoni chegaralab bolish va milliy respublikalar tuzish g'oyasi amalga oshirila boshlandi. Bu g'oyani amalga oshirishda turli loyihalar, takliflar kiritildi va ular astoydil himoya qilindi, o'zaro ziddiyatlar, g'oyaviy kurashlar avj oldi. Shunga qaramay, milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishini ma'qullab

rezolyutsiyalar qabul qilindi. 1924- yil 31- oktyabrda O‘zbekiston SSR Inqilobiy Komiteti (revkom) tuzildi, u O‘zbekiston Respublikasi tuzishni boshqarib bordi. 1925- yil 13- fevralda Buxoroda Sovetlarning I umum-o‘zbek qurultoyi ochildi. Unda Deklaratsiya qabul qilinib, “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilgani” e‘lon qilindi.

O‘zbekiston hukumatining raisi qilib Fayzulia Xo‘jaev saylandi. Respublika Markaziy Ijroiya Komiteti raisi etib Farg‘ona vodiysidan chiqqan dehqon, “Qo‘shchi” uyushmasining rahbari Yo‘ldosh Oxunboboev saylandi. Shuningdek, O‘zbekiston kommunistlar partiyasi tashkil topdi. Uning Markaziy qomitasining birinchi sekretari etib V. I. Ivanov, ikkinchi kotibi lavozimiga Akmal Ikromov saylandilar. 1927- yilda esa A. Ikromov birinchi sekretar lavozimiga kotarildi. O‘z SSRning poytaxti qilib Samarqand shahri belgilandi. 1925- yil mayda O‘zbekiston SSR SSSR tarkibiga kirdi. 1930- yilda poytaxt Toshkentga ko‘chirildi.

Shunday qilib, milliy hududiy chegaralash xalqning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, madaniyatiga, an‘analariga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Mintaqa kartasi qaytadan tuzilib, ikkita mustaqil davlat XXSR va BXSRTugatildi. Millatning bir qismi o‘z ota-bobolari yerida yashab, mehnat qilsa-da, rasmiy ta‘rifga ko‘ra, “o‘z sonli millatga” aylanib qoldi. Shuningdek, bu tuzumalarni O‘rta Osiyo xalqlarining “milliy davlatchiligi” deb ham bo‘lmaydi.

O‘rta Osiyoda tashkil qilingan bu tuzilmalar davlat bo‘lib shakllanmagan tuzilmalar edi. Mazkur tuzilmalar suverenitet va mustaqillikdan mahrum edilar. Ular SSSR ning ma‘muriy-iqtisodiy rayonlari darajasiga tushirilgan bo‘lib, asosan Markazning manfaatlariga xizmat qilish, xomashyo etishtirish kabi vazifalar belgilab berilgan edi. 1936- yil 5- dekabrda SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinib, unda Qoraqalpog‘istonning O‘zbekiston SSR hududiga kirishi qayd qilindi.

1921- yil boshlariga iqtisodiyot sohasida bir qator konikmalarni e‘lon qildi, bu sovet mamlakatida yangi iqtisodiy siyosat (YalS) nomini oldi. Uning asosiy mazmun mohiyati “harbiy kommunizm” siyosati, oziq-ovqat razvyortkasi, dehqon mahsulotlarini tartib olishni yoq qilish, soliqlar tizimini joriy etishdan iborat edi. Buning natijasida Turkistonda mayda korxonalar, dokonlar, bozorlar, karvon-saroylar va boshqalar qisqa vaqt ichida ishga tushirilib, xizmat korsata boshladi. Hunarmandchilik tez tiklandi.

Davlat iqtisodiyotni boshqarish tizimini yangi sharoitlarga moslashtirish choralarini ko‘rdi. 1921- yil mart oyida Turkiston

Iqtisodiy Kengashi (Turk EKOSO) tuzilib, mahalliy iqtisodiy kengashlar uning tasarrufiga otkazildi. Shuningdek, Turk EKOSO tarkibida Davlat Planlashtirish Komissiyasi (Gosplan) tuzildi. RSFSR rahbariyati, bolsheviklar mintaqani siyosiy-ma'muriy qaramlikda tutish bilan birga, bundagi boyliklarga egalik qilishga asosiy e'tiborini qaratdilar.

Paxtachilikni rivojlantirishga Markaz alohida ahamiyat berdi. Paxtani soliqdan ozod qildi, uning harid narxini oshirdi. Dehqonlarni paxta etishtirishga rag'batlantirish maqsadida byudjetdan mablag' bilan ta'minlash., qishloq xo'jalik qurollarini olib kelish, hamquvvatli xo'jaliklarni ish hayvonlari bilan ta'minlash choralari kordi. Irrigatsiyani qayta tiklash, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga dehqonlar ommasini majburan jalb qilishga e'tiborini qaratdi.

1923- yili Toshkentda qishloq xo'jalik banki ta'sis etildi, shirkatchilik uyushmalari (kooperatsiya) tashkil qilindi. Davlat-bank mablag'lari shular orqali dehqon xo'jaliklariga kredit qilib beriladigan bo'ldi. Kreditdan foydalangan dehqon xo'jaliklari paxta maydonini kengaytirib bordilar. Moskvada glavxlopkom (paxtachilik qo'mitasi), shelkotrest (pillachilik tresti) va shu kabi tashkilotlar tuzilibdi, ular O'rta Osiyo paxtachilik va pillachiligi ustidan o'z nazoratini o'rnatdilar. 1923- yilda O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tashkil qilinib, uning I-qurultoyida rasman uchta respublika iqtisodiyotining hamkorlik yolida birlashuvi e'lon qilindi. Bu mintaqa xo'jaligi ustidan Markaz nazorati o'rnatildi, boyliklariga amaliy egalik qilish yo'li ochildi, degan edi.

Shunday qilib, XX asrning 20- yillarida jamiyat hayotining barcha sohalarida boshlangan erkin faoliyat jarayoni, yangi iqtisodiy siyosat prinsiplari va tarkibiy qismlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari vayronagarchilikni, qahatchilikni asta-sekin tugatishga va xo'jalik hayotining birmuncha tiklanishiga olib keldi. Ammo, 20- yillarning II yarmidan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotining hamma jabhalarida ma'muriy-buyruqbozlik usuli borgan sari zorayishi natijasida yangi iqtisodiy siyosat o'zining bor mohiyatini, mavqeini yo'qota bordi. Sanoat va qishloq xo'jaligida qiyinchiliklar ko'payib bordi.

Tovar tanqisligining kuchayib borishi narx-navoning oshib ketishiga, somning qadrsizlanishiga olib keldi. Sanoat mollari va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlari o'rtasida katta farq bolishi, sanoat bilan bolayotgan iqtisodiy munosabatlar dehqonlarning noroziligiga olib keldi. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda ro'y berayotgan keskin qiyinchiliklarni adolat yuzasidan, aql-idrok bilan emas, balki ma'muriy-

buyruqbozlik yo‘li bilan, zoravonlik usuli bilan bartaraf qilish uchun Markaz siyosiy hokimligining harakati kuchayib bordi.

10.3. Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugatilishi. BXSR va XXSRning tashkil etilishi

O‘rta Osiyoda jadidchilik harakati o‘lkaning barcha hududlarida bir vaqtda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘z oldiga qoygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yonalish kasb etgan. Jumladan, Turkiston jadidlari o‘z oldilariga bosh maqsad qilib Turkiston o‘lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qoygan bolsalar, Buxoro va Xiva jadidlari amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar. Chunki ular mustamlakachilik zulmini o‘z boshidan to‘liq kechirmagan edilar. Xalq ommasini amir va xon orniga insofliroq va adolatliroq hukmdorga ega bo‘lishni istar edilar. Xalqning bu istagini idrok eta olgan Buxoro va turklar»ga taqlid etib, o‘zlarini “Yosh buxoroliklar” va “Yosh xivaliklar” deb atay boshladilar.

Ular konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi doirasida islohotlar o‘tkazish yoli bilan adolatli va insonparvar jamiyat qurish mumkin, deb ishonidilar. 1917-1920- yillar davomida Xiva xonligi va Buxoro amirligida rivojlanib kelgan demokratik harakatlar kengaydi, islohotchilik talablari amaliyotda mujassamlashdi. Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar avvalo yuqoridan turib demokratik islohotlar otkazish yo‘li bilan xonliklarning ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida rivojlanishini ta’minlashga harakat qildilar.

“Yosh xivaliklar” xon oldiga qoyilajak talablarni ishlab chiqdilar va bu manifest matni 1917- yil 5- aprelda e’lon qilindi. Xon Majlis chaqirishga va boshqa islohotlar qilishga rozilik bildirdi. Xon hokimiyati cheklab qoyildi. Natijada, Xiva xonligida ahvol murakkablashdi, Asfandiyorxon Junaidxonga xonlikni birgalikda boshqarish va bolsheviklarga qarshi kurash olib borishni taklif etdi. Xon Junaidxonni qoshinlar qo‘mondoni qilib tayinladi va mamlakatdagi butun hokimiyatni unga topshirdi. Oradan ko‘p o‘tmay, Asfandiyorxon o‘ldirildi va taxtga Said Abdullaxon o‘tirdi. TASSR bilan Xiva xonligi o‘rtasida qurolli toqnashuv kuchayib bordi.

Xorazmga qarshi fitna-hujumlarni to‘xtatish uchun Junaidxon 1919- yil aprelda sovet hokimiyati vakillariga murojaat qildi. 9 aprelda Xiva yaqinidagi Taxtada bitim imzolandi. Unda, chunonchi, sovet hukumati (Rossiya) Xorazm aholisining mustaqilligini tan oladi, deyilgan edi. Ammo Xorazmga qarshi tajovuzkorliklar to‘xtamadi, bolsheviklar Xorazm xalqi inqilob uchun yetildi, deb yordamga

shoshildilar. Oqibatda, 1919- yil 23- dekabrda sovet qo‘shinlarining xonlik hududiga bostirib kirishi boshlandi, 1920- yil fevralida Xivani oldilar va qizil askarlar qismlari hamda yosh xivaliklar tazyiqi ostida Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi. Shu tariqa, qizil armiya qismlari yordamida Xivada davlat tontarishi amalga oshirilib, monarxiya tuzumi ag‘darib tashlandi.

1920- yil aprelida Xivada bo‘lib o‘tgan xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyi Xiva xonligini bekor etilgan deb e‘lon qildi va mamlakatni Xorazm Xalq Sovet Respublikasi deb e‘lon qildi. Qurultoy sobiq yosh xivaliklar a‘zosi bo‘lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida Xalq Nozirlari Kengashini sayladi. Hukumat sobiq yosh xivaliklar, turkman urug‘lari rahbarlari va kommunistlardan tashkil topdi.

Buxoroning ichki siyosiy hayoti 1917- yil bahorida yangi pallaga kirdi. Islohotlar, ozgarishlar zarurligi aniq bo‘lib qoldi. Mamlakatda ikki oqim liberal-demokratik (“Yosh buxoroliklar”) va konservativ oqim harakat boshladi. Natijada, 1917- yil 7- aprelda amir farmoni (manifest) e‘lon qilindi. Unda amaldorlar ustidan nazorat o‘rnatish, soliqlar tizimini tartibga solish, davlat byudjetini joriy qilish, sanoat, tijorat, ma‘rifat rivojlanishi uchun qayg‘urish va‘da qilingan edi. Ammo konservativ kuchlarning bosh ko‘tarishi natijasida bu islohotlar amalga oshmadi.

1918-1920- yillarda “Yosh buxoroliklar” dasturlari, siyosiy qarashlari, taktikasida Buxoroda islohotlar o‘tkazish uchun kuch, zo‘rluk ishlatish zarur bo‘lib qolgani tan olindi, ikkinchi tomondan, aholining diniy e‘tirofi e‘tirof etildi. Shunga qaramay, ular bolsheviklarga yordam sorab murojaat qildilar.

Buxoro bilan Rossiya davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib bordi. RSFSR hukumati Buxoroni o‘z ta‘sir doirasiga olish uchun barcha chora-tadbirlarni kora boshladi. 1920- yil avgust oyi oxirlarida Turkiston fronti qomondoni Frunze buyrug‘i bilan Buxoro hududlari chegaralarida katta harbiy kuchlar: zambaraklar, bronepoezd, aeroplan jangovor holatga keltirildi. Endi bolsheviklarning "Sharqqa doir siyosati" ning rejasida Buxoro amirligini qulatish vazifasi turardi. 1920- yil 29- avgustda qizil askar qoshinlari amirlikka bostirib kirdilar. Lekin bu yerda bosqinchilar amir qoshinlarining va aholining qat‘iy qarshiligiga duch keldilar.

Turkfront qomondonligi buyrug‘i bilan Eski Buxoro samolyotlardan bombardimon qilindi, toplar va bronepoezdlardan turib qattiq oqqa tutildi. Dahshatli janglardan so‘ng 2 sentyabrda Buxoro

magʻlub boʻldi, amirlik agʻdarildi. 6 oktyabrda amirning yozgi saroyi-Sitorai Mohi Xosada xalq vakillarining 1 Umumbuxoro qurultoyi ish boshladi. Qurultoy Buxoroni Xalq Sovet respublikasi deb eʼlon qildi. Fayzulla Xojaev xalq Nozirlar Kengashining raisi boʻldi.

Buxoro respublikasining xoʻjaligi sezilarli zarar korib, ziddiyatli ahvolni boshdan kechirdi. Qizil qoʻshinlar qomondonligi mamlakatning turli joylarida, chunonchi, Xatirchi, Qarshi va Shahrisabzda katta boylik, mol-mulklarni qoʻlga kiritdilar. Buxoro xazinasidagi oltin va javohirlar, boshqa qimmatbaho boyliklar vagonlarga ortilib, Turkkomissiya buyrugʻiga binoan Rossiyaga olib ketildi. Shu bilan birga, qizil qoshinlarning respublikalarda qoldirilishi, rusiyzabon siyosatchilarning ekstremistik xatti-harakatlari ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy taʼsir korsatdi.

Shunday qilib, 1920- yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligida amalga oshirilgan harbiy tontarish Markaz va Toshkentda oldindan ishlab chiqilgan reja asosida sunʼiy ravishda mavjud jamiyat taraqqiyotiga majburan kuch ishlatish yoʻli bilan amalga oshirildi. Oʻrta Osiyo xonliklarida royl bergan bu tontarish bolsheviklarning "jahon inqilobi" deb nom olgan xayoliy va gʻayri ilmiy gʻoyasini amalga oshirishdan iborat boʻldi. Bu maqsadga erishish uchun bolsheviklar rejimi suveren Xiva va Buxoroning "qozgʻolon koʻtargan xalqi"ga yordam koʻrsatish bahonasi bilan ularga qurolli bosqinchilik qilishdan ham tap tortmadilar. Qizil armiya qismlari yordamida amalga oshirilgan tontarish oqibatida bu mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning tabiiy evolyutsion jarayoni sunʼiy ravishda uzib qoyildi, dastlabki bosqichda xalq-demokratik korinishda boʻlgan sovet tuzumi bu mamlakatlar xalqlariga majburan tiqishtirildi. Garchi BXSRS va XXSR rasman suveren davlatlar bolsalar-da, haqiqatda esa ular avvalboshidanoq Sovet davlatiga qaram boʻlib qolgan edilar.

Xullas, 1917-1920- yillar Turkiston oʻlkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga togʻri keldi. Oʻtgan on- yilliklar mobaynida yetilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga qalqib chiqdi. Uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni ochib tashladi. Tashqi va ichki omillar tufayli vujudga kelgan bu jarayonlar oʻz tabiatiga koʻra bir xil emas, lekin yemiruvchilik taʼsiri jihatidan yaxlit edi.

10.4. Turkistonda milliy-hududiy chegaralanishning oʻtkazilishi. Oʻzbekiston SSRning tashkil etilishi

XX asr 20- yillarga kelib markazda Turkistonni boʻlib yuborish, uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yoq qilish gʻoyasi ustuvor boʻlib

qoldi. Tarixan tarkib topgan uchta davlatni tugatib, ularning orniga yangi davlatlar tuzish fikrini Turkkomissiya raisi Ya. E. Rudzutak 1920-yillarning boshlaridayoq o'rtaga tashlagan edi. 1921- yil boshiga kelib O'rta Osiyoda TASSRdan tashqari Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalari ham bor edi.

Hududlarni qaytadan belgilash va chegaralash tarafdorlari til tafovutlari, milliy tafovutlarga diqqatini ko'proq qaratib, xo'jalikka oid iqtisodiy omillarni, mavjud suv resurslari, sug'orish tizimlarining umumiy ekanligini hamroq hisobga oldilar. Rahbar xodimlar orasida rusiyabonlar bilan tub xalqlar vakillari o'rtasidagi ixtiloflar, ayrim guruhbozlik korinishlarini Rudzutak va boshqalar O'rta Osiyodagi milliy mojaro deb, davlatlar hududini tubdan qayta belgilash uchun hal qiluvchi asosiy dalil sifatida ilgari surdilar.

1924- yildan O'rta Osiyoni chegaralab bolish va milliy respublikalar tuzish g'oyasi amalga oshirila boshlandi. Bu g'oyani amalga oshirishda turli loyihalar, takliflar kiritildi va ular astoydil himoya qilindi, o'zaro ziddiyatlar, g'oyaviy kurashlar avj oldi. Shunga qaramay, milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishini ma'qullab rezolyutsiyalar qabul qilindi. 1924- yil 31- oktyabrda O'zbekiston SSR Inqilobiy Komiteti (revkom) tuzildi, u O'zbekiston Respublikasi tuzishni boshqarib bordi.

1925- yil 13- fevralda Buxoroda Sovetlarning I umumo'zbek qurultoyi ochildi. Unda Deklaratsiya qabul qilinib, «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilgani» e'lon qilindi. O'zbekiston hukumatining raisi qilib Fayzulia Xojaev saylandi. Respublika Markaziy Ijroiya Komiteti raisi etib Farg'ona vodiysidan chiqqan dehqon, «Qo'shchi» uyushmasining rahbari Yoldosh Oxunboboev saylandi. Shuningdek, O'zbekiston kommunistlar partiyasi tashkil topdi. Uning Markaziy qomitasining birinchi sekretari etib V. I. Ivanov, II sekretari lavozimiga Akmal Ikromov saylandilar. 1927- yilda esa A. Ikromov birinchi sekretar lavozimiga kotarildi. O'zSSRning poytaxti qilib Samarqand shahri belgilandi. 1930- yilda poytaxt Toshkentga ko'chirildi. 1925- yil mayda O'zbekiston SSR SSSR tarkibiga kirdi.

Shunday qilib, milliy hududiy chegaralash xalqning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, madaniyatiga, an'alariga katta ta'sir ko'rsatdi. Mintaqa kartasi qaytadan tuzilib, ikkita mustaqil davlat XXSR, BXSr tugatildi. Millatning bir qismi o'z ota-bobolari yerida yashab, mehnat qilsa-da, rasmiy ta'rifga kora, «oz sonli millatga» aylanib qoldi. Shuningdek, bu tuzumalarni O'rta Osiyo xalqlarining «milliy

davlatchiligi» deb ham bolmaydi. Oʻrta Osiyoda tashkil qilingan bu tuzilmalar davlat boʻlib shakllanmagan tuzilmalar edi. Mazkur tuzilmalar suverenitet va mustaqillikdan mahrum edilar. Utar SSSRning maʼmuriy-iqtisodiy rayonlari darajasiga tushirilgan boʻlib, asosan Markazning manfaatlariga xizmat qilish, xomashyo etishtirish kabi vazifalar belgilab berilgan edi.

1936- yil 5- dekabrda SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinib, unda Qoraqalpogʻistonning Oʻzbekiston SSR hududiga kirishi qayd qilindi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Turkistonda sovet hokimiyati oʻrnatilishi oqibatlarini sanab oʻting.
2. Rossiyada fevral va oktabr inqiloblarining Turkistonga taʼsiri.
3. Turkiston Muhtoriyati tuzilishining oʻlka siyosiy hayotiga taʼsiri?
4. Qarshilik harakati mazmun-mohiyati namalarda aks etgan?
5. Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugalishi sabab va oqibatlari.
6. BXSR va XXSR ning tuzilishi?
7. Oʻrta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish qachon va qanday oʻtkazildi?
8. Oʻzbekiston SSR qachon tashkil topdi?

11- MAVZU. SOVET HOKIMYATINING O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY TADBIRLARI (XX ASRNING 20-30- YILLARI)

Asosiy so‘z va iboralar. sanoatlashtirish, jamoalashtirish, quloqlashtirish, birinchi va ikkinchi besh yilliklar, xalq xo‘jalik kompleksi.

11.1. O‘zbekistonda sanoatlashtirishning amalga oshirilishi

XX asr 20-yillari o‘rtalaridan e‘tiboran sovetlarning butun diqqat-e‘tibori mamlakatni sanoatlashtirishga qaratildi. Buning asosiy sanoatlashtirish SSSRda sotsializm qurish dasturiy rejasining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanardi. VKP (b) XIV syezdida (1925) mamlakatni sanoatlashtirish sotsializmni barpo etishning bosh strategik vazifasi deb belgilandi. O‘zbekistonda sanoatlashtirish ishini amalga oshirish orqali sovetlar bir necha iqtisodiy maqsadga erishmoqchi edilar. Asosiy maqsad sovet hukumati O‘zbekistonda sanoat korxonalarini qurish bilan qishloq xo‘jaligi va tabiiy boyliklarga dastlabki ishlov berish hamda shu yo‘l bilan respublikaning boy tabiiy va mineral resurslaridan foydalanish, arzon ishchi kuchidan foydalanish edi.

Paxta ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligini qayta tiklash dasturida Markaz tomonidan kondalang qilib qoyilgan vazifalarga muvofiq paxta bilan bog‘liq sohalarning rivojiga, ya‘ni qishloq xo‘jalik mashinasozligi, irrigatsiya qurilishi, metall konstruksiyalar, mineral og‘itlar ishlab chiqarish, qishloq xo‘jalik xomashyosi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoatga qaratildi. Mahalliy resurslar: mis, azot va boshqalarni ishlab chiqarishni tezlashtirish, ipakchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, qorako‘lchilik va boshqalarni ostirish sur‘atlarini jadallashtirish mo‘ljallandi. Shuningdek, rangli metall, neft, toshko‘mir, tuz, grafit konlarini ochishga kirishildi.

O‘zbekistonda 1925-yilda 21 sanoat tarmog‘iga tegishli 149 ta korxonalar mavjud edi. Ular asosan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan edi. O‘zbekiston xalqi o‘z kuch-quvvati, idroki va mahoratini O‘zbekiston ravnaqi uchun safarbar qildi. Korxonalar yangi texnika asosida tiklandi, yangi sanoat sohalari (ip-gazlama, trikotaj, shohi va hokazo) barpo etildi, avval mavjud bo‘lgan sanoat korxonalarini qayta qurilib kengaytirildi.

Natijada sanoat yalpi mahsuloti ancha ko‘paydi, tannarxi kamaytirilib, sifati esa oshirildi. Uch yil mobaynida yirik sanoat

korxonalarining soni 48 taga ko‘paydi, 1928- yilga kelib ular 166 taga etdi. Jumladan, Farg‘ona toqimachilik kombinati (1926), Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodi (1934), Quvasoy sement va ohak zavodi (1932), Toshkent toqimachilik kombinati (1934), Chirchiq elektr kimyo kombinati (1937) va boshqalar qurildi. Respublika neft sanoatida ochilgan konlar soni 31 taga etdi. Angren qong‘ir komir, Sharg‘un, Boysuntog‘ (Surxondaryo) toshko‘mir konlari ishga tushdi.

Sanoatlashtirish davomida respublikaning energetika bazasi kengaytirildi va mustahkamlandi. Umum foydalanadigan va sanoatni ta‘minlaydigan elektr stantsiyalari soni uch yil mobaynida 17 taga ortdi, elektr energiyasi ishlab chiqarish 3 barovarga ko‘paydi. Elektr stantsiyalari quvvati 482 mln. kilovattga etdi. XX asr 30- yillarida Chirchiq-Bo‘zsuv GESlari majmuasi barpo etildi. Turkiston-Sibir temir yo‘li qurildi. Respublikada oltin, mis, qorg‘oshin, ruh, volfram, molibden, oltingugurt, simob konlari ochildi. 30- yillar boshida Ohangaron, Chirchiq daryolari vodiylarida, Qurama tog‘larida oltin konlari topildi. Qoytosh volfram-molibden (Jizzax, 1937) konlari ishga tushirildi. Rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda birinchi besh yillik (1928-1932)da 289 ta va ikkinchi besh yillik (1933-1937) davrida 189 ta sanoat korxonalari barpo etildi.

Shular qatorida onlab paxta tozalash zavodlari, toqimachilik va ipakchilik fabrikalari, oziq-ovqat sanoati korxonalari barpo etildi. Bu ishlarning hammasi juda katta miqdordagi mablag‘larni talab qilar, bu esa mehnatkash kishilar yelkasiga og‘ir yuk bo‘lib tushar edi. Xalq ommasining ijtimoiy ehtiyojlari sovet davlatining byudjet siyosatida ikkinchi oringa tushib qolgan edi. Respublikada mahalliy malakali ishchilar, muhandislar va texnik xodimlar tayyorlash masalasiga etarli e‘tibor berilmadi. Sanoatni mustahkam lash uchun sobiq Ittifoqning boshqa joy laridan rusiyzabon aholi kochirib keltirilib, turar-joy va ish bilan ta‘minlandi.

11.2. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar.

Jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati

Turkistonda 1921-1922- yillarda yer-suv islohoti qisman amalga oshirildi. Islohot asosan Ettisuv, Sirdaryo viloyatlarida o‘tkazilib rus krestyanlarining yerlari natsionalizatsiya qilindi. Ko‘chirib keftirilgan bu krestyanlarning asosiy qismi quloqlar deb e‘lon qilindi. Turkiston o‘lkasi boyicha davlat yer fondiga olingan 230 ming desyatina yerdan 26 ming desyatini o‘troq dehqonlarga bo‘lib berildi. Bu davrlarda Turkistonda «Qo‘shchi» uyushmasi tashkil topib, bu ittifoq 90 mingdan

ortiq qishloq aholisini birlashtirgan edi. Ular tadbirlarda faol qatnashib, sovet hokimiyatining qishloqdagi siyosatiga yordam berib turdi. Ammo bu jarayon uzoqqa chozilmadi, sovet hukumati mulk egalarini asta-sekin cheklash va tugatish siyosatini olib bordi.

O‘zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari Inomjon Xidiraliyev va boshqa mas’ul xodimlarning e’tirozlariga qaramay, 1925-yil dekabrda O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (MIQ)ning Favqulodda sessiyasi chaqirilib, unda “Yer va suvni milliyashtirish to‘g‘risida”gi dekret qabul qilindi. Shu bilan O‘zbekistonda yer-suv islohotlarining ikkinchi bosqichi boshlandi. Dekretga binoan quyidagi tarzda yerlar batamom musodara qilinishi kerak edi:

– Farg‘ona vohasida 40 desyatidan¹, Toshkent va Samarqand vohalarida 50 desyatidan ortiq sug‘oriladigan yeri bo‘lgan mulk egalari jami jonli va jonsiz mulki bilan;

– qishloq va ovullarda yashamagan, o‘zlari va oila a‘zolaridan birortasi ham yerda ishlamaydigan shaxslarga qarashli yerlar, boshqa mol-mulki bilan;

– vaqf yerlari, xo‘jayinlari noma‘lum yerlar musodara qilinadigan bo‘ldi.

Yer-suv islohotining bu bosqichida ham qishloqda asosiy kuch bo‘lgan o‘rtahol dehqon bilan aloqani mustahkamlash shiori ostida o‘tdi. Farg‘ona vohasida 7 desyatina, Toshkent va Samarqand vohalarida 10 desyatina gacha yeri bor o‘rtahol dehqonlar mulki saqlanib qoladigan bo‘ldi. Natijada o‘rtahol dehqonlar boy va quloqlardan ajratib olinib, kambag‘al dehqonlarga yaqinlashtirildi.

1927-1928- yillarda O‘zbekiston SSR MIQ favqulodda sessiyasi qaroriga asosan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm vohalarida islohot boshlandi. 1929-yilda islohot Qoraqalpog‘istonda ham o‘tkazildi. Katta yer egalarining oshiqcha yerlari musodara qilindi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda 1925-1929- yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti mulkdorlarni tugatishga qaratilgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligini zo‘ravonlik yo‘li bilan yalpi jamoalashtirish jarayonini tezlashtirish uchun qulay shart-sharoit hozirladi. Sovet davlati tortib olingan yer-suvlar hisobiga kooperatsiyalar, so‘ng jamoa xo‘jaligi tuzish siyosatini olib bordi. Jamoa xo‘jaligi tuzilishining boshidan qishloq xo‘jalik artellari mulklarini davlat tasarrufiga otkazish boshlandi. Jamoa xo‘jaligi dehqonlarning yerlari va ishlab chiqarish

¹ 1 desyatina = 1,09 gektar

vositalarini birlashtirish asosida tuzildi, bu vositalar yagona bolinmas fondga qo'shildi. Bu dehqonlarning mulkdan ajralishini boshlab berdi. Jamoa xo'jaliklari iqtisodiy jihatdan butunlay davlatga qaram bo'lib qoldi. Uning mustaqilligi va tashabbusv cheklandi. Jamoa xo'jaligiga kirmagan yakka xo'jaliklarga nisbatan taz'iyiq o'tkazila boshlandi.

1925-1929- yillarda bo'lib o'tgan o'tgan yer-suv islohoti natijasida O'zbekistonda jami 1492 ta o'ziga to'q xo'jaliklar tugatildi hamda 27992 ta badavlat mulkdorlarning ortiqcha yerlari tortib olindi. Respublikada yer fondiga tortib olingan yerlarning 10 foizigina kam yerlilarga berildi. Qishloqda kooperativlarga birlashtirish kuchayib, 1929-yilda jamoa xo'jaligi hisoblangan kooperatsiyalarga uyushgan dehqon xo'jaliklarining respublikadagi salmog'i 81 % ga yetdi. Bu jarayon oddiy mehnatkashlar manfaatiga zid holda olib borildi. Jumladan, ba'zi hollarda o'rta dehqonlar, hunarmandlar, hatto qishloq kambag'allari ham quloq dehqonlar qatoriga qo'shib surgun qilinib, mol-mulklari musodara etildi. O'zbekistonda yer-suv islohotlarining birinchi bosqichi (1921-1922- yillarda) va ikkinchi bosqichi (1925-1929- yillarda) o'tkazilishi natijasida O'zbekistonda yirik yer egaligi deyarli tugatildi.

1930- yil fevralda O'zbekiston Kompartiyasi MQ "quloq xo'jaliklarini tugatish tog'risida" qaror qabul qildi. Bu qaror jamoalashtirish siyosatini va jamoalashtirish jarayonida taz'iyiq va qatag'onlik o'tkazishni qonunlashtirib berdi. Respublika yalpi jamoalashtiriladigan o'n etti tumanga bo'lindi. Mahalliy rahbarlar raqamlar orqasidan quvib, qonunni buzishgacha bordilar. Natijada, ko'pchilik tumanlarda jamoalashtirish bir necha hafta ichida tugallandi. 1929-yilning oktabrigacha respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3,4 foizi kolxozlarga kirgan bo'lsa, 1930-yilning martiga kelib dehqon xo'jaliklarining 47 foizi kolxozlashtirildi. Bu ishlar amalda o'ziga to'qroq xo'jaliklarni tugatish, ya'ni xo'jalik mulklari va imoratlarini musodara qilishga aylanib qoldi.

Jamoalashtirish ishidagi ma'muriy buyruqbozlik uslubi, joylardagi real shart-sharoitlar bilan hisoblashmaslik, milliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining milliy an'analari, udumlarini, madaniy-ma'naviy saviyasini e'tiborga olmaslik, ularni pisand qilmaslik oxir-oqibatda respublikada ommaviy norozilik harakatlarining boshlanishiga sabab bo'ldi.

Shu yillarda jamoalashtirishga qarshi dehqonlarning ommaviy norozilik harakatlari respublika bo'yicha 240 marta sodir bo'ldi.

O'zbekistonda shartli ravishda quloq xo'jaligiga kiritish mumkin bo'lgan xo'jaliklarning salmog'i aslini olganda umumiy dehqon xo'jaliklarining 5 foizidan kamrog'ini tashkil etgan. Ayni paytda dehqon xo'jaliklarini majburiy quloq qilish, boshqa joylarga surgun qilish ishlari avj oldirildi. 1930- yili 264 ta quloq va boylar xo'jaliklari deb atalgan xo'jaliklar tugatildi. 1939- yilga kelib respublikada yakka xo'jaliklarga butkul barham berildi. O'zbekistondan Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga 3871 quloq oilasi surgun etildi. 1933-yilda surgun qilingan quloq xo'jaliklari soni 5500 taga yetdi.

Aslida reja bo'yicha O'zbekistonda jamoalashtirishni 1933-yil boshlariga qadar tugallash mo'ljallangan edi. Mahalliy rahbarlar uni bu muddatdan ham avval bajarish uchun harakatni boshladi. Agar 1930-yil iyunida respublikada 6124 ta kolxoz tuzilgan, ularga jalb qilinganlar dehqon xo'jaliklarining 27,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, shu yilning oxiriga borib 37 foizga, 1931-yil dekabrda esa 68,2 foizga yetdi. Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'ravonlik va iqtisodiy ta'sir usullarining uzluksiz qo'llanilishi orqasida kolxoz qurilishi sezilarli sur'atlarda rivojlantirib borildi. 1932-yil oxiriga kelib umuman O'zbekistonda jamoalashtirilgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizini birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgandi.

Respublikada jamoalashtirish xo'jaliklarga moddiy-texnik baza hisoblangan mashina-traktor stansiyalari (MTS)ni tashkil etish bilan birga olib borildi. O'zbekistonda birinchi MTS Andijon okrugining Asaka tashkil topdi. MTS soni ko'payib borib, 1931-yilda ularning soni 48 ta bo'lgan bo'lsa, 1937-yilga kelib 163 taga, 1941-yilda esa 189 taga yetdi. MTS lar jamoa xo'jaliklari dalalarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdori esa yuqoridan belgilab berilardi. Ko'rilgan turli choralarga qaramay, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida biror yirik o'zgarishlar bo'lgani yoq.

Respublika qishloq xo'jaligida jamoalashtirish paxta maydonlarini kengaytirish bilan bir vaqtda amalga oshirilgan. O'zbekistonda paxta maydonlari 1929- yildagi 530 ming gektardan 1932-yilga kelib 928 ming gektarga ko'paydi. Shu maqsadda ko'plab irrigatsiya inshootlari barpo etildi. Masalan, paxtachilikni rivojlantirish uchun xashar usuli bilan 1939- yilda Katta Farg'ona kanali va boshqa suv inshootlari qazildi. Natijada, sug'oriladigan erlar maydoni kengaydi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asosan Markaz sanoatining ehtiyojini qoplashga qaratildi.

Umuman olganda, jamoalashtirish natijasida dehqonlarga xos turmush tarzi buzildi, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar zavol topdi va dehqonning davlat tomonidan asoratga solinishiga olib keldi. Oxir oqibat kolxozlarda zo'rlik bilan olib qolingani dehqonlar asosiy fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'ldilar. Dehqonlar yerga va ishlab chiqarishga egalik tuyg'usini, mehnatsevarlik fazilatlarini yoqotib bordilar, ulardagi mehnatga, kasb mahoratiga bo'lgan mehr soviy boshladi.

11.3. XX asrning 20-30- yillarida O'zbekistonda ilm-fan va madaniyatning holatii

XX asr 20-30- yillardagi murakkab ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga ta'sir o'tkazdi. Taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o'tish katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lib, keskin mafkuraviy kurashlar asosida kechdi. 1929- yil avgustida arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqida qaror qabul qilindi. 1940- yil may oyida esa navbatdagi islohot amalga oshirilib, yozuvni kirill grafikasiga otkazish haqida korsatma berildi. Bolsheviklarning ta'biriga kora arab yozuvi dindorlarga, ulamolarga "xizmat qilar" edi. Aslida esa bu bilan ko'p millatli O'rta Osiyo xalqlarini Sharq musulmon mamlakatlaridan sun'iy ravishda ajratib olib, ular uchun alohida yangi madaniyat, yangi tarix yaratishni maqsad qilib qoygan edilar.

O'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashi olaroq milliy ziyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, oz faoliyatini davom ettirdilar. Shu bilan bir vaqtda katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish uchun shahar va qishloqlarda maktablar, savodsizlikni tugatish tarmoqlari faoliyat korsatdi. Shu- yillarda Markaz siyosiy rahbariyati sovet tuzumiga sodiq bo'lgan pedagog kadrlarni tezkorlik bilan tayyorlab, ular orqali aholini, ayniqsa yosh avlodni kommunistik g'oyalar asosida tarbiyalash maqsadida mablag'ni ayamadi, bor ma'rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotlarining kuch-quvvatini safarbar qildi. Afsuski, Xalq ta'limiga buyruqbozlik nuqtai nazaridan yondashish natijasida ochilgan ko'plab maktablarda oqitish sifati past bo'lib, talab darajasiga javob bermasdi.

XX asrning 20- yillari ikkinchi yarmida maxsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli oquv yurtlari ochildi. O'rta Osiyodagi birinchi oliy oquv yurti-1918- yili ochilgan Turkiston davlat universiteti- bu vaqtga kelib oliy ta'limning eng yirik markaziga aylandi. Mavjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi oquv yurtlari, jumladan,

paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, kon qidirish, toqimachilik, tibbiyot va boshqa institutlar ochildi. 30- yillarning oxirida 30 ta oliy oquv yurti va 98 ta texnikumlar faoliyat korsatgan.

Shuningdek, bu davrlarda dastlabki ilmiy-tadqiqot muassasalari ochildi. Irrigatsiya, paxtachilik va tibbiyot sohalaridagi muammolarni ilmiy jihatdan ishlab chiqish yo'lga qo'yildi, ilm-fan qaror topdi, jiddiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Natijada, iste'dodli tadqiqotchilar etishib chiqdi, jumladan, geolog olim H.Abdullaev, matematik T.Qori-Niyoziy, biolog T.Zohidov, kimyogar O.Sodiqov, arxeolog Ya.G'ulomov va boshqalar yangi ilmiy yonalishlar hamda ilmiy maktablarning asoschilari bo'lib qoldilar.

Ilmiy ishlarni uyg'unlashtirib tartibga solib borish uchun O'zSSR MIK qoshida 1932- yili fanlar komiteti tuzildi. Bu koraitet 1940- yili SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filialiga aylantirildi. Bu davrlarda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi boyicha bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Ularning amalga oshishini sun'iy ravishda tezlashtirish maqsadida 1927- yil bahorida "Hujum" hampaniyasi boshlab yuborildi. Bunga kora bolsheviklar zo'ravonlik, ma'muriy yol bilan ayollarning paranjisini tashlattirishga harakat qildilar. Ijtimoiy hayotda shiddatli ziddiyatlar hukm surgan bu murakkab davrda adabiyot va san'at milliylik, insonparvarlik, xalqchilik kabi tamoyillarga sodiqligini saqlab qoldi.

XX asrning 20- yillarning boshlarida Abdurauf Fitrat boshchiligida Toshkentda tuzilgan "Chig'atoy gurungi" uyushmasi a'zolari yangi o'zbek milliy adabiyoti, till va madaniyatini yaratish, adabiy-madaniy merosini toplash va organish, talantlarga har tomonlama komak berishga harakat qildilar. Shuningdek, bu davrda sovet hokimiyati va bolsheviklarning g'oyaviy-sinfy qarashlari ta'sirida turli-tuman ijodiy tashkilotlar, guruhlar va oqimlar yuzaga keldi. ChoIpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, G'ulom Zafariy va boshqalar milliy qadriyatlarni yoqlab, xalqning tarixiy o'tmishi, ozodlik uchun kurashini, ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettirgan bir qancha nazariy, she'riy va dramatik asarlar yaratdilar.

1934- yilning mart oyida Toshkentda O'zbekiston yozuvchilari qurultoyi bo'lib otdi, unda respublika yozuvchilari uyushmasi tuzildi. O'zbek milliy dramaturgiyasi va musiqasi, teatr va kino, tasviriy va amaliy san'at ham xalqimiz ma'naviy madaniyatining hayotbaxsh manbai bo'lib qoldi va unga xizmat qildi. 1936-39- yillarda Toshkentda ochilgan davlat konservatoriyasi, opera va balet teatrlari o'zbek musiqa

va vokal madaniyatining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. 20-30- yillar ateistik (dinga qarshi) harakatning kuchayishi bilan ta'riflanadi.

Partiya organlari yoshlar orasida dinga qarshi keng kolamda tashviqot-targ'ibot ishlari olib bordilar. Dinni, ruhoniylar va dindorlarni siyosiy va jismonan ta'qib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga zavol etkazdi. Masjid, madrasalarning yopilishi ahofi orasida umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatni targ'ib qilish, qaror toptirish ishiga ziyon etkazdi. Yosh avlod islom dini qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan mahrum bo'ldi.

Shunday qilib, bu davr respublika madaniy hayotida ijobiy o'zgarishlar bilan ham e'tiborli bo'ldi. Biroq XX asr 20- yillarining ikkinchi yarmidan qaror topgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi respublika ijtimoiy-madaniy sohalarining yangidan barpo bolishini sekinlashtirib qo'ydi. E'lon qilingan sotsialistik insonparvarlik, adolat haqidagi g'oyalar bilan haqiqiy voqelik o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi. Ular milliy ma'naviy hayotning asl mohiyatini notog'ri tushunish, uni ruslashtirish va ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlardan voz kechish bilan ifodalandi, bu narsa ayniqsa qatag'onlik xatti-harakatlarinig ta'siri ostida yanada kuchayib bordi.

11.4. Aloqa tizimi holati

1917- yilda Turkiston Respublikasi Pochta va Telegraf Xalq Komissariati (Narkompocht) tashkil etildi va ushbu Komissariatga aloqa korxonalarini xizmatlaridan unumli va samarali foydalanish ishlarini tashkil etish, pochta, telegraf, radio, telefon aloqasi xizmatlari hamdaboshqa turdagi barcha aloqa inshootlarini qurish va ekspluatasiya qilish jamoalarini nazorat qilish vazifalari yuklandi.

Turkistonda boshlangan harbiy harakatlar va iqtisodiy qiyinchiliklar aloqa tizimining keyingi taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazdi. 1918- yil yoz oyida bir necha ming kilometr masofadagi hamma telegraf liniyalari ishdan chiqdi, bir qancha pochta-telegraf korxonalarida o'g'irliklar sodir etildi. Natijada, Turkistondagi 22 ta shahar bilan aloqa qilib kelayotgan Toshkent telegraf idorasi 1919- yil o'rtalariga kelib, faqat 6 ta shahar bilan aloqa qilaoldi. 1925- yilda respublikada hammasi bo'lib 51 ta aloqa korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, 1926- yilda ularning soni 250 taga, 1927- yilda esa 392 taga yetkazildi.

O'zbekistonda shaharlararo telefon aloqasi xizmatlari 1924- yildan boshlanib, o'sha vaqtda Toshkent va Samarqand shaharlari o'rtasida birinchi havo aloqa liniyasi ishga tushirildi. Telefonlashtirish sohasida

bo'layotgan sezilarli va ahamiyatli o'zgarishlar, muvaffiqiyatlar 1926-yilda Toshkent-Samarqand, Samarqand-Dog'bit-Kattako'rg'on oralig'idagi aloqa liniyalarining ekspluatatsiyaga qabul qilish hamda shaharlararo simlar va shahar telefon tarmog'iga o'rnatilgan uskunalarni, aloqa vositalari va telefon simlarini joriy ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida bo'ldi.

1930- yilda Toshkent-Andijon shaharlari o'rtasida bimetall zanjir bilan shaharlararo aloqa xizmati tashkil etilib, mazkur liniyalar orqali Toshkent shahrini Qo'qon va Farg'ona shaharlari bilan ham aloqa o'rnatishiyo'lga qo'yildi. Shundek, Toshkent shahri bitta kanal orqali Samarqand shahri bilan shaharlararo so'zlashuv imkoniyatiga, Andijon, Farg'ona va Qo'qon shaharlari bilan esa jadval asosida aloqa qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, Toshkentning o'ziga yaqin Pskent, To'ytepa, Oqqo'rg'on, Ordjonikidze (Qibray) tumanlari bilan aloqa o'rnatishi bo'yichaham kerakli ishlarolib borildi.

1930-1931- yillarda Pastarg'om, Narpay, Bulung'ur, Angren, Xatirchi, Buvayda, Mang'it va boshqa tuman markazlari bilan aloqa o'rnatish maqsadida, havo telefon-telegraf liniyalari qurildi. Umuman olganda, aloqa sohasida simlardan foydalanish miqdori 24% ga, kabellardan foydalanish esa 65% oshdi.

Shahar telefon tarmog'ining keskin rivojlanishi qo'l bilan boshqariladigan telefon stansiyalarni avtomatik telefon stansiyalarga almashtirish zaruratini ko'rsatdi. 1932- yil 8- sentabr kuni Toshkent shahrida 5000 nomerli "Eriksson" nomli shved firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan va mashina tizimi bilan ishlaydigan birinchi avtomatik telefon stansiya ATS-3 ishga tushirildi. Ushbu avtomatik telefonstansiya deyarli 30- yillar davomida Toshkentda yakka ATS timsolida ishladi va keyinchalik davr talabiga muvofiq, uning umumiy sig'imi 10 000 nomergacha yetkazildi.

Shu bilan bir qatorda, 1932- yilda Moskva-Toshkent yo'nalishi bo'yicha shaharlararo magistral liniyasining qurilishi boshlanib, ushbu ishlar 1939- yilga borib yakunlandi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida, O'zbekistonda aloqa sohasining jadal rivojlanishiga erishildi. 1935- yilda Shaharlararo Telefon Stansiyasi (MTS) Markaziy Telegraf tassarufidan chiqarilib, unga mustaqil korxonaga maqomi berildi. 1937- yilda O'zbekistonaloqa boshqarmasi O'zSSR ning Xalq Komissarligi Ittifoqining vakolatli Aloqa Xalq Komissarligi boshqarmasiga aylantirildi.

11.5. Totalitar tuzumning kuchayishi. Qatag'on siyosati

20- yillarning oxiridan boshlab mamlakat va respublikada tarkib topib kelayotgan totalitar jamiyatga xos xususiyatlar tobora oshkora namoyon bola boshladi. Muhim qarorlarning hammasi tor partiya doirasida qabul qilinadi va butun mamlakat uchun majburiy bo'lib qolardi. Demokratiyani bog'ish, haq-huquqlarning, qonunchiliklarning ommaviy ravishda buzilishiga olib keldi. Natijada milliy madaniyatni qayta tiklash, xalq turmushini yaxshilashga e'tibor qaratmoqchi bo'lgan rahbar xodimlar Akmal Ikromov, Turar Risqulov, Fayzulla Xo'jaev, Nazir Toraqulov va boshqa arboblarning millatchilikda ayblandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muqobil yollarini amalga oshirishga uringan kishilar guruhbozlikka qarshi kurash shiori ostida tazyiqqa uchradi.

Keyinchalik "inog'omovchilik", "O'n sakkizlar guruhi", "qosimovchilik" deb nom olgan ishlar o'sha paytlarda to'qilgan edi. "On sakkizlar guruhi" bolsheviklar tomonidan boy-quloq deb nomlangan oziga toq xo'jaliklarning yer-suv islohoti jarayonida belgilangan me'yordan ortiqcha mol-mulki tortib olinishiga qarshi chiqdilar.

O'zbekiston yer ishlari xalq komissari I. Xidiraliev boshchiligida 18 nafar mas'ul partiya va sovet xodimlari dehqonlarni iqtisodiy jihatdan himoya qilinganliklari uchun jazolandilar. Shu davrda O'zbekiston Kompartiyasi MKning matbuot bolimi mudiri R.Inag'omov, O'zbekiston Oliy sudi raisi S.Qosimov va ularning tarafdorlari partiyaning O'zbekistonda mustamlakachilik siyosati olib borayotganlikda aybladilar, iqtisodiyot, madaniyatning mustaqil rivojlanishiga yo'l ochib berishni talab qildilar. Natijada nohaq ayblanib, qatag'on qilindilar.

1929- yil oxirlarida Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligidagi "Milliy istiqlol" tashkilotining a'zolari qamoqqa olindilar. Ular sovet hokimiyatining siyosatiga qarshi chiqqan reaksion tashkilotlarning a'zosi sifatida qoralandilar. Toshkentda qamalgan tashkilotning 85 nafar a'zosidan 15 nafari otib tashlandi (Munavvar Qori Abdurashidxonov 1931- yil Moskvada otilgan), qolganlari ahloq tuzatish mehnat lagerlariga jonatildilar, 30- yillarda qonunbuzarlik va qatag'onlar yanada avjga chiqdi, inson qadr-qimmatini poymol etildi.

Buning oqibatida 1937- yil ikkinchi yarmidan song A.Qodiriy, Cholpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir va boshqalar, matbuot va adabiyot xodimlari, tarjimonlar va olimlar, ruhoniylar nohaq ravishda xalq dushmani sifatida ayblanib, qatag'on qilindilar. Ular yaratgan asarlar va badiiy tarjimalarni oqish ta'qiqlab qoyildi. Islomga oid noyob qolyozma kitoblar yoq qilindi.

O‘zbekistonda yalpi qatag‘on partiya va davlatga xizmat qilgan atoqli arboblarni qamoqqa olishdan boshlandi. Siyosiy boshqarma U.Xojaev, A.Ikromov, S.Segizboev va boshqalar ustidan “sovetlarga qarshi qoporuvchilik” degan uydirmalarni toqib chiqardilar. Chunki ular bahs va munozaralarda o‘z dunyoqarashlarini sobit turib himoya qila oladigan xalq etakchilari edi, 1931-1939- yillarda O‘zbekiston jamiyatning hamma tabaqalariga yoyilgan hibsga olish tolqini ostida qoldi. Olimlar, muhandislar, shoiru-yozuvchilar, maorifchilar, san’atkorlar, jurnalistlar, hattoki ishchi va dehqonlar ham ta’qib ostiga olindi va qatag‘on qilindi.

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining ichki turmasi va boshqa qamoqxonalarida mahbuslar jismoniy jazolarga mahkum bo‘ldilar. Mahbuslarning ko‘plari bu holatdan chiqish, qutulishning yagona yo‘li o‘z joniga qasd qilish deb bildilar. Ayrimlari esa qilmagan jinoyatlarini bo‘yniga olishga majbur bo‘lganlar. Xullas, 1937-1939- yillarda sohta ayblovlar bo‘yicha O‘zbekistonda hammasi bo‘lib, 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan, ulardan 37 mingdan ortiq kishi jazolangan, ularning ichidan 6 ming 920 kishi esa otib tashlangan. Natijada, respublika ozining kuchli kadrlaridan ayrildi, ziyolilar avlodlarining payvastaligi vahshiyona buzildi. Shunday qilib, XX asrning 30-yillarning oxirida O‘zbekistonda insoniylik va demokratiya printsiplarini oyoq osti qiladigan, har qanday o‘zgacha fikr yuritishni kuch bilan bog‘adigan, ommaviy ozboshimchalik va zo‘rluk bilan O‘zbekistonga sodiq ming-minglab kishilarni qirib tashlagan totalitar tartibot qaror topdi va kuchaya bordi. Bu xalqning boshiga chinaham fojea bo‘lib tushdi hamda unga nihoyatda og‘ir urush sinovlari arafasida ulkan ziyon va talofat yetkazdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. XX asrning 20-30- yillarida O‘zbekistondagi iqtisodiy ahvol qanday bo‘lgan?
2. O‘lkani sanoatlashtirish ishlari qanday olib borildi?
3. Yer-suv islohoti va qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish siyosati qanday amalga oshirildi?
4. O‘zbekiston madaniy hayotidagi qaramlik qanday oqibatlariga olib keldi?
5. Sovet hokimiyatining o‘lkamizda yuritgan qatag‘onlik siyosati qanday oqibatlariga olib keldi?
6. Quloqlashtirish siyosatining salbiy oqibatlari keltiring.
7. Ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan yillarda aloqa tizimining rivojlanishi?

12- MAVZU. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING FASHIZM USTIDAN G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI

Asosiy tushuncha va iboralar: harbiylashuv; fashizm; DMQ; deportasiya; evakuasiya, harbiy safarbarlik, o‘zbekistonlik harbiylarning urush frontlarida ishtiroki.

12.1. Ikkinchi jahon urushiniing boshlanishi hamda O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi front xizmatida

1941- yili 22- iyun kuni gitlerchilar Germaniyasi o‘zaro urush qilmaslik haqidagi shartnomani buzib, tosatdan SSSRga hujum qildi. Sovet xalqining fashizmga qarshi urushi boshlandi. SSSR tarkibida bo‘lgan barcha respublikalar, shu jumladan O‘zbekiston ham bu urushda qatnashishga majbur bo‘ldi. Urush butun mamlakat xo‘jaligini, uning hayotini tubdan ozgartirib yubordi. 1940- yil 30-iyunda Davlat mudofaa komitetining tuzilishi bilan mamlakatdagi butun hokimiyat uning qoliga otdi. Ushbu komitetning raisi I.V. Stalin 8-avgustda SSSR qurolli kuchlari Oliy bosh qomondoni lavozimini egalladi. Urushning dastlabki kunlarida qabul qilingan maxsus qarorlar, ko‘rsatmalarda mamlakat katta xavf ostida qolgani, uni himoya qilish uchun shoshilinch ravishda barcha iqtisodiy-ma’naviy kuchlarni mudofaa manfaatlariga bo‘ysundirish, xalq xo‘jaligini to‘liq harbiy izga solish lozimligi qayd etildi.

Uzoq davom etgan urush qiyinchiliklari O‘zbekistonni ham og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Harbiy vaziyat front orqasini mustahkam lash yuzasidan shoshilinch choralar korishni talab qildi. Xalq xo‘jaligini qayta ko‘rib, harbiy izga tushirish eng muhim edi. Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan yuz minglab aholi, sanoat korxonalari, oquv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni sharqqa ko‘chirish boshlandi. O‘rta Osiyo respublikalari va Qozog‘istonga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 100 dan ortig‘i O‘zbekistonga joylashtirildi. 1941- yil oxirigacha bu korxonalardan 50 tasi ishga tushirildi. 1942- yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari toliq quvvatda ishlab, mudofaa uchun mahsulot chiqara boshladi.

O‘rta Osiyo harbiy okrugida front uchun jangovor zaxiralar va komandirlar tayyorlandi. Bir yarim yil ichida bu okrugda 109 ta harbiy qoshilmalar tuzildi. Shulardan harakatdagi armiyaga va Bosh

qomondonlik stavkasi rezerviga 86 diviziya va brigada jonatildi. 1941-yil noyabridan to 1942-yil martigacha O'zbekistonda 14 ta milliy brigada, jumladan 9 ta alohida oqchi brigada va 5 ta otlq diviziya tuzildi. Urush yillarida bir yarim milliondan ortiq O'zbekistonlik fuqaro fashizmga qarshi janglarda qatnashdi. (1940-yil respublika aholisi 6,5 mln. kishidan iborat edi). Umumiy ahvolning keskin yomonlashuvi oziq-ovqat borasida qiyinchiliklar tug'dirdi. Shajarlarda oziq-ovqat kartochkalari joriy etildi. Urush yillarida aholining yangi ijtimoiy guruhlari: harbiy xizmatchilar oilalari, kochib kelgan kishilar, urush nogironlari, yetim bolalar paydo bo'ldi.

Urush yillarida respublikaga bir milliondan ortiq kishi, shu jumladan, 200 ming yetim bola evakuatsiya qilindi, O'zbekiston ularga boshpana berdi. O'zbekistonliklar ko'chirib keltirilgan bolalarga mexribonlik va g'amxorlik korsatdilar, 15 nafar yetim bolani farzandlikka olgan Shomahmudovlar oilasining oliyanoblighi butun jahonga ma'lum. Urush nogironi kattaqorg'onlik Hamid Samadov oilasi 13 bolani o'z panohiga oldi, samarqandlik kolxozchi ayol Fotima Qosimova 10 bolani qabul qildi. Urush yillarida 4,5 ming nafardan ziyodroq bolalar O'zbekistonlik oilalar tomonidan qabul qilib olindi. Kochirib keltirilgan bolalarning asosiy qismi bolalar uylariga joylashtirildi. Urush yillarida bunday uylarning soni ikki barovardan ziyod ko'paydi.

1941-yil 1-oktyabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 oringa ega bo'lgan 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalari bilan jihozlandi. Jami bo'lib 39 140 o'ringa ega bo'lgan 113 gospital yarador va bemor jangchilarga tibbiy xizmat ko'rsatdi. Urush yillarida 164 382 yarador qabul qilindi. O'zbekistonliklar orasida mudofaa fondi tashkil etilib, unga 650 mln. so'm pul, 22 mln. so'mlik qimmatbaho buyumlar va 55 kilogrammga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar topildi.

Xullas, urush yillarida Respublihamizning barcha moddiy va ma'naviy kuchlari g'alaba uchun safarbar etildi, harbiy izga tushirildi. Urushning dastlabki vaqtlarida iqtisodiy vaziyat keskin og'irlashdi, Ittifoq respublikalaridagi ko'pgina sanoat va qishloq xo'jalik rayonlarining bosib olingani xalq xo'jaligini og'ir ahvolga solib qoydi. Chunki bu hududlarda sobiq SSSR aholisining 40 foizi yashar, bu yerlarda komirning 63 foizi, bug'doyning 38 foizi etishtirilar, qudratli mashinasozlik bazasi va ko'plab mudofaa korxonalarini mavjud edi. Ana shunday sharoitda Sharq mintaqasi rayonlari boyicha 1941-yilning oxiri

va 1942- yilga Markaziy hukumatning harbiy xo‘jalik rejasi qabul qilindi. Bu rejada umumittifoq miqyosida mamlakat Sharqining ahamiyati keskin ortganligi qayd qilindi. Nihoyatda qisqa muddatda shu mintaqada sanoat qurilishini avj oldirish, harbiy mahsulotni ishlab chiqarishni ko‘paytirish, frontga umumxalq yordamini uyushtirish ko‘zda tutildi. Urushning natijasi mana shu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga ko‘p jihatdan bog‘liq edi.

Respublika sanoat korxonalari urush boshlanishi bilan qayta ko‘rilib, mudofaaga zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tkazildi. 26-iyundan boshlab mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish xaftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Aslida ish kuni 12-14 soatga chozilardi. Ta‘tilga chiqish bekor qilindi. Korxonalaridan o‘zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinadigan bo‘ldi. Biroq odamlar mamlakat ichkarisida, xususan, O‘zbekistonda “yuqoridan” ortiqcha qistovsiz ham ozodlik va mustaqillik yo‘lida fidokorona mehnat qildilar.

1941- yil dekabrda kelib Toshkentda 63 ta, respublika hududida 230 ta sanoat korxonalari mudofaa mahsulotlari ishlab chiqara boshladilar, kochirib keltirilgan zavodlar ham o‘z quvvatini oshirib bordilar. Elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar qurildi. Ayniqsa, O‘zbekistonning eng yirik gidrostantsiyasi bo‘lib qolgan Farxod GES qurilishi umumxalq qurilishiga aylantirilib, 10 oy ichida Sirdaryo tosilib, GES ishga tushirildi. Elektr energiyasi 1940- yilga qaraganda 1943- yil 3,5 barobar oshdi, 1945- yilda esa 1187 mil. kilovat soatga ko‘paydi. Respublikada komir, neft konlari ochilishi borasida ham samarali ishlar olib borildi. Natijada, 1945- yilga kelganda 1940- yildagiga nisbatan 30 marta ko‘proq komir qazib olindi. Urush yillarida respublikada “Chuqurlangar”, “Tolmazor”, “Nayman”, “Shahrixon-Xo‘jaobod” va boshqa yangi neft konlari ishga tushirildi.

Farg‘ona vodiysida ishlab turgan “Andijon”, “Polvontosh”, “Chargartosh”, “Chimyon” neft konlarida mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish tadbirlari natijasida respublikada neft ishlab chiqarish 4 marta ko‘paydi. Volfram, molibden, mis va oltin zahiralarning topilishi natijasida O‘zbekistonda rangli metallar sanoati yaratildi. Bekobodda metallurgiya zavodi qurish uchun 30 mingdan ko‘proq kishi jalb etilib, 1944- yil 5- martda O‘zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi ishga tushirildi. 1945- yil fevralda Bekobod metallurgiya zavodining ikkinchi

navbati ham mahsulot bera boshladi. Urush yillarida qurilish materiallari, to'qimachilik va poyabzal, oziq-ovqat va mahalliy sanoat tarmoqlari ham rivojlandi.

Sanoatning yangi yo'nalishlarining paydo bolishi, zavod va fabrika tarmoqlarining kengayishi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va talabni oshirdi. Ishlamayotgan mehnatga layoqatli ayollar, osmir yoshlar, nafaqaxorlar hisobiga ishchilar safi toldirildi. Urushning dastlabki ikki- yili mobaynida O'zbekistonda turli kasbdagi 105 mingdan ziyod sanoat ishchisi tayyorlandi. Ochlik, charchoq, qiyin sharoitlarga qaramasdan ilg'or ishchilarning ko'pchiligi normani 300-400, xatto 500 foizga qadar bajargan vaqtlari ham bo'ldi.

Urush yillarida O'zbekistonda vujudga kelgan harbiy sanoat kompleksi tomonidan front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 60 mingga yaqin harbiy kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, 300 mingta parashyut kabilar tayyorlab berildi. 1945- yilga kelib sanoat ishlab chiqarish urush arafasiga nisbatan deyarli ikki barobar oshdi, neft qazib olish 4; metal ishlab chiqarish 4,5; mashinasozlik mahsulotlari 13,4 barobar; komir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 barobar ko'paydi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikada transport va aloqa vositalarining uzluksiz va unumli ishlashini tashkil qilishga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston temiryollari xodimlarining fidokorona mehnati natijasida 1941-1942- yillar davomida kochirilgan sanoat korxonalarining asbob-uskunalari ortilgan 17,5 ming vagoni tashib berildi. Front orqasi bilan front o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilgan temir yol tarmoqlari 1941-1945- yillarda 2 barobarga uzaydi.

Urush davri talablari va telegraf ishini ham qiyinlashtirib qoydi, ish hajmi oshdi, pochta korxonalarining soni, telefon va telegraf tarmoqlarining uzunligi ortdi. Nemis-fashistlarni tor-mor keltirish uchun olib borilgan umumxalq kurashida o'zbek dehqonlari ham munosib xissa qoshdilar. Ular oldiga front va mamlakat ichkarisidagi aholini qishloq xo'jalik mahsuloti bilan, sanoatni xomashyo bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Buning uchun qishloq xo'jaligini ham harbiy izga o'tkazish, don, kartoshka, sabzavotlar va texnika ekinlarini ko'paytirish lozim edi. Chorvadorlar ham armiya va aholini gosht-sut mahsulotlari bilan ta'minlashlari lozim edi. Dehqon ko'p mashaqqatlarni yengdi.

Urush arafasida O‘zbekistonda 27 888 mexanizator bo‘lgan bo‘lsa, 1942- yilda ularning soni 2 775 kishiga tushib qoldi, keyinchalik yanada hamaydi. Natijada, 12 yoshdan boshlab mehnat kuni belgilanib, uni bajarmaganlarning oilasi sudga beriladigan bo‘ldi. Urush yillarida xashar yo‘li bilan O‘zbekistonda Shimoliy Toshkent, Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg‘ona, Soh, Shohimardon, Uchqorg‘on kanallari, Rudasoy, Kattaqorg‘on suv omborlari qurilib ishga tushirilishi yangi yerlarni o‘zlashtirishga imkon berdi. 1942-1943- yillarda O‘zbekistonda sug‘orilib ekin ekiladigan yerlar maydoni 546 ming gektarga ko‘paydi.

Paxta yetishtirishni ko‘paytirish urush yillarida O‘zbekiston dehqonlarining oldidagi eng muhim vazifalardan biri edi. Obyektiv sabablarga ko‘ra 1942-1943- yillardagi paxta topshirish rejalari bajarilmay qoldi. Lekin urush davri sharoitidagi texnika vositalari, ishchi kuchining etishmovchiligi, mineral og‘itlarning hamligi sababli roy bergan bu holatni Markaz tan olishni istamadi. 1944- yil yanvarda o‘tkazilgan respublika paxtakorlarining birinchi qurultoyida korilgan chora-tadbirlar natijasida O‘zbekiston yillik paxta tayyorlash rejasini 101,4 foizga bajardi.

Shunday qilib, urush yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jalik ahli eng murakkab va og‘ir sharoitlarda mehnat qilib, 4 mln. tonnadan ziyod paxta xom-ashyosi, 82 mln. pud don; 55 ming tonna pilla, 11 mln. tonna sholi; 57,5 ming tonna meva va uzum; 36 ming tonna gosht; 22,3 ming tonna jun va boshqa mahsulotlar etkazib berdilar. Bu fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shilgan munosib hissadir.

12.2. Urush yillarida O‘zbekiston fani va madaniyati

O‘zbekistonning boy ma’naviy ma’daniyati urushning birinchi kunlaridanoq fashizmga qarshi kurashga qaratildi. O‘zbekiston olimlarning urush sharoitidagi izlanishlari, ilmiy tadqiqotlarning yonalishlari front va xalq xo‘jaligi talablari va manfaatlariga moslashtirildi. Ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirishni dastlab 1940- yilda tashkil etilgan SSSR FA ning O‘zbekiston filiali, keyin 1943- yil noyabrda tashkil etilgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi amalga oshirdi. O‘z FA ning prezidenti qilib T. N. Qori-Niyoziy saylandi. Bu o‘zbek xalqi hayotida muhim voqea bo‘ldi. 1943-1945- yiillarda akademiya tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli sohalarida tadqiqot ishlarini olib bordilar. Urush tufayli Moskva, Leningrad, Kiev, Minsk va boshqa shaharlardan kochirib kelingan olimlar O‘zbekiston olimlari bilan hamkorlikda ish olib bordilar.

Urush davrida bu ilmiy tashkilotning uch faxriy, 15 ta haqiqiy, 20 ta muxbir aʼzosi va 1265 ta ilmiy xodimi, shu jumladan, 54 ta fan doktori va 172 ta fan nomzodi ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar. Ular orasida fizika-matematika fanlari doktorlari T.A.Sarimsoqov va V.I.Romanovskiy, geolog olim H.M.Abdullayev, fizik olim S.U.Umarov, faylasuf I.Moʻminov, adib S.Ayniy, yozuvchi Oybek, shoir Gʻ.Gʻulom va boshqalar bor edi.

Shu bilan respublikada ilmiy tafakkurni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi. Bu davrda taniqli olimlar T.N. Qori-Niyoziy, T.A. Sarimsoqov, H.M. Abdullaev, A.S. Sodiqov, S.Yu. Yunusov, A.S. Uklonskiy, L. Mominov va boshqalar samarali izlanishlar olib bordilar. Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan Oʻzbekistonda oliy va oʻrta maxsus oquv yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham toʻxtab qolmadi. 1943-1944-yillarda birlashtirilgan va yopilgan institutlar qayta tiklana boshladi. Yopilgan Chimboy va Urganch pedagogika, Namangan va Margʻilon oʻqituvchilar, Toshkent teatr sanʼat institutlari ochildi. Yirik oliy oʻquv yurtlarida doktorantura va aspiranturaga qabul kengaytirildi. 1945-yil oliy oʻquv yurtlari soni 1940-yilga nisbatan 3 taga koʻpayib, 33 tani tashkil etdi, talabalar soni esa 19,1 mingdan 21,2 ming kishiga ortdi. Urush yillarida hammasi boʻlib 10 mingdan koʻproq oliy malakali va 3,7 mingga yaqin oʻrta maxsus maʼlumotli mutaxassislar tayyorlandi.

Oʻzbekistonda 29 ta oliy va 52 ta oʻrta maxsus oquv yurti ishlab turdi, ularning soni Markazdan koʻchirib keltirilgan 31 ta oliy oquv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yana ortib bordi. Bu oquv yurtlarida urush yillari 11 750 nafar yuqori malakali mutaxassislar va 6 673 nafar kadrlar tayyorlandi.

Xalq taʼlimi sohasida qiyinchiliklar boʻlsa ham, oqitish ishlari muntazam olib borildi. Oquvchilar maktabda oqish bilan birga yaradorlarga, frontga ketganlarning oila aʼzolariga, urush nogironlari oilalariga yordam berdilar. Oʻzbek adabiyoti ham xalqimizning dushmanga qarshi kurash- yillarida oʻzining munosib hissasini qoshdi. Oybekning “Qutlugʻ qon” romani, X.Olimjonning «oʻlim bosqinchilarga» kabi asarlari jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovor boʻldi. Gʻ.Gʻulom, Uygʻun, Islom shoir, Fozil Yoʻldosh, Abdulla Qaxxor, Zulfiya va boshqalar ham urush davri ruhiga monand asarlar yaratdilar.

Urush yillarida oʻzbek tilida 14 ta front va 12 ta diviziya gazetasi nashr etilgan. “Front haqiqati”, “Qizil askar haqiqati”, “Qizil Armiya”,

“Dushmanga qarshi olg‘a” shular jumlasidandir, Urush yillarida o‘zbek teatr san‘ati ham katta hajmdagi vazifalarni bajardi. Bu davrda O‘zbekistonda 36 ta mahalliy va 14 ta evakuatsiya qilingan yangi teatrlar ish boshladi. Respublihamizda 30 dan ortiq kontsert brigadalari tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlari va gospitalardagi nogironlarga 26 mingta kontsert qoyib berdi. Ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg‘unboeva, Sora Eshontoraeva, Abror Hidoyatov kabi san‘atkorlar ishtirokidagi kontsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zor kotarinkilik baxshida etgan.

A. Abdullaev, U. Ahmedov, O. Tojiboev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy- yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar. Qisqa metrajli filmlar va 10 ta badiiy film yaratildi. Y. Azamov, K. Yormatov, N. G‘aniev, S. Muhamedov kabi o‘zbek rejissarlari urush yillarida kinomatografini rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan “Nasriddin Buxoroda”, “Tohir va Zuhra” kabi fiimlar “O‘zbekfilm”ning oltin fondiga aylandi.

12.3. O‘zbekistonlik jangchilarning urush frontlarida qahramonliklari

1941-1945- yillardagi urushning barcha jabhalarida O‘zbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik mo‘jizalarini ko‘rsatdilar. Ikkinchi jahon urushi har jabhada turkistonlik jangchilar, shu jumladan, o‘zbeklarning an‘anaviy urush qobiliyatlarining saqlanib qolganligini korsatdi. Jami bo‘lib, ikkinchi jahon urushiga O‘zbekistondan 1 433 230 kishi safarbar bo‘lgan. Bu o‘sha davrdagi O‘zbekistondagi urushga yaroqli aholining 50-60 foizini tashkil etar edi. Chegara qo‘shinlarida xizmat qilayotgan sovet jangchilari orasida O‘zbekistonliklar ham ko‘pchilikni tashkil qilar edi.

Grodno yaqinida leytenant Usov, siyosiy rahbar Sharipov, Brest qal‘asi mudofaasida Ahmad Aliev, Doniyor Abdullaev, Bobokomil Kashanov, Uzoq Otaev, Madamin Xojiev kabi O‘zbekistonliklarning ko‘rsatgan jasoratlari O‘zbekiston himoyachilari qahramonona jasoratining ramzi bo‘lib qoldi, Moskva ostonalarida dushman hujumini qaytarishda general-mayor Panfilov qomondonligidagi diviziya ayniqsa matonat ko‘rsatdi, bu diviziya saflarida Toshkent piyoda askarlari oquv yurtini bitirib chiqqan 180 komandir jang qildi. Bular orasida I. Jalilov, M. Madaminov, A. Tog‘aev va boshqalar bor edi.

Kavkaz uchun bo‘lgan janglarda Toshkentda tuzilgan Sobir Rahimov qomondonligidagi diviziya frontning muhim qismlaridan

birida dushmanning oldinga siljishini to'xtatish tog'risida bosh qomondonlikdan buyruq oldi. Uzoq vaqt davom etgan janglarda S.Rahimov diviziyasi dushmanning 8 ming nafar askar va ofitserlarini qirib tashladi. Keyinchalik general S.Rahimov Kavkazdan to Sharqiy Prussiyaga bo'lgan shonli jangovor yo'lni bosib o'tdi. Gdansk shahri uchun bo'lgan janglarda Sobir Rahimov halok bo'ldi. O'zbek yigiti Botir Boboev komandirligidagi batariya Berlin yo'lidagi Oder daryosini birinchilar qatorida jang bilan kechib o'tdi va dushmanni yakson qildi. Bu jasorati uchun B.Boboev Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

Fashistlarga qarshi jang qilgan jasur razvedkachi Qahramon unvoni bilan taqdirlangan Mamadali Topibo'ldievning nomi Belorussiyada mashhur. U 67 dushman soldat va ofitserini yoq qilib, 180 kishini asir oldi. O'zbekistonlik 120 mingdan ortiq yigit, qiz urush frontlarida mardlik va matonat korsatgani uchun jangovor orden va medallarga, 338 kishi esa Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. 32 nafar O'zbekistonlik askar uchala darajadagi Shuxrat ordeni bilan mukofotlandi.

Xalqimizning fidokorona mehnatlari, jangchilarimizning qahramonona jasorati sabab nemis-fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan, uzoq vaqt davom etgan urush g'alaba bilan yakunlandi. Ittifoqchi davlatlar bilan bo'lgan kelishuv va Sharqda xavf solib turganligi sababli 1945- yil 9- avgustga o'tar kechasi sovet hukumati Yaponiyaga qarshi urush boshladi. 2- sentabrgacha davom etgan bu jangda 6770 nafar O'zbekiston jangchilari ishtirok etib, Kvantun armiyasini mag'lubiyatga uchratishdi. Yaponiyaning taslim bolishida N. Latipov, A. Karimov, U. Doniyorov kabi ko'plab hamyurtlarimiz yuksak harbiy mahorat va jangovor faolliklarini namoyon etishdi.

Katta qurbonlar evaziga bolsa ham, O'zbekistonliklar insoniyatni fashizm balosidan qutqarishga munosib hissa qoshdilar. Urushda halok bo'lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida «Xotira» kitoblari tuzildi, poytaxtimiz markazida Xotira maydoni va motamsaro ona yodgorligi tiklandi, 9-may «Xotira va Qadrlash» kuni, deb e'lon qilindi.

12.4. O'zbekiston aloqachilarining g'alabaga qo'shgan hissasi

Ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan vaziyat aloqachilar oldiga murakkab vazifalarni qo'ydi. Urush sharoitida aloqa tizimining barqaror faoliyatini ta'minlash zarur edi. Urushgacha bo'lgan yillarda Respublikada aloqa tizimining rivojlanishi yetarli darajada bo'lmay, uning moddiy-texnik bazasi qoloq holatda edi. Urushgacha mavjud aloqa tizimining o'ziga xosli, uning radial qurilishi edi (magistral,

viloyatlar va tumanlararo). Barcha aloqa liniyalari o‘zaro bog‘lanmagan bo‘lib, barcha aloqa Moskva orqali amalga oshirilgan.

Shuning uchun O‘rta Osiyoni markaz bilan bog‘lovchi magistral liniyasining shikastlanishi O‘zbekiston bo‘yicha aloqani to‘xtab qolishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, eskirab qolgan aloqa liniyalari urush davri talablariga mos kelmas edi. Urushga safarbarlik tufayli ko‘plab malakali aloqachilarning o‘rnini malakasiz kadrlar bilan to‘ldirilishi ham aloqa sifatiga salbiy ta‘sir etdi.

Ma‘lumki, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonga 100 dan ortiq korxonalar ko‘chirib keltirildi. Bu korxonalar ishini tashkil etish va jihozlash asosan respublika zimmasiga yuklatildi. Ko‘chirib keltirilgan korxonalar ichida ittifoq ahamiyatiga ega aviasozlik va mashinasozlik korxonalari bor edi. Ularni tarmoq korxonalari va boshqa hududlar bilan aloqasini yo‘lga qo‘yish juda muhim edi. 1941- yil 30- avgustdagi O‘zbekiston SSR Aloqa Xalq Komissarligining qarorida aloqachilarning urush sharoitidagi vazifalari belgilab berdi. Qarorda asosiy e‘tibor front va frontorti hududlarida aloqa tizimini aniq va uzluksiz faoliyatini ta‘minlash va aloqa qurilmalarini harbiy ehtiyojlarga yo‘naltirishga qaratildi. Shuningdek, ushbu qaror vazifalaridan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda mavjud aloqa tizimi imkoniyatlaridan to‘laligicha foydalanilib, aloqa tizimini yosh kadrlar bilan ta‘minlashga e‘tibor qaratildi.

O‘zbekistonni Markaz bilan, Respublika rahbariyatini viloyat, shahar, tumanlar, yuzlab sanoat korxonalari bilan aloqasini uzluksiz yo‘lga qo‘yishda yangi liniyalarni barpo etish zarur edi. Urush yillarida Toshkent - Samarqand-Ashxobod, Toshkent - Samarqand - Boku, Toshkent - Samarqand - Krasnovodsk, Toshkent - Samarqand - Buxoro telefon aloqa yo‘llari qurildi. 1943- yilda qurib ishga tushirilgan 500 kilometrlik telefon liniyasi orqali Respublika poytaxtini Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston bilan bog‘landi. Yirik korxonalarining o‘zlarida ham 50-100 o‘rinli telefon stansiyalari qurildi. Natijada xo‘jaliklarga rahbarlik qilish, ularga o‘z vaqtida ko‘maklashish ishlari yaxshilandi.

Urush yillarida pochta tizimi faoliyatiga ham talab kuchaydi. O‘zbekiston pochta tizimi ko‘chirilgan aholiga xizmat ko‘rsatish va frontga xat, turli posilkalarni tezlikda yetkazib berishi kerak edi. Bu muammolarni hal qilish maqsadida pochta aloqasi bo‘linmalarini malakali kadrlar bilan ta‘minlash, pochta va posilkalarni qayta ishlash bo‘linmalarini ko‘paytirish, armiya shaxsiy tarkibi va ularning oilalari

o'rtasida navbatdan tashqari aloqani tashkil etish va boshqa vazifalar belgilandi.

Urush yillarida respublikada telegraf bo'linmalari soni ikki barobar qisqargan bo'lsada, ko'rilgan choralar tufayli telegraf almashinuvi atigi 7% ga qisqardi. Hukumat organlari qarorlari bilan respublikada telegraf liniyalari sharqiy va janubi-sharqiy yo'nalishlarda rivojlantirildi. O'zbekistonda telegraf aloqasining bosh markazi bo'lgan Toshkent Bosh Telegrafi ham ishini qayta tashkil etdi. Birinchi navbatda o'zgarishlar front bilan aloqani yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan edi. O'rta Osiyo harbiy okrugini Kavkazorti fronti, shuningdek, Olma-ota va Bosh shtab bilan bo'g'lovchi telegraf liniyalari yo'lga qo'yildi. Qisqa vaqt oralig'ida (urushgacha yillar bilan solishtirganda) kunlik telegramma almashinuvi 40-45 mingga yetdi.

O'zbekiston aloqachilari bevosita frontni ta'minlashga ham hissa qo'shdilar. 1942- yil yanvarida Toshkentda aloqachilar tomonidan turli aloqa vositalari to'planib, ular asosida avtomashina kuzoviga o'rnatiluvchi RSB tipidagi ko'chma radiostansiyalar tayyorlandi va frontga yuborildi. Ushbu ishlar tashabbuskori mashhur aloqachi A.Ye. Kalyujniy bo'ldi. Radiostansiyalarni remont qilish, yig'ish va montaj qilish ishlariga muhandislardan – P. Loginov, D. Ojeredov, B. Komarov; texnik xodimlardan – P. Silantyev, O. Pavlenko, M. Babich, Ye. Stepanova va boshqalar ishtirok etdilar. Loyihaga texnik rahbarlikni Aloqa komissarligi boshqarmasi bosh muhandisi V.I. Irushkin amalga oshirdi. 1941-1945- yillarda respublika radiostansiyalari jamoalari radioaloqa va radioeshittirish uskunalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun juda katta hissa qo'shdilar hamda harbiy avtomashinalarni harakatdagi radiostansiyalar bilan ta'minladilar. Shuningdek, Moskva shahrida qurilayotgan katta quvvatli radiostansiyasi qurilishida ishtirok etdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston aloqachilarining fidokorona mehnati yuqori baholandi. O'zbekiston aloqachilaridan 11 kishi "Hurmat nishoni", 55 kishi "Mehnat a'lochisi" medali hamda 113 kishi O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi faxriy yo'liqlari bilan taqdirlandilar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston g‘alabaga qo‘shgan hissasi qanday bo‘lgan?
2. Urush yillarida respublikada xalq xo‘jaligini qayta qurilishi qaysi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan?
3. Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmni tor-mor keltirishda o‘zbekistonlik harbiylarning qo‘shgan hissasi qanday bo‘lgan?
4. Urush yillarida aloqa tizimi holati qanday bo‘lgan?

13- MAVZU. SOVET HOKIMYATINING O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA IQTISODIIY SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI (1946-1991- YILLAR)

Asosiy tushuncha va iboralar: shaxsga sig‘inish; Xrushchov; “turg‘unlik” davri; harbiy-sanoat kompleksi; “qayta qurish” siyosati; inqiroz.

13.1. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston xalq xo‘jaligi

Ikkinchi jahon urush bevosita O‘zbekiston hududida olib borilmagan bo‘lmasada, lekin respublika urush natijasida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatda edi. O‘zbekistonning urushdan keying rivojlanish rejalari Ittifoq markazida ishlab chiqarilib, aksariyat hollarda mahalliy sharoit, ijtimoiy ahvol hisobga olinmasdan iqtisodni bir tomonlama, ya’ni o‘lkani xomashyo bazasi sifatida saqlab qolishga qaratildi. Natijada O‘zbekistonning barcha tarmoqlari paxtachilikni rivojlantirishga bo‘ysundirildi.

1946-yil 2-fevralda qabul qilingan O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va rivojlantirishga oid qarori respublikada paxta yakkahokimligi siyosatini kuchaytirish uchun asos bo‘ldi. O‘zbekistonda iqtisodiyotni tiklashda, ayniqsa, paxtachilikda muammolar ko‘p edi. 1947-1948-yillarda paxta tayyorlashning davlat rejasi bajarilmadi. 1949-yildan boshlab ahvol birmuncha o‘zgardi. 1950-yili 2 mln 222 ming tonna paxta yetkazib berildi, hosildorlik gektaridan 20,7 sentnerga yetdi. 1950-yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnasiga 2200 so‘m, ya’ni avvalgidan ikki baravar ko‘p haq to‘landi.

Lekin dehqonchilikning boshqa sohalarida ekin maydonining qisqartirilgani oqibatida g‘alla va sabzavot tayyorlashda urushdan oldingi darajaga yetmadi. Ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratilsa-da, narxnavo yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari 1950-yilda 1940-yilga nisbatan deyarli ikki barobar qimmat edi. Shunday bo‘lsada, urushdan keying yillarda eng ijobiy ijtimoiy o‘zgarish kartochna tizimi bekor qilindi.

Ayniqsa qishloq aholisining moddiy ahvoli og‘ir edi. Ishchilaming oylik daromadi 64 rubl bo‘lgan bir paytda, ulamiki o‘rtacha 20 rublni tashkil etar edi. Vaholanki, urushdan keyingi xo‘jalikni tiklash va rivojlantirishning asosiy ogirligi qishloq mehnatkashlari zimmasiga tushdi. O‘zining bog‘ va mevalari bilan mashhur bo‘lgan O‘zbekiston aholisi haddan tashqari ko‘p olinadigan soliq tufayli bog‘laridan voz kechdi. Chorvadorlar shu sababga ko‘ra mol boqib foyda ko‘rmadi.

Ahvol shu darajaga yetdiki, aholining shaxsiy mollari soliq hisobiga davlat va jamoa xo'jaliklari foydasiga olindi. Oqibatda shaxsiy xo'jaliklarda chorva mollarining soni keskin kamaydi.

Respublikada paxtachilikni rivojlantirish uchun ekologik sharoitni hisobga olmagan holda kimyoviy moddalar qo'llanilishi ko'payib, yangi yerlar o'zlashtirildi. XX asrning 50-yillaridan boshlab qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish orqali paxta yetishtirishni ko'paytirishga kirishildi. Uch yil (1953-1955) ichida respublikada 130 ming gektar yangi yerlar ochildi. Birgina Mirzacho'lning o'zida 1956-yilga kelib 200 ming gektar yer o'zlashtirildi. 1960-yilda O'zbekistonda sug'oriladigan yer maydoni 2.571 ming gektarga yetdi.

Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor qaratilib, respublikada 1951-yilda 0,9 mln tonna mineral o'g'it ishlatilgan boisa, 1980-yilda uning miqdori 5 mln tonnadan oshib ketdi. G'o'za barglarini to'kish va zararkunandalarga qarshi kurashda zaharli ximikatlar (butifos, merkaptafos va b.) dan foydalanildi. Dunyo bo'yicha pestitsidlar har bir kishiga 300 gr dan, AQSHda 800 gr dan to'g'ri kelgan bo'lsa, 1989-yil respublikaning paxta ekiladigan hududlarida har bir kishiga 25-45 kg ni tashkil etdi. Aholi o'rtasida kamqonlik, gepatit va onkologik kasalliklar bilan kasallanish jiddiy ko'paydi. Yerlarning hosildorligi tushib, sho'rlanish ko'paydi.

Shunday bo'lsada, O'zbekistonda paxta yakkahokimligi siyosati tufayli yildan-yilga paxta yetishtirish ko'payib bordi. Paxta xomashyosi yetishtirish 1946-1985-yillarda 5,5 baravar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln ga dan ortdi. 1966-1986-yillar mobaynida O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 45 mlrd rubl mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 17,1 mlrd rubli sug'orish tarmoqlariga sarflandi. Shu davrda 1,5 mln ga yer o'zlashtirildi.

13.2. XX asrning 60-80- yillarida O'zbekistondagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar. Iqtisodiyotda turg'unlik belgilari

XX asrning 60-80- yillarida SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish sur'ati tobora pasayib, sarf-xarajatlari ortib bordi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan ijtimoiy, oziq-ovqat, agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalardagi dasturlar samara bermadi, iqtisodiy ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi. Sovet davlatida esa ilmiy-texnika inqilobidan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmadi. Iqtisodiyot ekstensiv yo'lda, tobora ko'p qo'shimcha mehnat va moddiy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etishda sustkashlik qilinayotgan edi. Mamlakat katta tabiiy resurslarga ega bo'lsa-da,

xo'jaliklar ularning yetishmovchiligiga duch keldi. Ko'pgina mamlakatlar fan-texnika inqilobi tufayli xalq turmushida jiddiy ijobiy burilishga erishgan bir paytda SSSR bu jarayondan orqada qolib ketdi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi eskirgan, mahsulotlarning sifati past, ular sotilmasdan omborlarda to'planib qolayotgan edi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlik va uning mafkuralashtirilishi iqtisodiyotni isloh qilish yo'lidagi urinishlarni yo'qqa chiqarar edi. Ijtimoiy ehtiyojlarga mablag ajratishda qoldiq prinsipi hukmron edi. Bular aholining mehnatga qiziqishi va faolligini susaytirdi, boqimandalik, tayyoriga ayyorlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, chayqovchilik, poraxo'rlik kabi yaramas illatlarni keltirib chiqardi.

Huquq va qonuniylikka putur etgan edi. Xo'jalikni boshqarishda 200 mingtacha turli buyruqlar, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar beruvchi qonunsimon hujjatlar hukmron bolib, ular xo'jalik xodimlarining har bir qadamini nazorat qilib, tashabbuskorlikni bo'g'ar edi. Oddiy korxonadan tumangacha, viloyatdan respublikagacha, respublikadan markazgacha haqiqiy ahvolni bo'yab ko'rsatish, barcha darajadagi rahbarlarni maqtash, ular nomiga hamdu-sanolar o'qish rasm bo'lib qolgan edi. Oqibatda, dunyoda eng kuchli ikki davlatdan biri deb hisoblanib kelingan sobiq SSSR turg'unlik holatida qoldi.

O'zbekistonda paxta yakkahokimligi siyosati tufayli yildan-yilga paxta yetishtirish ko'payib bordi. Paxta xomashyosi yetishtirish 1946-1985- yillarda 5,5 baravar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln ga dan ortdi. 1966-1986- yillar mobaynida O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 45 mlrd rubl mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 17,1 mlrd rubli sug'orish tarmoqlariga sarflandi. Shu davrda 1,5 mln ga yer o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda yangi sovxozlar 160 tani tashkil etgan bo'lsa, 20 yil davomida bu yerlarda 10,4 mln tonna paxta xomashyosi yetishtirildi.

Qishloq xo'jaligining ekstensiv yoidan rivojlantirilishi, totalitar rejimning sug'orish texnologiyasiga qo'pol aralashuvi og'ir ekologik oqibatga olib keldi. Suv zaxirasini o'ylamay yangi yerlarning o'zlashtirilishi dunyodagi eng katta koilardan biri – Orol dengizining qurishiga sabab bo'ldi. 1961- yildan 1991- yilgacha dengiz hajmi 3 baravar qisqardi, o'z qirg'og'ida 75-80, ba'zi joylarda 100 km ga chekindi. 1980- yillarning boshida Orol dengiziga suv kelishi deyarli butunlay to'xtab, nodir suv makoni quriy boshladi. Natijada tuz va qumdan iborat 2 mln gektar maydon ochilib qoldi.

13.3. Urushdan keyingi yillarda aloqa tizimi va Toshkent elektrtexnik aloqa institutining tuzilishi

O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1946- yil 3- oktyabrdagi qaroriga binoan, Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi O‘rta-Ovul mavzesida katta quvvatli radiotarqatish stansiyasini qurish uchun 88 gektar yer ajratildi va qurilish ishlari boshlab yuborildi. Qurilish ishlari quruvchilar va kelajakda radiostansiyada ishlaydigan xodimlar uchun kompleks yashash poselkasini qurishdan boshlandi. Shuningdek, bir vaqtda ikkita mustaqil ishlaydigan 6 kvattli elektr uzatgich Bo‘zsoy kaskad GESning 14-chi va 18-chi bo‘linmalari o‘rnatildi.

1949- yil dekabr oyida yuqoridagi obyektlardagi qurish-montaj va moslashtirish ishlari yakunlandi va 1950- yil 1- yanvardan boshlab, katta quvvatli RV-154, 150 kvattli, uzun to‘lqinli diapazon bilan ishlatishga mo‘ljallangan radiotarqatish uzatgichini qurish ishlari boshlandi. Antennalar ikkita 240 metr balandlikka mo‘ljallangan metall machta bilan qurildi. Mazkur radiostansiya orqali berilayotgan birinchi dasturni Respublika radiotarqatish korxonasi tomonidan O‘zbekiston hududiga (Buxorogacha) va chegaradosh respublikalarga ham tarqatish imkoniyatlari yaratildi.

Shu davrda aloqa sohasini rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan muammolardan biri – yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi edi. Respublikadagi aloqachilarning aksariyat qismi hatto o‘rta maxsus ma’lumotlarga ega emas edi. Dastlab, 1954- yilda respublikada Aloqa vazirligi tuzildi. Hamda ushbu vazirlik buyrug‘iga asosan 1955- yil iyunida Toshkent elektrtexnika aloqa instituti tuzildi. Institut yagona Telegraf-telefon fakultetidan iborat bo‘lib, undan 155 talaba tahsil olgan.

Keyingi yillarda institutda aloqa tizimi taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda yangi fakultet va kafedralar tashkil etildi. Jumladan, 1957- yilda radioaloqa va radio uzatish fakulteti hamda avtomatik elektraloqa, elektrotexnika nazariy asoslari, aloqa liniyalari kafedralari tashkil etildi. 1958- yilda institutda Ko‘p kanalli elektraloqa va 1960- yilda Radio qurilmalar kafedralari tashkil etildi.

Ko‘p yillar davomida Toshkent elektrotexnika aloqa instituti O‘rta Osiyodagi oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlovchi yetakchi markazga aylandi. Unda o‘z davrining yetakchi professor-o‘qituvchilari va olimlari ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordilar. Hozirgi kunda universitetda faoliyat yurituvchi aksariyat tajribalari ustozlarimiz ham ushbu ilm maskanini tamomlaganlar.

13.4. Urushdan keying yillarda O‘zbekistonda madaniy- ma’rifiy hayot. Ziyolilarga qarshi yangi qatag‘onlik davrining boshlanishi

Ikkinchi jahon urushi tugashidan bilan sobiq Ittifoq hududida istiqomat qiluvchi xalqlar yangi hayot qurishga umid bog‘ladilar. Ammo oradan ko‘p vaqt o‘tmay butun sobiq Ittifoq bo‘ylab ziyolilarga qarshi navbatdagi qatag‘onlar to‘lqini boshlandi. Qatag‘onlarni o‘tkazishdan maqsad urush davrida aholiga cheklangan miqdorda milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan siyosatni ortga qaytarish edi. 1949-yilning martida O‘zbekiston kommunistik partiyasining X syezdi chaqirilib, uning qarorlarida jamiyatda sotsialistik mafkuraning tazyiqini, respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalash usullarini kuchaytirish, milliy va diniy qadriyatlarga, dinga qarshi kurashish vazifalari qo‘yildi.

1949-yil 25-iyunda O‘z KP MQ ning “O‘zbekiston Sovet yozuvchilar soyuzining ishi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unda ko‘pgina yozuvchilar, olimlar, partiya va davlat arboblari, madaniyat xodimlari millatchilikda ayblandi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Shayxzoda kabi yozuvchilar tazyiqqa uchradi. 1951-yili avgustda bir guruh atoqli ijodkor ziyolilar “millatchilar”, deb matbuotda nohaq tanqid qilindi. Keyinchalik yozuvchilardan Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Said Ahmad va boshqalar uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Ularga qo‘yilgan ayblovlar ta‘sirida “millatchilik”da ayblangan yozuvchilar asarlarini chop etgan “Sharq yulduzi” jurnali ham qattiq tanqid ostiga olindi va unda ishlaydigan xodimlarning ko‘pchiligi ham “millatchi” aybi bilan qamoq jazosiga hukm qilindi. Hatto, musiqa san’atining ahvoli va uni yanada rivojlantirishning tadbirlari to‘g‘risidagi qaror asosida buyuk shoir Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlari, “Tohir va Zuhra”, “Alpomish” xalq dostonlarining afsonaviy folklor sujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va sahnalarda ko‘rsatish “zararli” ish deb baholandi.

1952-yil 21-22-fevralida bo‘lib o‘tgan O‘z KP MQ ning plenumi va uning qabul qilgan qarorlar yozuvchi va shoirlardan boshqa soha vakillarining ham tazyiqqa uchrashiga yo‘l ochdi. Jumladan, faylasuf V.Zohidov “Burjua millatchisi”, iqtisodiyotchi A.Aminov “burjua millatchilari bilan aloqa qiluvchi”lar sifatida ayblandi. Ayblanuvchilar orasida “panturkizmni targ‘ib etuvchi” aybi bilan qoralangan tarixchi olim Boboxo‘jayev ham bor edi. Umumiy holatda XX asrning 50-yillari

boshlarida yana 60 tacha O‘zbekistonning eng ko‘zga ko‘ringan qobiliyatli olim va yozuvchi, san’at arboblari qatag‘on qilindi. Faqatgina 1953-yilda Stalin o‘limi va 1956-yilfa “Stalin shaxsiga sig‘inishni fosh etilishi” bilan ular uzoq muddatli qamoq jazosidan ozod etildilar va to‘la oqlandilar.

13.5. XX asrning 80- yillari oxiri va 90- yillar boshlarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi

XX asr 80- yillarining boshidan boshlab SSSR da inqirozli vaziyat vujudga keldi. Mustabid tuzum sharoitida davlat mulki monopoliyasi, boshqaruvdagi ma‘muriy-buyruqbozli tizimi KPSSning yakka hukmronligi, inson huquqlarining buzilishi, milliy siyosatdagi xatolarning tobora kuchayishi oz salbiy oqibatlariga olib keldi: ishlab chiqarishning osish sur'atlari, yalpi mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi shiddat bilan pasayib bordi, mehnatkashlarning o‘z mulkidan begonalashishi yanada ortib bordi.

Xalq xo‘jaligini “turg‘unlik”ka olib kelgan chuqur izdan chiqish jarayonlari, xalq ijtimoiy manfaatlarining nazar-pisand qilinmasligi kabi boshqa omillar bilan birgalikda KPSSning ulkan, lekin kutilayotgan natijalarni bermayotgan siyosat butun ijtimoiy-siyosiy tizimning inqirozini oldindan belgilab berdi. Ammo Sovet tizimining asosiy xavfi shundan iborat ediki, mehnatga nisbatan qiziqtirish, tizimning nuqsonlari boqimandalik kayfiyatlarini avj olishiga olib keldi.

Markazdan boshqarishning amaldagi tizimi, uning idoralari, xo‘jalik yuritish uslub va usullari iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga sezilarli turtki bolishga, keskin ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir emasligi yaqqol ayon boib qoldi. Ijtimoiy hayotda jiddiy ozgarishlar yasash zarurligini butun jamiyat aniq-ravshan anglab yetdi. 1985-yilning aprel oyida KPSS MQning Plenumi sovet jamiyatini tubdan qayta qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloh qilish yolini e‘lon qildi. 1985-1986- yillarda SSSRda “mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish” siyosati olib borildi. Uning maqsadi-ilmfan va texnika taraqqiyotidagi yutuqlarga asoslanib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yaxshilash edi. Ammo bu siyosatda ilgari surilgan vazifalarni bajarish borasida dastlabki urinishlar jiddiy natija bermadi.

Jamiyatning iqtisodiy sohada tub o‘zgarishlarni amalga oshirmasdan, yaxshi natijalarga erishib bolmaydi. 1987- yildan boshlab yangi «qayta qurish» siyosati e‘lon qilindi. Uning maqsadi iqtisodiy sohalarni erkinlashtirib, jamiyatda demokratlashtirish jarayonini amalga

oshirib, sotsialistik jamiyatni yangilashtirish edi. Iqtisodiy islohotlarni olib borish uchun boshqarishning ma'muriy usullaridan ko'proq iqtisodiy usullariga otish, korxonalarni xo'jalik hisobiga otishi, ularga ko'proq mustaqillik berish, mehnat jamoalarning boshqaruvida ishtirok etishi choralari nazarda tutilgan edi.

Sovet iqtisodiyotini "qayta qurish" uchun bir qator hujjatlar qabul qilingan edi. Ammo boshqa qonunlarni tuzib chiqishdagi uslubiy yondashuvlarning o'zi «sotsialistik xo'jalik yuritish», direktiva asosida rejalashtirish va davlat mulkining barcha shakllariga hukmron bolishi zarurligi kabi avvalgi eski tasavvurlarga asoslangan edi. Korxonalarning cheklangan mustaqilligi obyektiv iqtisodiy qonunlar amal qilishiga imkon bermas edi. Korxonalarni to'liq xo'jalik hisobiga va o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tkazish ham o'zini oqlamadi, chunki "sotsialistik xo'jalik yuritish" tizimi, rahbarlarning buyruqbozlik usullari obyektiv jihatdan sog'lom tovar-bozor munosabatlarning namoyon bolishiga tosqinlik qilardi.

Odat bo'lib qolgan kompaniyabozlik xo'jalikni boshqarish mexanizmini qayta qurishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina tarmoqlarda xo'jalik hisobini tashkil etish xoja ko'rsinga qilindi. Eskicha uslubda yondashuvlar ta'siri shunga olib keldiki, hatto amaldagi xo'jalik yuritish oddiy bir kontseptsiyasi taklif qilinmagan edi. Mo'ljallangan islohotlarning tub mohiyati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvur ham qaror topmagan edi. "Qayta qurish" islohotlari turkumi subyektiv tarzda, faqat ichki his-hayajonga asoslanib, sinovlar va xatolar usul-amal bilan bir taraflama ish olib borildi. Sovet rahbariyati aniq ilmiy jihatdan savodli ishlab chiqilgan, siyosiy jihatdan asoslab berilgan dasturga ega bolmagan. Shuning uchun ham SSSR iqtisodiyoti kutilgan natijalarni bermadi.

Shu bilan birga, Markaz o'zining ko'pgina nuqsonlarini respublikalar zimmasiga yuklashga intilardi, hatto ularni ishlab chiqarishning umumiy inqirozi, pulning qadrsizlanishi sharoitida ham oziq-ovqat bilan, xalq iste'mol mollari va moddiy resurslar bilan o'zlarini ta'minlashga majbur qildi. Bu hol vujudga kelgan xo'jalik aloqalarining buzilishiga, tovar ayirboshlash tadbirlarining natura (barter) shakliga otishiga olib keldi. Respublikalar o'rtasidagi xo'jalik aloqalar buzilib, mahalliy sanoat ishlab chiqarishi pasayib bordi, tovarlar taqchilligi kuchayib bordi va aholining yashash darajasi pasaydi. Iqtisodiy inqirozning chuqurlashishi SSSR va KPSS rahbariyatini siyosiy islohotlarni boshlashga majbur qildi.

Bu davrda asosiy masala sovet jamiyatining siyosiy tizimini isloh qilish edi. Mavjud bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv apparatni buzib, siyosiy tizimni liberallashtirish lozim edi, ya'ni KPSS monopoliyani bartaraf qilish, siyosiy plyuralizmga erishish, hokimiyatni partiya qo'mitalaridan Sovetlarga topshirish edi. Respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan eski siyosiy tizimni bartaraf etish uchun 1990- yil 6- avgustda M.S. Gorbachevning "Yangi Ittifoq Shartnomasining asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga otishning Ittifoq dastur – Konsepsiyasini tayyorlash haqida" farmoyishi e'lon qilindi.

XX asr 80- yillarining oxiriga kelib SSSRda e'lon qilingan oshkoralik siyosati natijasida sovet kishilarining siyosiy ongi, ularning siyosiy faolligi kuchayib bordi, norasmiy jamoa tashkilotlari paydo bo'lib, yangi oliy organ Xalq deputatlari syezdi o'tkazila boshlangan edi. Markaz bilan ittifoqdosh respublikalar ortasida vakolatlarni bo'lib olish yuzasidan muzokaralar boshlangan edi.

1990- yil oxirida SSSRning davlat yaxlitligiga ancha tahdid solgan voqea ro'y berdi. Litva, Latviya, Estoniya, Gruziya, Ozarbayjon uning tarkibidan chiqib ketdi. Bu esa Markaz bilan qolgan ittifoqdosh respublikalar bilan Yangi Ittifoqdosh Shartnomasi tuzib, imzolashga majbur qildi. 1991- yil iyun oyiga kelib Ittifoqdosh Shartnomaning loyihasi ishlab chiqilib, 20- avgustda uning imzolanishi rejalashtirilgan edi. Lekin KPSS MQ va ittifoq idoralari (Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklari, KGB va boshqalar)ning bir qancha rahbarlari vitse-prezidenti G.Yanaev boshchiligida SSSR Prezidenti M.S.Gorbachevni zo'rvonlik bilan o'z vazifasidan chetlashtirib, 1991- yil 19- avgust kuni favqulodda holat davlat qo'mitasini tuzib (GKChP), hokimiyatni o'z qo'liga olishdi. Bu davlat to'ntarishini amalga oshirish harakati edi.

Ularning maqsadi Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga, o'z taqdirini o'zlari hal qilishlariga yol qoymaslik edi. Ammo qayta qurish yillarida ko'zi ochilgan xalqni endi eski tuzum doirasida qoldirishga, unga eskicha buyruqbozlik qilishga urinish behuda edi. 1991- yil 21- avgustda xalqning qarshiligiga uchragan fitnachilar taslim bolishga majbur bo'ldi. SSSRning iqtisodiyotida o'rnashib qolgan illatlar O'zbekiston iqtisodiyotiga ham zarar etkazgan edi. 80- yillarga kelib O'zbekiston asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ittifoqda oxirgi o'rinlardan birini egallar edi. O'zbekiston iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlanib borgan. U asosan SSSRning xomashyo bazasiga aylangandi. Natijada respublikada

sanoatning xomashyoga birlamchi ishlov berish bilan bog‘liq tarmoqlari ko‘proq rivoj topgan. Paxta bo‘yicha rejalarning bajarilishi partiya va Sovet organlari rahbarlarining ustivor vazifasi hisoblangan. Paxta yetishtirishning salmog‘i, hatto chor Rossiya davrida (1913- yilda) 33,2% tashkil etgan.

Sovet davrida esa umumiy yer maydonlarining 75 foizini paxta tashkil qilgan. O‘zbekistonning amalda paxta etishtirishni ko‘paytirish imkoniyati tugagan bir sharoitda Markaz O‘zbekistonda 2000- yilga borib paxtaning yalpi hosilini 8 mln. tonnaga etkazish dasturini ishlab chiqdi. Adolatsiz narx siyosati ham O‘zbekiston xalqining turmush darajasiga putur etkazar edi. Bunga SSSRdagi ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi va respublikaning o‘z manfaatlari, xalqining manfaatlari bilan hisoblashmaydigan siyosati sabab edi. Bu siyosat orqali SSSRda ko‘zboyamachilik, poraho‘rlik, laganbardorlik kabi illatlar kuchayib bordi. Barcha darajadagi ba‘zi xo‘jalik rahbarlari hokimiyatni, xizmat lavozimini suiste‘mol qilar, g‘arazli manfaatlarini oylab yashar edi. Ammo bu nuqsonlar Markaz tomonidan olib borilgan ma‘muriy-buyruqbozlik siyosatning oqibati edi.

1984- yildan boshlab KPSS MK rahbarligining topshirig‘i bilan O‘zbekistonga prokuratura xodimlari T. Gdlyan va Ivanov boshchiligida katta guruh tergovchilar yuborilib, “paxta ishi” nomini olgan jinoiy ish qo‘zg‘atilgan edi. Markaziy matbuotda bu “O‘zbek ishi” degan nom olgan. Jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida Moskvadan va boshqa respublikalardan O‘zbekistonga ketma-ket turli tergov guruhlari yuborildi. Respublihamizga har xil joylaridan rahbar kadrlar kela boshladi. 1985- yilda boshlangan “qayta qurish” siyosati xalqimizda o‘z hayotini yangilashga, uni yaxshilashga bo‘lgan umidni uyg‘otgan edi.

Biroq puxta o‘ylab korilmagan qarorlar, ularni joriy qilishdagi jiddiy nuqsonlar, ma‘muriy siquvning davom etishi, “qayta qurish”ning puxta ishlab chiqilgan konsepsiyasining yo‘qligi, xo‘ja-ko‘rsinga olib borilayotgan tadbirlar, markaz tomonidan o‘ylab topilgan “paxta ishi” tufayli yuz berayotgan qonunbuzarliklar respublikaning ijtimoiy-siyosiy ahvolini yanada murakkablashtirdi. Ziddiyatli “qayta qurish” siyosati oqibatda respublikalar orasida iqtisodiy aloqalarning buzilishiga olib keldi, O‘zbekiston iqtisodiyotidagi tangchilik holati chuqurlashib bordi, sanoat ishlab chiqarishining va qishloq xo‘jaligi samaradorligi pasayib bordi.

1989- yil 23- iyun oyida O‘zbekiston MQ ning birinchi kotibi lavozimiga I.A.Karimov saylandi. Uning tashabbusi bilan 1989- yil

avgust oyida qishloq aholisiga 90,7 ming gektar yer ajratildi, shu bilan 1,5 mln. ko'proq oilaning tomorqa uchastkalari kengaytirildi, 580 ming oila unga ega bo'ldi. O'z mustaqilligiga intilayotgan O'zbekistonning keyingi qadami 1989- yil 21- oktyabrda O'zbekiston Oliy Kengashning XI sessiyasida "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi edi. Partiya yakka hukmdorligini bartaraf etish va hokimiyatni xalq deputatlariga qaytarib berish uchun 1990- yil 24- martda XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashning I sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, prezidentlik lavozimini joriy qilish to'g'risidagi qaror qabul qilindi va I.A. Karimov ittifoqdagi respublikalar orasida birinchi bo'lib Prezident bo'lib saylandi.

O'z suverenitetini tiklashda 1990- yil 20- iyun kuni respublika Oliy Kengashining II sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston SSR "Mustaqillik Deklaratsiyasi" muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida "O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir", deb yozib qo'yilgan. Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. Shunga muvofiq, 1991- yil 22- iyul kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qaroriga binoan respublikada joylashgan ittifoqqa bo'ssinuvchi davlat korxonalari va muassasalari O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tkazildi.

Mazkur mavzuni yoritishda talabalarning diqqat-e'tiborini shunga qaratish kerakki, 1990- yil 20- iyun kuni qabul qilingan "Mustaqillik Deklaratsiyasi" va 1991- yil 31- avgustda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi qonun bir-biridan farq qiladi. "Mustaqillik Deklaratsiyasi"da yangilangan SSSR tarkibida qolgan, o'z suverenitetini tiklagan O'zbekiston haqida gap ketgan. 1991- yil 31- avgustda qabul qilingan Qonunda esa SSSR parchalanib ketganligi va mustaqil davlatga aylangan O'zbekiston haqida gap ketgan. Bunday Qonunning qabul qilinishi Mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Oliy Kengash O'zbekiston Konstitutsiyasini tayyorlash komissiyaga O'zbekistonning yangi Davlat bayrog'i, Gerbi va Madhiyasini tayyorlash vazifasini topshirdi. Shu tariqa xalqimiz azaliy, asriy maqsadiga O'zbekistonimiz Mustaqilligiga erishdi. Dunyo haritasida yangi mustaqil davlat O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Nima uchun urushdan keyingi XX asr 50- yillarida totalitar rejim kuchaydi?
2. Siyosiy qatog'onliklarning yangi to'liqinida kimlar qurbon bo'ldi?
3. 1946-1960-yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligi qanday rivojlangan?
4. O'zbekiston sanoatida qanday siyosat olib borildi?
5. O'zbekiston qishloq xo'jaligida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
6. O'zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida qarama-qarshiliklar qay tariqa paydo bo'ldi?

14-MAVZU. O‘ZBEKISTON DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH VA FUQAROLIK JAMIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

Asosiy tushuncha va iboralar: mustaqillik; referendum; huquqiy-demokratik davlat; fuqarolik jamiyati; siyosiy partiya; NNT; mahalla; Омбудсман; Oliy Majlis; Qonunchilik palatasi; Senat; Harakatlar strategiyasi.

14.1. O‘zbekiston davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi mustaqillikning huquqiy asoslarining barpo etilishi

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkam laydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turardi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinaajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. O‘zbekiston o‘z rivojlanishida qo‘ygan asosiy maqsadi-bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyat asoslarini barpo etishdir.

E‘lon qilingan maqsadlarga avvalgi tuzumni tubdan buzib tashlamasdan, o‘tmish odatlaridan voz kechmasdan erishib bolmasdi. Shu tufayli o‘z maqsadiga erishish uchun biz quyidagi asosiy vazifalarni hal etishimiz lozim edi:

1. Eski ma‘muriy-buyruqboziik tizimini, unga muvofiq bo‘lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish.

2. Yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish. O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini, avvalo, mamlakatda yaratilayotgan jamiyat qanday mazmun kasb etishga e‘tibor berdi.

Yangi siyosiy, iqtisodiy tizimni barpo qilishda, yangi davlatni tashkil etishda asosiy vazifalardan biri uning huquqiy poydevorini yaratishdir. Har bir suveren davlatning huquqiy asoslaridan biri, uning asosiy Qonuni – Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi 1990- yil 20- iyunda “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ning qabul qilinishi munosabati bilan ilgari surilgan edi. Buning uchun I.A.Karimov raisligida 64

kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash boyicha komissiya tuzilgan edi.

1991- yil oktyabr-noyabrda Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti tayyorlandi. Ammo 1991- yil 31- avgustda O‘zbekiston Mustaqilligi e‘lon qilinishi bilan, vaziyat o‘zgarib loyihaning ikkinchi varianti ustida ish boshlandi. 1992- yil bahorida loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi va shu- yilning 26- sentyabrda umumxalq muhohamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi. Tushgan taklif va mulohazalarni hisobga olib, Konstitutsiyaviy komissiya loyihani qaytadan tuzib, 1992- yil 21- noyabrda muhohamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e‘lon qildi.

1992- yil 8- dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” qabul qilindi. U 128 moddadan, 6 bolimdan iborat edi. Faqat milliy istiqlol, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O‘zbekistonning tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qiluvchi chinaham demokratik Konstitutsiyasini yaratishga tarixiy imkoniyat vujudga keldi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi quyidagi tamoyillarga tayanadi;

- Davlat suvereniteti;
- Xalq hokimiyatchiligi;
- Fuqarolar huquqlari va erkinliklari;
- Davlat hokimiyatining bo‘linishi;
- Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan voqea bo‘ldi. U mamlakatda huquqiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlar uchun asos bo‘ldi. Konstitutsiya barqarorligini va uzoq muddat amal qilishini ta‘minlash maqsadida Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilgan.

Demokratik huquqiy davlatni tuzish uchun eng avvalo davlat boshqaruvining hozirgi zamonaviy tizimini shakllantirish talab qilinadi. Davlat boshqaruvi xususida tuzilayotgan tizimning asosi prezident boshqaruvi bo‘ldi. Prezidentlik boshqaruvi, mustaqil davlat va respublikadagi ijrochi hokimiyatning boshlig‘i bolmish Prezidentning haq-huquqlari va vakolatlari Prezidentni umumxalq tomondan saylanishida tasdiqlanadi (Konstitutsiya, XIX bob, 89-90 moddalar).

Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi ijroya hokimiyati Prezidentlik hokimiyati va Vazirlar Mahkamasidan iborat Respublika

Prezidenti qoshida ijro etuvchi hokimiyat devoni tuzilgan bo‘lib, unga Prezident rahbarlik qiladi. Vazirlar Mahkamasi Prezident tomonidan tuzilib, parlament tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi 1990-yil noyabrda tashkil topib, mustaqillikka erishgandan so‘ng davlat mustaqilligini ta‘minlovchi organlardan iborat: Mudofaa Vazirligi, Milliy xavfsizlik Xizmati, Ichki Ishlar Vazirligi, davlat bojxona va soliq qo‘mitasi, shuningdek tashqi aloqalarni ta‘minlovchi organlar vujudga keldi:

Tashqi ishlar Vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi Milliy Bank, Iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlovchi organlar: Davlat statistika qomitasi, Respublika ulgurji va birja savdosi aksionerlik assotsiatsiyasi, Respublika xomashyo birjasi, Moliya Vazirligi va boshqalar.

Ijro etish hokimiyatining faoliyati parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan belgilanadi. Huquqiy demokratik davlatning asosiy tamoyillaridan biri – Qonun ustuvorligidir. Demokratik jamiyat hayotida qonunning o‘rni beqiyos. qonunlarning sifati ularni qabul qilayotgan parlament a‘zolariga bog‘liq bo‘ladi. Ma‘lumki, 1990- yil 18-fevralda O‘zbekiston Oliy Kengashining navbatdagi yangi tarkibi saylandi va u 1990-1994- yillarda faoliyat korsatdi,

Oliy Kengash sovet davrining koldigi bo‘lib, shu bilan birga O‘zbekistonning mustaqilligini ta‘minlashda yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirishda muhim rol oynadi. 1990-1994- yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi. Ammo yangi demokratik davlat, Fuqarolik jamiyatini barpo qilish uchun yangi turdagi, zamon talabiga javob beradigan parlamentni tashkil qilish kerak edi. 1993- yil 28- dekabrda bo‘lib o‘tgan Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar tog‘risida”; 1994- yil 22- sentyabrda bo‘lib otgan XVI sessiyada “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tog‘risida” qonunlar qabul qilindi.

Oliy Majlisga 250 deputat saylandi. Bu yangi parlamentni demokratik yo‘l bilan shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi ilk tajribasi bo‘ldi. Oliy Majlis o‘zining shakllanishi, faoliyat ko‘rsatishi, ish yuritish tartiblari bilan avvalgi Oliy Kengashdan farq qiluvchi Oliy davlat o‘rganidir:

– Oliy Majlis deputatlar saylovi ko‘ppartiyaviylik va muqobillik asosida o‘tkazildi.

– Saylovlar tashkil qilishda sinfiy yondashuv nodemokratik tamoyil sifatida rad etildi.

– Oliy Majlis doimiy amal qiluvchi parlament sifatida faoliyat yuritmoqda, ya'ni deputatlarning bir qismi parlament tarkibida doimiy ishlamoqda.

2002- yil 27- yanvar kuni O'zbekistonda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijasiga tayanib ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tog'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonunlar asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritildi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XVIII-XX boblar). 2004- yil 26- dekabrda ikki palatali Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov bo'lib otgan. Unda beshta partiya (XDP: "Adolat", "Milliy tiklanish", "Fidokorlar", "O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi") ishtirok etgan.

Ikki palatali Oliy Majlisga bo'lgan saylovdan quyidagi xulosa kelib chiqadi:

– saylovlar biz uchun chinaham demokratiya maktabi, xalqimizning siyosiy saviyasini oshirish uchun sinov bo'lgan;

– ikki palatali parlamentga saylovlar o'tkazish tizimi va jarayonining o'zi mavjud siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari faolligi va mas'uliyatining ortishiga olib keldi;

– saylovlar saylovchilarning siyosiy va fuqarolik saviyasining yetukligini namoyon qildi;

O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirishdan ko'zlangan maqsadlar quyidagidan iborat:

– parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qonunlar, qarorlar qabul qilinishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish;

– parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish;

– siyosiy partiyalarning faolligini, jamiyatdagi tutgan o'rini oshirish uchun;

– Senat tarkibining asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bolishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishish;

– aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki qolami va faolligini yanada kengaytirish.

Fuqarolik jamiyatining keyingi rivoji saylov qonunchiligini takomillashtirishni taqozo etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, Mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan saylov qonunchiligi bir qator va qonunosti hujjatlaridan iborat bo‘lsa-da, afsuski, hanuzgacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmaganligi ta’kidlanib, xalqaro norma va standartlarga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasining saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish vazifasi qo‘yildi. 2019-yilning iyun oyida 18 bob, 103 moddadan iborat “Saylov kodeksi” qabul qilindi. Shu kodeks asosida 2019-yilning 22-dekabr hamda 2020-yilning 5-yanvarida Oliy Majlis Qonunchilik Palatasiga o‘tkazilgan saylovlarda respublika tarixida birinchi bor 5 ta partiya ishtirok etdi.

14.2. 2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining tahlili, bugungi kunda jahon bozori talabi keskin o‘zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga

oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi.

Davlat dasturining **“Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish”** deb nomlangan **birinchi yo‘nalishini** amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o‘zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'ldi. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Davlat dasturining **“Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish”** deb nomlangan **ikkinchi yo‘nalishi** qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida prosessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo‘nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy

davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yoʻlga qoʻyish chora-tadbirlarini roʻyobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini taʼminlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi toʻgʻrisidagi murojaatlarning, xabarlarining oʻz vaqtida olinishini taʼminlash nazarda tutilmoqda. Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash boʻyicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Shuningdek ushbu yoʻnalish 2018-2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini oʻqitish, tanlash va joy-joyiga qoʻyish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini eʼlon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYo organlarini isloh qilishni ham oʻz ichiga oladi.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan **uchinchi yoʻnalish**da koʻrsatilgan chora-tadbirlarni roʻyobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini taʼminlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga moʻljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq maʼmurchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, koʻp tarmoqli fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek ushbu yoʻnalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xoʻjaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik koʻrish chora-tadbirlarini ham oʻz ichiga oladi.

2017-2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini roʻyobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5-

yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

“Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan **to‘rtinchi yo‘nalish** aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta‘minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta‘lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro‘yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o‘rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta‘minlash dasturlarini to‘liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o‘rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta‘lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta‘minlash rejalashtirilmoqda.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta‘minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta‘minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo‘llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo‘nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilmoqda.

“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan **beshinch** yo‘nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini

takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yoʻnalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir “Yoʻl xaritalari”ni ishlab chiqish, Oʻzbekistonning xorijiy hamkorlar bilan 2017-yilga moʻljallangan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion soʻm va 8,3 milliard AQSh dollari yoʻnaltiriladi. Kelgusi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yoʻnalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish boʻyicha Milliy komissiya tuzilmoqda.

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar toʻliq, oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yoʻnalishining har biri boʻyicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan. Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018-2021-yillarga moʻljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish boʻyicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash ham yuklatilmoqda.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi Oʻzbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash yoʻlidagi harakatlarga yangi kuch bagʻishlaydi.

Harakatlar strategiyasini hayotga amalda tadbiq etishda, xalqimizga bevosita islohotlar natijalarini koʻrsatib berishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining har yillik Oliy Majlisga **Murojaatnomalari** muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019- yil uchun moʻljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarga urgʻu berdi:

- ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl sektorini jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash;
- “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;
- valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh. Mirziyoyev 2019-yil 31-dekabrda O‘zbekiston xalqiga yangi yil tabrigida xalqimizning fidokorona mehnati bilan “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da ulkan yutuqlarga erishilganligi hamda mamlakatimiz salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida yangi qadamlar qo‘yilganligi ta‘kidlandi.

14.3. Yoshlarni ma‘naviyatini yuksaltirish, ularning vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 TASHABBUS

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdilar:

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.

Birinchi tashabbus bo‘yicha Sh. Mirziyoyev joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san‘at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini o‘rganib, ularning faoliyatini yaxshilash bo‘yicha topshiriqlar berdilar.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta‘limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta‘lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo‘shimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Tashabbuskor iste‘dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar klublari” tashkil qilish zarurligi ta‘kidlandi.

Atoqli san‘atkor va iste‘dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko‘makchi sifatida birlashtirish yaxshi natija berayotganini inobatga olinib, bu tajribani butun respublikaga yoyish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilib, o‘sha joylarda madaniyat va san‘atni rivojlantirishga mas‘ul bo‘ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi

Musiqa va san‘at sohasida oliy ma‘lumotli kadrlarni ko‘paytirish masalasiga ham e‘tibor qaratildi. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim hamda Xalq ta‘limi vazirliklariga muayyan mavzular bo‘yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o‘tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinib, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o‘rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag‘lar manbasini aniqlash vazifasi qo‘yildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruktsiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun‘iy qoplamali maydonlar qurish,

tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar-o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Uchinchi tashabbus bo'yicha videoselektorda yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarida Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish bo'yicha innovatsion ko'nikmalar beriladi, "startap" loyihalarga yordam ko'rsatiladi.

Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari bo'lishiga qaramasdan, internet xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o'yinlari markazlarini tashkil etish, ularda yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

To'rtinchi tashabbus bo'yicha yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi. Sh. Mirziyoyev mutasaddi vazirlik va uyushmalarga "Kitob karvoni" loyihasi doirasida badiiy, ma'rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million

nusxadan kam bo‘lmagan miqdorda yetkazib berish bo‘yicha topshiriq berdi.

Yig‘ilishda mahalliy hokimliklar har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do‘koni tashkil etishi kerakligi ta‘kidlandi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga barcha shahar va tumanlarda ko‘chma kitob pavilyonlarini joylashtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda “Bibliobus”larni yo‘lga qo‘yish orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmati ko‘rsatish vazifasi qo‘yildi.

Beshinchi tashabbus bo‘yicha yig‘ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalari ham muhokama qilindi. Shu maqsadda 2019-2020 yillarda barcha tumanlarda sendvich panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonalarini qurish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko‘p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan.

Prezident Sh. Mirziyoyev mehnat qilish istagidagi ayollar ish o‘rinlari sonidan ancha ko‘pligini hisobga olib, korxonalarda ishni 2 smenada tashkil etish, ularda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta‘kidladi.

Yig‘ilishda qayd etilgan 5 ta tashabbusni keng joriy qilish maqsadida barcha hududlarga mutasaddi rahbarlar mas‘ul qilib birlashtirildi. Shuningdek, bu vazifalarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, Toshkent shahri, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimlari, “Nuroni”y”, “Mahalla” jamg‘armalari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ittifoqi rahbarlari shaxsan mas‘ul va javobgar etib belgilandi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining huquqiy asoslarini yaratishda qanday asosiy hujjatlar qabul qilindi?
2. Mustaqillik yillarida qonun ustivorligini ta‘minlashda qanday ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi?
3. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini shakllantirish jarayonini tushuntirib bering.
4. Ikki palatali parlamentning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Mustaqillik yillarida qanday yangi davlat organlari tashkil topdi?
6. Boshqaruv sohasidagi islohotlar nimalarda aks etdi?

7. 2017-2021- yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishlari haqida ma’lumot bering?
8. Prezident Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qanday muhim masalalar ilgari surildi?

15- MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA’NAVIIY-MADANIY TARAQQIYOT. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI.

Asosiy tushuncha va iboralar: bozor iqtisodiyoti; liberallashtirish; modernizatsiya; infrastruktura; axborot texnologiyalari; Internet; axborot tahdidi; mobil aloqa; telekommunikatsiya; elektron hukumat; ma’naviy qadriyatlar; tarixiy meros; diniy qadriyatlar; xalqaro hamjamiyat; geosiyosat.

15.1. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning boshlanishi va bozor iqtisodiyoti asoslarining yaratilishi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o‘ta murakkab edi. Mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston sovet tuzumi davridagi iqtisodiyot asosini tashkil etgan rejalashtiruvchi siyosatdan voz kechdi va bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanladi. Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil taraqqiyot yo‘li, bir xil andoza bo‘lishi mumkin emas. Har bir davlat o‘zining tarixiy-taraqqiyot an‘analari, milliy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z yo‘li, o‘z modelini ishlab chiqishi lozim. O‘zbekiston ham ana shu umumiy dastur va umumiy qonuniyat mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishga imkoniyat beradigan o‘z yo‘lini tanlab oldi.

Bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki davridan respublika hukumati va Prezidenti tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, davlat pensiya ta‘minoti, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash haqida va boshqa shu kabi respublika qonunlari, hukumat qarorlari va Prezident farmonlari qabul qilindi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy strategik maqsadi avvalo, kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan, kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etishdir. Bozor munosabatlariga o‘tish davrining birinchi bosqichi mustaqillik kundan milliy valyutani muomalaga kiritishgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda ikkita asosiy vazifa hal qilindi. Birinchidan, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini yengib o‘tildi, tanglikka barham berildi va iqtisodiyot barqarorlashtirildi. Ikkinchidan,

bozor munosabatlarining huquqiy negizlari shakllantirildi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning huquqiy-iqtisodiy negizlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi.

Islohotlarning birinchi bosqichida Oliy Kengash tomonidan iqtisodiyotga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga xususiylashtirish chog‘ida imtiyozlar tizimi yaratildi. Xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasining xodimlariga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotib olish imkoniyati berildi. Eskirgan asosiy fondlar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari yangi mulkdorga tekinga topshirildi. Qishloq xo‘jaligi davlat xo‘jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog‘lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirildi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy strategik maqsadi avvalo, kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan, kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etishdir. Bozor munosabatlariga o‘tish davrining birinchi bosqichi mustaqillik kundan milliy valyutani muomalaga kiritishgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda ikkita asosiy vazifa hal qilindi. Birinchidan, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini yengib o‘tildi, tanglikka barham berildi va iqtisodiyot barqarorlashtirildi. Ikkinchidan, bozor munosabatlarining huquqiy negizlari shakllantirildi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning huquqiy-iqtisodiy negizlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi.

Islohotlarning birinchi bosqichida Oliy Kengash tomonidan iqtisodiyotga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga xususiylashtirish chog‘ida imtiyozlar tizimi yaratildi. Xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasining xodimlariga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotib olish imkoniyati berildi. Eskirgan asosiy fondlar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari yangi mulkdorga tekinga topshirildi. Qishloq xo‘jaligi davlat xo‘jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog‘lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirildi.

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi O‘zbekistonni tadrijiy taraqqiyot yo‘liga qaytishiga imkoniyat yaratdi. “O‘zbek modeli” konsepsiyasi asosida boshlangan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar respublikada tadbirkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bir necha bosqichlarda olib borildi.

Birinchi bosqich – 1991-1996- yillar. Bu bosqichda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hamda bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosi bo'lgan kichik mulkdorlar sinfining shakllantirilishidan boshlandi. Shu bilan birga, bu bosqichda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit, xususiy mulkni himoya qilishning konstitutsiyaviy huquqlari va kafolatlarini ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich – 1996–2000- yillar. Ushbu bosqichda keng qamrovli xususiylashtirish amalga oshirildi, iqtisodiyot sohalariga xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatlari kengaytirildi, dastlabki xususiy tijorat banklari va bankdan tashqari moliya institutlari (kredit uyushmalari) o'z faoliyatlarini boshladi. 1996- yilda xalqaro iqtisodiy makonda yuz bergan paxta inqirozi uning narxini pasayib ketishiga, ayni vaqtda respublika iqtisodiga valyuta tushumini ta'minlab turgan ushbu xomashyoning eksportidan tushadigan daromad shu- yilning o'zida 15% qisqarishiga sabab bo'ldi.

1998-1999- yillardagi noqulay ob-havo sharoiti paxta hosildorligiga jiddiy zarar yetkazdi, natijada uning eksporti 25% ga qisqardi. Bunga javoban mamlakat hukumati e'tibori import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va bu davrda katta qiyinchilik bilan topilayotgan valyuta zaxirasini saqlab turishga, undan unumliroq foydalanishga qaratildi.

Uchinchi bosqich – 2000-2016- yillar. Mazkur bosqichda xususiy tadbirkorlikni keng ko'lamda rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va uni kafolatlashga qaratilgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2000- yilda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonun bilan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmi soddalashtirildi, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar taqdim etildi, tadbirkorlarning imtiyozli kredit olish uchun huquqlari mustahkamlandi.

2008- yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan kichik biznes subyektlarining tijorat banklari kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi yanada pasaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015- yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni

yanada chuqurlashtirish choralari to‘g‘risida”gi va “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofi iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va modernizatsiyalash hamda mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

To‘rtinchi bosqich – 2016- yildan boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016- yil 5- oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofi tadbirkorlikni yanada jadal rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi. 2018- yil tasdiqlangan “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili – davlat dasturi”da tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga ikki yil muddatga moratoriy (to‘xtab turish) e’lon qilindi.

2019-yilda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da mamlakatimiz salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida yangi qadamlar qo‘yildi. Iqtisodiyotimizning yetakchi soha va tarmoqlari jadal rivojlandi. Yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar, yangi transport tizimlari ishga tushirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochildi. 2019-yilda ming-minglab yurtdoshlarimiz, jumladan, kam ta’minlangan oilalar shinam uy-joylarga ega bo‘ldilar.

Ilm-fan, ta’lim va tarbiya sohasida tub burilish davri boshlandi. Yangi-yangi bog‘cha va maktablar, oliy o‘quv yurtlari, yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari, shifoxonalar, madaniyat va sport maskanlari bunyod etildi. Eng muhimi, odamlarimizning hayot darajasi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, ertangi kunga ishonchi tobora kuchaymoqda. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, ochiqlik va erkinlik muhiti chuqur qaror topmoqda.

15.2. Mustaqillik yillarida axborot-texnologiya texnologiyalarining rivojlanishi

Axborot texnologiyalari hozirgi kunda butun dunyoni qamrab oldi. U ilmiy-texnik rivojlanishning harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lib, xalq xo‘jaligining turli sohalarining rivojlanishiga, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini kengaytirishga ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Bugungi kunda Axborot Texnologiya (AT)larining yutuqlarisiz dunyoni tasavvur etib bo‘lmaydi. ATl yutuqlarini qo‘llashning chek chegarasi amaliy jihatdan mavjud emas. U ham meditsinada (telemedisina), ta’limda (masofaviy o‘qitish

texnologiyalari), gidrometeorologiyada, aloqada, transport tizimida, bank va boshqa xalq xo'jaligining tarmoqlarida keng iste'molda. Bir necha o'n- yillar oldin bir korxonadan ikkinchi korxonaga, bir viloyatdan boshqasiga pul o'tkazish birnecha kunni talab etgan bo'lsa, hozirda bu muomala bir necha daqiqalarda amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu iqtisodiy o'sish mexanizmi, hamda boshqa sohalarda iqtisodiy jarayonlarni sezilarli darajada o'zgartirib va intellektual inson mehnat mahsuloti, ma'lumotlaridan foydalanish va bilimlarga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotni shakllantirishga ta'sir ko'rsatishni davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri, tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'li bilan milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida tub o'zgarishlarni, birinchi navbatda zamonaviy yuqori texnologiyali xizmatlar, shuningdek, yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada, boshqaruv tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

O'zbekistonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, hayotning barcha javxalarida innovatsion usullar bilan bog'liq bo'lgan yuksak salohiyatli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Bugungi kunda respublikamiz AKT sohasidagi eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida tan olingan. 2017- yilda Halqaro elektraloqa ittifoqi ("Axborot jamiyati o'lchovi") ma'lumotlariga ko'ra, 2016- yil bilan taqqoslanganda mamlakatimiz AKTni rivojlanish indeksi bo'yicha sakkiz pog'onaga ko'tarilib, 95 o'rinni egalladi. 2016- yilda respublika YaIMda AKT sektorining ulushi 2,6 % ni tashkil etdi. AKT tarkibida yuqori ulush xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda respublikada aloqa xizmatlariga, moliya xizmatlari, transport, savdo va ovqatlanish xizmatlari bilan bir qatorda talab katta. Bugun O‘zbekiston ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi ufqlarga ishonch bilan qadam bosmoqda. Barcha magistral, hududiy va interstaktik aloqa turlarida tolali-optik liniyalari ko‘llaniladi, bu zamonaviy kengpolosali texnologiyalarning telekommunikatsiya tizimiga kirishning natijasi hisoblanadi. Bunday aloqa liniyalarining qamrov zonasini kengaytirish bozorda taqdim etilayotgan AKT xizmatlarining doirasini kengaytirish, videotelefoniya servisi, Internet-televidenie, yuqori tezlikdagi internet, ND-kanallarni efirga uzatish bo‘yicha xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bugungi kunda rivojlanish darajasi bizning zamon talablariga javob beradigan, hamma shaharlararo va halqaro miqyosida, shuningdek, mahalliy telefon stansiyalarida raqamli texnologiyalar joriy etildi, telekommunikatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. Internetga kirish kanallari tubdan kengaytirildi. Bu, o‘z navbatida, so‘nggi besh yil davomida operatorlar va provayderlar tomonidan taqdim etilgan kanallar narxini olti barobarga kamayishiga imkon berdi.

AKTdan faol foydalanish keng tarqalgan, uskunalari va texnologiya infratuzilmasining eng yangi turlari bilan jixozlangan, yuqori kadrlar potentsiali bilan asoslangan. Bu ish insonlarning turmush darajasini sifatini yaxshilashga asoslangan, ularning kundalik hayotini yaxshilash, davlat boshqaruvida eng yangi texnologiyalardan samarali foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan.

Respublikada mobil aloqa tarmoqlarining dinamik kengayishi kuzatilmoqda. Agar yaqinda undan faqat so‘zlashuvlar uchun foydalanilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu zamonaviy aloqa turi ommaviy axborot vositalarida dolzarb ma‘lumotlarni olish, ma‘lumot almashish, moliyaviy bitimlar tuzushni amalga oshirishga yordam bermoqda. Ayni paytda O‘zbekiston bozorida mobil aloqa xizmatlarini "Unitel" MChJ ("Beeline" savdo belgisi), "Universal Mobile Systems" ("UMS" savdo belgisi), "RWC" ("Perfectum Mobile" savdo belgisi), "Coscom" "XK MChJ" ("Ucell" savdo belgisi) va "UzMobile" filiali "O‘zbektelekom" AJ kompaniyalari tomonidan ko‘rsatiladi. Mobil aloqa xizmatlari CDMA, GSM-900, GSM-1800, UMTS 2100, 4G LTE standartlarida taqdim etiladi. Mobil aloqa operatorlari tomonidan mobil aloqa foydalanuvchilari uchun qo‘shimcha, hususan, mobil internet, SMS-informer, internet-banking va boshqa xizmatlarni faol ravishda taqdim etmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy insonning hayotini internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan, 2018- yilda Internetga ulanish tezligi kamida to'rt martaga oshirish uni 2020 yilgacha MDH mamlakatlari darajasiga etkazish, shuningdek internet tarmog'iga chiqish narxini pasaytirish rejalashtirilgan. 2017- yilda yuridik shaxslar Veb-saytlari soni umumiy Internet tarmog'i Veb-saytlar (8029 bir.) soniga nisbatan 83,3% ni tashkil etadi. Jismoniy shaxslar Veb-saytlarining ulushi 16,7% ni tashkil etdi.

Bugungi kunda axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, ta'lim, davlat xizmatlari va turizm sohaslariga bosqichma-bosqich joriy qilinmokda. Viloyatlarda "aqlli" va "xavfsiz" shaharlar yaratish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmokda. Hususan, tarmoqli axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasining yangi istiqbollarini ochib berdi. Zamonoviy ta'lim usullari va axborot texnologiyalarining birlashtirilishi yangi integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini hususan, Internet-texnologiyalari asosida shakllantirish imkonini berdi. Masofaviy ta'lim elektron o'quv qo'llanmalari yordamida olingan nazariyani mustahkamlash uchun qo'shimcha ma'lumotlarni deyarli har qanday joydan yuklab olish, bajarilgan vazifani uzatish, o'qituvchi bilan maslahatlashish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Pochta aloqasi sohasi ham O'zbekiston davlatining xo'jalik va ijtimoiy infrastrukturasi ajralmas qismi hisoblanadi. 1991- yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingan kundan boshlab, aloqa sohasida ham korxonalarni mustaqil xo'jalik subyektlariga o'tkazish ishlari boshlandi. Pochta aloqasi va soyuzpechat korxonalari negizida pochta aloqasi mustaqil korxonasi (birlashmasi) tashkil etildi.

1992- yilda pochta aloqasi korxonasi ta'sislarining yig'ilishi qarori bilan "O'zbekiston pochta" konserni tashkil etildi. 1994- yil 24-fevralda O'zbekiston Butunjahon pochta ittifoqi (BPI) a'ziligiga qabul qilindi. Hozirgi kunda jahonning 96ta mamlakatlari bilan pochta ayirboshlash ishlari amalga oshirilmokda.

Respublikamizda sodir bo'layotgan katta yangilanishlar aloqa sohasida ham o'zgarishlar qilish zarurligini ko'rsatdi. Pochta aloqasini, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalarni boshqarishni yanada takomillashtirish, bozor munosabatlarini rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish va sohaga xorijiy

sarmoyalarni jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997- yil 23- iyuldagi 1823- sonli “Axborot tizimlari sohasini qayta tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish haqida”gi 1997- yil 31-iyuldagi qaroriga muvofiq, “O‘zbekiston pochta” Davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etilib, unda aksiyalarning 75 foizi davlat mulki, 10 foizi mehnat jamoasi va 15 foizi erkin sotuv uchun etib belgilandi.

2000- yil 31- avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. “O‘zbekiston pochta” Davlat aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004- yil 19-iyuldagi 339-sonli qaroriga muvofiq, «O‘zbekiston pochta» ochiq aksiyadorlik jamiyatiga va uning tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari esa filiallarga aylantirildi. Jamiyat tarkibida 15 ta filial, 174 ta tuman va shahar pochta aloqasi tarmoqlari, 2986 ta statsionar va 20 ta ko‘chma pochta aloqa bo‘limlari bo‘lib, ular orqali pochta jo‘natmalarini o‘z vaqtida yetkazib berish maqsadida, 32 ta avia, 2 ta temir yo‘l hamda 486 ta avtomobil pochta tashish yo‘nalishlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004- yil 19-iyuldagi “Pochta aloqasi sohasidagi faoliyatni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 339-son qaroriga muvofiq, “2010- yilgacha pochta aloqasi shoxobchalarini zamonaviylashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida xizmatlarning yangi turlarini joriy etish va rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»”gi 128-son qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning asosiy maqsadi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirish, O‘zbekistonning barcha hududida pochta aloqasi universal xizmatlarining kafolatli va sifatli ko‘rsatilishini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi.

“O‘zbekiston pochta” OAJ tomonidan 2005- yildan boshlab mahalliy “Elektron pul o‘tkazmalari” (EPO‘) tizimi ishga tushirildi va 2007- yildan Xalqaro elektron pul o‘tkazmalari xizmati ko‘rsatila boshlandi hamda Butunjahon pochta ittifoqining (IFS Light) elektron pul o‘tkazmalari tizimi orqali Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Qozog‘iston davlatlari bilan hamkorlikda xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Elektron pul o‘tkazmalari tizimini yanada takomillashtirish, iste’molchilarga yaqinlashtirish maqsadida, tizimga bosqichma-bosqich

pochta aloqasi obyektlarini bog‘lash ishlari olib borildi va ularning soni 841 taga (190ta PAT, ishlab chiqarish uchastkalari va 651 ta aloqa bo‘limlari)ga yetkazildi. 2011- yil 4- fevraldan boshlab, “O‘zbekiston pochta” OAJ Butunjahon pochta ittifoqining IFS tizimiga bog‘landi va xalqaro EPO‘ almashinuvini ushbu tizim orqali amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi.

2010- yilda Bernda BPI tomonidan tashkil etilgan sifat xizmatini yaxshilash Fondi (FUKS) Ko‘mak Kengashining qaroriga muvofiq, “O‘zbekiston pochta” OAJ Respublika ichki magistral avtomobil yo‘nalishida xat-xabarlarining o‘tishini yaxshilash bo‘yicha loyihasini tatbiq etishda eng yaxshi amalga kiritganligi uchun mukofotlandi.

2010- yilda “O‘zbekiston pochta” OAJ tomonidan ISO 9001:2008 xalqaro standartlar talabiga muvofiq, Sifatni boshqarish tizimini joriy etilganligi va qo‘llanilayotganligi to‘g‘risidagi DQS xalqaro sertifikatli tarmog‘i hamda O‘zstandart agentligining milliy sertifikatli topshirildi.

2018- yil 19- fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 5349-sonli farmonida O‘zbekistonda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ish olib borilishi ta’kidlandi. Shuningdek, sohadagi ba’zi kamchilik ko‘rsatilib o‘tilib, ularning yechimlari, soha oldidagi istiqbolli vazifalar belgilab berildi.

15.3. O‘zbekistonda zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimining shakllanishi

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin transportning iqtisodiyotga va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilash va soha boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi (1992-yil), “O‘zbekiston avtomobil transporti” (“O‘zavtotrans”) davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1993-yil tuzilgan, 1998-yildan “O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi”ga o‘ggardi), “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik kompaniyasi (1994-yil) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalarini davlat ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagi aksiyadorlik va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqaro talablarga javob beradigan avtomobil yo‘llarini qurish, mavjudlarini xalqaro andozalarga

moslashtirish rejalashtirildi. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tutgan o‘rni, sanoat va boshqa sohalarning taraqqiyoti, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni jadal rivojlantirish maqsadida 1996-yildan Toshkent–Andijon–O‘sh magistralining 100 km dan ortiq tog‘li uchastkalarida qurilish ishlari boshlandi. Qamchiq va Rezak tonnellari foydalanishga topshirildi.

Almati–Bishkek–Toshkent–Termiz va Samarqand–Buxoro–Ashxobod Turkmanboshi avtomobil yo‘li, Yevropani Kavkaz orqali Osiyo bilan bog‘-laydigan avtomobil yo‘li (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo‘lagi bir qismi)ning respublika hududidan o‘tadigan qismini ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi. O‘zbekistonni Qozog‘iston orqali Rossiya Federatsiyasi bilan bog‘laydigan 340 kilometrli Qo‘ng‘irot–Beynov avtomobil yo‘li qurilishining birinchi bosqichi yakunlandi. O‘zbekistonning yagona temir yo‘l tarmog‘ini vujudga keltirish bo‘yicha 1994–2001-yillarda uzunligi 700 kilometr ga yaqin Navoiy–Uchquduq–Nukus temir yo‘li qurib bitkazildi.

Respublika hududida barcha transport turlarining yuk va yo‘lovchilar tashish ishlarini maqbul holga keltirish, kommunikatsiyalarni jadal rivojlantirish, transportda yuk va yo‘lovchilarni tashish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda transmilliy transport yo‘laklarini rivojlantirish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida 2004-yilda “O‘zbekiston transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasi” tashkil etildi. Uyushma tarkibiga “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, “O‘zavtoyol” kompaniyasi, transport kommunikatsiyalarini qurilishi bilan shug‘ullanuvchi respublika loyiha va qurilish tashkilotlari kiritildi.

Temir yo‘llar qurilishida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. 2001-yilda 341 km bo‘lgan Navoiy–Uchquduq–Sultonzoda yo‘nalishi, 2007-yilda uzunligi 220 km bo‘lgan G‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on yo‘nalishi qurilishi tamomlangan. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo-sotiq, tranzit aloqalarining rivojlanishi va O‘zbekistonni dengiz transportiga olib chiqadigan eng yaqin yo‘l Afg‘oniston orqali o‘tishini hisobga olgan holda bir qator yangi temir yo‘l qurish loyihalari ishlab chiqildi. 2010-yil O‘zbekiston Afg‘oniston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihani amalga oshirdi, ya‘ni Hayraton–Mozori Sharif temir yo‘lining 75 kilometrini qurib berdi. Bu

kabi tranzit loyihalarining amalga oshirilishi O‘zbekiston tashqi savdo geografiyasining kengayishiga asos bo‘ladi.

2016-yil iyunda Angren–Pop temir yo‘li va Qamchiq tunneli ochildi. Qamchiq dovoni orqali o‘tuvchi Angren–Pop tarmog‘ining qurilishi Farg‘ona vodiysini O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan bog‘lashga imkon tug‘dirdi. Bundan tashqari, temir yo‘lning uzunligi 123,1 kilometrni tashkil etib, ushbu loyiha doirasida uzunligi 19,2 kilometrdan iborat bo‘lgan temir yo‘l tunneli qurildi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati yo‘lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun Toshkent–Samarqand yo‘nalishi bo‘ylab tezyurar yo‘lovchi tashishni tashkil qildi. 2011-yilning oktabridan boshlab undan tijorat maqsadida foydalanish yo‘lga qo‘yildi. O‘sha yili ikkinchi poyezd ham keltirilib, 2012-yilning mayidan o‘z qatnovini boshladi. Ushbu eng zamonaviy tezyurar yo‘nalish 2015-yilda Qarshi shahrigacha, 2016-yilda esa “Toshkent–Buxoro” yo‘nalishi, 2018-yili Toshkent–Xiva yo‘nalishi ishga tushirildi. Poyezd maksimal tezlikni soatiga 250 kilometrgacha oshirishi mumkin.

Mustaqillik yillarida Toshkent metrosi qurilishi ham jadal sur‘atda o‘tdi. 2001-yil avgustda Yunusobod yo‘nalishining 6 ta bekatdan iborat birinchi qismi foydalanishga topshirilib, yo‘lovchi tashish yo‘lga qo‘yildi. 2016-yil Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan 7,1 kilometr bo‘lgan Toshkent metropolitenining Sergeli liniyasi qurilishi olib borilmoqda. Mazkur qarorga ko‘ra yangi liniyani 2020-yilga qadar qurib foydalanishga topshirish ko‘zda tutilgan. Sergeli metro liniyasi bugungi kungacha Markaziy Osiyoda qo‘llanilmagan butunlay yangicha estakada usulida bunyod etilmoqda. Ya‘ni mazkur yo‘l ko‘priksimon tarzda quriladi, poyezdlar yer ustida harakatlanadi.

O‘zbekiston dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoni cheklangan 34 ta davlatdan biri hisoblanadi. Shu sababli havo yo‘llari transporti respublika iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. 2012-yilga kelib aviakompaniya zamonaviy havo kemalari bilan ta‘minlandi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasi dunyoning 25 dan ortiq mamlakatiga parvozlarni amalga oshirib, yiliga qariyb 75 ming tranzit yo‘nalishning havo harakatini boshqarmoqda.

Shuningdek, aviakompaniya tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan, so‘nggi avlod aviatsiya texnikalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo‘lgan markazning xizmatlaridan 320 ta xorijiy aviakompaniya samolyotlariga aeronavigatsiya xizmati ko‘rsatila boshlandi. O‘zbekiston Milliy

Aviakompaniyasi Boeing-757/767, A-320 samolyotlari, vatanimizda ishlab chiqarilgan Il-114–100 zamonaviy laynerlari, Boeing-767/300 ER yuk tashuvchi samolyotlarga ega bo‘ldi. 2016-yilda yangi avlod samolyotlari Boeing-787 Dreamliner keltirildi. Xalqaro parvozlarning xaritasiga eʼtibor bersak, O‘zbekiston MDHning barcha yirik shaharlari va jahonning AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Singapur singari ellikka yaqin mamlakatlari bilan bevosita havo yo‘llari orqali bog‘landi.

15.4. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va tarixiy merosning tiklanishi

Milliy-ma’naviy merosga yangicha munosabat bevosita O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan bo‘g‘liq. Tabiiyki, ma’naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarining tiklanishi bir kunda bo‘ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. Mustaqillik yillarida eng avvalo milliy ma’naviyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shgan bobolarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab ajdodlarimizning milliy va ma’naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari jahonda va mamlakatimizda nishonlanib, ruhlari shod etildi va asarlari nashr etildi hamda qadamjolari obod qilindi.

Tarixiy tafakkurning rivojlanishi ma’rifat asosida, ma’rifatli bo‘lish negizida sodir bo‘ladi. 1991- yili Alisher Navoiy tavalludining 550- yilligi keng nishonlandi. Bu to‘yga respublikada katta tayyorgarlik ko‘rildi va u xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Uning yigirma jildlik mukammal asarlar to‘plami nashr etila boshlandi. Yubiley oldidan Alisher Navoiyning buyuk siymosi ifoda etilgan sahna asarlari, kinofilmlar yaratildi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta’ sis etildi. Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Mamlakat poytaxti Toshkentda ulug‘ bobomizning muhtasham haykali qo‘yildiki, bu joy xalqning muqaddas ziyoratgohiga aylandi. Navoiy haykali Komsomol ko‘li deb nomlangan istirohat bog‘iga o‘rnatildi va bog‘ Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ deb ataladigan bo‘ldi.

1994- yilni hukumat qarori bilan “Ulug‘bek yili” deb e’lon qilinishi, uning 600-yilligini O‘zbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YUNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham buyuk

allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir. 1996- yil Amir Temur tavalludining 660- yilligi ham keng miqyosda nishonlandi. “Temur tuzuklari” bir necha tilda chop etildi. O’sha davr tarixiy madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Juda qisqa fursatda, Toshkentda bobokalonimizning dunyoviy sha’ni va shavkatiga mos keladigan Amir Temur va temuriylar davri tarixi muzeyi qurildi.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish “Navro‘z” bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo‘ldi. 1991-yildan boshlab respublikada 21-mart – Navro‘z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Qadimiy xalq bayrami – Navro‘zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat bilan ma’qullab, ko‘tarinki ruhda kutib oldi va hozir ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda.

Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma’naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko‘rildi. Jumladan, 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. 1992-yil 27-martda O‘zbekiston Prezidentining “Ro‘za hayitini dam olish kuni, deb e’lon qilish to‘g‘risida” farmoniga ko‘ra, musulmonlar hayotidagi qutlug‘ sanalar – Qurbon va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularni dam olish kunlari, deb e’lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko‘nglidagi ish bo‘ldi. Mustaqillik yillarida “Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi, “Burhoniddin al-Marg‘inoniy tavalludining hijriy sana bo‘yicha 910 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

15.5. Ta’lim tizimidagi islohotlar va kadr;ar tayyorlash

Madaniy-ma’naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta’lim tizimidir. Ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda kechayotgan islohotlar muvaffaqiyati, yurt taraqqiyoti yuqori bilim va malakaga ega mutaxassislariga bog‘liq. Keyingi yillarda ta’lim tizimida kechayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi ham ayni ezgu intilishlarni ko‘zlashi bilan ahamiyatli bo‘lmoqda. O‘zbekistonda barcha jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi,

xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlandi.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi siyosati 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi. Ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim shakllaridan iborat. 1996–1997- o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o'qitish uchun zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi. I bosqich – 1997–2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. II bosqich – 2001–2005-yillarni o'z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. III bosqich – 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to'plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta'lim tizimi takomillashtirilib borildi.

1997-yildan boshlab hozirga qadar 1400 dan ortiq kasb-hunar kolleji, 200 ga yaqin akademik litsey bunyod etildi. Ular sohalar bo'yicha mutasaddi tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalariga ham birlashtirilishi tufayli bu bosqichda o'quv jarayoni samarali tashkil etilib, kollej bitiruvchilarini ish bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratilganiga qaramay, bu borada qoniqarli natijaga erishilmadi.

2017-yil umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tub islohotlar yili bo'ldi. Xalq qabulxonalarini va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya'ni 12-yillik majburiy ta'limdan 11-yillik ta'limga qaytildi.

Kasb-hunar ta'limi yuzasidan avvalgi yillardagi tajribani tanqidiy tahlil natijasida respublikada 2020-yildan boshlab yangi professional ta'lim tizimi tarmog'i faoliyat boshlaydi. Shu yili mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlarni o'rganish asosida 630 ta professional

ta'lim muassasiga (340 ta kasb-hunar maktabi, 143 ta kollej, 147 ta texnikum) 210 ming nafarga yaqin o'quvchilar qabul qilinadi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini zamon talablarida asosida isloh qilish jadallashdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga oid ishlarni takomillashtirish, mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, oliy o'quv yurtlari nufuzini yuksaltirish, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish zarurligiga alohida e'tibor qaratgan edi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan zamonaviy talablar va ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq qilish asosida yuqori malakali mutaxassislar, pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan vazifalar ijrosiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida kechayotgan tub o'zgarishlar jarayoni ota-onalar, o'qishga ishtiyoqi baland bo'lgan yoshlar, keng ma'rifiy jamoatchilikning fikri, taklif va mulohazalari asosida amalga oshirilayotgani e'tiborga molikdir. Yoshlarni oliy ta'limga yanada kengroq qamrab olish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul kvotalari oshirilmoqda. Yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda, yangi oliy ta'lim muassasalari hamda xorijiy davlatlardagi nufuzli universitetlar filiallari tashkil etilmoqda.

2018/2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha qabul kvotalarining ortganligi bilan bir qatorda, 51 oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 22 oliy ta'lim muassasasida maxsus sirtqi ta'lim va 9 oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakllari bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 2019-yilda respublikada jami 14 ta yangi oliy ta'lim muassasasi (6 ta mahalliy oliy ta'lim muassasasining filiali va 8 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiali) tashkil etildi.

Jumladan, 2016/2017 o'quv yilida 15 ta'lim yo'nalishi va 14 mutaxassislik, 2017/2018 o'quv yilida 8 ta'lim yo'nalishi va 10 mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018/2019 o'quv yilida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 66 tani, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 48 tani tashkil etdi. 2019-yilda jami talabalar soni 423 mingdan oshdi (natijada

yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi taxminan 20 foizga yetkazildi). Bu ko'rsatkich 2016/2017 o'quv yilida 264095 nafarni, 2017/2018 o'quv yilida 279674 nafarni tashkil etgan edi.

Talabalar sonining oshishi, o'z navbatida, professor-o'qituvchilar sonining ham ortishini taqozo etmoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar 2016/2017 o'quv yilida 23368 nafar, 2017/2018 o'quv yilida 24904 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2018/2019 o'quv yilida professor-o'qituvchilar soni 25418 nafarga yetdi hamda 2019/2020 o'quv yilida esa 29 ming nafardan oshdi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 2019-yilda xorijda malaka oshirish, stajirovka, magistratura va doktorantura 517 nafar professor-o'qituvchilar va xodimlar saralab olinib, 2019-yil oxiridagi ma'lumotlariga ko'ra 218 nafari xorijga yuborildi.

2018/2019 o'quv yilidan boshlab 55 oliy ta'lim muassasasida 21 ta xorijiy davlatning oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda qo'shma ta'lim dasturi asosida jami 1130 nafar talaba tahsil olmoqda. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU va Belarus Respublikasining oliy ta'lim muassasasi – BGUIR bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATUda respublika OTM ichida birinchilardan bo'lib kredit tizimiga o'tildi.

2017-yil fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilmiy kadrlarni tayyorlashning ikki bosqichli tizimiga o'tish to'g'risidagi Farmoni qabul qilindi va unga ko'ra ikki bosqichli tizim: falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) tashkil etildi. Tayanch doktoranturaga qabul kvotasi ikki barobar oshdi. Dissertatsiyani ko'rib chiqish tartibi soddalashtirildi. Ilmiy ishlar himoyasi 2017-yilda 2016-yil bilan solishtirganda 2 martaga va 2018-yilning yarim yil natijalari bo'yicha 2,5 marta ko'paydi. So'nggi ikki yilda 1551 ta ilmiy ish himoya qilindi va ilmiy salohiyat 36,7% ga yetkazildi (2019-yil ma'lumoti). 2019-yilga kelib oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ish haqi miqdori o'rtacha 2,5 barobarga oshirildi.

Bularning barchasi mamlakatimizda oliy ta'limni davr talabi, ijtimoiy-iqtisodiy soha talabidan kelib chiqqan holda isloh etish, yoshlarning oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirish, yurtimizni jadal ravnaq toptirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning yorqin ifodasidir.

15.6. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyatining shakllanish va uning ustivor yo‘nalishlari

Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O‘zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqa xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni alohida ekanini tan olmoqda. O‘zbekiston tashqi siyosatining ma‘naviy yo‘nalishi, insonparvarlik, oshkoralik, qadr- qimmat o‘z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lishdir. Shu bois istiqloq yillarida mamlakatimiz 133 davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o‘rnatgan, Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini faoliyat olib bormoqda. Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq edi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992- yil may oyidagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qarori va 1994- yil mart oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari asosida shakllantirildi. 1996- yil “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

2012- yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi” e‘lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi – bu davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustivor yo‘nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat‘i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va

ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik kabilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi.

O'zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do'stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakatlar xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi o'ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo eta boshladi.

2017-yilda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Tojikistonga (2018-yil 9-10-mart) va Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga (2018-yil 17-18-avgust) davlat tashriflari yakuniga ko'ra strategik ahamiyatga ega hujjatlar imzolandi: Do'stlik va ahil qo'shnichilikni mustahkamlash to'g'risidagi qo'shma bayonot va O'zbekiston – Tojikiston davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shartnoma, shuningdek boshqa ikki tomonlama kelishuvlar to'plami.

Turkmaniston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi (2018-yil 23-24-aprel) chog'ida 2017-yilda imzolangan ikki davlat o'rtasidagi strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnomani amalga oshirishga qaratilgan qator muhim hujjatlar qabul qilindi hamda Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo davlatlariga yuk tashish hajmini ko'paytirish uchun ikki mamlakat tranzit salohiyatidan to'liq foydalanishga kelishib olindi.

Umuman olganda, bugun kunda Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegara punktlaridan o'tish va chegara oldi hududlarda savdoni rivojlantirish kabi juda murakkab masalalarga yechim topish uchun mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit va qulay sharoitlar yaratildi.

Chegara bilan bog'liq muammolarning hal qilinishi natijasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari sezilarli darajada faollashdi. O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar bilan Davlat chegarasida 64 ta o'tish punktlari faoliyat ko'rsatmoqda.

15.7. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro tashkilotlar o'rtasida aloqlar

O'zbekiston va BMT. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilindi va mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'ldi. O'zbekiston BMTning bir qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon savdo tashkiloti (JST), BMTning Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiyasi (EIK), BMT savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi guruhi kabilar bilan keng ko'lamli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning ham a'zosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. Unda bir qator masalalar, jumladan BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish va Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orol dengizi qurishi muammosi, qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash masalalari, Afg'onistonda tinchlikka erishishning ma'rifi y yo'llari masalalariga alohida to'xtaldi.

O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKoga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktabrida Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro YUNESKoning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor. YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori

Federiko Mayorning O‘zbekistondagi rasmiy tashrifi chog‘ida, 1995-yil iyul oyida mazkur institut ochildi.

YUNESKO buyuk bobokalonimiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag‘ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKOning madaniy qadriyatlar ro‘yxatiga kiritildi. 1997-yilda jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko‘rgazmalar o‘tkazildi. Keyingi yillarda bu hamkorlik doirasi yanada kengayib bordi. Jumladan, YUNESKO xalqimizning Shashmaqom, Katta Ashula, Navro‘z kabi ko‘pgina ming yillik qadriyatlarini saqlab qolish va targ‘ib etishda keng ko‘lamli ish olib bormoqda.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – submintaqaviy xalqaro tashkilot bo‘lib, Yevroosiyo hududining 61% ni egallaydi. ShHTning rasmiy tili rus va xitoy tashkilotning gerbi joylashgan. Tashkilotning shtab – kvartirasi Pekinda joylashgan. 1996-yil Shanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida chegara hududlari bo‘yicha harbiy sohada o‘zaro ishonchni mustahkamlash bilan bog‘liq shartnoma (1996-yil 26-aprel) imzolanishi natijasida “Shanxay beshligi” vujudga kelgan edi. 1997–1999-yillarda Moskva, Almati, Bishkekda bo‘lib o‘tgan sammitlarda «Shanxay beshligi»ning holati yanada mustahkamlanib, o‘zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi.

2000-yil Dushanbeda O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2001-yilda Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo‘ldi. Unda O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi ishtirok etib, O‘zbekistonning “Shanxay forumi”ga to‘la huquqli a‘zo bo‘lishi to‘g‘risida»gi Bayonotni imzoladi. O‘zbekistonning “Shanxay forumi”ga kirishi munosabati bilan uning nomi “Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – ShHT”, deb o‘zgartirildi. Sammit yakunida “ShHTni tuzish to‘g‘risida”gi deklaratsiya hamda “Terrorchilik, ayrimachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi” imzolandi.

2002-yil ShHTga a‘zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi Sankt-Peterburg sammitida uchta hujjat: ShHTga a‘zo davlatlar rahbarlarining deklaratsiyasi, ShHT Xartiyasi, ShHTga a‘zo davlatlar o‘rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT) haqidagi Bitim

imzolangan. 2003-yil Moskvada bo‘lib o‘tgan sammitda ShHT oliy organlari haqidagi Nizomlar tasdiqlandi va tashkilotning gerbi, bayrog‘i qabul qilinadi. 2003-yil ShHTning Pekin sammitida “ShHTga a‘zo davlatlarning 20 yilga mo‘ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi” qabul qilindi.

2004-yil ShHTning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor berildi. 2005-yil mamlakat rahbarlari kengashib, uchta Osiyo mamlakati Hindiston, Eron va Pokistonga kuzatuvchi maqomi berilishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Tashkilot geografik jihatdan kengaydi va bu ShHTning xalqaro mavqeyini yanada yuksaltirdi. Bundan tashqari Afg‘oniston va Mo‘g‘uliston mamlakatlari ham kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lishdi, Turkiya esa muloqot bo‘yicha sherikka aylandi. Tashkilotning 2016-yilgi Toshkent sammitida Hindiston va Pokistonning ShHTga a‘zo davlat maqomini olish yo‘lidagi majburiyatlari to‘g‘risidagi memorandumlar imzolandi hamda 2017-yil Ostonadagi sammitda Hindiston va Pokiston tashkilotga a‘zo sifatida qabul qilindi.

2017-yilning iyun oyida tashkilotga a‘zo davlat rahbarlarining Ostonada bo‘lgan sammitida O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutq so‘zlab, unda sammit ishtirokchilari e‘tiborini Afg‘onistondagi vaziyatni yaxshilash, yoshlarni turli yot g‘oyalardan asrash, ularning zamonaviy ta‘lim-tarbiya olishi, komil inson bo‘lib voyaga yetishida davlatlararo hamkorlikka qaratdi.

2018-yilning noyabr oyida O‘zbekiston Xalqaro migratsiya tashkilotining to‘laqonli a‘zosiga aylandi, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan muvaffaqiyatli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. 2018-yil 23-24-noyabr kunlari Samarqandda Inson huquqlari himoyasi bilan shug‘ullanuvchi deyarli barcha nufuzli xalqaro tashkilotlar ishtirokida bo‘lib o‘tgan Inson huquqlari bo‘yicha birinchi Osiyo forumi xalqaro maydonda katta ijobiy qiziqish uyg‘otdi.

2019-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida ShHTga a‘zo davlatlar Hukumat rahbarlari kengashining o‘n sakkizinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Hukumat rahbarlari ShHTga a‘zo davlatlar ishbilarmon doiralarning yuqori texnologiyalari va innovatsion qo‘shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida loyihalarni amalga oshirish, ko‘rgazma-yarmarka faoliyati va multimodal transport-logistika komplekslarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tashabbuslarining muhim ahamiyatga ega ekaniga alohida e‘tibor qaratdi. Hukumat rahbarlari ShHTga a‘zo davlatlarning ko‘p tomonlama

savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi ijrosini ko'rib chiqdilar va yangi dasturni ma'qulladilar. Tadbirda jami 14 ta hujjat imzolandi.

2020-yil 1-yanvardan boshlab MDHning Ashxobod sammiti qaroriga binoan Hamdo'stlikka raislik O'zbekistonga o'tdi.

MDH doirasidagi hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari va O'zbekiston raisligining ustuvor yo'nalishlari Shavkat Mirziyoyevning 11-oktabr kuni Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Hamdo'stlik Davlat rahbarlari kengashining majlisidagi nutqida bayon etilgan.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida ko'p tomonlama hamkorlikni, avvalambor, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, turli sohalaridagi qo'shma loyihalarni ilgari surish, transport-logistika va tranzit salohiyatini ochish, xavfsizlikni mustahkamlash, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish sohalarida kengayish zarurligini ta'kidladi.

Mamlakatimiz bir vaqtning o'zida Davlat rahbarlari kengashiga, Hukumat rahbarlari kengashiga, Tashqi ishlar vazirlari kengashiga, Iqtisodiy kengashga, a'zo davlatlarning Ustav va boshqa hamdo'stlikdagi doimiy vakolatli vakillariga, iqtisodiy kengash huzuridagi iqtisodiy ishlar bo'yicha komissiyaga raislik qiladi.

Raislik doirasida turli darajadagi va formatdagi 70 ga yaqin tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgan. Raislik davomida O'zbekiston ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga yo'naltiriladigan 10 dan ortiq konseptual hujjatni tayyorlash va qabul qilishni rejalashtirmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy islohotlarning nazariy – hududiy asoslari nimalarda tushunasiz?
2. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlarinin tushuntarib bering.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qanday ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi?
4. Hozirgi davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasi qanday rivojlanmoqda?
5. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan munosabati qanday?
6. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lgan?
7. O'zbekiston chet davlatlari bilan qanday hamkorlik qilmoqda?
8. Mustaqillik yillarida kommunikasiya texnologiyalari rivojlanishi qaysi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda?

GLOSSARIY

A

- **Abbosiyalar** (ar.) – Arab xalifalari sulolasi bo‘lib (750-1258), bu sulolaga Muhammad Payg‘ambarning amakivachchasi Abu-ul Abbas as-Saffoh (750-754) asos solgan.
- **Absolyutizm** (lot.) – shartsiz, cheklanmagan, to‘la: mutloq yakka hokimlik, cheklanmagan hukmdorlik. Davlat boshqaruv shakli-oliy hokimlikning bir shaxs (podsho, xon, amir, qirol) qo‘lida bo‘lishi.
- **Absolyut monarxiya** (yun.) – yakka hokimlik, zo‘ravonlik shaklidagi davlat boshqaruv shakli. Odatda, davlat boshida yagona bir shaxs turgan, uning hukmdorligi abadiy va vorisiy bo‘lgan.
- **Aboriginlar** (lot.) – ma‘lum mamlakat yoki hududda qadimdan yashab kelgan tub aholi, xayvonlar, o‘simliklar.
- **Abu** (fors.) – ota ma‘nosini bildiruvchi arabcha so‘z. Masalan, Abu Ali Alining otasi, Abu Odil – Odilning otasi va hokazo.
- **Avesto** – diniy kitobning nomi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi.
- **Avtoritarizm** (lot.) – siyosiy hukmronlik qilishda o‘ta reaksion davlatlar. Masalan, Germaniya va Italiyadagi fashistik tartib, SSSR dagi kommunistlar rejimi.
- **Admiral** (ar.) – dengiz hukmdori degan ma‘noda. Harbiy dengiz flotida Oliy qo‘mondonlik tartibidagi unvon (kontr-admiral, vitse-admiral, flot admirali).
- **Ajam** (ar.) – arablar o‘zlari bosib olgan hududlardagi boshqa xalqlarni, jumladan, Yaqin va O‘rta Sharq hamda O‘rta Osiyo xalqlarini shunday ataganlar.
- **Akobir** (fors.) – O‘rta Osiyo hududida o‘rta asrlarda yuqori martabali, davlatmand kishi, ulug‘ zotga nisbatan qo‘llanilgan atama.
- **Amir** (ar.) – Islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so‘zi qabila boshlig‘i, harbiy boshliq degan ma‘nolarni bildirgan.
- **Amr** (ar.) – buyruq, hukm, farmon.
- **Amlok yerlar** – Markaziy Osiyoda o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan yerga egalikning bir shakli davlatga qarashli yerlar-amirlar, sultonlar yeri.
- **Alternativa** (fr.) – bir-biriga mos kelmaydigan imkoniyatning biri. Hozirgi o‘zbek tilida muqobil degan ibora ham shu ma‘noni beradi.
- **Alayhissalom** (ar.) – “unga salom” ma‘nosini anglatadi. Musulmonlarda payg‘ambarlar nomiga qo‘shib aytiladigan so‘z.

- **Anarxiya yoki Anarxizm** (yun.) – o‘zboshimchalik, boshboshdoqlik. Ijtimoiy-siyosiy hayotda: hokimiyatni tugatish va mamlakatni davlatsiz boshqarish tarafdorlari.
- **Anjuman** (fors.) – yig‘in, majlis.
- **Antagonizm** (yun.) – ziddiyat, murosasiz qarama-qarshilik.
- **Anneksiya** (lot.) – qo‘shib olish. Bir davlat tomonidan boshqa davlat hududini bosib olish, zo‘ravonlik bilan shu mamlakatni yoki uning bir qismini o‘ziga bo‘ysindirish.
- **Anoxronizm** (yun.) – o‘tgan vaqtga qarshi qo‘yish. Bir tarixiy davr voqealari va alomatlarini yoki xususiyatlarini shartli ravishda boshqa tarixiy davrga to‘g‘rilab qo‘yish. Majoziy ma’noda-eskilik sarqitlari, umri tugagan fikrlar, qarashlar, udumlar.
- **Antanta** (fr.) – harbiy kelishuv. 1907- yilda Angliya, Fransiya va Rusiya o‘zaro ittifoq tuzgan, bu kelishuv antanta deb atalgan va u 1914-1918- yillarda (I jahon urushi) Germaniya va uning sheriklariga qarshi urush olib borgan. O‘sha yillari ularni Antanta davlatlari deb ataganlar.
- **Antisemitizm** – yaxudiyarga qarshi qaratilgan millatchilik oqimi. Rossiya Imperiyasi va fashistlar Germaniyasida bu harakat, shu davlatlarning shovinistik siyosatida katta o‘rin olgan edi.
- **Antropologiya** (yun.) – odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, dastlabki irqning paydo bo‘lishi va tana tuzilishidagi tabiiy tafovutlar haqidagi fan.
- **Argument** (lot.) – haqqoniylikni (voqea, xodisani) tasdiqlovchi mantiqiy dastak.
- **Aparteid** (yun.) – Bir necha ma’noda ishlatiladi: 1) kishilarni o‘z vatanidan judo qilish; 2) birorta davlatda yashab turgan shaxsning fuqarolik huquqidan mahrum etilishi va boshqa davlatda bu huquqni ololmaganligi.
- **Ark** (fors.) – ichki qal’a, podshohning shahar ichidagi qasri, qarorgohi. Masalan, Buxoro arki.
- **Arkoni davlat** (ar.) – davlat ustunlari; amirlar, vazirlar, ruhoniylar va h.k.
- **Aristokratiya** (yun.) – zodagonlar, imtiyozli tabaqa vakillari.
- **Arxaizm** (yun.) – eskirgan, keng muomaladan chiqib ketgan so‘zlar va iboralar.
- **Arxeologiya** (yun.) – qadimgi davrlar tarixini moddiy -topilmalar, ashyoviy manbalar asosida o‘rganuvchi fan.
- **Arxiv** (yun.) – hujjatlar yoki hujjat saqlanadigan muassasa.
- **Arxitektura** (lot.) – me’morchilik. Bino va inshootlarni bejirim va chiroyli, ko‘rkam qilib qurish san’ati.

– **Arshakiylar** – miloddan avvalgi 250- yildan milodiy 224- yillargacha Parfiyada hukmronlik qilgan sulola. Sulolaga day qabilasining boshlig‘i Arshak asos solgan.

– **Assotsiatsiya** (lot.) – ittifoq, uyushma. Masalan, tadbirkorlar assotsiatsiyasi, hunarmandlar assotsiatsiyasi,

– **Assambleya** (fr.) – 1) yig‘ilish; 2) bir qancha mamlakatlar oliy hokimiyat organining hamda ba‘zi xalqaro tashkilotlar oliy organining nomi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning bosh assambleyasi.

– **Assimilyatsiya** (lot.) – Bir necha ma’noda ishlatiladi: 1) moslashish, qo‘shilish, o‘zlashtirish; 2) etnografiyada – bir xalqning o‘z tili, madaniyati va milliy ongini yo‘qotib, boshqa xalqqa singib ketishi; 3) biologiyada – tirik organizmdagi kimyoviy jarayonlar majmui; 4) tirik hujayralarning ozuqa moddalarini.

– **Axriman** – zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, urush, o‘lim, gunoh va qabihliklar xudosi.

– **Axuramazda**-zardushtiy va mazdakiylarda oliy tangri, yorug‘lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik va ezgulik xudosi.

– **Ansambl** (fr.) – bir necha ma’noda qo‘llaniladi: 1) yagona badiiy jamoa sifatida uyushgan ijrochilar guruhi; 2) arxitektura va shaharsozlikda fazoviy kompozitsiya uyg‘unligi: binolar, injenerlik inshootlarini o‘z ichiga oladi.

– **Ahamoniylar** – miloddan avvalgi 558-330- yillarda Eronda hukmronlik qilgan sulola. Ahamoniylar sulolasiga miloddan avvalgi VIII asrda Elam yaqinidagi Parsa hududida yashagan qadimgi fors qabilalarining boshlig‘i Ahamon asos solgan.

B

– **Bayonnoma** (fors.) – biror voqea yuzasidan yozilgan rasmiy ma‘lumot yoki xabar. Hozirgi kunda ushbu atamaning ma‘nosini bayonot atamasi orqali ifodalash qo‘llanilmoqda.

– **Baytulloh** (ar.) – Makka islom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ollohning uyi – Ka‘baga berilgan nom.

– **Barid** (ar.) – 1) Chopar, xat eltuvchi, pochta; 2) XVI-XVII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlarida keng qo‘llanilgan masofa o‘lchovi bo‘lib, ikki farsax, ya‘ni taxminan o‘rtacha 12 km ga teng yo‘l bo‘lgan.

– **Barrikada** (fr.) – ko‘chalar, yo‘llar, ko‘priklar, tog‘ yo‘llarini to‘sinlar, qum to‘ldirilgan, toshlar va boshqa turli materiallar bilan ko‘ndalang to‘sib yasaladigan sun‘iy mudofaa inshooti.

- **Bashorat** (ar.) – oldindan bilingan, aytilgan xabar.
- **Bazis** (yun.) – ustqurma asosida turadigan, tarixiy qaror topgan ishlab chiqarish munosabatlari majmui.
- **Beklik** (turk.) – Buxoro amirligida bek tomonidan idora etiladigan ma'muriy hudud. Buxoro amirligi XX asr boshlarida 27 ta beklikdan iborat bo'lgan.
- **Bolshevik** (rus.) – XX asr boshida Rusiyada yuzaga kelgan siyosiy oqim vakili. Raxnamosi V. Lenin bo'lgan bu oqim jamiyatni inqilobiy to'ntarish yo'lidan borgan.
- **Bid'at** (ar.) – dindagi rasmiy ta'limotlarga qarshi yangi fikr va aqidalar. Islom Muhammad (s.a.v.)dan keyin paydo bo'lgan unsur va qoidalar.
- **Biy** – ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbeklarning urug' oqsoqollariga berilgan unvon.
- **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** – davlatlarning eng nufuzli xalqaro tashkiloti. 1945- yilda tashkil etilgan bo'lib, Ustaviga, Bosh Assambleyasiga, fan, maorif va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti (YuNESKO)ga, Xavfsizlik kengashiga, Xalqaro sud va kotibiyatiga ega, O'zbekiston 1992- yil 2- martda BMT ga a'zo bo'lib kirgan.
- **Blokada** (ing.) – Ikki xil ma'noda qo'llaniladi: 1) biror davlatni muayyan talabni bajarishga majbur etish maqsadida uning tashqi aloqalariga putur yetkazishga qaratilgan siyosiy yoki iqtisodiy tadbirlar majmui; 2) Harbiy blokada – muayyan obyekt (qo'shinlar gruppirovkasi, shahar, davlat) ni o'rab olish, ajratib qo'yish.
- **Boburiylar** – Hindistonda 1526- yildan 1858- yilgacha hukmronlik qilgan sulola. Unga temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan.
- **Bozor iqtisodiyoti** – qonunlar asosida mulk shakllarining turli bo'lishi tadbirkorlikka keng yo'l ochib beradigan, raqobat va narx erkinligiga asoslangan, ijtimoiy extiyojga yo'naltirilgan iqtisodiy tizim.
- **Boykot** (ing.) – ayrim shaxs, tashkilot va davlat bilan munosabatlarni to'la yoki qisman to'xtatishdan iborat siyosiy va iqtisodiy kurash vositasi.
- **Burjuaziya** (fr.) – kapitalistik jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan, yollanma mehnatga tayanuvchi sinf.
- **Buxorxudot** – VII-VIII asrlarda Buxoroda mavjud bo'lgan kichik feodal davlati hukmdorlarining nomi. Buxoroni arablar bosib olganidan keyin Buxorxudot hukmdorligi o'z mavqeini yo'qotdi.

– **Byurokrat** (fr.) – o‘z burchini rasmiyatchilik va qog‘ozbozlik bilan ishga ziyon yetkazgan holda yuzaki, xo‘ja ko‘rsinga bajaradigan mansabdor shaxs.

– **Bo‘nak** (fors.) – XX asr boshlarigacha O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan ish haqi hisobidan dehqon va hunarmandlarga berilgan qarz. Xalfa ishga yollanish oldidan ustadan ma’lum muddatga bo‘nak olgan.

– **Bo‘stong‘or** (m.-t.) – pistirma degan ma’noni anglatadi.

D

– **Davobdor** (ar.) – ot boquvchi.

– **Dayr** (ar.) – otashparastlarning ibodatxonalari.

– **Damba** (fors.) – suvni vaqtincha yoki doimiy dimlab turadigan to‘siq, qurilish inshooti.

– **Darakchi** (ar. f.-t.) – Qadimgi Sharq davlatlari armiyalarida maxsus topshiriqlarni ado etadigan va turli xabarlarni yetkazib turadigan shaxs.

– **Darbon** (fors.) – saroy darvozasi posboni.

– **Dasturxonchi** (fors.) – O‘rta Osiyo xonliklari saroylarida saroy xizmatchilaridan hisoblangan kichik mansabdagi amal.

– **Dashti Qipchoq** – Sirdaryoning quyi oqimi hamda Balxash ko‘lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududlarning XI-XVI asrlardagi nomi. Bu yerlarda ko‘chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun u yerlar shunday atalgan.

– **Devonbegi** (fors.) – devon boshlig‘i. O‘rta asrlarda soliq yig‘uvchi muassasa boshlig‘i bo‘lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan.

– **Duma** (rus.) – Rusiyadagi saylanadigan, qonun chiqaruvchi quyi organ.

– **Deklaratsiya** (lot.) – bayonnoma, bayonot.

– **Dekret** (lot.) – oliy hokimiyatning farmoyishi, qarori.

– **Delegat** (lot.) – saylangan yoki belgilangan vakil.

– **Demobilizatsiya** (fr.) -harbiy xizmatdan bo‘shatish.

– **Demokratiya** (yun.) – xalq hokimiyatining ifodasi.

– **Demilitarizatsiya** (lot.) – biron davlat yoki hududni qurolsizlantirish.

– **Diktatura** (lot.) – cheklanmagan, zo‘ravonlik hokimiyati.

– **Diplomat** (fr.) – bir davlatning ikkinchi bir davlatdagi rasmiy vakili.

– **Doktrina** (lot.) – ta’limot, siyosiy qarashning ifoda etilishi. M.: Harbiy doktrina – davlatning qurolli kuchlari vazifalarini belgilovchi nazariya.

E

- **Evakuatsiya** (lot.) – ko‘chirish. Ma‘lum xavf tug‘ilgan hududdan aholini, korxonalar va tashkilotlarni tinch joyga ko‘chirish.
- **Evolutsiya** (lot.) – asta-sekin sodir bo‘lgan o‘zgarish, osoyishta yo‘l bilan amalga oshadigan rivojlanish jarayoni.
- **Ekologiya** (yun.) – organizmlarning o‘zaro va atrof muhit bilan munosabatlari to‘g‘risidagi fan. Bu fan hozirgi zamonda inson va biosfera o‘rtasidagi munosabatlar muammosini ham keng ko‘lamda va har tomonlama o‘rganmoqda.
- **Ekspeditsiya** (lot.) – jo‘natish, yuborish. Bir necha ma‘noda ishlatiladi: 1) pochta tashuv xatlarini saralaydigan va jo‘natadigan bo‘limi; 2) ilmiy tekshirish maqsadida biror joyga yuboriladigan guruh.
- **Ekspluatatsiya** (fr.) – foydalanish, foyda olish. Bir necha ma‘noda qo‘llaniladi: 1) mulkdor tomonidan o‘zganing mehnat xosilini o‘zlashtirib olishi; 2) tabiiy boyliklarni qazib olish va ulardan foydalanish; 3) mehnat va transport vositalaridan foydalanish.
- **Eksport** (ing.) – mahsulotni xorijiy mamlakatlarga chiqarib sotish.
- **Elat** – kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan shakllangan (qabila va millat oralig‘i) birligi. Elat bir-biriga yaqin bir necha qabilalarning birlashishi asosida ma‘lum bir tarixiy sharoitda vujudga keladi.
- **Ekstremizm** (lot.) – siyosatda, e‘tiqodga masalani xaddan tashqari keskin ravishda xalq etish, shiddatli harakat qilish.
- **Elektorat** (lot.) – saylovchilar guruhi (prezident yoki parlament saylovlarida).
- **Elita** (fr.) – saralangan, eng yaxshi, ishonchli kishilar, buyumlar, tabiiy narsalar.
- **Ellinizm** (yun.) – qadimgi yunon madaniyati.
- **Emigrant** (lot.) – turli sabablarga ko‘ra boshqa yurtlarda boshpana topgan kishi.
- **Ensiklopediya** (fr.) – turli sohalar bo‘yicha ma‘lumotlarning ilmiy ravishdagi qisqa izohi bitilgan nashr (to‘plam).
- **Era** (lot.) – milodiy. Solnomaning boshlanish davri.
- **Eserlar partiyasi**–ijtimoiy inqilobchilar. Rusiyada XX asr boshlarida dehqonlar, o‘rta hol ziyolilar, hunarmandlar manfaatini ko‘zlashni maqsad qilib qo‘ygan siyosiy partiya (1923- yilda tugatilgan).
- **Eskalatsiya** (ing.) – urushning kuchayishi, mojarolarning kengayib ketishi, ahvolning zo‘rayib ketishi.

- **Etatism** (fr.) – siyosiy partiyaning davlat ishlariga keng ko‘lamda aralashuvi.
- **Etnografiya** (yun.) – xalqlarning turmushi, madaniyati, ularning kelib chiqishi, urf-odatlarini o‘rganadigan fan.
- **Etnogenez** (yun.) – xalqlarning kelib chiqishi, shuningdek, biror xalq kelib chiqishining dastlabki bosqichlari bilan birga til va antronologik xususiyatlarining keyingi shakllanishi jarayonini ham o‘z ichiga oladi.
- **Etnos** – kishilarning qabila, elat, millatdan iborat, tarixan tarkib topgan barqaror ijtimoiy guruhi. "Xalq" tushunchasiga yaqin turadi.
- **Emblema** (yun.) – biror tushuncha, g‘oyaning shartli yoki ramziy tasviri. M: oq kaptar – tinchlik emblemasi.
- **Estetika** (yun.) – inson bilan dunyo o‘rtasidagi qadriyat munosabatining o‘ziga xos tomonlarini va kishining badiiy faoliyatini o‘rgatuvchi falsafiy fan.
- **Etika** (yun.) – odob axloqni o‘rgatuvchi fan.
- **Etiket** (fr.) – biron joy (diplomatik doiralar) da qabul qilingan o‘zaro muomala tartibi.
- **Etimologiya** (yun.) – so‘zning (atama) kelib chiqishi. Tilshunoslikda so‘z hosil qiluvchi strukturani o‘rganadi, ularning qadimiy ma’no elementlarini aniqlaydi.
- **Ekspress** (ing.) – odatdagi tezlikka nisbatan yuqori tezlikda yuradigan transport vositasi.

F

- **Fanatizm** (lot.) – o‘ta ketgan mutaassiblik. O‘z dinining haqiqiyligiga qattiq ishonish, boshqa diniy e‘tiqodlarga murosasiz, qarshi munosabatda bo‘lish.
- **Farz** (ar.) – bajarilishi shart bo‘lgan vazifa, majburiyat.
- **Farsax (farsang-parsang, porasang)** (fors.) – Sharqda, jumladan O‘rta Osiyoda qadimdan ishlatilib kelgan masofa o‘lchov birligi. Bir farsah 9-12 ming qadamga yoki 6-8 km ga teng bo‘lgan.
- **Fatx** (ar.) – zafar, g‘alaba, yutuq.
- **Falsifikatsiya** (lot.) – qalbakilik. Asl narsani soxta bilan, haqiqatni yolg‘on bilan almashtirish.
- **Fashizm** (it.) – birlashma, to‘da. XX asrning birinchi yarmida Italiya, Germaniya kabi mamlakatlarda vujudga kelgan tajovuzkor siyosiy guruh. Uning mafkuraviy asosida irqchilik, zo‘ravonlik, shovinizm yotgan.

- **Fenomen** (yun.) – aql bovar qilmaydigan kamyob narsa, hodisa. O‘ta aqli, o‘ta bilimdon kishi. Sodir bo‘lishi kutilmagan voqea.
- **Fraktsiya** (fr.) – siyosiy partiyaning bir qismi, ayrim xollarda partiya nomidan uning siyosatini amalga oshiruvchi guruh.
- **Fundamentalizm** (lot.) – asos, poydevor, tayanch. Diniy e‘tiqodlarning ayrim qoidalarini qayta ko‘rib chiqishga qarshi turuvchi oqim.
- **Fuqaro** (ar.) – kambag‘allar, yo‘qsillar, muhtojlar, faqirlar.
- **Fuqarolik jamiyati** - oddiy aholi huquqlarini yoqlovchi fuqarolik jamiyati.
- **Fiqh** (ar.) – musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi.
- **Faktor** (lot.) – omil, amalga oshiruvchi.
- **Federatsiya** (lot.) – birlashma, ittifoq.
- **Feldmarshal** (nem.) – yuqori lavozimli harbiy unvon.
- **Femnda** (yun.) – odil hakamlik.
- **Feodal** (lot.) – o‘rta asrlardagi yirik yer egasi, mulkdor.
- **Fyurer** (nem.) – dohiy, Gitlerni shunday atashgan.
- **Forpost** (nem.) – oldingi qatordagi harbiy post.

G

- **Gaz** (fors.) – Sharq mamlakatlarida taxminan 62 sm dan 91,5 sm ga teng bo‘lgan uzunlik o‘lchov birligi.
- **Garantiya** (fr.) – kafolat.
- **Gvardiya** (it.) – davlatning eng ishongan, saralangan askarlar qismi.
- **Gegemon** (yun.) – rahbar, dohiy, rahnamo.
- **General** (lot.) – yuqori darajadagi harbiy unvon.
- **Genotsid** (yun.) – aholining ayrim guruhlarini yo‘q qilib tashlash. Ularni irqiy, milliy yoki boshqa asosda qirib tashlash.
- **Govsar** (fors.) – ikki tishli cho‘qmoq.
- **Gubernator** (lot.) – o‘lka hukmroni, hokimi.
- **Guzar** (fors.) – shahar yoki qishloqning uch-to‘rt ko‘chasini o‘z ichiga olgan, choyxona, baqqollik va qassoblik do‘konlari bo‘lgan gavjum va serqatnov obod joy.
- **Gumanizm** (lot.) – odamiylik, insonparvarlik.
- **Gurzi** (fors.) – qadimgi davrlardagi urush qurollaridan biri. Cho‘qmor deb ham atalgan.
- **Gimn** (yun.) – madhiya, tantanali ulug‘lovchi kuy-qo‘shiq.
- **Go‘rxon** (turk.) – qoraxitoy xonlarining faxriy laqabi.

H

- **Habl** (ar.) – arqon degani; vasiqalarda uzunlik o‘lchovi ma’nosida kelib tanobning 1/60 (otmishdan bir)ni anglatadi.
- **Haj** (ar.) – musulmonlarning Makkaga va Madinaga borib ibodat qilib kelishi.
- **Halifalik** (ar.) – VII-IX asrlarda islom davlatini idora qilish tizimi (haliflar davlat boshlig‘i bo‘lish bilan birga diniy rahbar ham bo‘lganlar).
- **Hadis** (ar.) – so‘z, gap. Muhammad alayxissalomning zikr etgan so‘zlari va boshidan o‘tgan voqealar.
- **Hamal** (ar.) – qamariy yilning mart-aprel oylarining nomi. Falakdagi 12 burjlardan biri.
- **Handasa** (ar.) – geometriya.
- **Huquqiy davlat** – konstitutsiya asosida tashkil topgan va fuqarolar huquqi kafolatlangan davlat.
- **Hurriyat** (ar.) – ozodlik, erkinlik.
- **Hojib** (ar.) – Xiva va Qo‘qon xonliklarida darvozabon hojib deb atalgan. Buxoro amirligida esa darvozabon darbon deb yuritilgan.
- **Hokim** (ar.) – boshqaruvchi, hukmronlik qiluvchi.
- **Hokimiyat** – ma’lum bir hududni idora qiluvchi dargoh, idora.
- **Hazora** (ar.) – Buxoro xonligida sug‘oriladigan yerdan olgan daromadi hisobiga ming kishidan iborat lashkarni o‘z qaramog‘ida ushlab turib, uni ta’minlab turadigan tuman.
- **Hirovul** (m.-t.) – qo‘shinning old tomoni.

I

- **Ibn** (ar.) – Sharq xalqlarida erkaklar ismlari tarkibida keluvchi so‘z. XX asr boshlarigacha O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasida ham keng qo‘llanilgan.
- **Ijtimoiy siyosat** – insonlar tub manfaatini himoya qilishga, ularning moddiy, madaniy, ma’naviy hayotini yaxshilashga, sog‘lig‘ini saqlashga, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, texnikaviy, estetik, darajasini ko‘tarishga mo‘ljallangan asosli tadbirlar.
- **Ilmi nujum** – yulduzlar ilmi.
- **Imperiya** (lot.) – hokimiyat, saltanat ma’nosini anglatadi. Ko‘p hollarda o‘z tarkibiga boshqa xalqlar va mamlakatlar hududlarini qo‘shib olgan katta davlatni anglatadi. M.: Rim imperiyasi, Amir Temur imperiyasi.
- **Integratsiya** (lot.) – tiklash, to‘ldirish, bir butun ma’nosida ishlatiladi. Alohida ajralib turgan qismlarni bir butun holatga keltirish jarayonini

anglatadi. M.: Iqtisodiy integratsiya bir necha davlatlar iqtisodini bir-biriga bog‘laydi, moslashtiradi, iqtisodiy hamkorlik holatini yuzaga keltiradi.

– **Investitsiya** (nem.) – bir hududdan ikkinchi bir joyga aqliy va moddiy sarmoya kiritish.

– **Intervensiya** (lot.) – Bir davlatning ikkinchi bir davlat ichki ishlariga aralashishini, ko‘proq harbiy harakatlarini anglatadi.

– **Internatsional** (lot.) – xalqlar o‘rtasidagi munosabatni bildiradi. O‘zbekchada baynalmilal atamasi qo‘llaniladi.

– **Inflyatsiya** (lot.) – pulning qadrsizlanishi.

– **Inqilob** (ar.) – tabiat va jamiyatda biror hodisaning rivojlanishida ro‘y beradigan chuqur va keskin sifat o‘zgarishlari. Ko‘p hollarda revolyutsiya so‘zi bilan ifodalanadi.

– **Islohot** (ar.) – Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizim (struktura) asoslarini saqlagan holda hayotning biror tomonini, yo‘nalishini qisman o‘zgartirish, qayta qurish, yangiliklarni joriy va tatbiq etish. M.: Iqtisodiy islohotlar, madaniy islohotlar.

– **Istibdod** (ar.) – boshqa davlatga (xalqqa) qaram bo‘lib qolgan mazlum xalqning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy jihatlardan ezilishi, xo‘rlanishi.

– **Istiqlol** (ar.) – mustaqillik, xurlik ozodlik, erkinlik.

– **Istiqbol** (ar.) – shaxsning, xalqning, davlatning kelajagi, taqdiri.

– **Iqtisod** (yun. Ekonomika) – uch xil ma‘noda ishlatiladi: 1) ishlab chiqarish munosabatlarining bir butunligi, yaxlitligi yoki jamiyatning iqtisodiy asosi; 2) muayyan mamlakat xalq xo‘jaligi yoki uning biror sohasini qamrab olgan qismi va ishlab chiqarish turlari; 3) ishlab chiqarish munosabatlarini o‘rganuvchi fan.

– **Ichki siyosat** – muayyan davlatning ichki muammolarini xalq etishga qaratilgan tadbirlar majmuasi.

– **Ishlab chiqarish kuchlari** – mehnatga yaroqli kishilar (ishchi kuchlari) va ishlab chiqarish vositalari (mehnat ashyolari va mehnat qurollari) yig‘indisi, ularning bir butunligi.

– **Ishlab chiqarish munosabatlari** – kishilarning ishlab chiqarish va iste‘mol jarayonida moddiy-iqtisodiy munosabatlarni yoki ularning mulkka daxlliklari tufayli kelib chiqadigan munosabatlar.

– **Iqto** (ar.) – o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida yirik mansabdorlarga xadya qilingan yer (mulk).

J

- **Jabg‘u** (yabg‘u.) – G‘arbiy turk hoqonligida qabila, ulus boshlig‘iga berilgan unvon.
- **Javong‘or** (t.m.) – qo‘shinning so‘l qanoti.
- **Jayhun** (ar.) – VIII asrdan boshlab, hozirgi Amudaryo arab manbalarida shu nom bilan yuritilgan.
- **Joniylar** – Buxoro xonligining 1601- yildan 1753- yilgacha idora qilgan sulola. Tarixda u ashtarxoniyalar sulolasi deb ham ataladi.
- **Juoz** (fors.) – moy chiqaradigan dastgoh.
- **Jadidlar** (ar.) – yangi usulda ma‘rifat tarqatuvchilar. Turkistonda XX asr boshlarida yangicha maktablar tashkil etib, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni keng targ‘ib qilgan fidoiylar.

K

- **Kadet (kadetlar)** – Rusiyada 1905-1907- yillarda tashkil topgan konstitutsiyaviy-demokratik partiya a‘zosi (a‘zolari). Konstitutsiyaga asoslangan demokratik davlat qurish maqsadini yoqlovchi siyosiy partiyaning qisqartirilgan nomi.
- **Kadivar (kadivarlar)** – Markaziy Osiyoda IV -VI asrlarda feodal munosabatlarining dastlabki alomatlari paydo bo‘la boshlagan davrda yirik yer egalari – mulkdor zodagonlarga (dehqonlarga) qaram bo‘lib qolgan yersiz mehnatkashlar.
- **Katiba** (ar.) – tosh yoki koshinlarda bitilgan yozuv.
- **Kengash** (turk.) – mashvarat, maslahat majlisi.
- **Kapitulyatsiya** (lot.) – taslim bo‘lish, yengilganligini tan olish.
- **Koalitsiya** (lot.) – birlashish, ma‘lum maqsad yo‘lida ittifoq tuzish.
- **Komissar** (fr.) – vakil, harbiy komissariat rahbari. Avval sobiq SSSRda harbiy qismlarda siyosiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus ofitserlar ham komissar nomi bilan atalganlar.
- **Kompromiss** (lot.) – kelishuv, murosa.
- **Konsessiya** (lot.) – ruxsat etish. Davlat tasarrufida bo‘lgan tabiiy boyliklar (o‘rmonlar, konlar, suv xavzalari), korxonalar va boshqa xo‘jalik inshootlarining shartnoma asosida boshqa davlat yoki xorijiy ishbiarmonlarga foydalanish uchun berilishi.
- **Konsensus** (lot.) – bitimga kelishuv, umumiy xulosaga kelish.
- **Konsepsiya** (lot.) – ikki xil ma‘noda qo‘llaniladi: 1) Birorta xodisani, voqeani, jarayonni tushuntirishning ma‘lum usuli, masalaga nisbatan asosiy nuqtai-nazar, bosh g‘oya; 2) ilmiy, adabiy, texnikaviy, siyosiy faoliyatda yetakchi fikr.

- **Konstitutsiya** (lot.) – tuzilish, jamlash, ustqurma ma'nolarini anglatadi. Davlatning asosiy qonuni sanaladi va oliy xuquqiy kuchga ega bo'lib, mazkur davlatning siyosiy, xuquqiy va iqtisodiy tizimlari asoslarini belgilovchi bosh hujjat.
- **Konversiya** (lot.) – holatni o'zgartirish, asosan harbiy sanoat holatini o'zgartirish.
- **Konvensiya** (lot.) – xalqaro shartnoma.
- **Koriz** (so'g'd.) – yer ostidan o'tkazilgan ariq.
- **Korrupsiya** (lot.) – buzilish. Amaldor shaxslarning boylik orttirish maqsadida o'ziga berilgan mansab vazifasidan foydalanishi natijasida kelib chiqadigan jinoyat. Davlat, siyosiy va jamoat xodimlarining pulga, ashyo evaziga qilgan sotqinligi.

L

- **Langar** (fors.) – yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy, xonaqoq. Pirumurshidlar ko'milgan joy.
- **Laureat** (lot.) – katta yutuqlari uchun mukofotlangan sovrindor.
- **Lahim** (turk.) – yer osti yo'li. Lahim odatda jang paytida dushman qal'asi devorini yiqitish yoki biror inshootga yer ostidan borib zarar yetkazish, zindon va tutqinlikdan qutilib qochish, yer osti suvlarini yuzaga chiqarish va boshqa maqsadlarda qaziladi.
- **Legal** (lot.) – qonun tan olgan, qonuniy, ochiq.
- **Leytenant** (fr.) – kichik ofitserlarning harbiy unvoni.
- **Liberal** (lot.) – erkparvar, jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy erkinlikka, tadbirkorlikdagi bemaoligarchilikka moyil kishi.
- **Litsey** (yun.) – jahonning bir qator mamlakatlaridagi o'rta bilim beruvchi o'quv yurti.
- **Lazaret** (fr.) – harbiy qismlardagi yengil kasallarni davolash maskani, shifoxona.
- **Lashkar** (fors.) – qo'shin, armiya.
- **Landshaft** (nem.) – u yoki bu joyning umumiy manzarasi.
- **Liga** (fr.) – birlashma. M.: Millatlar ligasi.
- **Luqmon** – Markaziy Osiyo hududlarida azaldan dono, bilimdon, odil, ishbilarmon shaxs ma'nosida keng qo'llanilgan.

M

- **Madaniyat** (ar.) – dastlab shaharlik degan ma'noda ishlatilgan. Inson sivilizatsiyasining mevasi. Moddiy va ma'naviy yutuqlar majmuasi.
- **Madrassa** (ar.) – darsxona, tahsil oladigan muassasa, oliy o'quv yurti.

- **Madxiya** (ar.) – maqtash, tahsinlar aytish.
- **Mayor** (lot.) – harbiy ofitser unvoni.
- **Manifest** (lot.) – rasmiy va ochiq izxor etilgan hujjat, dastur.
- **Masjid** (ar.) – musulmonlarning jam bo‘lib namoz o‘qiydigan ibodatxonasi.
- **Marshal** (fr.) – oliy harbiy unvon.
- **Mashvarat** (ar.) – maslahat, kengash, yig‘in.
- **Mafkura** (ar.) – g‘oya, fikrlash mevasi, dunyoqarash.
- **Ma‘muriyat** (ar.) – mansabdorlar idorasi.
- **Ma‘naviyat** (ar.) – insonning e‘tiqodi, odob-axloqi, insonga mehr-muruvvati, Vatan oldidagi burchini anglash, umumjahon qadriyatlariga hurmat.
- **Ma‘rifat** (ar.) – bilim, anglash, madaniyatni yoyish.
- **Mandat** (lot.) – vakolat xususidagi hujjat.
- **Manyovr** (fr.) – harbiy mashqlarda yoki urush jarayonida zudlik bilan qulay sharoitni egallash.
- **Mazdak harakati** – Eron va Markaziy Osiyoda milodiy V-VI asrlarda vujudga kelgan harakat. Uning asosiy maqsadi ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash bo‘lgan.
- **Medal** (fr.) – ko‘krak nishoni.
- **Mentalitet** (lot.) – asosiy belgi, muhim qiyofa
- **Militarizm** (lot.) – davlatning harbiylashgan siyosati, shu siyosat targ‘ibotchilari.
- **Millatchilik** – odamlarni millat, elat asosida ajratish, boshqa millat vakillarini mensimaslik, o‘z millatini ustun qo‘yish.
- **Milliylik** – milliy an‘ana, odatlarga sodiqlik, ularni hurmat qilish.
- **Mintaqa** – hudud, territoriya.
- **Movarounnaxr** (ar.) – asl ma‘nosi daryoning narigi betidagi hudud. VII-VIII asrlarda arablar O‘rta Osiyoni istilo qilganlarida Amudaryo va Sirdaryo vohasidagi yerlarni shunday ataganlar.
- **Monarxiya** (yun.) – yakkahokimlik.
- **Monopoliya** (yun.) – u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishga, savdotsotiq xuquqiga faqat o‘zi ega bo‘lgan shaxs, guruh yoki davlat.
- **Monoetnik davlat** – aholisining mutlaq ko‘pchiligi bir millatni tashkil qilgan mamlakat.
- **Moratoriy** (lot.) – ma‘lum sabablarga ko‘ra biron tadbirni vaqtincha to‘xtatib qo‘yish, kechiktirish.
- **Mudarris** (ar.) – dars beruvchi, o‘qituvchi.

– **Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH)** – sobiq SSSR hududidagi respublikalarning o‘zaro hamdo‘stligi.

N

– **Navkar** (fors.) – xon, podshoh, sulton va feodallarning doimiy harbiy xizmatchisi.

– **Najjor** (ar.) – duradgor.

– **NATO** – bir qator davlatlarning shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti, harbiy-siyosiy ittifoq. 1949- yilda AQSH tashabbusi bilan yuzaga kelgan. 1991- yildan asosiy maqsadlariga birmuncha o‘zgartirishlar kiritilgan.

– **Naftandoz** (ar. f-t.) – neftni yondirib otish quroli. Qadimgi dushmanni jarohatlash maqsadida Sharq mamlakatlarida keng qo‘llanilgan.

– **Nizom** (ar.) – qoida, tartib, intizom.

– **Navro‘z** (fors.) – yangi kun. Quyosh yili hisobida yangi yil, bahor faslining birinchi kuni.

– **Naxshab** – Qashqadaryo vohasi etagining qadimgi nomlanishi (hozirgi Qarshi vohasi).

– **Natsizm** – 1933-1945- yillarda Germaniyada hukm surgan o‘ta millatchi g‘oya.

– **Neytralitet** (lot.) – holis bo‘lmoq. Xalqaro munosabatlarda u yoki bu tarafni yoqlamasdan, o‘z siyosatini olib borish.

– **Neofashizm** – zamonga moslashgan, lekin asl mazmunini yo‘qotmagan fashizm g‘oyalari.

– **Noyib** (ar.) – o‘rta asrlarda musulmon davlatlarida o‘lka yoki viloyat hukmdori. Oltin o‘rdada noyib xonning yirik viloyatlardagi yordamchisi.

– **Novatsiya** (lot.) – yangilik, o‘zgarish kiritish.

– **Nota** (lot.) – bir davlatning ikkinchi davlatga diplomatik yo‘l bilan qilgan murojaati.

– **No‘yon** (m.t.) – bir tuman (10 ming kishi) qo‘shin qo‘mondoni. Qadimiy turk va mo‘g‘ul qo‘shinlarida shahzoda va sultonlar no‘yon deb atalgan.

O

– **Ober-ofitser** (nem.) – ayrim mamlakatlarda kichik ofitserlarning (praporshikdan to kapitangacha) umumlashgan unvoni.

– **Observatoriya** (lot.) – koinotni kuzatuvchi ilmiy dargoh, rasadxona.

– **Okkupant** (lot.) – o‘zga yerlarni bosib oluvchi.

– **Oligarxiya** (yun.) – ozchilik tomonidan amalga oshirilayotgan hokimiyat.

- **Olimpiada** (yun.) – qadimgi yunonlarda Olimpiya shahrida 4- yilda bir marta o‘tkaziladigan sport o‘yinlari, musobaqalari.
- **Operatsiya** (lot.) – harakat, tadbir, amaliyot.
- **Optimizm** (lot.) – hayotbaxsh kayfiyat.
- **Otashkada** (fors.) – otashparastlar sig‘ingan doimiy olov. Yonib turadigan maxsus bino.
- **Ofitser** (nem.) – harbiy qismlardagi turli darajadagi boshliqlar.
- **Oftobachi** (fors.) – O‘rta Osiyo xonliklarida hukmdor saroyida hukmdorning qo‘liga suv quyuvchi shaxs bo‘lib, yuqori mavqega ega bo‘lgan lavozimlardan biri.
- **Orden** (lot.) – Vatan oldidagi o‘ta ibratli xizmatlari uchun beriladigan ko‘krak nishoni.
- **Og‘aliq** – hokimlik, boshliq, mansab lavozimi.

P

- **Parlament** (fr.) – demokratik mamlakatlarda oliy davlat vakillik organi bo‘lib, u qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament AQSHda – kongress, Rusiyada – Duma, Germaniyada – bundestag, Ozarbayjonda – milliy majlis, O‘zbekistonda – Oliy majlis, Qoraqalpog‘istonda – joqarigi kenges deb ataladi.
- **Partizan** (fr.) – o‘z mamlakatini tajovuzkorlardan ozod etish maqsadida qurollangan kurashuvchi.
- **Partiya** (lot.) – guruh, bir qism, yirik siyosiy birlashma. Siyosiy partiya – kishilarning o‘z ixtiyori bilan ma’lum bir umumiy maqsadga erishish yo‘lidagi tashkilot.
- **Patriarx** (yun.) – ma’lum bir guruhning otaxoni, boshlig‘i.
- **Patsifizm** (lot.) – urush, zo‘ravonliklarni qoralovchi, murosachilikni yoqlovchi oqim.
- **Parlamentyor** (fr.) – urushayotganlarning bir tomoni nomidan vakil bo‘lib kelgan va ikkinchi taraf rahbarlari bilan muzokara olib boruvchi shaxs.
- **Paritet** (lot.) – tenglik, taraflarning teng xuquqliligi.
- **Partnyor** (fr.) – sherik, hamroh.
- **Petitsiya** (lot.) – yuqori tashkilotlarga ko‘pchilik bo‘lib yozma ravishda beriladigan iltimosnoma.
- **Peshvo** (fors.) – yo‘lboshchi, raxnamo, yo‘l boshlovchi.
- **Platforma** (fr.) – ma’lum bir siyosiy partiya, jamoa, tashkilotning aniq dasturi.

- **Platsdarm** (fr.) – askarlar harakatiga mo‘ljallangan maydon, harbiy hujum boshlashga tayyorlangan hudud.
- **Plyuralizm** (lot.) – jamiyatdagi turli siyosiy qarashlar, oqimlar majmuasi, ularning demokratik asosdagi raqobatlar.
- **Prezident** (lot.) – ko‘p demokratik davlatlardagi davlat boshlig‘i.
- **Premer-ministr** (fr.) – bosh vazir, hukumat boshlig‘i.
- **Programma** (yun.) – dastur, amalga oshirilishi mo‘ljallangan bayonnoma.
- **Progress** (lot.) – olg‘a harakat, taraqqiyot.
- **Polietnik davlat** – ko‘p millatli davlat.
- **Putch** (nem.) – bir to‘da tomonidan amalga oshiriladigan davlat to‘ntarishi.
- **Protektorat** (lot.) – xomiy, ximoya qiluvchi. Bir necha ma’noda ishlatiladi: 1) Mustaqillikning yashirin turi 2) boshqa davlatga qaram bo‘lgan yurt 3) otaliqqa, xomiylikka olish.

Q

- **Qabo** (ar.) – jubba (sovut) ostidan kiyiladigan uzun ust kiyimi. Shohlik qabosi podshohlarning ana shunday kiyimi.
- **Qadoq** (turk.) – qadimgi va o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan og‘irlik birligi. XX asr boshlarigacha O‘rta Osiyo hududida keng qo‘llanilgan. Bir qadoq 409,512 grammga teng bo‘lgan.
- **Qamar** – oynning arabcha nomi.
- **Qarovulbegi** (turk.) – posbonlar boshlig‘i.
- **Qiyrat** (yun.-fr.) – misqolning 1/24 (yigirma to‘rt dan bir) qismi bo‘lib, u 0,195 grammga teng bo‘lgan.
- **Qiroat** (ar.) – baland ovoz bilan ta’sirli va ifodali o‘qish, mutolaa qilish.
- **Qopchur** (m.) – ko‘chmanchi xalqlardan va qabilalardan undiriladigan soliq. Qopchur solig‘ining miqdori yuz bosh hayvondan birini, ba’zan qirqdan birini tashkil etgan.
- **Qurultoy** (m.) – turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida ayrim vaqtlarda o‘tkaziladigan umumiy yig‘in yoki umumiy kengash. Qurultoylarda siyosiy masalalar ko‘rilgan.
- **Qushbegi** (turk.) – XV-XVI asrlarda podshoh va xonlar qushxonasining mutasarrufi bo‘lgan. Uning zimmasiga ovni tashkil qilish va o‘tkazish vazifalari yuklatilgan.

R

- **Rabod** (ar.) – musulmon Sharqidagi o‘rta asr shaharlarining savdo va hunarmandchilik do‘konlari joylashgan qismi.
- **Ravoq** (ar.) – katta binolarning old tarafida baland qilib ishlangan ko‘rkam va savlatli qismi.
- **Radar yoki radiolokator** (ing.) – radio yordamida, ya’ni nurlar orqali masofani aniqlash va belgilash vositasi.
- **Radiogramma** (lot.) – radioxabar, axborot.
- **Ratifikatsiya** (lot.) – ahdlashuvchi davlatlarning muhtor vakillari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma yoki bitimning davlatning oliy hokimiyati (kongress, parlament, дума, oliy majlis) tomonidan tasdiqlanishi.
- **Rang** (nem.) – tabaqa, lavozim darajasi.
- **Rasadxona** (fors.) – osmon jismlarining holati va harakatini kuzatadigan maxsus joy.
- **Reaksiya** (lot.) – 1) u yoki bu harakat ta’siriga qarshi holat; 2) jamiyatda ilg‘or o‘zgarishlarga qarshi bo‘lgan harakat.
- **Rezerv** (fr.) – zaxira, extiyot qism. Harbiyda og‘ir, mushkul sharoitda ishga solinadigan ehtiyot harbiy qism.
- **Reyxstag** (nem.) – davlat majlisi. 1871-1945- yillardagi Germaniya parlamenti.
- **Renatriatsiya** (lot.) – harbiy asrlarni, boshqa qochoqlarni o‘z vataniga qaytarish.
- **Reforma** (lot.) – islohot, o‘zgartirish.
- **Rasadxona** (ar.) – osmon jismlarini kuzatish joyi.
- **Raqobat** (ar.) – ziddiyat, qarama – qarshilik.
- **Revansh** (fr.) – qasos. Urushda yuz bergan mag‘lubiyat uchun o‘ch olish. Revanshizm – qasos olish siyosati.
- **Raiyat** (ar.) – tobe kishilar, oddiy xalq.
- **Reviziya** (lot.) – qayta ko‘rib chiqish. Revizionizm – biron bir xulosaga o‘zgartirish kiritish maqsadida olib borilgan siyosat.
- **Revolyutsiya** (fr.) – inqilob, keskin sifat o‘zgarishi.
- **Rekonstruksiya** (lot.) – qayta qurish, qayta tiklash.
- **Renessans** (fr.) – tiklanish, uyg‘onish. M: Sharq uyg‘onish davri, G‘arbiy Yevropa uyg‘onishi.
- **Respublika** (lot.) – davlat, oliy hokimiyati saylanib turadigan siyosiy tuzum.
- **Rivoyat** (ar.) – hikoya, afsona.

- **Riyoziyot** (ar.) – matematikaning XX asrning 40- yillarigacha o‘zbek tilida ishlatilib kelingan nomi. Hozir ham ayrim Sharq tillarida qo‘llaniladi.
- **Robita** (ar.) – aloqa, munosabat, vosita.
- **Rum** – Rim imperiyasining o‘tmishda Sharq va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan nomi.

S

- **Sadr** (ar.) – Buxoro amirligida XIX-XX asrlarda amalda bo‘lgan, diniy ilohiyot ilmida erishgan yutuqlariga qarab beriladigan unvon bo‘lib, oldin “o‘roq”, “sudur” va ulardan keyin oxirgi, uchinchi unvon “sadr” bo‘lgan.
- **Saklar (Shaklar)** – milod. avv. 1- mingyillik va milodning boshlarida O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning shimoli-sharqiy rayonlarida yashagan chorvador qabilalar.
- **Salavkiylar davlati** – Yaqin va O‘rta Sharqdagi yirik davlat. Aleksandr Makedonskiy tuzgan imperiya tanazzulga uchragach, uning lashkarboshilaridan bo‘lgan Babil satrapiyasining diodoxi Salavk 1 Nikotor asos solgan.
- **Sanatsiya** (lot.) – davolash, oyoqqa turg‘izish. Iqtisodiyotda tushkunlikka uchragan korxonaga moliyaviy yordam berib, uning faoliyatini yaxshilash.
- **Sapyor** (fr.) – yer kovlash ma’nosini beradi. Injenerlik harbiy qismlarining yo‘l qurilish, ko‘prik o‘rnatish ishlarini amalga oshiradigan askar.
- **Sarxad** (fors.) – chegara.
- **Satrap** (fors.) – o‘lka bosh ma’muri, keng vakolatli amaldor.
- **Sardor** (fors.) – boshliq, qo‘mondon.
- **Saffor** (ar.) – misgar, mis bilan ishlovchi.
- **Seym** (lot.) – ayrim davlatlardagi parlament nomi.
- **Sektsiya** (lot.) – biron tashkilot yoki uyushmaning bir qismi.
- **Senat** (lot.) – ayrim mamlakatlardagi parlamentning yuqori palatasi.
- **Sipoh** (fors.) – qo‘shin, lashkar.
- **Samoderjaviye** (rus.) – Rusiyadagi hokimiyatni boshqarishning yakka hokimlik shakli.
- **Separatizm** (lot.) – ajralish, ittifoqdan chiqish. Uyushmadan ajralgan holda mustaqil xulosaga kelish, bir taraflama sulx tuzish.
- **Siyosat** (ar.) – saltanatni, davlatni boshqarish, jamoa ishlarini tashkil qilish maxorat. Siyosat, shuningdek hokimiyatni egallash, uni saqlab qolish, undan foydalanish, boshqarishga fuqarolarni jalb etish va shu kabilarni o‘z

ichiga oladi. Siyosat ichki va tashqi qismlarga, iqtisodiy-ijtimoiy, maorif, madaniy yoʻnalishlariga ega. Siyosat ilmu fan ham sanʼatni talab etadi.

– **Siyosiy ong** – ijtimoiy subyektlar (ayrim shaxslar, guruhlar, tabaqalar, sinflar) ning siyosiy jihatlarini (sohalarini) anglab olish. Siyosiy ong voqelikni tegishli darajada qabul qilish, bilish va baholash majmuasi boʻlib, muayyan siyosatga (mazkur davlat siyosatiga) shaxsning munosabatini belgilaydi.

– **Siyosiy tizim** – davlat muassasalari, siyosiy partiyalar, jamoat uyushmalarining yigʻindisi va jamiyatning siyosiy hayotini va davlat hokimligini amalga oshirishni oʻz ichiga olgan sifat belgilari. Masalan, Oʻzbekiston davlatining siyosiy tizimi demokratik, huquqiy, fuqarolik xususiyatlariga asoslangan.

– **Simpozium** (yun.) – xalqaro yoki ilmiy sohalar boʻyicha oʻtkaziladigan majlis, anjuman.

– **Sovetlar** – XX asr boshlarida Rossiyaning ayrim shaharlarida mehnatkashlarning vakillari yigʻinini “sovetlar” (“shoʻrolar”) deb ataganlar. 1917- yil oktyabr toʻntarishidan keyin Lenin rahbarligida oʻrnatilgan hokimiyatni sovetlar hukumati deyilgan. Sobiq SSSRda to 1991- yil oxirigacha rasmiy hokimiyat sovetlar qoʻlida boʻlgan.

– **Sinogoga** (yun.) – yigʻin, toʻplanish degan maʼnoni beradi. Yaxudiyning ibodatxonasi.

– **Sovuq urush** – Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda yirik davlatlar oʻrtasidagi oʻzaro ishonchsizlik oqibatida vujudga kelgan munosabatlar.

– **Snayper** (ing.) – mergan, mohir oʻqchi.

– **Sotsiologiya** (lot.) – ijtimoiy hayotning qonun-qoidalarini, jamiyatdagi umumiy oʻzgarishlarni oʻrganuvchi fan.

– **Sotsial-demokrat** – ijtimoiy demokratiya oqimining qatnashchisi yoki sotsial-demokratik (sotsialistik) partiya aʼzosi.

– **Sotsial-demokratiya** – XIX asr oxirlarida xalqaro ishchilar harakati doirasida paydo boʻlgan siyosiy oqim. Shu asosda bir necha mamlakatlarda siyosiy partiyalar tashkil topgan edi. Yevropaning ayrim davlatlarida hozir ham bunday siyosiy guruhlar mavjud.

– **Student** (lot.) – astoydil oʻrganuvchi (ilm-fanni). Ilm talab, bilmoqqa ehtiyoj sezuvchi.

– **Strategiya** (yun.) – harbiy strategiya- harbiy sanʼatning eng oliy sohasi. Mamlakat va qurolli kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti urushni rejalashtirish va olib borish masalalarini oʻz ichiga oladi. Urush qonuniyatlarini tadqiq qiladi, katta muhim amaliyotlarni tayyorlash va oʻtkazish usullari hamda shakllarini ishlab chiqadi, harbiy qismlarning maqsad va

vazifalarini belgilab beradi, asosiy kuchlarni eng muhim yoʻnalishlar boʻyicha taqsimlaydi.

– **Strateg** (yun.) – sarkarda, yirik amaliyotchi. Masalan, Amir Temur, Napoleon, G. Jukov kabi shaxslar buyuk strateg boʻlganlar.

– **Status** (lot.) – holat, maqom.

– **Suverenitet** (fr.) – davlatning mustaqilligi, oʻz ichki va tashqi siyosatini mustaqil olib borilishi va ustunligi. Suverenitetni xurmat qilish-hozirgi xalqaro huquq va munosabatlarning muhim tamoyili, bu hol BMT ustavi va boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Oʻzbekiston Konstitutsiyasida davlatimiz suvereniteti qonun asosida qayd etilgan.

– **Solnoma** (fors.) – yilnoma. Tarixiy asar, badiiy adabiyot turi, Oʻrta sharq mamlakatlarida, arab va ajam xalqlarida dastlabki solnomalar milodiy VII asrdan yozila boshlangan.

– **Suyurgʻol** -XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo va Oʻrta sharqning bir qancha mamlakatlarida alohida xizmat koʻrsatgan shaxslarga berilgan inʼom (yer-suv, mol-mulk, xatto bir hudud), Masalan, Amir Temur egallagan horijiy mamlakatlarni oʻz oʻgʻillari va nabiralariga suyurgʻol sifatida inʼom etgan.

– **Sunna** (ar.) – islomda Muhammad alayxissalom aytganlarini va kechmishlarini tan olmoq hamda Qurʼonga va xadislarga itoat etish aqidasi.

– **Seytnot** (nem.) – vaqtning yetishmasligi.

– **Senzura** (lot.) - matbuotda bosib chiqariladigan maʼlumotlarda davlat sirlarini oshkora qilmaslik maqsadidagi nazorat.

– **Sentralizm** (lot.) – markazlashtirish yoʻli bilan davlat boshqaruvini tashkil etilishi.

– **Seremoniya** (lot.) – aniq belgilangan tantanali rasmiy marosim.

– **Sivilizatsiya** (lot.) – ijtimoiy taraqqiyot, moddiy va maʼnaviy yutuqlari darajasi.

T

– **Tabl** (ar.) – katta nogʻora, dovul.

– **Taktika** (yun.) – askarlarni peshlash, epchillikka oʻrgatish sanʼati, yoʻsini. Harbiy sanʼatning muhim tarkibiy qismi.

– **Tanob** (f.t) – Oʻrta Osiyo xonliklarida ekin maydonini oʻlchash uchun ishlatiladigan yuza birligi. 1 tanob 3600 m².

– **Tafakkur** (ar.) – fikr yuritish, mulohaza etish.

– **Tashqi siyosat** – davlatning boshqa mamlakatlar bilan boʻlgan munosabatlariga oid tamoyillari.

- **Tariqat** (ar.) – to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi usul.
- **Tahdid** (ar.) – xavf-xatar, taxlika, qo‘rqinch.
- **Tarixiy manba** – o‘tmishni to‘laroq o‘rganishda ko‘maklashuvchi ashyo‘viy va yozma dalillar, faktlar, yodgorliklar, hujjatlar, darsliklar, kitoblar.
- **Tarixiylik** – voqelikni to‘g‘ri anglash tamoyili. O‘tmishda bo‘lib o‘tgan hodisa, voqealarni xolis o‘rganish, ularni haqqoniy tushunish yo‘sini, uslubi. U voqelikni sodir bo‘lish sabablari, uning rivojlanish sharoitlari va jarayonlari, hamda oqibatini o‘rgangan holda masalaga yondoshishni taqozo qiladi. U moziyni ilmiy jihatdan to‘g‘ri o‘rganish va bilishga ko‘maklashadi, shu tahlil asosida bugungi voqelikni anglash va kelajakni bashorat qilishga imkon beradi.
- **Totalitar tuzum** (fr.) – jamiyatning barcha sohalarini davlat organlari tomonidan to‘la nazorat qilishga erishgan tuzum.
- **Tribunal** (lot.) – maxsus harbiy sud (vakolati keng bo‘lgan sud jamoasi).
- **Tuman** – ma‘muriy hududiy bo‘linish, rayon, nohiya.
- **Temur tuzuklari** – Amir Temurning saltanatni idora qilish qonun-qoidalarini xususidagi asari.
- **Telegramma** (yun.) – telegraf orqali berilgan xabar.
- **Tet-a-tet** (fr.) – yakkama-yakka uchrashuv.
- **To‘ra** (turk.) – Buxoro amirligining amir o‘g‘illariga hamda Turkiston o‘lkasida podshoh ma‘murlari nomiga hurmat yuzasidan qo‘shib aytilgan atama.

U

- **Ulamo** (ar.) – islom mamlakatlarida ilmiy bilimdon, o‘qimishli kishilar.
- **Ulus** (mo‘ng.) – davlat, yurt, xalq.
- **Ultimatum** (lot.) – so‘nggi, oxirgi shart.
- **Ummaviylar** – arab xalifalari sulolasi (661-750). Asoschisi makkalik yirik savdogar va qurayshiyalar zodagoni Abu So‘fyonning o‘g‘li Muoviyadir.
- **Ushr** (ar.) – musulmon mamlakatlarida natura shaklida undirilgan soliq. Ushr solig‘i har- yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan.
- **Universal** (lot.) – umumiy, keng qamrovli.
- **Unitar davlat** (fr.) – o‘ta markazlashgan davlat.
- **Unter-ofitser** – kichik komandirlik unvoni.

- **Utopiya** (yun.) – hayoliy, amalda bo‘lmagan mukammal jamiyat, xom hayolparastlik.
- **Uzurpator** (lot.) – hokimiyatni g‘ayri qonuniy yo‘l bilan qo‘lga olgan shaxs.

V

- **Vazir** – arabcha so‘z bo‘lib, yordam ko‘rsatuvchi, yordamchi degan ma‘noni anglatadi.
- **Vakil** (ar.) – gumashta, biror ishga vakolat olgan shaxs.
- **Valiahd** (ar.) – podshoh yoki xonning tiriklik chog‘ida o‘z o‘rniga tayinlab qo‘ygan taxt vorisi. Valiahd podshoh yoki xonning qaroridan keyin maxsus davlat kengashida tasdiqlangan.
- **Valyuta** (it.) – u yoki bu davlatning oltin yoki boshqa qimmatbaho buyumlar bilan kafolatlangan, tashqi savdo qadriga ega bo‘lgan pul birligi.
- **Varshava shartnomasi tashkiloti** – SSSR va Yevropadagi bir qator sotsialistik davlatlar tomonidan 1955- yil tashkil topgan. Harbiy-siyosiy tashkilot. U asosan NATO mamlakatlariga qarama-qarshi niyatda tuzilgan edi. 1991- yilda tarqalib ketgan.
- **Vasiy** (ar.) – vasiyatni ijro etuvchi shaxs.
- **Vasiqa** (ar.) – yer-mulk oldi-sotdisi to‘g‘risida tuzilgan rasmiy shartnoma. Vasiqa ko‘chmas mulkka doimiy yoki vaqtincha egalik qilish huquqini bergan.
- **Vermaxt** (nem.) – fashistlar Germaniyasining qurolli kuchlari.
- **Veto** (lot.) – ta‘qiq, ma‘qullamaslik, qarshi chiqish.
- **Volyuntarizm** (lot.) – iroda so‘zidan. Jamiyatda, siyosatda irodaning roli va o‘rniga ko‘proq e‘tibor berish oqimi.

X

- **Xabarchi** (ar. f.-t.) – O‘rta Osiyo xonliklarida xon va mahalliy hukmdorlarning xat va xabarlarini tashuvchi yoki yetkazuvchi kichik lavozimdagi xizmatkor.
- **XVF** – xalqaro valyuta fondi.
- **Xameleon** (yun.) – ma‘lum bir prinsipda turmaydigan, o‘z dunyoqarashini tez o‘zgartirib turadigan shaxs.
- **Xatib** (ar.) – odatda masjidida juma va diniy bayram kunlari, ya‘ni hayit namozlari paytida xutba o‘qiydigan dindor.
- **Xattotlik** (ar.) – yozuv, xat san‘ati, kitob ko‘chirish kasbi.
- **Xiroj** (ar.) – o‘rta asrlardagi yer solig‘i.

- **Xoqon** – turk, xitoy, mo‘g‘ul hukmdorlari unvoni. Xoqon atamasi birinchi marotaba 312- yilga oid bo‘lgan Xitoy- yilnomalarida uchraydi.
- **Xronologiya** (yun.) – solnoma.
- **Xunta** (isp.) – hokimiyatni noqonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan harbiy guruh.

Y

- **Yuzboshi** (turk.) – qadimgi davrlarda va o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo hududida yuz nafar askar boshlig‘i yuzboshi deb atalgan.
- **YUNESKO** – BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanadigan tashkiloti. U hukumatlararo tashkilot bo‘lib, 1946- yilda tuzilgan. Bosh qarorgohi Parijda joylashgan.
- **Yuriskonsult** (lot.) – huquqshunoslik ishlari bo‘yicha maslahatchi.
- **Yurisprudentsiya** (lot.) – huquqshunoslik, qonunga oid amaliyotlar.
- **Yurchi** (turk.) – Buxoro amirligida amir o‘tadigan ko‘chalarni tozalashni uyushtiradigan mansabdor.
- **Yalovbardor** – bayroq ko‘tarib boruvchi bayroqdor. Movarounnahr va O‘rta Osiyo xonliklari qo‘shinlarida bayroq ko‘tarib yuruvchi maxsus kishilar bo‘lib, ular yalovbardor deb atalgan.
- **Yalavoch** (turk.) – chopar, xabar eltuvchi.
- **Yaso (Yosoq)** (t.m.) – Chingizxon zamonida joriy etilgan qonun-qoida.
- **Yasovulboshi** (m.t.) – yasovullar boshlig‘i.
- **Yasoq** (m.t.) – Mo‘g‘ul imperiyasi, xususan Oltin O‘rda davlati tomonidan itoat ettirilgan xalqlardan natura bilan undirilgan soliq turi.
- **Yevroosiyo** – Yer sharidagi eng katta materik. Ikki qit‘adan – Yevropa va Osiyodan iborat.
- **Yerto‘la** (o‘zb.) – yerni o‘yib qurilgan turar joy. Yerto‘la to‘rtburchak, aylana shaklida, ba‘zilari esa yerdan bir oz yuqori ko‘tarilib, tomi yog‘och bilan, uning usti esa shox, xashak va turpoq tashlab berkitilgan bo‘ladi.
- **Yetti urug‘** – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug‘lar guruhi. Asosan Zarafshon daryosining o‘rta oqimida, qisman Toshkent vohasida yashagan.
- **Yorliq** (turk.) – yorliq, farmon, buyruq.
- **Yoyiq** (turk.) – Ural daryosining qadimgi va o‘rta asrlarda atalgan oldingi nomi. Yoyiq aslida turkiy so‘z bo‘lib, “keng” degan ma‘noni bildiradi. Yoyiq daryosining nomi 1785- yili Rusiya imperatori Yekaterina II tomonidan chiqarilgan farmon asosida Ural deb o‘zgartirilgan.

– **Yosh buxoroliklar** – Buxoro jadidlarining so‘l oqimidan tashkil topgan partiya bo‘lib, taraqqiyparvar va mahalliy burjuaziya vakillaridan tashkil topgan.

– **Yosh xivaliklar** – Xiva jadidlarining so‘l oqimidan tashkil topgan partiya (1917). O‘z safida savdogarlar, mayda dindorlar va xon xizmatida bo‘lgan ayrim amaldorlarni birlashtirgan.

Z

– **Zakovat** (ar.) – o‘tkir aql-idrok, zehn ma’nosini bildiradi. Donishmandlik ma’nosida keng qo‘llanilgan.

– **Zand** – Pahlaviy tilida “Avesto”ning tavsiri.

– **Zarbxona** (ar.f.-t.) – O‘rta Osiyo xonliklarida oltin, kumush, mis-jezdan tanga-chaqa zarb qiladigan joy.

– **Zar’** (fors.) – uzunlik o‘lchovi, 107 sm ga teng.

O‘

– **O‘nboshi** (turk.) – Amir Temur armiyasi va O‘rta Osiyo xonliklari qo‘shinlaridagi eng kichik harbiy bo‘linma boshlig‘i.

– **O‘lpon** (turk.) – O‘rta Osiyo xonliklari hududi chor Rusiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng joriy etilgan bo‘lib, ekin maydoni va olinadigan hosilning miqdoriga qarab, - yiliga bir marta undiriladigan yer solig‘i.

– **O‘tov** (m.t.) – ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xalqlarning asosiy turar joyi.

– **O‘g‘uzlar** – turkiy qabila. Markaziy va O‘rta Osiyoda yashagan. VII asr boshida Turk hoqonligi tarkibida to‘qqiz o‘g‘uz qabilasi ittifoqi paydo bo‘lib, bu ittifoqda ko‘pchilikni asosan uyg‘urlar tashkil etgan.

– **O‘g‘lon** – mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, taxt vorisi, shahzoda degan ma’noni anglatadi.

G‘

– **G‘oziy** (ar.) – Islom dini uchun g‘ayri dinlarga qarshi muqaddas urush –g‘azovot ishtirokchisi.

– **G‘oshiya** – egar ustiga tashlanadigan yopqich.

SH

– **Shajara** (ar.) – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog‘i – geneologiya fani o‘rganadi.

- **Shariat** (ar.) – musulmonlarning Qur'on asosida ishlab chiqilgan qonun-qoidalari.
- **Shturm** (nem.) – dushman istehkomini qo'lga olish maqsadidagi keskin harakat, hujum.
- **Shtab** (nem.) – askarlarni boshqarish markazi.
- **Shosh** (Choch) – Toshkentning qadimgi nomi.

CH

- **Cherik** (mo'g'.) – askar, qo'shin, lashkar.
- **Chokar** (fors.) – O'rta Osiyoda ilk feodalizm davrida feodallarga qarashli bo'lgan qurolli yigitlar guruhi.
- **Chopar** (turk.) – otliq xabarchi.
- **Chorsu** (fors.) – o'rta asr Sharq shaharlarida ikki yirik ko'cha kesishgan joy. Bunday joylarda odatda savdo rastalari, kosiblarning do'konlari joylashgan toqlar bo'lgan.
- **Cho'qmor** (turk.) – qo'l jangida ishlatiladigan oddiy qurol.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Муртазаева Р.Х. ва б. Ўзбекистон тарихи (Дарслик) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005 (лотин алифбосида).
2. Муртазаева Р.Х. ва б. Ўзбекистон тарихи (Ўқув қўлланма) – Тошкент: Академия, 2010.
3. Эргашев Қ., Ҳамидов Х. Ўзбекистон тарихи – Тошкент: Ғофур Гулом нашриёти, 2015.
4. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи (Дарслик) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
5. Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи. 1 жилд. Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача (Дарслик) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.
6. История Узбекистана (Учебник) – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2011.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947- sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
9. Усмонов Қ. ва б. Ўзбекистон тарихи – Тошкент: Иқтисод-молия, 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир рағбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан мы построим вместе с нашим мужественным и благородным народом // Народное слово. 2016. 15 декабря.
6. Мирзиёев Ш.М. Достижения науки – важный фактор развития // Народное слово. 2016. 31 декабря.
7. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили: [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Янги йил арафасида – 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намоёндалари билан учрашди] // Халқ сўзи. – 2016. – 31 дек. – Б.1.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллатаро дўстлик ва ҳамжихатлик – халқимиз тинчлиги ва фароонлигининг муҳим омилидир [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналминал маданият маркази ташкил этилганлигининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи] // Ma'rifat. – 2017. – 25 янв. – Б.1;2.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2018 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: IPTD “O‘zbekiston”, 2018.
10. Сoвещание по развитию сферы ИКТ, проведенное Президентом Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёевым 9 января 2018 г. // president.uz
11. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 9 май – Хотира ва кадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. – 2018. – 10 май – Б.1;2.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – 2018 – 29-dekabr.
13. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.

14. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1968.
15. Авесто. Яшт китоби (Ўзбек тилига М. Исҳоқов илмий-изоҳли таржимаси) – Тошкент: Шарқ, 2001.
16. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.Л., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
17. Аъзамхўжаев С. Туркистон муҳторияти. – Тошкент: Маънавият, 2000.
18. Бабаджанов Х.Б. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон иқтисодиётидаги трансформацион жараёнлар (монография). – Тошкент: Алоқачи, 2017.
19. Babadjanov X. Zamonov A. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tarix darslarini tashkil etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
20. Буниётов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1998.
21. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996.
22. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001.
23. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
24. Махкамова Н. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформация. – Ташкент: Алоқачи, 2009.
25. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994.
26. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар даври. – Тошкент: Фан, 1996.
27. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Тошкент: Узбекистан, 2010.
28. Низомул мулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997.
29. Очерки истории развития связи в Узбекистане. – Тошкент: Фан, 1991.
30. Ўзбекистон почтаси: тарих ва тараққиёт. – Тошкент: Маънавият, 2014.
31. Саъдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи (Ўқув кўлланма). – Тошкент: Университет, 2004.
32. Темур тузуклари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1991.
33. Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент: Қомуслар бош тахририяти, 1996.

34. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Фан, 2001.
35. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
36. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2009.
37. Шарофуддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997.
38. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
39. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
40. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000.

Internet manbalari

1. “Xalq so‘zi” gazetasi – www.infoXS.uz
2. “Turkiston” gazetasi – www.turkistonsarkor.uz
3. “Ma’rifat” jurnali – www.ma’rifat-inform.uz
4. “Moziydan sado” jurnali – www.moziydostlink.net
6. www.ZiyoNet.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1 MAVZU. “O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINING PREDMETI. FANNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA MANBALARI.....	5
2 MAVZU. MARKAZIY OSIYO – DUNYO SIVILIZATSIYASINING AJRALMAS QISMI	11
3 MAVZU. O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	19
4 MAVZU. ILK O‘RTA ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY HAYOT	31
5 MAVZU. IX-XII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIY- SIYOSIY VA IQTISODIY HAYOT. O‘RTA OSIYOLIK ALLOMALAR JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI	47
6 MAVZU. O‘RTA OSIYO XALQLARINING MO‘G‘UL BOSQINCHILARIGA QARSHI KURASHI. JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATI.....	57
7 MAVZU. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY- IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOT	69
8 MAVZU. O‘RTA OSIYO HUDUDLARINING XONLIKLARGA BO‘LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI	85
9 MAVZU. O‘ZBEK XONLIKLARNING ROSSIYA IMPERIYASI	107

TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY OZODLIK HARAKATI. JADIDCHILIK.....	
10 MAVZU TURKISTON MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O‘RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLI HARAKAT	124
11 MAVZU. SOVET HOKIMYATINING O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOYIY-SIYOSIY, IQTISODIY TADBIRLARI (XX ASRNING 20-30-YILLARI).....	139
12 MAVZU. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING FASHIZM USTIDAN G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI.	150
13 MAVZU. SOVET HOKIMYATINING O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOYIY-SIYOSIY VA IQTISODIY SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI (1946-1991- YILLAR)	161
14 MAVZU. O‘ZBEKISTON DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH VA FUQAROLIK JAMIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH	172
15 MAVZU. MUSTAQILLIK – YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY TARAQQIYOT. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI	186
GLOSSARIY	208
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	223

N.R.MAXKAMOVA,
X.B.BABADJANOV

O‘ZBEKISTON TARIXI

(O‘quv qo‘llanma).

Toshkent – «Aloqachi» – 2020

Muharrir: Q.Matqurbonov
Tex. muharrir: A.Tog‘ayev
Musavvir: B.Esanov
Musahhiha: G.Tog‘ayeva
Kompyuterda
sahifalovchi: B.Berdimurodov

Nashr.lits. AI №176. 11.06.11.
Bosishga ruxsat etildi: . Bichimi 60x841 /16.
Shartli bosma tabog‘i 15,5. Nashr bosma tabog‘i 15,0.
Adadi 100. Buyurtma № 18.

«Nihol print» Ok da chop etildi.
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.